

Hotam Umurov,  
Go'zal Umurova

# ILMIY TADQIQOT ASOSLARI



M A G I S T R A T U R A

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*HOTAM UMUROV,  
GO'ZAL UMUROVA*

***ILMIY TADQIQOT ASOSLARI***  
*(Universitet filolog magistrleri va ilmga  
qiziquvchilar uchun darslik)*

**Samarqand – 2020**

**Umurov H, Umurova G., Ilmiy tadqiqot asoslari (darslik).**

-Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 196 bet.

Ushbu darslikda o'zlikni anglash uchun ilmiy tadqiqot metodologiyasi va uni egallashning zarurligi, yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan. Ilm barcha ezguliklarning onasi ekanligi asoslanib, uning annotatsiya, tezis, maqola, taqriz, referat, dissertatsiya, monografiya, darslik, o'quv qo'llanma kabi yigirmaga yaqin janrlari o'rganilgan.

Kitob olimlikka bel bog'lagan filologiya yo'nalishidagi magistr va yosh tadqiqotchilarga mo'ljallangan.

Samarqand davlat universiteti Kengashining 2020 yil 28 yanvardagi 6-sonli qaroriga asosan nashr qilishga ruxsat berilgan.

**ISBN – 978-9943-6300-5-5**

© Samarqand davlat universiteti, 2020

**“Ilm-ma’rifat va raqamli  
iqtisodiyotni rivojlantirish”  
yiliga bag’ishlanadi.**

**KIRISH**

Ilmiy iqtidorni shakllantirib, kamolga yetkazish - olimlikka erishishning yo’li juda qiyin, ayni paytda, u inson hayoti va uzgulgiligining kalitidir. Ulug’ mutaffakkir Yusuf Xos Hojib «Qutadg’u bilik» (Qutga, ya’ni baxt-saodatga erishtiruvchi bilim) kitoblarida yozganlaridek, «Bilim kishini yuksaltiradi, unga ulug’lik keltiradi»; «Bilimdon o’z bilimlari tufayli balo-ofatlardan omon qoladi»; «Bilimga erishib dono bo’lganlarning elga ham nafi ko’p tegadi».

Darvoqe, bu haqiqat Allohning Rasuli tomonidan ham ko’p marta buyurilgan: «Insonlarning eng fazilatlisi OLIMlardir. Ular jamiyatda biron narsaga ehtiyoj tug’ilsa, bularni qondirishda foyda keltiradilar, ehtiyoj bo’lmaganda ham ruhingni boyitadilar»; «Yo OLIM bo’l, yo ILM o’rganuvchi, yo TINGLOVCHI, yo ILMNI SEVUVCHI! Heshinchisi bo’lma - MAHV BO’LURSAN!»...

Olim bo’lish taqdirda yozilgan bo’lsa, dastavval, ilmga mehr-u muhabbat, sadoqat, poklik bo’lishi shart. Ana shundagina hissiyot ilmga chanqoqlikni, maftunkorlikni uyg’otadi. Tinimsiz izlanishdan, tabiat sirilarini ochishdangina, faqat birgina shunday holatdan orom va qoniqish tuyg’usini hosil qiladi. Bunga erishish uchun esa, takror aytamiz, har kuni uzluksiz mehnat qilish – zaruratga aylanishi lozim.

Jamiyatimiz va ma’naviyatimiz XXI asrda yuzaga keltirayotgan yangicha qarashlar, g’oyalar, udumlar, talablar, ehtiyojlarning, umumbashariy pedagogik va axborot texnologiyalarining yangiliklarini egallash lozim. Ularning bilimdoniga aylanish shart. Ayni paytda, olimlik iqtidori ilmiy tadqiqotchilik metodologiyasining metodlarini va janrlari mohiyatini, ularni yaratishni to’liq tasavvur etishga undaydi. Chunki har bir janr o’zininggina sir-u sinoatiga, qudratiga, imkoniyatiga, ohangiga ega. Bu sohada muayyan darajada nazariy va amaliy bilimga, ko’nikmaga ega bo’lgandan so’ng, voqelikda, fanda yuz berayotgan hodisalarni ilmiy asosda tahlil qilish va amaliyot, turmush uchun kerakli xulosalar chiqarish qobiliyatini, ijodkorlik iste’dodini rivojlantirish mumkin. Agar Parvardigor bergan tug’ma talant ma’lum foizni tashkil etsa, unga, ko’p ulug’lar aytganidek, yuzga yetganча bo’lgan foiz mehnatni qo’shgandagina haqiqiy olim tug’iladi.

«Mustaqillik – Inson - Ilm» muammosini va ular o'rtasidagi murakkab bog'lanishni idrok qilarkanman, yosh avlodni inson – yaratuvchi, inson – kashfiyotchi qilib tarbiyalamasdan ilgari siljish baxtiston – O'zbekistonni gullab-yashnatish mumkin emasdek tuyuladi. Bu o'z navbatida, XXI asrdagi ta'limda yuz bergan inqilobni va ilmiy tadqiqotning tabiatini muayyan darajada o'rganishga, uning natijalarini Sizga taqdim etishga undadi. Zero, ular Sizga yo'l ko'rsatuvchilik vazifasini o'tar, qanday g'oya(fikr, masala)ni qay tarzda yechish lozimligini, shakl va mazmun mutanosibligini anglatar. Imkoniyatingizni asosli ro'yobga chiqarish yo'llarini o'rganarsiz va bilim imkoniyatlarini o'zligingiz bilan boyitarsiz, kengaytirarsiz.

«Agar mendan sizni nima qiynaydi?» deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman.

*Sh. Mirziyoyev*

Ulug'lik aql va bilim bilandir, nasl-nasab bilan emas.

*Kaykovus*

## ***BIRINCHI FASL***

### ***ILM VA O'ZLIK***



## 1. TA'LIMDAGI INQILOB VA ILMIY TADQIQOTCHILIKNING ZARURLIGI

“Metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish hamda qurish tamoyillari, usullari tizimi, shuningdek mazkur tizim to‘g‘risidagi ta‘limot”dir. “Metod (yunoncha metodos-yo‘l, tadqiqot, kuzatish ma‘lum maqsadga erishish usuli, voqelikni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish usullari va amallari majmui” (Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar, M., 1983, str. 471). U ilmiy bilimga tizimli va yaxlit xususiyat beradi. Demak, metodologiya ilmiy izlanish nazariyasi va amaliyoti haqidagi ta‘limotdir. Shu bilan birga nazariy konsepsiyalar yangilovchi, ilmiy g‘oyalar tizimini shakllantiruvchi va ayni paytda fundamental tadqiqotlarga yo‘l ochib nazariy umumlashmalar qilishga zamin hozirlaydigan yondashuvlar va tamoyillar jarayonidir.

Metodning samaradorlik, aniqlik, izchillik singari xossalari, ob‘ektivlik, zaruriylik kabi o‘ziga xos belgilari mavjud.

Istiqlol davriga kelib metodologiyaning sotsiologik, biografik, psixologik, formal, struktural, lingvistik, germenevtik metodlari yaqqol o‘zligini ko‘rsatdi. Interpretatsiya va germenevtika, ijtimoiy va formal tahlil, ilmiy-ta‘rifiy va naturalistik, qiyosiy-tarixiy, modern, postmodern ilmiy maktablarining yutuq va kamchiliklari chuqur tahlil qilina boshladi, natijada ilmiy tahlillarning usullari yangilanish metodologiya asoslarini yaratishga zamin bo‘ldi, tahlilda analiz va sintezning mujassamlashishi chuqurlashdi.

Ma‘lumki, bugungi hayotimizga kompyuter va Internet axborot tizimi kirib keldi. Distansion ta‘lim texnologiyasi va vositalarini o‘zlashtirish boshlandi. Modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o‘qitishga jadal kirishilyapti. Elektron darsliklar, qo‘llanmalar yaratilayapti. O‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish kengayapti... Barcha yangiliklarni takrorlashga imkon yo‘q, lekin XXI asrga kelib ta‘limda inqilob yuz berganini hamma tan olmoqda. Chunki hayotimizga kirib kelayotgan axborotlar oqimi ummon (okean)dek cheksiz-chegarasizdir; istagan sohangiz bo‘yicha umumjahonda ro‘y bergan, berayotgan eng so‘nggi yutuqlargacha bilib olishingiz mumkin, jahon bilan «tillashish» - oddiy hodisaga aylanmoqda. Ta‘limdagi inqilob an‘anaviy o‘qitishning – talabaga yetarli hajmda muayyan fan bo‘yicha bilim berishning mazmunini kengaytirib yubordi. Bu mazmunni go‘yo alifboni o‘rganish darajasiga tenglashtirib qo‘ydi. Endi hammani alifboga o‘rgatgandek, o‘qishga o‘rgatishni kun tartibiga chiqardi.

O'qish, o'rganish harf (kompyuter) tanigandan boshlab qabrgacha davom etishi, unga doimiy va muntazam intilish tuyg'usi tirik bo'lishi – har bir shaxs hayotining mazmuni ko'rsatkichiga aylandi. Ya'ni qorin uchun non qanchalik zarur bo'lsa, o'qish aql va tuyg'ular tirikligi uchun shunchalik kerakligi; bilimsizlik – noxush va nojoiz ishlarga doya ekanligi isbot talab qilmaydigan hodisaga tenglashdi.

Xo'sh, Prezidentimiz aytganlaridek, bolalarimizga zamonaviy bilim beruvchi o'qituvchilarimiz shunday bilimga, pedagogik texnologiyaga egalarmi? O'qishni, o'qitishning mohiyatini barcha anglab yulganmi?

Yaponlarda «Bolangga baliq yeyishni o'rgatsang, bir kun baliq yeyasan, agar bolangga baliq ushlashni o'rgatsang, umrbod baliq yeyasan» degan qiziq hikmat bor. Ana shu hikmatga qiyosan aytsak, biz o'qituvchilar bolalarimizga, talabalarimizga, xalqimizga shunday bilim beraylikki, bu bilim ularga yo'l-yo'riq ko'rsatsin. O'zini intiltirsin, izlanishiga turtki bersin, axborotlarni to'plashni, tahlil qilishni, keragini ajratib olishni o'rgansin. Bizning maslahatlarimizga amal qilib o'zi fan sirlarini, hayot va jamiyatlar mohiyatini, insoniyat va tafakkur tarixini, yaxshi va yomonni, halol va haromni, ezgulik va yovuzlikni, haqiqat va shaytonlikni kashf qilsin. Ana shundagina uzluksiz ta'limning zarurligini tushunadi, shu orqaligina hayotiga zarur saboqlarni oladi; hayotning va umrning mazmuni qadriga yetadi. Pirovardida, o'zligini taniydi va o'zligini to'la ro'yobga chiqarish imkoniyatini topadi. Endi bu o'zlik – tanlagan sohasida yaratuvchanlik, insoniylik kasb etadi. Ta'limning mazmun-mohiyati ham ana shundadir! XXI asr ta'limidagi inqilobning yaratuvchi, yangi xislati ham ana shu. Ta'limga yarasha jamiyat, jamiyatga yarasha ta'limning voqe bo'lishi ham shundadir. «Kadrlar tayyorlashning sifati, erkin fikrlovchi shaxs-fuqaroni kamol toptirish ertaga sinfxonalar va auditoriyalarda kimlar dars, saboq berishiga bog'liq» (I.Karimov). Bu yangilik sirlarini, yo'llarini barchamiz o'rgansak, amal qilsakkina o'qituvchilik nonimizni poklagan bo'lamiz; uzluksiz ta'limning yaxlitligini ta'minlagan; kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmunini tiriltirgan fidoyilar sanalamiz. Ta'limning jahon andozalari darajasiga tezroq yetamiz, jahoniy murosa-yu madoraga, birodarlikka erishamiz. «Olam – yagonadir yoki butunlay yo'qdir» (Eynshteyn) haqiqatiga yetishamiz. Ha, «Oddiy bilim berishdan ko'ra, o'qib, o'rganib, yangi



**bilimga ega bo'lishning o'zi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi** (Federiko Mayor). Shu sabab, ulug'lar aytishgan: «Bilim misoli bli chashmadur. Uni so'nggi daqiqagacha ich» (Abu Lays as-Samarqandiy)

Ana shu mazmuni voqe qilish «har tomonlama kamol topgan . jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarovo» tarbiyalashni taqozo etadi. Demak, demokratik jamiyatimizning, buyuk mamlakatimizning buguni va ertasi – mutaxassis kadrlarga, ularning salohiyatiga, sifati- (insoniyligi)ga bog'liqdir. Shu sababli «davlat ijtimoiy siyosatida shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi qaror topmoqda. Shaxs va jamiyat hamkorligi bir-birini ro'yobga chiqaruvchi, boyituvchi, komillikka yetaklovchi, ayni paytda, rivojlanish jarayonida bir-biridan tabiiy tarzda yuzaga chiqqan . kamchilik va yetishmovchiliklarni sabr va birodarlik bilan bartaraf etuvchi tuyg' ular: xislatlar, kurashlar hamkorligini (voqe qilmoqda) voqelikka aylantirmoqda. Dehqonchasiga aytganda, insonlarimiz va jamiyatimiz hayotidagi yaxshi-yu yomonlikka har bir shaxs – mutaxassis kadi sababkordir, javobgardir.

Shu sababli ham kadrlar tayyorlash tizimi va mazmuni mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir; har yili yalpi milliy mahsulotning 8-10% ga to'g' ri keladigan budjet mablag'larining milliy dastur islohotlariga bag'ishlanayotganligi bunga yaqqol dalildir. Yetti yildan buyon davom etayotgan hayotiy jarayon ko'plab muammolar (jumladan, o'qitishning uzluksizligini, uzluksiz ta'limning tegishli turlari uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, davlat grantlari yoki pullik oliy ta'lim, ta'limni boshqarishning davlat-jamiyat tizimi va shu kabilar)ni hal etdi va shu asosda tug'ilayotgan masalalarni yechish yo'llarini ko'rsatdi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, eng muhim muammolardan biriga – universitetda yetishtirilayotgan bakalavr, magistr mutaxassislarining ilmiy tadqiqotchilik xislati darajasi ahvoliga bir nazar tashlaylik.

Universitetlarda o'qitilayotgan bakalavr-talabalarda ilmga, olimlikka xos tadqiqotchilik, ijodkorlik ko'nikmalari bo'lishi kerakmi yoki bu ko'nikmalarni faqat magistr talabalar egallashi joizmi?

Agar bugungi universitetlarning ijtimoiy rivojlanishining determinanti texnika, texnologiya va fanga bog'liq bo'lsa, unda hamma talabalar ixtisosliklariga oid fanlarning va axborot texnologiyasining mohiyatini, shu soha erishgan jahoniy ilmiy yutuqlarni o'rgangan bo'lishi va bu bilim, ko'nikma, tajribalarini hayotga tatbiq qila olishi

shart, tezkorlik bilan yangilanib borayotgan muhit sharoitiga va talabiga ijodkorlik ko'rsata olishi, yangi muammolarni tadqiq va tahlil qilish, uni oqilona yecha bilishlar lozim.

To'g'ri ilgari zamonda, ayniqsa, regionlardagi deyarli barcha universitetlar (pedinstitutlar) o'rta maktab uchun o'qituvchilar, sanoat va qishloq xo'jaligi uchun diplomli «o'rtamiyonachilar» tayyorlash bilan shug'ullanar, «o'rtacha» bilim egasi qilib yetishtirishardi. XXI asrdagi demokratik o'zgarishlar, rivojlangan mamlakatlarning saboqlari, ta'limdagi inqilob bu sohaga ham o'zgartirishlar kiritdi. Endi tanlangan barcha bilimlarni rivojlantiruvchi tadqiqotchi bo'lish talab qilinadi. Ijodkor bo'lmagan, o'z sohasining ilmi bilan muntazam shug'ullanmayotgan, shunday iqtidorga ega bo'lmagan oliy ma'lumotli shaxs murabbiylik, o'qitish, ustozlik qilishi mumkin emas; uning davlat va jamiyat yuklagan vazifani halollik bilan bajarayapman, degan tushunchaga ega bo'lishi zarurdir.

**Darvoqe, achchiq haqiqatni aytishga to'g'ri keladi: bugun ham biz talabani qorin talabini qondiryapmiz, lekin uni mohiyatga tushishni ta'min qilolmayapmiz. Shu sabab, ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmasini hosil qilish, unga o'rgatish, zaruriy natijalarga erishishni amalda voqe qilishga talabalarni o'rgatish universitetning mas'uliyati, ulug'ligining ko'rsatkichi bo'lishi ma'quldir.**

Universitetlarda tadqiqotchi-ijodkor bo'lmagan o'qituvchilardan, turbiyachilardan, rahbarlardan voz kechishning payti keldi. Endi kafedralar bajarayotgan ilmiy ishlar hayotiy asosga, jamiyatimiz taraqqiyoti talabiga mos bo'lishi va bu ishlarni bajarishga kafedraga berkitilgan barcha talabalar(imkoni bo'lsa 1-kursning ikkinchi yarmidan) dastkor bo'lishi bugunning talabidir; talabalarni ilmiy ishga o'rgatishning real va zarur imkoniyatidir. Ayni paytda, professor-o'qituvchi talaba hamkorligida birvarakayiga internet, modulli tizim, axborot texnologiyasining barcha ko'rinishlaridan foydalanish, kerakli ilmiy va faktik axborotlarni to'plash, ularni tahlil qilish ko'nikmalarini o'rganishning va o'rgatishning jonli, quvonchli ko'rinishidir.

Bakalavr mutaxassislarining bunday tayyorgarligidan magistratura ham yutadi. Ilmiy ish yuritish ko'nikmasini egallagan magistr mustaqil izlanishga tez kirishadi, tanlangan mavzuni har jihatdan puxta ishlaydi, uning natijasi amaliyotini ham sinab ko'rishga ulguradi.

## 2. KOMPYUTER TEXNOLOGIYASINI EGALLASH – HAYOTIY VAZIFA

Iqtisod va axborotning, qiyinchiliklar va kurashning globallasuvi xalqaro ta'lim tizimlari (internet, masofali ta'lim, tempus, ta' sis va h.k)ning kirib kelishi insonni umr bo'yi ma'rifatga undovchi va boyituvchi uzluksiz ta'limga undamoqda. Chunki inson jahoniy hududiy, kundalik muammolar bilan to'qnashgan sayin uni yengish yengayotganda insoniyatini yo'qotmaslik uchun bilim zaruratga aylanmoqda.

Darvoqe, «bir qator masalalar ko'lamida, jumladan, atrof-muhit, telekommunikatsiya, sog' liqni saqlash, energetika, maorif, ilm-fan sohalaridagi siyosatda hamda intellektual mulkni muhofaza qilish borasidagi muammolarni milliy nuqtayi nazardan talqin etish hozirgi kun mantiqiga to'g' ri kelmaydi» (F. Mayor, yuqoridagi asar, 76-bet).

Bunday bilimni kompyutersiz, uni chuqur egallashsiz amalga oshirib bo'lmazligi haqiqatdir. Darhaqiqat, dunyo katta axborot maydoniga aylangan. Jumladan, bugun internetning «yuzaki» qismida hamma foydalanishi mumkin bo'lgan 2,5 milliard hujjatlar bor, ularning soni o'rtacha har kuni 7,3 milliard sahifa hajmida ortib bormoqda («Vissheye obrazovaniye segodnya», 2003, № 3, 49-bet).

Ko'rinadiki, «**Kim axborotga ega bo'lsa, u hamma narsaga ega**» bo'ladi (Bill Geys). Eng so'nggi kashfiyotlar bilan tanishgan inson jahonda kashf etilgan yangiliklarni o'z mamlakatida qaytadan kashf etishiga hojat qolmaydi; balki jahoniy bilimga tayangan, taqqoslagan holda muammolarning yangi yechimini izlashga, kashfining globallasuvini ta'minlashga erishadi.

Bu jahoniy birodarlikni, hamkorlikni, rivojlanishni yuzaga chiqaraveradi.

«Ta'lim vazirligi ma'lumotlariga binoan, Yaponiya oliy o'quv yurtlari, o'rt va boshlang'ich maktablarning mikrokompyuter texnikasi bilan jihozlanganligi 80- yillarning oxiriga kelib 86 foiz, 23 foiz va 76 foizni tashkil etgan»ligi uchun ham Yaponiya XXI asrda jahondagi yetakchi mamlakatlarning biriga aylanganiki, bu biz uchun ibratdir.

Shu sabab barcha ta'lim tizimlarini kompyuter bilan jihozlashimiz, ulardan foydalanishni hammaga o'rgatishimiz lozim. Eng yaqin yillarda O'zbekistonning hamma hududlari ochiq ta'limning axborot ta'lim muhiti bilan ulanishi lozim. Ana shu muhit tadqiqotlar natijalarini, yangi g' oyalar, usullar, tajribalarning eng kichik zarralarigacha bir joyga

to'playdi, keng ko'lamli ma'lumotlar bankini har kunlik kashfiyotlar bilan boyitadi. Ayni paytda, istagan odamga, fan va texnologiyalar markaziga, ishlab chiqarish korxonalariga, ta'lim tizimlariga yetkazadi, talqaro va o'zaro hamkorlikni osongina yo'lga qo'yadi, dunyo taraqqiyotiga xos va mos qadam qo'yishga o'rgatadi. Xullas, kompyuterni o'rganishning ahamiyati alifboni, o'qishni o'rganishdan kam emas. Shunday ekan, kompyuter savodxonligini oqallash, uning texnologiyalarini chuqur o'rganish kadrlar uchun, talqarot uchun hayotiy va jahoniy vazifadir. Ommaviy tarzda oliy ta'lim egasi bo'lish davri – XXI asrning asosiy mazmunidir.

Biz qanchalik tez bu sohada amaliyotga kirishsak, millatimiz tez rivojlanuvchi, o'zgaruvchi dunyoga shunchalik o'rganadi va jahonning ilg'or mamlakatiga aylanadi, o'zligini jahonga tanita oladi hamda uni o'ziga to'yobga chiqarib, jahonni go'zallikka burkaydi.

Albatta, Internet orqali jahonga tarqalayotgan axborotlarning bizning milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan, ma'naviyatimiz to'rtligiga putur yetkazadigan xillari (erotika, seks, zo'ravonlik, mafiva adolati...) judayam ko'p. Zararli va «zaharli» bu axborotlardan saqlanishning birdan bir yo'li – ularga insoniylik asosida yondashishdir. Insoniylikning ezgu xislatlari barq urgan qalb, o'zligini anglagan inson barom-barishdan halolni airata biladi. «...Ulug' xulq sohibi» (Our'on) ekanini anglaydi. Buning uchun ta'lim insonni ulug' lash, e'zozlashni hamma fanlarning mohivatiga singdirishi va fanlarni o'reatishdan ham bosh maqsad komil insonlarni yetishtirish ekaniga asosiy diqqatini qaratishi lozim.

Ta'limning bosh vazifasi–demokratyaning o'zagi bo'lgan qadriyatlar va tamoyillarni o'rgatish asosida birdamlikni, bitrodarlikni, tinchlikni qadrlashga; insonlarning bir-birini tushunishga, anglashga yetaklashi; yovuzlikka qarshi hamjihat bo'lib kurashga faol ishtirok etishga; bebaho ona Yerimizni asrashga o'rgatishdir.

### 3. ILM – O'ZLIKNI ANGLASH VA ANGLATISHGA YETAKLOVCHI NUR

Har qanday ta'lim beruvchi dargoh iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy, texnologik va boshqa har qanday yetishmovchiliklarga duch kelsa-da, u jamiyatning bugungi va ertasini yaratayotganini unutmashligi, faqat komil jamiyat va insonning manfaatini o'ylab ish qilishi zarur. Chunki ta'lim



dargohining ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ma'rifiy yetukligi uning sifat belgisi darajasining ko'rsatgichidir. Shu sabab, ba'zi ta'lim maskanlaridagi poraxo'rlikni, o'z o'quvchisini, talabasini pora bilan «tarbiyalayotganini» hech kechirib bo'lmaydi. Bunday o'qituvchi, tarbiyachi, rahbardan tarbiyalanuvchi razolatni o'rganadi, jamiyat va insonni ongli zaharlashni bilim vositasiga aylantiradi. Bunday razolat egalarini teshik kemaga qiyoslash mumkin, ular o'zlari cho'kkanlariga qaramay, kema-dagilarning barchasini ham cho'ktiradilar. Bilim dargohini ham, undagi sof olim-u fuqarolarni ham, ilm o'rganishni ham, unga bo'lgan ishtiyoq va ixlosni ham, insoniy qadr-qimmatni ham o'ldiradilar. Jamiyatimiz tanasida ba'zi-ba'zida ochiq ko'rinayotgan bu illatning urchishiga ta'limdagilar ham sababkordirlar, mas'uldirlar. Chunki bizlar ularning qalbiga «boylik molning ko'pligida emas, ko'ngilning to'qligida» degan bobolarimizning aqidasini singdira olmaganmiz.

Ta'lim dargohi – poklik, ilm va go'zallik oshiyonidir. Shu mehriyoti sifatleri bilan yosh-u keksani o'ziga tortadigan musaffo tarbiyagohdir. Shunday bo'lgach, ta'limning eng manfaatli, eng asosiy vazifalaridan biri – professor-o'qituvchilarni, o'quvchi va talabalarni turli illat va «o'simta»larga qarshi kurashga o'rgatish va poklikka – buyuklikka, insoniylikka, ilmga, adolatga, komillikka yetaklovchi nur ekanini har bir qalbga singdirishdir, har bir qalbn o'zligini anglash uchun uyg'otishdir. Ha, o'zlik, avvalambor, Allohni anglash va tanishdir. So'ngra qalbning salomatligi va pokligidir. Unda, so'ng bor ijodiy kuch-quvvatingni, sa'yi harakatingni o'zgalari salomatligi va pokligi uchun sarflash; ularni ham Allohni tanishga yetaklash. Chunki, yakkalik faqatgina Allohga tegishlidir. O'zlik esa el-u yurt go'zalligi uchun, tiriklik va tirikchilik uchun, Istiqlol bunyodi uchun tinimsiz mehnat-u mashaqqat chekishda; umrni tutab emas, yonib, nur taratib, imonni bus-butun qilib kechirishda! Demak, o'zlik mohiyat, insoniylikning chin tarozisi, umrni sarhisob qiluvchi bosh sifat, ta'lim esa jamiyat egalarini ana shu haqiqatga yetaklovchi asosiy omildir. Shu sabab, ta'lim va ijod to'xtagan joyda, umr ado bo'lgan paytda o'zlik ham o'ladi. Agar ta'limda to'xtamagan bo'lsang, yaratganingni, kashfingni qoldirgan bo'lsang, o'shalarning qimmatiga, aslliligiga, halolligiga qarab yana yashashda, nur sochishda davom etasan!.. Teskari umr kechirsang ma'naviy razolat orttirasan. Razolat seni xiyonatga botiradi. Xiyonat tanazzulga olib boradi, o'zligingni, dunyoga kelganligingni – boy berasan, el-u yurt uchun,



farzandlaring, qarindosh-qondoshlaring uchun ham bitta xaschalik, bir zum eagan shabbodachalik ahamiyating bo'lmaydi... Hamma hayron: nega ketding, nega ketding?!

## Hikoyat

Abu Tolib hazratlari g'oyibdan Rasulloh janoblariga shunday savol berdilar;

Jamiyatdagi qusurlar, kishilar qalbidagi nopoklik qanday paydo bo'lgan? Farvardigorimiz barchamizni bir pokiza axloqlardan bahramand etganlarku?!

G'oyibdan ancha vaqt javob bo'lmadi.

Oradan bir qancha muddat o'tganidan so'ng, kunlarining birida hazratning huzuriga kishi kelib, o'g'lining yurish-turishidan shikoyat qilib unga yaxshi tarbiya berolmaganidan, el-yurt oldida yuzi shuvut bo'lganidan nola qilibdi.

- Afv etgaylar, - dedilar Abu Tolib, - kim bo'lursiz, qayerliksiz?

- Meni tanimaganingiz tabiiy...

Savollaringizga javob bermoqdin avval bilmog'im joiz bo'lgan narsalar bor.

- Bajonidil ... - rozi bo'libdi kishi.

- Yoshligingizdagi kasbi-koringiz, hozirgi yumushingiz xususida so'zlab beringiz.

Kishi bir zum sukut saqladi, so'ng so'z boshladi:

- Hazrat, yoshligim besaranjom o'tdi. Otamning ilm ol, deya koyinishlariga aloqibot inobat qilmadim. Yoshim ulg'ayib, avval hammollik qildim. Uylanib oila qurishga quvvatim yetmay, nopoklik yo'lga kirdim...Men kirmagan ko'chaning o'zi qolmadi...

- Siz ekan daraxtingizning mevasidan bahramand bo'lishga majbursiz. Uning achchiqligi ham, shirinligi ham mehnatingiz, mehr-oqibatidandur.

- O'g'lingiz necha yoshda? - deb so'radilar Abu Tolib so'z so'ngida.

- Yigirmaning qoraladi.

- Ani to'g'ri yo'lga solmoqlikka vaqt bor ekan. Ani mening huzurimga yuboring.

Xulosa: EY O'G'IL, farzandingni tarbiyalashdan avval o'zingni tarbiyala. Tarbiya ko'rgan oilada tarbiyali, fazilatli, bilimli kishi balog'atga yetgay. Shunday naql bor: o'g'rining bolasi to'g'ri bo'lmas, agar ul ota farzandi bo'lsa...

G'oyibdan ovoz keldi.

- Huzuringizga borgan kishi men edim... Odamlarning tarbiyati va tarbiyasi uchun senga vakolat beraman...

O'zidan boshqani o'ylamaydiganlar ilmda yutuqni egallamagan, bir av va turli vositalar bilan nomigagina o'qigan o'rtamiyonachilardan ilg' iladilar. Shu sabab ta'lim dargohlarida bularga qarshi kurashuvchi

mexanizm yaratilmasa, bilimning sifati haqida gapirish, uni takomillashtirish mumkin bo'lmaydi. Natijada esa «o'rtamiyona» fikrlovchilar, umr mazmunini maishat va boqibeg'amlikka tenglashtiruvchilar, insoniylik va o'zlik mas'uliyatini to'liq anglamaydiganlar armiyasi yuzaga keladi. Ular taraqqiyotni, jamiyat pokligini o'ylamaydilar; xalqaro birodarlikni va birdamlikni yuzaga keltirishda sa'yi harakat ko'rsatmaydilar. Ko'proq mafiyabozlikka, ekstremizmga, terrorizmga, jaholatga moyillik ko'rsatadilar, fuqaroning ERTAGA, ADOLATGA bo'lgan ishonchini yo'qotadilar.

Holbuki, ta'lim vositasida o'zligini to'liq anglagan demokratiya uchun, tinchlik va erkinlik uchun, jaholat va ekstremizmga qarshi kurash uchun butun salohiyatini sarflaydi, insoniy hurmat va e'zozni, komillikni yoqlaydi va uning amaliyotini voqelikka aylantiradi. Istiqloq mazmunini insoniylashtiradi, bu ishda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlaydigan sharoitni yaratadi. Ta'lim ana shunday aqidani hayoti mazmuniga aylantirgan bilimdon mutaxassislarni va fuqaro sifatida o'z vazifalarini to'laqonli bajarishga mas'uliyatli insonlarni tayyorlash vazifasini o'tashi lozim. «Bunday odamlar bilimga, ayniqsa, ilmiy va texnik bilimlarga ega bo'lib, tanqidiy mulohaza yurita oladilar va biron-bir ishni qilganlarida bu qadamlari o'zlari va boshqalar uchun qanday natija olib kelishini anglab yetadilar» (Federiko Mayor, «Kelajak xotirasi», T., 1966, 160-bet). «Hayotning haqiqiy ma'nosi va uning oliy qadriyati baribir jamiyat farovonligi yo'lidagi faoliyatdan iborat» (К.Висевская-Пашковская) ligini to'liq tushunadilar.

Ana shundagina dasturda aniq maqsad qilib qo'yilgan vazifa bajariladi: O'zbekiston Respublikasi jamiyatning ma'naviy yangilanishiga erishadi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantiradi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan, demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyatini quradi, har tomonlama kamol topgan jamiyatda turmushga moslashgan, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni yetishtiradi. Buyukligini voqe qiladi. Bunga biz aminmiz.

Prezidentimiz aytganlaridek, «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat – ma'rifatli insonning ikki qanotidir.

«Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy o'zlanishning ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy o'zlanish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz».

Buyuklikka da'vogar bo'lish uchun bu nasihatlarni bajarmoq lozim, ularni ta'lim orqali hayotga yoymoq zarur. Ana shundagina tom ma'nodagi ma'lumotlilar – chuqur bilim, izchil fikrlash, toza tuyg'ularga ega komul insonlar mamlakati yuzaga chiqadi.

Ana shu orzularning amalga oshuvi yo'lida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan boshlangan O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy odatotlar judal sur'atlar bilan oqilona rivojlana boshladi-yu Hamma odialarda zamonaviy malakali kadrlar tayyorlash sifati tubdan yaxshilana boshladi. Universitet va uning filiallarida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalarini ishlab chiqarishga keng joriy etish, innovatsion va yangicha fikrlashga yo'naltiradigan yangi o'qitish texnologiyalari, talabalarning mustaqil o'qishlarini ta'minlovchi mexanizmlarga keng yo'l ochildi.

Bu holatlarning barchasi ta'limning sifati kun tartibiga chiqardi va uni hayotimiz mazmuniga aylantirdi.

Aytilgan mulohazalarni natijalasak, kun tartibidagi quyidagi odatotlarni alohida ta'kidlash lozim bo'ladi:

1. Ta'lim va tarbiya uyg'unlikda «voqelik» yaratadi, ajratib harakatga solinsa, o'z navbatida, «voqelik»ni tashvishga, ortiqcha bema'nilikka soladi. Demak, yuzlab (balki minglab) ta'lim va tarbiya bilan shug'ullanuvchi rasmiy va norasmiy tashkilotlar mehnatini bosh masala – Istiqlol g'oyasi bilan «oziqlantirish», ruhlantirish, markazlashtirish va buning yonib turuvchi natijasini yoymoq lozim. «Har kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» degan oqillik prinsipi hukmronlik qilishi zarur.

2. Mamlakatimiz zaminidagi barcha insonlar mustaqil fikr yuritishga o'rganishlari uchun ham kompyuter savodxonligi mustaqil mashqlar orqali egallanmog'i va ko'p o'qimoq talab otladi. Prezidentimiz ko'p ta'kid etganlaridek, butun gap fikrlashda. Haqiqatni shunchaki o'zgalardan eshitmoqdan ko'ra, uni har bir shaxs o'qib, izlab, fikrlab topishga o'rganish (ta'lim)ni va komul inson g'oyasini har birimizda shakllantirib, unga namunali amaliyot-(tarbiya)ni o'zaro uyg'unligiga erishish – burch va mas'uliyat, asosiy vazifadir.

3. Ta'lim va tarbiyaning bosh diqqati faqatgina yoshlarga qaratilsa, uning samarasi kutilgandek bo'lmasligi ayon. Shu sababli

mamlakatimizning butun aholisi (yosh-u qarisi)ni yoppasiga o'qitish va tarbiyalash XXI asrning, Istiqlolning, Buyuklikning da'vatiga javobdir. Ana shundagina tarbiya ham, ta'lim ham insoniylashadi, daryodek oqan va yaratadi, komillik yo'lidagi intilishga rivojlanishni ato etadi, aqlar va qalblar talab darajasida rasolanadi va ezgulashadi.

4. Ochiq aytmoq lozim: «... tuz qopiga tushgan narsa tuzga aylanadi, ifloslikka tushgan iflos bo'ladi, zero, nopok va paliddan nopok va palid tug' iladi, safodan safo hosil bo'ladi. Sendan tug' ilgan narsa so' bo'lishi uchun avval o'zingni pok etishing kerak».<sup>1</sup> Bu haqiqatga amal qilmoq har bir professor va o'qituvchining, bakalavr va magistrning, tadqiqotchi va doktorantning, rahbar va xizmatchining vazifasi, burchi, diyonati bo'lishi lozim. Ana shundagina oliy dargohdan hikmatlar egasi, xayrli ishlar ijodkori, bilimdon va bu ilmiga amal qiluvchi mutaxassis, haqiqiy Inson yetishib chiqadi.

«Zero, kimki hamisha odamlarga farog'at tilasa va odamlar uchun farog'at keltirsa, o'sha saxovatli qalb egasidir. Bunday odam hech kimdan xizmatini darig' tutmaydi, tili, qo'li, moli bilan o'zgalat yordamiga shoshiladi. Hamma vaqt odamlarni qiynashni odat qilgan odamlarga azob-u zulmni ravo ko'ruvchi, tili, qo'li bilan ozo beruvchilar qalbi nuqsonli odamlardir<sup>1</sup>». Oliy ta'limning bosh vazifasi esa ana shunday nuqsonli odamlarning qalbini ezgulik ila boyitib, komil insonga aylantirmoqdir.

5. Biz ataylab ilmga, uni o'rganishning zaruriyligi va davomiyligiga urg' u bermoqdamiz. Buning asosiy sababi shundaki, ilm orqali tarbiya ko'rganlik – bir umr (toshga yozgan)ga tatiydi, ilmsiz tarbiya ko'rganlik esa ma'lum bir muddat (qumga yozgan)ga asqatadi. Ilm vositasidagi tarbiya e'tiqod, iymonning butunligini ta'min etadi, ko'pning baxti – saodati yo'lida mo'jizalar yaratishga ongli xizmat etadi, doimo Haqni va haqiqatni yoqlaydi. Shuning uchun payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalom alohida ta'kidlaganlar: «Ilm sahroda do'st, hayot chorrahalarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg' uli onlarda madadkor, odamlar orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir».

Shunchaki tarbiya ma'naviy beburdlikka, g'oyaviy og' machilikka, «yog'liq» qagina o'chlikka, mafiyabozlikka, ekstremizmga, giyohvandlikka, buzuqchilikka va hokazo illatlarga osongina kirib ketish

<sup>1</sup> Азизиддин Насафий. Зубдат ул ҳақойик – ҳақиқатлар каймоғи, Т., «Камалак», 54-бет.

<sup>1</sup> Азизиддин Насафий. Зубдат ул ҳақойик – ҳақиқатлар каймоғи, Т., «Камалак», 55-бет.



imkoniyatini saqlab qoladi. Beparvolik, anqovlik, qaramlik, dangasalik, shouchuzlik, subutsizlik, yolg'onchilik, aldamchilik, sun'iylik, tomoshabinlik, yuzakichilik kabi gunohlarning urchishiga asos ham bo'lmadi. Ko'rinadiki, ilmga asoslanmagan bunday tarbiya haqiqiy tarbiya emas, balki ko'r-ko'rona, o'zligini anglashga yetarli va to'liq imkoniyat yaratmaydigan tarbiyadir. Chunki komil tarbiya sustlik bilan, faqat ko'rganlik yoki eshitganlik vositasidagina qo'lga kiritilmaydi, balki ayrat orqali, butun borlig'ingni ilmni o'rganishga sarflash tufayli, o'zining kashfig'ila izlab topiladi, toblanadi, saralanadi, anglangan va topolgan aylangan ishonchga to'liq bo'ladi, tobora sayqal topadi – tamolga yetadi. Halol-u haromni, yaxshi-yu yomonni, ezgulig-u yomonlikni asosli ajrata biladi; Bularning birinchilarini yoqlab, ikkinchilaridan hazar qiladi. Ezgulikka baxshida Insoniylik uning amal va tamol toshiga aylanadi. Demak, ilm bilan berilgan tarbiya odamni saloqning vakiliga aylantirsa, ilmsiz berilgan tarbiya odamni olomonning ustalig'iga aylantirishi, shubhasizdir.

6. Hadislarimizdan birida hayotiy haqiqat shunday ta'kid qilinadi: «Insonlar ikki qismdan iboratdir. Biri – olim, ikkinchisi o'rganuvchidir, bo' ikki qismdan tashqarilar hech kimdir. Bundaylarda xayr yo'qdir». Demak, har bir shaxs o'z sohasining bilimdoni bo'lishi uchun, hayotda olomo ezgulik yaratish va unga amal qilish uchun ilmni o'rganishga, egallashga, uni boyitishga umrbod harakat qilmog'i farzdir. Ha, «Har bir odam uchun bir yo'l bor. Jannat yo'li esa ilm bilandir» (Hadis).

#### 4.1. ILMGA KIRISH YO'LI

**Niyat.** Xalqimiz “Yaxshi niyat – yarim davlat”, “Niyating – yo'ldoshing”, “Niyat qilgan yetar murodga”, “Bugungi niyat – ertangi haqiqat”, - deydi. O'ylab ko'rsangiz, bu o'lmas saboqlarda umrning mazmuni, hayotning mohiyati jamlangan.

Shu tufayli ham Muhammad payg'ambar (s.a.v.) deganlar: “Inommal a'molu binniyati”, ya'ni “Amallarning ajr-u savobi niyatga qarab bo'ladi”.

Shunday ekan, Siz dastavval niyatingizning katta va yaxshi bo'lishini orzulang. Uning mohiyati ilm egallash orqali o'zligingizni (O'zini tanigan Allohni taniydi) anglashga qaratilishi lozim. Ha, o'zlik, avvalambor, Allohni anglash va tanishdir. So'ngra qalbning salomatligi va pokligidir. Undan so'ng bor ijodiy kuch-quvvatingni, sa'y-harakatingni o'zgalar salomatligi va pokligi uchun sarflash; ularni ham



Allohni tanishga yetaklash. Chunki, yakkalik faqatgina Allohni tegishlidir. O'zlik esa el-u yurt go'zalligi uchun, tiriklik va tirikchilik uchun, Istiqloq bunyodi uchun tinimsiz mehnat-u mashaqqat chekishda; umrni tutab emas, yonib, nur taratib, imonni bus-butun qilib kechirishda! Demak, o'zlik mohiyat, insoniylikning chin tarozisi umrni sarhisob qiluvchi bosh sifat, ta'lim esa jamiyat egalarini ana shu haqiqatga yetaklovchi asosiy omildir. Shu sabab, ta'lim va ijod to'xtagan joyda, umr ado bo'lgan paytda o'zlik ham o'ladi. Agar ta'lim to'xtamagan bo'lsang, yaratganingni, kashfingni qoldirgan bo'lsang, o'shalarning qimmatiga, aslligiga, haloliligiga qarab yana yashashda, nu sochishda davom etasan!.. Teskari umr kechirsang, ma'naviy razolat ortirasan. Razolat seni xiyonatga botiradi. Xiyonat tanazzulga olib boradi, o'zligingni, dunyoga kelganligingni boy berasan, el-yurt uchun farzandlaring, qarindosh-qondoshlaring uchun ham bitta xaschalik, bitta zum esgan shabbodachalik ahamiyating bo'lmaydi... Hamma hayron nega kelding, nega ketding?!

Ta'lim dargohi – poklik, ilm va go'zallik oshiyonidir. Shu mehriyati sifatleri bilan yosh-u keksani o'ziga tortadigan musaffo tarbiyagohdir. Shunday bo'lgach, ta'limning eng manfaatli, eng asosiy vazifalaridan biri – professor-o'qituvchilarni, o'quvchi va talabalarni turli illat va «o'simta»larga qarshi kurashga o'rgatish va poklikkina – buyuklikka, insoniylikka, ilmga, adolatga, komillikka yetaklovchi nur ekanini har bir qalbga singdirishdir, har bir qalbn o'zligini anglash uchun uyg'otishdir.

Shuning uchun ham niyatni boshidan to'g'ri tanlang, o'shand ta'magirlik illatining yomon oqibatlaridan omon bo'lasiz, kamolotga erishib, xalqimizning ardoqli farzandiga, kerakli homiysiga aylanasiz.

Yana xalqimiz "Bir orzudan o'n orzu bolalaydi, orzuning chegaras bo'lmaydi. Ko'ngilning xohishiga berilib, har narsani ketidan ketaverish – yaxshi emas", - deydi. Demak, niyat aniq bo'lishi shart. Uning asosiga qo'yilgan maqsad, ahd qanchalik aniq bo'lsa, uning ro'yobga chiqishi ham shunchalik oson kechadi. Demak, maqsad va yana maqsadga e'tibor zarur, uni qalbdagi istak va orzuga zarblab ilgarilash – tanlagan kasbning sir-asrorlarini egallashga qat'iyat bilan intilish zaruratga aylanishi lozim bo'ladi.

**Maqsad va xohish.** Katta yoki kichik muvaffaqiyatga erishishda maqsad yo'lchi yulduzdir. Yo'lchi yulduzni topsangiz, orzular amalga osha boshlaydi. Orzu-istaklar reallashuvi uchun uni aniq vazifa va harakatlarga aylantirish (Darslarga to'liq qatnashish, ularni mustaqil

talash orqali yanada jonlantirish, ilmiy-ijodiy va sport to'garaklariga qo'shib bo'lish orqali muhokama, mulohazalarda qatnashish, munozaralarda ishtirok etish...) va shu asosda kundalik, haftalik, oylik, yillik rejalarini aniqlash, vaqti-soatini tayin etish lozim bo'ladi. Komil inson – baxtli inson bo'lishdek bosh maqsadni mezon qilib olishi lozim.

Hunday tarzda bilimdon bo'lib baxtga erishishdek aniq maqsadni belgilagach, uni amalga oshishi uchun barcha quvvatni, ichki kuchlar – (ta'lim, ehtiros, iroda...)ni, Istiqlol mazmunini o'ziga singdirgan iymon – topyoni ishga solish kerak. Shunday qilish lozimki, sa'y-harakatlaringizning barchasi Sizni oldinga – marrani egallashga yetaklasin. Orqaga qaytishingizga, xohish-istaklaringizni sal bo'lsa-da yomon tomonga o'zgarishiga yoki so'nishiga imkon qoldirmasin. Faqat maqsadga erishishning kuchi – qalbning qudratli bo'lishini ta'minlasin, undagi hokim kuchga aylansinki, uni hech narsa yemira olmasin. Ana shundaygina kichik-kichik g'alabalar qo'lga kira boshlaydi va ular o'sib, boyib, mustahkamlanib boradi va alal-oqibat maqsadning g'alabasini ta'minlaydi.

Napoleon Xill shunday voqeani eslatadi: “Bir necha yuz yillar davri ulug' jangchi yashagan ekan. U bir necha kemalarda dushmanlar turgan yerga suzib kelibdi. Uning qaramog'idagi qo'shin barcha aslahayu qurollari bilan quruqlikka tushgach, ulug' jangchi suzib kelgan kemalarni batamom yoqib yuborishni buyuribdi. Birinchi jang oldidan qo'shinga murojaat qilib, shunday so'zlarni aytibdi: “Siz ko'rdingiz, to'zning kemalarimiz tutunga aylandi. Demak, biz bu qirg' oqda g'alaba qilmasak, tiriklay qaytib keta olmaymiz. Bizda faqat bitta yo'l bor – g'alaba yoki o'lim!”

Ular g'alaba qildilar”<sup>2</sup>.

Demak, kimki g'alaba qilishni istasa, orqaga chekinadigan yo'lni yo'qotishi, ya'ni orqaga olib ketishi mumkin bo'lgan “kemalarini” yoqib yuborishi kerak. Faqatgina g'alabani ko'zlashi, hamma xohish-istagini slanga yo'naltirishi zarur.

Darhaqiqat, “Siz ilmga bor-yo'g'ingizni bermaganingizcha, u sizga biror narsa bermaydi” (Abu Homid al-G'azzoliy).

Hasan Basriy aytganlaridek, “Amal va so'z niyat bilan durust bo'ladi”. Shunday saboqlardan so'ng xulosa qilsak bo'ladi: maqsadga erishish uchun chuqur anglagan tarzda katta mehnatga bel bog'lash lozim bo'lar ekan. Bu mehnat xohish-istaklarimizga, tuyg'u va hislarimizga zarblanib, harakatlantiruvchi va ilgariga yetaklovchi bosh kuchga

<sup>2</sup> Наполеон Хилл. Думаи и богатей. – Минск: “Попурри”, 2012. – С. 35.

aylanishi va u g'alabaga olib kelishi talab qilinarkan. G'alabani har bir shaxs qo'lga kiritishi mumkinligiga hech kimda shubha bo'lmasligi balki, unga qodirman degan ishonch qalbda hukmron kuchga, e'tiqodga aylanishi shart ekan.

Ayni paytda, oliyjanob maqsadga uzluksiz intilish ilhomni tugatib beradi, maqsadga yetish yo'lining huzurbaxsh va totli onlari bilan sirlashtiradi.

**Ilhom.** U kelganda san'atkorning ma'naviy va jismoniy quvvati barcha nuqtaga yig'iladi, u katta qudrat bilan ishga kirishadi. Bu paytda har bir borliqni tamoman unutadi, go'yo inon-ixtiyoriga bo'ysunmaydigan zavq-u shavqqa to'ladi, qattiq hayajonga tushadi. Faqat "g'oyibdan kelgan", to'g'rirog'i, ichdan to'liq his qilib sezilgan fikr, holat tasvirini yozib ulgurish bilan band bo'ladi.

Demak, obrazli qilib aytak, "Ilhom – parovozning o'txonasi" (L.Leonov), shu parovozni harakatga keltiruvchi kuchdir. U yozuvchi yoki har bir shaxsning qalbiga tushgan ma'naviy olovdirki, uning yonishi (tafti) qilinayotgan ishning oson va zavqqa to'lib, lazzatidan huzurlanishini bajarilishini ta'minlaydi. Buning uchun bitta shart bor: qilinishi niyat qilingan maqsad butun borligicha o'rganilishi, chuqur tahlil qilinishi, mag'zi chaqilishi lozim. Ana shundagina – har bir shaxs fikr mushohadasining chuqurliklarida tug'ilgan ilhom yetilgach, ba'zan birdaniga vulqondek otilib chiqadi, ko'pincha oddiy jarayondek yuzaga keladi.

Yozuvchi Pirimqul Qodirov "O'ylar" kitobida yozganidek, "Ilhom bilan mehnat zarblanib, ijodiy ishning samarasini oshiradi. Shuning uchun fransuz yozuvchisi Flober yozadi: "Butun ilhom shunda iboratki, har kuni ma'lum bir soatda o'tirib ishlash kerak". Bodley bu fikrga qo'shilgan holda: "Kundalik ishda ilhom so'zsiz zarur, deydi. – Tafakkurning faoliyatida qandaydir osmoniy bir mexanika bor, bundan uyalmaslik kerak, balki vrachlar badan mexanikasini qanday egallasalar, yozuvchi ham ilhom mexanikasini shunday egallashi kerak.." (Ta'kidlar bizniki – H.U.).

Xullas, ilhom doimiy ravishda va izchil olib boriladigan ijodiy mehnatning tabiatidan kelib chiqadi. U real hayotiy asosga ega bo'ladi. Ilhomni har kim o'zligi orqali muhayyo etarkan, albatta, uni har bir shaxs boshqarishi ham mumkin.

Demakki, har qanday ishni – kitob o'qishni ham, konspekt olishni ham, mashqlar bajarishni ham... hatto kir yuvishni ham ilhom bilan bajarish mumkin. Faqatgina bajariladigan ishga muhabbat va mehnat

bu lozim. Uni bajarishga ishtiyoq shunchalik kuchli bo'lishi tashabbus, bajarish jarayoni sizda charchoqni, hardamxayollikni emas, baxshini uyg'otsin, qilgan ishingizdan mamnun bo'ling, uning muvaffaqiyatidan o'zingiz ham hayratlaning. Shunda o'qigan kitobingizni deyarli yod olganingizni, konspektning chuqur va go'zal bo'lganini, mashqlar oson yechilganini, yuvgan kiringizning ohorli (yaxshidek) ekanini, ularni uddaburonlik va zavq bilan bajarganingizni muayyan qolasiz. Bunday holat o'z navbatida kuchingizga kuch qo'shadi, g' ayratimizingizni yanada quvvatlantiradi, oromingizni to'yintiradi.

Uning qizig'i shundaki, ilhom yaratish jarayonidagi boshqa barcha usullar (narsa)larni ham tartibga keltiradi. Quyosh atrofida ko'plab sayyoralar aylanganidek, ilhom tevaragida hamma ijodiy tashvishlar muayyan qonunlar asosida harakatga kirishib, maqsadning natijasi (natijati)ni yuzaga chiqaradilar.

Demak, ilhom maqsad sari intilishimizda ko'makka keladi. Maqsadning natijasiga erishganda qalbni zavqqa, quvonchga to'ldiradi va yana yangi kashfiyotlar ufqini ochishga havasimizni, g' ayratimizingizni ko'rsatadi.

**Tartib-intizom.** Darslarga qatnashmasdan, fanlar bo'yicha berilgan adabiyotlarni o'qimasdan bilimdon bo'lish mumkin emas. Qanday ekan, yuqorida aytilgan kunlik, haftalik, oylik kabi rejalarni bajarishda o'zimizni tartib va intizomga o'rgatishimiz lozim. Muayyan bir vaqtda adabiyotlarni mustaqil o'qib tushunib olish – ulardagi qimmatli ma'lumotlarni o'rganishga va shu asosda hayotimizni ham o'qitirib borishimizga sabab bo'ladi. Shaxs sifatida barkamol bo'lishdek niyatimizga ko'plab asoslarni beradi. Har kungi o'qilgan adabiyotdagi yangiliklar shaxsiyatimizni, ruhiyatimizni, bilimimizni yanada boyitadi. Ilhom do'stimizga aylanadi, olg' a yurishga jalb etadi. Maqsadimizning ro'yobiga tartib-qoida yordamga keladi. "Oltin davr"ning ta'sirida SHAXSga aylana boshlaymiz. Ilm egallash tartibga, intizomga, ularning amaliga bog' liq ekaniga ishonch hosil qilamiz. Aksincha harakatlar esa, vaqtni bekorga sarflashga, baxtimizdan vozqoqlashishga va qator xatoliklarga olib keladi, tartibsiz hayotimiz ishdan tashqari, bekorchilik, ichkilikbozlik kabi xavf-u xatarlarni yuzaga chiqaraveradi.

Hazrati Imom A'zam Abu Hanifa shogirdlariga aytganlaridek, "Dangasalik, erinchoqlik va ishyoqmaslikdan saqlangin! Chunki, mazkur kasalliklarning barchasi ilmning eng katta ofatidir".



Agarki, biz bir kun darsga bormasak, mustaqil o'qishni ertaga qoldirsak, bularni birinchi darajali vazifamiz sifatida anglamasak – ularni e'tiborimizga loyiq ko'rmasak, bekor o'tgan kunlar, tartibsizliklar asta-sekin yig'ilib, katta omadsizlikka olib keladi. Shunchaki yashashda maqsadimiz uzoqlashaveradi. Guruhdagi obro'yimizga putur yetib boshlaydi. Ilhomni ham boy beramiz.

Biz bunday odatni yengish uchun, dastavval, maqsadimizni berayotganimizni anglashimiz lozim. Hayotimizni haralla-tarallaga sarflash etishdan qaytib, qat'iy va mahkam intizomga bo'ysunishimiz, har kuni o'z oddiy tartib-qoidalarimizga tirishqoqlik bilan ("Tirishmagan ulg'aymas", - deydi xalqimiz) amal qilishimiz lozim bo'ladi.

Shunda yana maqsadimizni amalga oshirish uchun ishlab boshlaymiz. Intizomlilik his-tuyg'ularimizni boshqara olishimizga, xatti-harakatlarimizni nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. Ongli intizom maqsadimiz manfaati yuzasidan o'zimizdagi kamchilik va nuqsonlarga qarshi kurash va ularni yengish malakasini shakllantiradi. Ilhomning harakatiga "ergashish", unga qanot bo'lishdek hayotiy vazifasini bajarib boshlaydi, ayni paytda, egasini o'ylab ish qilishga, maqsadning amalga oshirish uchun harakatda sobitqadam va bardavom bo'lish mas'uliyatiga harakat o'rgatadi. O'zaro ta'sirning kuchi – maqsadni yanada aniqlashtiradi, uning ijobatiga ishonchni oshiradi, aqlni peshlaydi, g'ayratni toshiradi. Shu bois ham xalqimiz "G'ayrat qilgan tog'ni teshar", - deydi.

Xullas, mumtoz faylasuf Pifagor aytganidek, "Tartib seni muqaddas maqsading bo'lsin. Sen bu maqsad yo'lida astoydil xizmat qil Chunki tartib hamma narsaning majmuasidir. Tabiatning mavjudligi asosida ham tartib yotadi".

**Shaxsiy kundalik.** Yuqorida aytilgan niyatga, maqsadga, ilhomga tartib-intizomga, fikrlashga, kompyuter texnologiyasini egallashga erishishni mustahkamlaydigan yo'llardan biri – shaxsiy kundalik daftarini yuritishdir.

Kundalikda har kungi bajargan ishlarimizni, hayotimizdagi yangiliklarni mulohaza qilib, o'z so'zlarimiz bilan qayd qilamiz. Boshimizdan o'tgan voqea-hodisalarni tanlagan maqsadimizga qanchalik bog'liqligini mushohada qilar va undan chiqargan saboqlarimizni kundalikka yozar ekanmiz, albatta, ular ongimizga ta'sir etadi. Muayyan ijobiy natijaga erishgan bo'lsak, u ko'nglimizga quvonch olib kiradi va o'z navbatida ilgariga yetaklaydi.

Ayni paytda, biz ko'rgan-bilganlarimizni, fikr-u mulohazalarimizni qog'ozga tushirish malakasini egallay boshlaymiz. Bunday malaka og'ir



... mutqimizni ham tartibga soladi: tinmay valaqlashdan asrab, qaytibayotgan muammoning, voqeaning mag'zini lo'nda, tushunarli qaytibayotgan qilishga o'rgatadi.

Hayotimiz mobaynida sodir bo'lgan turli-tuman yutuqlar-u muvaffaqiyatlar kundaligimizda qayd etilarkan, albatta, ulardan chiqarilgan tajribalar va saboqlar hayot mag'zini chaqishga ham o'rgatadi. Bu xislat esa qaytibayotgan takrorlamaslikka, ularni to'g' rilashga, maqsadimizning muvaffaqiyatli rivojiga ko'mak beradi. Keyinchalik yaratiladigan umrimiz ilmiy bog' liq xotiralarga, turli asarlarga asqotishi ham mumkin.

Masalan, yozuvchi Abdulla Qahhor shunday yozadi: "Kunlardan tashqari xotira daftaringa xalqning hazil-mutoyibalaridan "Yo'qolmasdan tashqari bormidi?" degan iborani yozib qo'ydim. "O'g'ri" hikoyamni yozayotganimda shu ish berib qoldi. Shunchaki **beg'araz hazil uchun yaratiladigan bu iborani keksa dehqon ho'kizi o'g'irlanganidan shikoyat qilib borganida Aminning tilidan aytirgan edim, o'tkir piching ma'no tash etdi. Mening ixtiyorimdan tashqari ijtimoiy umumlashma kuchga ega bo'ldi, ayni chog'da, individual shaxs xarakterini ochib qaytibayotgan**"<sup>1</sup> (Ta'kidlar bizniki – H.U.).

"Eng katta boyligimiz" – talabalarimiz qanchalik tez maqsadlarini erishish va ravshan, teran va yaxlit anglasalar, uni voqe qilishda ilhom bilan o'zlar mosida bardavom mehnat qilsalar, bu mehnat ularga zavq-u shavq bog' ishlasa, komillikka, odamiylikka e'tiqodlarini oshirsa, shunchalik qaytibayotgan fursatda ilmning haqiqiy egasiga aylanadilar. Ilm orqali o'zliklarini ishlab, el-yurtimizning bunyodkor shaxslariga, Prezidentimiz ta'kid etganlaridek, "mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil inson bo'lib voyaga yetadi" (61-b) lar.

«**Ilm – ikki dunyo saodatining kaliti**». Dunyoga nega keldik? Nega yashayapmiz? Kimmiz? Qanday yashash kerak? Nimalarga amal qilish u nimalardan voz kechish lozim? Halol nima-yu harom nima? Inson uchun foyda va zarar sifatlar-chi? Qadr-u qimmat-chi? Odob-u asloq-chi? Go'zallig-u nafosat-chi? Imon-chi?.. Bu xil savollarning adolig'iga yetish qiyin. Lekin barchasiga insoniy bir fazilat orqali javob topish mumkin. Bu – ILM!

Xo'sh, ilm (arabcha so'z, bir narsaning boshqasidan ajratib turadigan belgisi ma'nosini beradi) degani nima o'zi? Nega u barcha muammalotlarni, qiyinchiliklarni yecha oladi? Uni qanday va qanchalik o'qitish lozim? Uning qanday yo'l-yo'rig' i va amallari bor? Uni ibodat

<sup>1</sup> Абдулла Қаҳҳор. Ҳаёт ҳодисасидан бадий тўқимага. – Адабиётимиз биографияси. Т., Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973, 214-бет.

darajasiga qanday qilib ko'tarish mumkin? Nega u xazina va saodat kaliti? Nega «Ilm yo'l-g'izlikda hamroh, g'urbatda sirdosh, do'stir huzurida ziynat, dushmanlarga qarshi o'tkir qurol»? (Rizouddin bin Faxriddin)

Hayotning go'zalligi, insoniylikning bardavomligi, jamiyatning farovonligi ilm tufaylidir.

Ha, odam bo'lish uchun ham, oila qurish uchun ham, ovqatlanish uchun ham, kiyinish uchun ham, yurish-turish uchun ham, salomlashish uchun ham, so'zlashish uchun ham, dehqonchilik qilish uchun ham, tijorat uchun ham ilm kerak. Ilm kirmagan va boshqarmagan biron bir soha yo'q. U Alloh bergan ne'matlarning eng fazilatlisi va qudratlisiki, dunyodagi bor narsaning, amalning, baxt-saodatning... savob-u gunohning barchasini mag'zini chaqa bilan maftunkor va yashirin haqiqatni kashf eta oladi. U insonni beshikdan to qabrgacha hamroh bo'ladi, ta'lim - tarbiya beradi rahnamolik qiladi. O'zligini bilishga, oxir-oqibat Allohni tanishga va uning roziligini topishga yetaklaydi.

Ming shukrki, mamlakatimizda beshikdan to qabrgacha uzluksiz ta'lim tizimi va har bir fuqaroning barcha bilimlarni egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Minglab maktabgacha ta'lim - tarbiya muassasalari (yasli va bog'chalar), o'rta maktablar, yuzlab litseylar, kollejlar, ilmiy tekshirish va malaka oshirish institutlari, markazlar o'nlab universitetlarning faoliyati ilm o'rgatishga va uni rivojlantirishga qaratilgandir.

Shunchalik imkoniyatlar yaratilganiga qaramay, ko'pchiligimiz o'rta maktabdagi majburiy ta'limning boshlang'ich va o'rta (kollej, litsey) qismini o'rgangach, ilm o'rganishda to'xtaymiz. Oliy o'quv yurtlariga intilmaymiz. Biror bir kasbning, hunarning alifbosini egallash olamiz-da, uning ustasi bo'lish yo'lida shu sohaning ilmini chuqur o'rganishga davomli o'rganmasdan, ro'zg'or tebratar darajada topqanimizga shukr deyayuraveramiz.

Bunday holga tushib qolganimizning sabablari ko'p.

Eng birinchisi, «Ilmni obro' qozonish, amalga ega bo'lish, insonni o'z orasida maqalish uchun o'rgan»ganimiz va buning amalini har kuni ko'rganimiz bo'lsa, ajabmas.

Ikkinchisi, ilm o'rganishda niyatning butun emasligi, shunda kelib chiquvchi ixlosning bo'shligi, rag'batning sustligidir. Bularda kelib chiquvchi «igna bilan quduq qazish» mashaqqatiga toqatsizlik chidamaslik, dangasalikdir.

Uchinchisi, ilm o'rganishni va unga amal qilishni ibodat darajasiga ko'tarib olingan g'ofilligimiz, «Islom - ilm», «Ilm qalbning qalbidir», degan haqiqatlarni, Islomni bilmasligimizdir.

Qalbda ilm (boshqa har qanday ish, amal...)ni o'rganish uchun dotavval, niyat bo'lishi, bu niyat ko'ngildagi fikr – o'y bo'lgani sabab, u niyat bo'lmog' i kerak. Chunki Rasuli Akram (s.a.v) deganlar:

«Albatta, har bir kishining niyat qilgan narsasi bo'ladi. Bas, Allohning hijrati Alloh va Uning Rasuli uchun bo'lsa, uning hijrati Allohga va Uning Rasuliga bo'ladi. Kimning hijrati dunyo uchun bo'lsa, unga erishadi. Yoki ayol uchun bo'lsa, uni nikohlab oladi. Bas, uning hijrati nima uchun qilingan bo'lsa, o'shanga bo'ladi».

Ko'rinadiki, har qanday ish, amalning natijasi, birinchi qismda natijamizdek, niyatga qarab «hosil» beradi. Niyat ezgu (yaxshi) bo'lsa, eng oddiy ish ham ibodatga aylanadi. Agar u niyatsiz bajarilsa, natijadagi oddiy ishdan farq qilmaydi (Qarang: Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Niyat, ixlos, ilm, 3-juz, «Sharq», T., 2003, 12 – 13 betlar).

Oddiy ish – insonni zeriktiradi, joniga tegadi, rag'batini keltirmaydi. Yangi tuyg'ularga deyarli yetaklamaydi. Ibodatga aylangan ish – insonni tinchitmaydi, doimo ilgariga, yangilikka yetaklaydi. Ushbu ishlar uchun kerakli odamga aylantiradi. Egasiga shunchalik huzur beradi etadiki, bundan boshqa lazzatni topa olmaydi, shu bois, boshqaning borligini xayoliga ham keltirmaydi.

Xu'sh, ilm qanday qilib ibodatga aylanadi?

Shayx Muhammad Sodik hazratlari yuqorida eslatganimiz ibodatlarida yozadilar:

«Islom shiariati nazdida «dinimiz menga ahli ayolimning nafaqatini vojib qilgan, halol yo'l bilan, halol luqma topib, ahli ayolimga xizmat degan niyat bilan dalada ishlayotgan dehqon, dastgoh oldida xizmat qilgan ishchi, o'z kasbidan qolmayotgan hunarmand, o'z vazifasini ado etayotgan idora xodimi yoki ziyoli ibodat qilayotgan bo'ladi. Bundan boshqa niyatni qilgan odam esa, mo'ljaldagi narsasiga erishishi mumkin, ammo ajru savobga yetisha olmaydi».

Dinimizda hayvonlarga mehribon bo'lishga, ularni och va suvsiz qoldirmaslikka amr qilingan, shu amrga binoan ish tutishim kerak, degan niyatdagi odamning hayvonlarni boqib qarashi ham ibodat hisoblanadi. Ushunga yarasha ajru savobini oladi. Ammo mol-qo'yimni yaxshilab boqib mol-qo'yimni go'shti ko'p bo'ladi, sotib pul qilaman, degan niyatdagi odam

go'shtga, mol-u pulga yetishishi mumkin, ammo ajr-u savobga erishmasligi aniq.

Bu qoidani inson hayotiga batamom qo'llash mumkin. Shunda kishi hayotining har bir daqiqasi, hatto uyqusi ham ibodatga aylanadi».

Hatto she'r ham ibodatga aylanib, Sizni poklikka, dilbar Shaxs bo'lishga yetaklaydi:

*«Ibodat ne? Yaratganga itoat ham ibodatdir,  
Haqiqiy bandalik birlan sadoqat ham ibodatdir.  
Ibodatdir, tiriklikni etolsang ma'rifat bog'i,  
Mashaqqatlik ilm, san`at, qiroat ham ibodatdir.  
Onang birlan otang qalbi o'tar Ka`ba tavofidin,  
Agar ko`nglini shod etsang, shu xizmat ham ibodatdir.  
Xabar oldingmi bemordan, qarindosh, do'st, musofirdan,  
Birovni yo'qlasang dildan, ziyorat ham ibodatdir.  
Umrni etmayin isrof, o'zing ro'za, vujuding sof,  
Agar pok holda uxlarsen, shu rohat ham ibodatdir.  
Mudom Allohni zikr etsang, halol boriga shukr etsang,  
Qiyomat kunni fikr etsang, tijorat ham ibodatdir.  
Bunda borliq, nabobat ham Yaratganga etar tasbih,  
Bobo dehqon ekib yursa, ziroat ham ibodatdir.  
Ibodatdir, biror zolim, jafokorga desang haq so'z,  
Va nodonga sukut qilsang, sukunat ham ibodatdir.  
Agar justi halol birla ko'ngilxushlik etar bo'lsang,  
Falak shohid, malak hozir, bu suhbat ham ibodatdir.  
Bu Islomdir, butun umring ibodat holiga kelgay,  
Va ogohlik bilan o'tgan shu fursat ham ibodatdir.  
Tamal iymon-u ixlokdir, bu qullik bandaga xosdir,  
Xudo deb qilganing har ish va niyat ham ibodatdir.  
Sevib, Mirzo, faqat do'stlik bilan dillarni obod et,  
Agar Alloh uchun sevsang, muhabbat ham ibodatdur. »*

(Mirzo Kenjabek)

Shunday ekan, ilmni Alloh roziligi yo'lida o'rgansa, ya'ni ezing e'tiqod va amallarga tayanib, ilm nurini emsa, shu nurdan odamlarni bahramand etish, ular hayotini foydali qilish yo'lida xizmat qilsa poklikdan poklikni, yaxshilikdan yaxshilikni o'stirsa, uni qalblarga singdirsa-yu haqiqiy baxt-saodatga yetaklasa, shu niyatning o'ziyoq uning ilmni – ibodatga aylantiradi. Olimning ilm o'rganish va o'rgatish



bu dunyodagi butun hayoti ibodatga aylanadi. Ibadatga aylangan bu hayot shu dunyodagi «Farishtalar undan rozi bo'lgan holda qanotlarini uning oyoqlari ostiga yozadilar. Yer va osmondagi barcha jonzot, hatto, suvdagi baliqlar ham olim uchun mag'firat so'rashadi».

Xo'sh, biz shu ko'rsatmalarga amal qilayapmizmi? Kasbimiz, hamamizni ham namoz kabi farz ibodatlardan ekanini hammamiz hisoblab yetganmizmi?..

Keling, yana bir mulohazaga – haqiqatga diqqat qilaylik:

«Alloh, farishtalar va ilm ahllari – adolat bilan hukm qiluvchi qadrlar – yu yolg'iz Allohdan o'zga hech qanday tangri yo'q, faqat Uning borligiga guvohlik beradilar» («Oli Imron», 18).

Farishtalarning guvohlik berishlarini ko'z bilan ko'rmaganmiz, qalbi bilan aniq eshitmaganmiz. Lekin olimlarning, hattoki g'ayridin – Eynshteyn, Kusto, Armstrong kabi jahon taniyidigan olimlarning «Alloh borligidir. Butun borliq Allohning mulkidir, uning hukmidadir», - degan gaplarini eshitganmiz, teleekranda ko'rganmiz-ku! Ilmning katta o'zgaruvchilaridan biri Eynshteyn: «Men Parvardigorning qudratini anglamoq istayman, qolgani arzimasa narsa», - deb yozgan-ku!

Demak, hamma narsada Alloh hukmiga muvofiq harakat qilish, Alloh haqiqatlarini ilmiy kashf etish orqali uning roziligini topishga intilish ibodatdir, vatandoshingga, qardoshingga qilingan ajr-u hisobdir. Bunday ibodat qalbingdagi olovni tinimsiz yondiradi, olovning tunganmas ilhom beradi, maqsad – niyatingga odamiylikning yo'qolishi, sadoqatini, jasoratini, bunyodkorligini, huzur-u halovatini, baxshilikni, pokligini, qo'ying-chi, barcha ezgu tuyg'ularni go'zal va barobar qilib joylashtiradi. Uni sarflaganingiz sayin xazinangiz yanada boyib boshlaydi.

## 4.2. MAVZU VA RAHBARNI TANLASH

Yoshlarning ijodiy, ilmiy salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning yuksalishi olimlar bilan ish yuritishlarini ta'minlashdek dolzarb muammoni hal etishning yo'llari ko'p. Ana shu yo'llardan biri – mening rahbarimni ilmiy tadqiqot va ijodiy ishlarga o'rgatish tajribam ham qo'l kelishi mumkin.

Hugungi kungacha mening rahbarligimda yigirmadan ortiq rahbarlar magistrlik, o'n besh kishi nomzodlik, besh nomzod doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilishdi va tasdiqlarini olishdi.

Bularning deyarli barchasini o'qitganman. Birinchi kursdan o'qib "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanini tinglagan talabalarning qalbiga ilmiy va ijodning, uztov-u shogirdlikning "urug'"ini sepishga va ana shu "urug'"ning ko'karishi va hosildor bo'lishi uchun sa'yi harakat qilishga intilganman.

Dastavval, fan bo'yicha o'qilgan har bir ma'ruzani ko'rsatilgan adabiyotlar (darslik, qo'llanma, to'plam, jurnal...) asosida qayta ishlashni, ma'ruzada chuqur tahlil qilinmay qolgan o'rinlarni to'ldirishni, ma'ruzani yaxlitlashtirishni so'rayman. Darslik va boshqa adabiyotlarni konspekt qilganda undagi eng xarakterli va eng muhim fikrlar bayot qilingan o'rinlarni sitata tarzida olish lozimligini tavsiya qilaman.

Chunki, har bir ma'ruza ustida ishlash, mustaqil konspektlashtirish asosida uni to'ldirish, mukammallashtirish talaba hayotida katta ahamiyatga ega. U ma'ruzaga oid adabiyotlar bilan mustaqil tanishadigan talaba tanishgan materiallarini keraklisini tanlashga o'rganadi, tinglagan ma'ruzasi bilan adabiyotlarni solishtiradi, ma'ruzaning shu mavzusini chuqurroq o'zlashtiradi. Natijada talabaning tafakkuri shu mavzuga oid ko'pgina yangi faktlar bilan boyiydi. Ma'ruzada berilgan bilimning doirasi kengayadi. Ilmga kirishning birinchi bosqichi jarayoni shu tarzda boshlanadi.

Shunday qilib fanning barcha mavzularini o'rgangan talabada dastlab berayotgan ustoz va adabiyotlarning o'rtasidagi ilmiy vobastalikning bilimdonlikning darajasi ochiq oydinlashadi. Talaba ustozga mehr qo'yadi yoki undan ko'ra adabiyotlarga havasmand bo'ladi.

"Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanini o'zlashtirish davom etadi. Talabalar uchun predmet bo'yicha a) umumiy (siyosiy) adabiyotlar, b) darslik va qo'llanmalar, v) ilmiy adabiyotlar, g) badiiy adabiyotlar ro'yxati tavsiya qilinadi. Bakalavr imtihongacha bu asarlarni konspektlashtiradi<sup>4</sup>, badiiy asarlardan turli janrdagi she'rlarni parchalarni yodlaydi. Epik va dramatik asarlarni mustaqil mutolaa qiladi. Matn va manba ustida ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shu jarayonning amaliy mashg'ulotlarga faol qatnashadi<sup>5</sup> va adabiyotshunoslik nazariyasi fani bo'yicha joriy, oraliq, yakuniy nazoratlar uchun tuzilgan besh yuzlik testni ham mustaqil ishlab chiqadi.

<sup>4</sup> Ilmiy va badiiy asarlarni konspektlashtirishni o'rganish uchun qarang: X. Umurov. Talabanning oltin kitobi. T., "Navruz", 2016, 111-137 betlar.

<sup>5</sup> Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik k'urish va o'tkazishni o'rganish uchun qarang: X. Umurov. Adabiyotshunoslikka kirish: dastur, test va kurgazmalar, Samarqand, 2001, 19-29 betlar.

Ushu jarayon davomida talaba qiziqayotganini namoyish qilsa, muvaffaqiyatlarni bajarishda namuna ko'rsatsa va fan o'qituvchisini muvaffaqiyatga ma'qul ko'rsa, ana shunda u shogird qilib olinadi. Shogirdlikka tushgan talabalar bilan ishlashning, ilmga intilishning asosiy bosqichi jarayoni boshlanadi.

Ustoz bilan ishlashning bu bosqichini uning asarlari bilan tanishtirishdan boshlash ma'qulligi tushuntiriladi. Ustozning quyidagi asarlari taqdim qilinadi:

1 Ilmiy ijod asoslari (Iqtidorli talabalar uchun darslik) T., "Uzbekiston", 2001.

2 Adabiyot nazariyasi (Darslik), T., "Sharq", 2002.

3 Adabiyotshunoslik nazariyasi (Darslik), T., A.Qodiriy nomidagi oliy maorifi nashriyoti, 2004.

4 Adabiy ijod asoslari (Darslik), Samarqand, SamDU nashri, 2019.

5 Ilmiy tadqiqot metodologiyasi (Darslik), Samarqand, SamDU nashri, 2020.

Hundan tashqari, ustozning besh jildlik "Saylanma" (2007-2011)si, asosiy o'quv, o'quv-uslubiy qo'llanmalari, monografiyalari, adabiy-badiiy maqolalar to'plamlari, risolalari, adabiy-badiiy kitoblari ham taqdim qilinadi.

Bulardan asosiy maqsad shogirdning ustoz izlanishlari bilan tanishishi va uning bilan ilmiy muloqotda yaqinlashishidir. Ustoz u shogirdlikning muayyan ilmiy yo'nalishdagi mavzu tanlashiga asosiy yo'riqning asosli va dastlabki bir ko'rinishidir.

Shogirdlar bilan haftada bir (ustozning kafedradagi navbatchiligi bo'yicha) kun uchrashuv belgilanib, ilmiy ish yuritishning sirlari haqida muhokamalar uyushtiriladi "Hech bir ish dunyo va oxiratda ilm bilan qatnashmagan afzalroq va ulug'roq" (Imom G'azzoliy) emasligi, "Ummatning darajasi ilm olmagan mo'minlarning darajasidan yetti yuz daraja yuqori" (Ibn Abbos r.a.), "Olimlar payg'ambarlarning vorislari" (Muhomammad a.s.) ekanligi isbotlab beriladi. Ilmiy ish yuritishning amaliy va metodik jihatlari haqida sekin-asta, ammo muntazam tarzda muhokamalar boriladi. Mashqlar qilishga rag'batlantiriladilar.

Mashqlar bajarilgach, uning muhokamasi uyushtiriladi. Har bir shogirdning fikr aytishiga, uning isbotini berishga o'rgatiladi. Va shogirdning jumyonga qatnashish shart qilib qo'yiladi. Matn va manba bilan ishlash ko'nikmasiga mustaqil fikrlash ko'nikmasi qo'shiladi, shu bilan shogirdlarning barchalari rag'batlantiriladi.

Eng yaxshi taqrizlarni o'rganishga, namunalar keltirishga vazifalar beriladi. Namunalarning ilmiy ijobiy xislatlari muhokama qilingach, muayyan asarga taqriz yozishga havas uyg'otiladi. Bu taqrizlardagi har bir fikr, har bir so'z tahlil qilinib, yutuq va kamchiliklari hamjihatli bilan aniqlanadi...

Birinchi kursdagi kontrol va kurs ishlari yozish ko'nikmalari ham yuqorida aytilgan o'quv-ilmiy izlanishlari bilan qo'shilgach, kichik-kichik mavzular bo'yicha ancha muvaffaqiyatli izlanishlar yuzaga kela boshlaydi. Natijada mavzu materealiga mustaqil yondasha olib qobiliyati, unga qiziquvchanligi va izlanuvchanlik xislati birinchi kursdanoq ko'zga ko'rina boshlaydi. Unda "Yosh adabiyotshunos" to'garagi yig'ilishida doklad qilishga ishtiyoq va havas uyg'onadi. O'z yaxshi ko'rgan va ancha chuqur o'rgangan mavzuni tanlaydi. Mustaqillikka asoslangan yangi fikr-mulohazalari bilan ilk mara ko'pchilik o'rtasidagi chiqishi uning hayotida o'chmas iz qoldiradi. Ilmga, ustozga bo'lgan mehr-muhabbatni o'stiradi, ijod qilishning zavqini anglatadi, bu zavqning doimiy bo'lishi uchun tinimsiz izlanish zarurligini qalban his qildiradi.

Ilmga intilishning uchinchi bosqichi jarayoni boshlanishidan o'tkazib, tadqiqotchi talabaning parvozigacha erk berish lozim. O'zi parvoz qilsin turli tanlovlarga, ilmiy-nazariy konferensiya va seminarlarga olimpiadalarga qatnashish yo'llarini topsin, g'olib bo'lsin. Adabiyot ilmi-ga bo'lgan qiziqishi, havasini yanada orttirsin, bilimining sistemali uzluksiz o'sishiga, munozaralarda qatnashish ilmini o'rganishga ijodkorlikka, tashabbuskorlikka kuchini iqtidorini, salohiyatini bag'ishlasin.

Uning bu yutuqlarini ustoz doimo sarhisob qilib boradi. Uning diqqatini kafedraning bosh mavzusiga qaratadi va talabaning bundan keyingi bitiruv malakaviy ishi, magistrlik dissertatsiyasi, maqolalari risolalari, qo'llanmalarining barchasi shu mavzudan kelib chiqishi lozimligini, zarurligini, dolzarbligini tushuntiradi. Ayni paytda kelajagini o'ylab tanlangan mavzuning qismlarini har bir janrning talabiga muvofiq tekshirib, tahlil etib mohiyatiga yetishgach, u doktorlik dissertatsiyasiga arziydigan mavzuga aylanishi maqsadlidir.

Jumladan, shogirdlarim mavzularining barchasi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasining bosh mavzusi "Adabiyot va janrlarning rang-barangligi va poetikasi" dan kelib chiqqan "O'zbek dramatik dostoni" (Sh.Hasanov), "Adabiy tanqid va lirika muammosi" (I.Ikromov), "Odil Yoqubov romanlarida psixologizm"



I. Kalmurodov), "Muhammad Yusufning poetik mahorati"  
M. Davronova), "Hozirgi o'zbek she'riyatida xronotop poetikasi"  
III. Xursanov) va sh.k.

Hundan maqsad bosh mavzuning hamma qirralarini chuqur va  
muallifning ilmiy nazariy o'rganishidir. Adabiyotimiz va  
adabiyotshunosligimiz rivojiga, kamolotiga ta'sirini sarhisob qilishdir.

Nullas, ilm talabalarga insoniy kamolot va saodat keltiradi. Shu  
saha ularning ilmiy, ijodiy izlanishlariga turtki berish va yuzaga  
keltirishning, ustoz-u shogirdlikni yo'lga qo'yishning imkoniyatlari  
haqida. Faqatgina quyidagi ishlar ham amalga kelsa, bu soha yanada  
rivojlanishi turgan gap:

1. Universitetda iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jam-  
g'armasini tuzish lozim. U yosh olimlarni, ijodkorlarni moddiy jihatdan  
qo'llab-quvvatlashi, asarlarini chop etishga va ularni rag'batlantirishga  
o'rnatilishi lozim.

2. Ilmiy va ijodiy parvozlarini ta'minlash uchun ustozlar yordamida  
ma'lumot darslarini izchil va davomli qilib yo'lga qo'yish ma'quldir.

Iqtidorli yoshlardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion  
Taqdimot Vazirligi huzuridagi "Yoshlar akademiyasi" uchun nomzodlar  
tanlovi amaliyoti ishga tushishi zarur.

Yana bitta yo'lni sizga havola qilmoqchiman.

"Shalola" ijodiy uyushmasi o'zining uzoq tarixiga ega. Ushbu  
to'garakka 1960-yillarning ikkinchi yarmida adabiyotshunos olim,  
professor N. Shukurov asos solgan. To'garakning birinchi sardori  
O'zbekiston xalq shoiri Omon Matjondir. Mazkur to'garak ijodkor  
yoshlarning unib-o'sishida o'ziga xos maktab vazifasini bajarib  
kelmoqda. Dushan Fayziy, Orif Ikromov, Barot Boyqobilov, Omon  
Matjon, Normurod Narzullayev, Ullibibi Otayeva, H. Hasanova, Ilhom  
Hasanov, R. Otayeva, Toshpo'lat Ahmad, Shavkat Hasanov, Dilbar  
Rahimova, Orif Hoji kabi ijodkorlar "Shalola" mashg'ulotlarida o'z  
qalamlarini qayraganlar.

1994-yildan boshlab men rahbarlik qilayotgan "Shalola"  
to'garagida Orif va Muhabbat To'xtash, Uyg'un Ro'ziyev, Nodir  
Baqirov, Vohid Luqmonov, G'ayrat Sa'dullayev, Feruza Tog'ayeva,  
Nigora Honu, Akram Haydar kabi yosh shoir va yozuvchilarning ham ilk  
kitabchasi shu to'garakda tahlil qilingan va nashrga tavsiya etilgan...  
Hozirgi kunda «Shalola» Umid ali, Xoliyor Safarov, Mashxura  
Hasanova, Isomiddin Po'latov, Maftuna Xolova, Zulxumor Ashurova,  
Shalola Tillaboyeva, Asqar Eshayev, Alisher Sabriyev, Kamola

Musurmonova, Sevara Abdimo'minova, Shahnoza Xalikova, Shalola Tursunova, Mirzohid Musaqulov kabi ko'plab iste'dodlarni kashf etgan va ularning badiiy olami ro'yobiga yordam bermoqda, o'zlarini anglash va yetaklamoqda.

Yangi o'quv yili boshlanishida talabalikka qabul qilingan 1-kurs talabalari "Shalola" ijodiy to'garagi bilan tanishtiriladi. Jumladan "Adabiyoshunoslikka kirish" fani ma'ruzasi va amaliy mashg'ulotlarida lirik chekinishlar qilinishi, ijodkor talabalar, ya'ni she'r va hikoyalar, xabar va maqolalar yozuvchi talabalarga nisbatan fikrlar bildiriladi. Shu orqali to'garak tarixi, bir paytlar mazkur to'garakda qalami charxlangan ijodkorlar sarhisob qilinadi. Shu tariqa ularning yuragiga cho'g' tashlanadi. Uchqunlari bo'lsa, o't oldiriladi. So'ngra maxsus bir kun belgilanib, a'zolikka qabul marosimi bo'lib o'tadi. Qabul marosimida kafedra o'qituvchilari, yuqori kurslarda ta'lim olayotgan, she'r, kitoblari e'lon qilingan Zulfiyaxonim sovrindorlarimiz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari qatnashadilar. Bo'lib ijodkolarga o'z ijodidan bitta yoki ikkita she'r o'qish topshiriladi. So'ngra ko'zi pishgan ko'pni ko'rgan, asarlari ko'pga tanish ijodkorlarimiz domlalar ularga, "ko'ngil olami" vakllariga mashaqqatli ishda omad va muvaffaqiyat tilashadi. "Shalola" adabiy-ijodiy to'garagi sardori tomonidan ularning ismi-shariflari "Shalola" a'zolari jurnaliga birinchi marta bir qayd qilinadi.

"Shalola" to'garagi a'zolari tomonidan bir oyda bir marta rasmiy to'garak mashg'ulotlari o'tkaziladi. Unda to'garakning faol a'zolarida birortasining she'r va hikoyalari muhokamasi o'tkaziladi. Muhokamagacha o'sha a'zoning asarlaridan nusxa ko'chirilib, to'garak a'zolari hamda qiziquvchi talabalarga tarqatiladi. Muhokamaga hamda qatnashishi mumkin: har bir talaba xolis tanqidchi vazifasini o'taydi. Asosli tarzda tahlil va tadqiq etadi... Mashg'ulotning ikkinchi qismida qalamkash talabalar o'zlari, o'qigan kitoblari, she'r va hikoyalari xususida fikr almashadilar. Savol-javoblar tariqasida bahs, munozira qilinadi. Mashg'ulotning uchinchi qismida mushoiraga o'rin beriladi. Yangi asarlar o'qiladi. Musobaqa avj pardaga chiqadi.

Bularning barchasi iste'dodli ijodkor yoshlar mahorati oshirishga xizmat qiladi. Respublika matbuoti uchun malakali kadrlar yetkazib berishga va shu orqali mamlakatimiz ma'naviyatini yuksalishiga hissa qo'shadi.

"Shalola" to'garagi a'zolarini qo'llab-quvvatlash, ularning ijod mahsullarini ommalashtirish maqsadida keng jamoatchilikka tanitish ish-

...ga oshiriladi. Eng sara asarlardan namunalar gazetalarda chop  
... Bu jarayon to'plamlar yaratishga qo'l keladi. Shunday  
...lardan birinchisi "Istiqlol mavjlari" (2004) deb atalib ushbu  
... "A Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyotida nashr etilgan.  
...chi esa "Istiqlol shalolasi" (2008) nomi bilan "Zarafshon"  
...iyotida chop etilgan. Ushbu to'plamlarda she'rlar, hikoyalar,  
... tanqidiy maqolalarga va yosh ijodkorlarga asqatadigan  
...larga keng o'rin berilgan.

Demak, ijodkor uchun uchun hayot – harakatdadir, faoliyatdadir,  
... mehnat-u mashaqqat chekib, izlanishdadir. Po'lat olovda  
...ganidek, charxlanganda o'tkirlashganidek, Siz badiiyat ichida,  
... "shalola" nashg' ulotlarida toblanasiz, rahmoniy insoniylik bilangina,  
... betakror kashfi ila ulug' lanasiz. Ana shunda iste'dodingizni  
... aylantira olasiz. Talant esa, ijod etishni qismatingizga  
...laxtiradi. Yaratganingizdan huzur topasiz, huzur topish uchun  
...asiz. Bu holat charchashga yo'l qo'ymaydi, to'xtashga imkon  
...maydi, aksincha, tinimsiz izlanishga yetarli quvvat beradi, umrning  
...ini va insoniylikning jahoniy mohiyatini kashfi tomon beto'xtov  
...layveradi.

"shalola"ga keling, ijod sirlarini o'rganing. O'zligingizni kashf  
... Detakror olamingizning poetik kashfi orqali komil jahonlar  
...shga bel bog'lang. Bu yo'lda sizga Istiqlol va ustozlar doimo  
...astadir.

Ushbu bobni ustoz-u shogirdlikka oid to'rta hikmat bilan  
...shini lozim ko'rdik:

1. Ustoz birinchi navbatda ta'lim-tarbiyani birdek olib boradigan  
...dod egasi bo'lishi lozim, bu iste'dod kuch-qudrati va e'tiqodi  
...kat ertasini yaratuvchi Shaxslarni yetishtirishga sarflanishi shart.

2. O'zgalarni ilmga da'vat qiladigan, odob-axloqdan tarbiya  
...igan, xato va nuqsonlarni ko'rsatadigan odamning o'zi hamma  
...shiliklarda namuna va ibrat ko'rsatishi kerak. Boshqalarga  
...layotgan amalini birinchi bo'lib o'zi bajarishi shart, so'zi bilan ishi,  
... bilan amali bir-biriga mos va muvofiq bo'lishi lozim. «Da'vatni  
...olgan kishi qilayotgan ishidan faqat Alloh roziligi-yu  
...larga manfaat yetkazishnigina asosiy maqsad qilishi lozim.  
... Alloh unga najot beradi, uning so'zida ta'sir bo'ladi, uni  
... qillovchilar va unga ergashuvchilar ko'payadi» (Rahmatulloh qori  
...ilov).

3. Ustoz ezgulikni, yaxshilikni, odamiylikni posboni bo'lgan shogirdini shu tomonga yetaklagandagina, elimiz uchun kerakli kuni aylanadi. Buning teskarisi bo'lsa, shogirdni, jamoadagi ma'naviy muhim muhitni buzadi, o'zining harala-taralasi uchun xalqimizning ertasi zahar-zaqqum qo'shadi. Soxta ustoz soxta shogird yetishtiradi, soxta shogird ustoziga buzuqlik keltiradi. «Ustoz buzg'unchi, yomon bo'lgan shogird ham buzuqqa, yomon otliqqa aylanadi» (Imom Zurnuji). Yasama ustozdan yasama shogird chiqadi. «Bu xil ustoz-u shogird ilmidida barakat bo'lmaydi, undan hech kim foyda topmaydi, topgan ham arzimaydigan darajada bo'ladi». Ikkalasiga ham, Payg'amburimiz aytganlaridek, faqirlik, xorlik va xo'rlik keladi, muhtojlik boshlanadi, soyabon bo'ladi. Alaloqibat ular pastkashlik, razillik va qabohatlar bilan do'st bo'ladilar, olomon safini to'ldiradilar.

4. Domla fanning xususiyatlarini, qoidalarini konspektiga qaytib yozdirish (diktovka) dan, ularni majburan yodlatishdan emas, balki ularni izlab topishga o'rgatishdan, talabada fikrlash xislatini kash etib toptirishdan zavq oladi. Talabalarga buyuklikka intilayotgan, ilmiy muhtojlik bilan chanoq shaxslar sifatida qarab, ularni o'z farzandidek sevib, ardoqlab e'zozlab, ulug'lab, har bir darsida fanning yangi sirlari kash etib yetaklasa, ularni shu xislatlari bilan sehrlay olsa Domla degan ulug' nomga munosib bo'ladi. Bunday ilmiy tarbiya uzluksiz va davomli bo'lganda iymonning butunligini ta'min etadi, ko'pning baxt-u saodatini yo'lida mo'jizalar yaratishga ongli xizmat qiladi, doimo Haqni e'tiqod bilan haqiqatni yoqlaydi, shunga o'rgatadi. Xalqning iymoni butun vakillarni yetishtiradi, ertamizning baxt-u iqboliga, kelajagimizning buyukligiga ishonchli, umidbaxsh asoslar yaratadi.

#### **Bobni mustahkamlovchi savollar:**

1. XXI asr ta'limidagi inqilobning xislatlarini bilasizmi?
2. Universitetda bilim egasi bo'lishning natijasidan xabardormisiz?
3. Kompyuterga, jahon axborotini beruvchi internetga oshnomisiz?
4. Ilmiy ta'lim va tarbiyaning yaxlitligini tushunasizmi?
5. Ilm o'zlidir, deganda nimalarni anglaysiz?
6. Niyat. Maqsad. Ilhom. Tartib-intizom. Shu kabi masalalarni amalga kirisha olasizmi?
7. Ilmga sadoqatingiz, ixlosingiz uyg'ondimi?



### Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:

1. Ta'limdagi metodologiya va metodlarni bilish uchun ma'lumotlarga, lug'atlarga, shunga bag'ishlangan asarlarga murojaat qiling.

2. Boshqa fanlardan ham o'rgangan istiqlol g'oyasi va mafkurasini, ushbu fanlarning nutqlaridan tinglagan ta'lim-tarbiyaga oid hikmatlarini o'zingiz bilan boyitishga, fikrlashga, saboqlar chiqarishga harakatni ko'rsatib bering.

3. Ilmning yaratuvchanlik xislatini, hayotni rivojlantiruvchi kuchini ta'lim uchun ko'rsatilgan adabiyotlarni mustaqil o'qishga kirishing.

4. Ilm bilan berilgan tarbiyaning zo'rligini anglash uchun ilmiy asarlarni bilan shug'ullanib, uning amaliyotiga amal qilishga harakatni ko'rsatib bering.

5. Ilmga amal qiluvchi inson – mutaxassis bo'lishni bosh qadam sifatida aytib o'tiring.

6. Ilmiy doklad, axborot, hisobot yozishning yo'llarini o'rganing, ushbu amaliyotni, tezisga kirishing.

### Zaruriy adabiyotlar:

1. Дарвиннинг қирим (Ўзбекча изоҳли таржима), Т., 1992.

2. Имом ал-Газзолий. Ихёу улумид-дин. Илм китоби, Т., "Маърифатнашр", 2003.

3. Н. Каримов. Истиқлол ва мафкура, Т., 1994 й.

4. Ўзбекистон республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2018 йил 28 декабрдаги "Тараққиёт йўлимизнинг муддати янада кезиб келиши" мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси (Халқ овози 2018, 29-декабр)

5. В. В. Хосе Хожиб. Қутадғу билиг, Т., 1990.

6. Фредерико Маёр. Келажак хотираси, Т., 1966.

7. С. Гершунский. Философия образования, М. 1998 г.

8. В начале творческого пути, М. 1986 г.

9. В. И. Ретирер. Развитие способностей исследователя, М., 1969 г.

10. М. Мукаррамов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили, Т., 1994 й.

11. Н. Шермухамедова. Фалсафа ва фан методологияси, Т., 2005.

12. В. Кахрамонов. Истиқлол даври ўзбек танқидчилиги методологиясининг янгиланиш тамойиллари, автореферат, Т., 2011.

13. Б. Каримов. Рухият алифбоси, Т., Ғафур Ғулом номидаги матбаа ижодий уйи, 2018.
14. Ҳотам Умутов. Илмий тадқиқот асослари, Самарқанд, 2006.
15. Ҳотам Умутов. Сайланма. 4-жилд, Т., “Ғав”, 2009.
16. Ҳотам Умутов. Талабанинг олтин китоби, Т., “Наврӯз”, 2015.

*Yana bir hikmat bor: Hazrati odam-  
Bilim, aql-u idrok sabab muhtaram.*

*Yusuf Xos Hojib*

*Bo'yra ustida suzishni o'rganib bo'lmaydi.*

*Yapon maqoli*

## IKKINCHI FASL

### ILMIY TADQIQOT BOSQICHLARI VA JANRLARI

## 1. ILMİY TADQIQOT BOSQICHLARI

XXI asr o'qish va o'qitishdagi inqilob har bir talabani o'quv va tadqiqot ishlarini olib borishi lozimligini kun tartibiga qo'ydi. Endilikda har bir talaba (bakalavr) o'qish davrida ilmiy tadqiqotchilik usuli va ko'nikmasini egallashi lozim. Shu sifati orqaligina talabalar mutaxassislik bilimlari va malakalarini oshirish, uzluksiz bilim olish odatini voqe qilish, ixtisoslik va xususiy metodika bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishini ta'minlash mumkindir.

Talabalarining ijodiy va ilmiy izlanishlarini muayyan maqsadlarni ko'zlab, biri ikkinchisiga asqatadigan ikki bosqichga ajratish mumkin:

1. Talabalarining o'quv tadqiqot ishlari (TO'TI)
2. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari (TITI)

Birinchisi bevosita ta'lim jarayonida bajariladi va u ilmiy tadqiqot ishlari (TITI)ga tayyorlanish bosqichi, ilmiy izlanishlarning alifbosi sanalanadi.

O'quv jarayonining hamma sohalari (ma'ruza, amaliy dars, zaruriy nazariy va o'quv adabiyotlarini konspektlashtirish, laboratoriya ishi, seminar, maxsus kurs, nazorat ishi, referat, kurs ishi, kollokvium, o'quv pedagogik amaliyot, ilmiy va ijodiy to'garaklarga a'zo bo'lish, doklad va hisobotlar bilan chiqishlar qilish hamda munozaralar bahslarga qatnashish, bitiruv malakaviy ishini bajarish kabilar talabani tadqiqotchilik iqtidorini shakllantiradi, har tomonlama yetuk mutaxassis yetishuvi uchun muhim va asosiy zamin hisoblanadi.

Bu haqda ko'plab uslubiy adabiyotlar (qo'llanmalar, tavsiyalar, kurs ishlari va malakaviy bitiruv ishlaridan mavzular...) yaratilgan. Ularda nazariy va o'quv adabiyotlarini o'rganish va konspektlashtirish, nazorat va kurs ishlari, o'quv-pedagogik amaliyot, amaliy dars, ilmiy to'garak, ekspeditsiya va ishlab chiqarish amaliyoti, ilmiy-nazariy anjumanlarda qatnashish va ma'ruzalar bilan chiqishlar qilish kabi muammolar ancha keng tahlil etilgan. Shu sababdan bu masalalar

<sup>1</sup> Н Ражабов. Мутахассисликка кириш, Т.: «Ўқитувчи», 1991, 91-101 бетлар. Студентларни илмий-тадқиқот ишларига ўргатиш юзасидан методик tavsiyalar (Тузувчи: Ҳ.И.Умунов), С., 1980; Ҳ. Умунов. Олий таълимда лекция, Самарқанд, СамДУ нашри, 1995; Ҳ. Умунов. Лекцияни консептлаштириш, Самарқанд, СамДУ нашри 1996; Ўзбек адабиёти тарихидан курс ишлари мавзулари, (Тузувчилар: Б.Н.Валихужаев, Р.О.Орзибеков), С., 1991; Ҳозирги замон ўзбек адабиёти тарихидан курс ишлари мавзулари (Тузувчилар: Мирзасев С.З., Шукуров Н.Ш., Абсамиев Х.), С., 1991; Малакавий битирув ишларининг мавзулари (Тузувчилар: Ҳ.Умунов, С.Мирзасев ва бошқалар), С., 2003, ва ш.к.



malakalarga mustaqil o'rganishni tavsiya qilgan holda, o'quv tadqiqot janrlarining kam o'rganilgan janrlari (referat, bitiruv malakaviy ishning dastlabki umumiy qonun-qoidalarini tekshiramiz. Ayni paytda, bakalavr va magistrning ilmiy-tadqiqot ishlari – ilmiy ma'ruza, xabarot, ilmiy hisobot, annotatsiya, tezis, taqriz, maqola, risola, magistrlik dissertatsiyasi (**birinchi bosqich**) kabi janrlarni ham o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etamiz. Doktorantlarning ilmiy - tadqiqot ishlarini qamragan avtoreferat, doktorlik dissertatsiyalari, magistrlik dissertatsiyasi, o'quv qo'llanma, darslik, ilmiy tanlangan asarlar kabi janrlar (**yuqori bosqich**) haqida ham to'xtalamiz. Maqsadimiz ilmiy tadqiqot janrlarining faqat umumiy tomonlarini, ularning qismlari va tarkibidagi bog'lanishni yoritmoqdir.

Ikki mulohazani alohida ta'kidlash joiz: Birinchisi. Har qanday tadqiqotning asosida ilm yotadi. Faqatgina o'quv tadqiqot janrlarining asosiy vazifasi - muayyan ixtisoslik va fanlar bo'yicha bilimlarga o'rnatish va uni egallashga imkoniyat yaratish bo'lsa, ilmiy tadqiqot janrlarining asosiy vazifasi – ijodkorlikka, ilmiylikka o'rgatish va yangiliklar yaratishga qaratilgan bo'ladi. Demak, birinchisida bosh maqsad – bilim egallashga, ikkinchisida esa – ilmiy yangiliklar yaratishga qaratiladi va dastlabkisida ilmiylikning quvvati «kuchliroq», «kuchsizroq» ko'zga tashlansa, ikkinchisida uning quvvati hamma masalalarni hal qiluvchi «qudrat»ga ega bo'ladi.

Ikkinchisi. Yuqorida aytilgan va ilovada alohida ko'rsatilgan bosqichlarning har biri o'zidan keyingi bosqich uchun zarurdir. Chunki ilmiy tizimidagi uzluksizlik shuni taqozo etadi. Ha, ilm – hosil va taqdim paytida, hosil beruvchi ekanligi ham shuni mohiyatga aylantiradi.

Ilmiy asarlarning hammasiga tegishli umumiy belgilar, xususiyatlar kabi har bir janrning o'zigagina xos bo'lgan sifatlari ham hammasi uni to'liq o'rganish, o'zlashtirish va unga amal qilish tadqiqotchining vazifasiga kiradi; bunday talablarga e'tiborsiz bo'lgan «ilmiy asar» yaxlitligini, «jonliligini» yo'qotadi, obrazli qilib taqdimda, biri bog'dan biri tog'dan bo'lgan fikrlardan, shoshma-shosharlik bilan chiqarilgan noaniq isbotlardan, ortiqcha bayon va ta'kidlardan, so'zlarni noo'rin yoki buzib ishlatishdan iborat «asar» bo'lib qoladi.

Yuqorida aytilgan mulohazalardan kelib chiqsak, dastavval ilmiy asarlarning umumiy xususiyatlarini o'rganish zarrati tug'iladi.

## 2. ILMIIY ASARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Ilmiy asarlar o'z oldiga qo'ygan maqsadiga, tanlangan materialning ilmiy yo'nalish-vazifasiga ko'ra turli-tuman janrlarga bo'linadi. Bularga referat, tezis, annotatsiya, taqriz, o'quv qo'llanma, darslik, adabiy portret, tanlangan asar va sh.k.

Ilmiy asarning umumiy xususiyatlari ham tabiat va jamiyatdagi ob'ektiv narsa va hodisalarning umumiy qonuniyatlarini o'rganishga qaratilganidan - mazmunidan kelib chiqadi. Ilmiy asarlar ob'ektiv dunyoni muhokama qilish, qilganda ham mantiqiy izchillik bilan ilmiy belgilar (atamalar, simvollar, formulalar, grafiklar, chizmalar, sxemalar va sh.k.)ning zarurlaridan keragicha foydalanib fikr yuritish va isbotlashga isbotlaganda ham aniq, to'liq, qisqa, yorqin isbot bilan ishontira olish orqali kashf etadi. Va uning kashfi muayyan mutaxassisga, oliy ma'lumotli kishilargagina tushunarli bo'lishi talab etiladi. Inson aqlining rivojiga, kamoliga xizmat qiladi.

Ushbu fikrni (ilmiy tafakkurni) nafis adabiyot (badiiy tafakkurlash)ga solishtirsak, mulohazalarning yanada yaqqolroq isbotlanishi ko'ramiz. Badiiy asarlarning umumiy xususiyatlari uning mazmunidan tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar, insonlarni ko'z o'ngimizda ko'radigan darajada jonli qilib tasvirlashdan va shu orqali ob'ektiv dunyoni o'zgartirishga intilishdan kelib chiqadi. Demak, badiiy asarlar (roman, qissa, hikoya, she'r, g'azal, ruboiy, drama va h.k.)da insonning ob'ektiv borliqqa munosabati va shu munosabat tufayli yuzaga keladigan uning o'ylari, hislari, fikr-mulohazalari ifoda etiladi, ifoda etilganda haqiqat o'ta ta'sirchan va obrazli qilib kashf etiladi. Uning kashfi buniq odamzodga tushunarli va tegishli bo'ladi. Inson ruhini toblaydi. Ruhiyatni ezgulikka burkaydi, pok va go'zal hayot egasi bo'lish orzusining amaliyoti borligiga ishonchini oshiradi.

Masalan, "Soch" haqidagi ikki xil asarni ko'raylik:

«O'zbek sovet ensiklopediyasi»dagi ilmiy maqola: «Soch odamning bosh terisidan o'sadigan ipsimon shox modda. S. mayin qattiq, jingalak, rangi qora, malla, oqish tusli bo'ladi. Qalin S. tolalar soni 80 – 140 mingta keladi. Ba'zi ayollarning sochi 1,5 metrgacha yetadi. S. ning rangi va o'sishi organizmning umumiy ahvoriga, avvala nerv va endokrin sistema holatiga bog'liq. Sog' lom kishilar sochi barcha oyda o'rta hisobda 1 – 1,5 sm o'sadi; keksayganda S. o'sishi susayadi va S. pokizalashib boradi. S. da azot, fosfor, oltingugurt, natriy, kaliy, kalsiy, magneziy, temir, marganes, mis tuzlari mavjud. Ular miqdori

erkaklar bilan ayollar sochida bir xil emas. Masalan: erkaklar sochida xaltachasiga nisbatan oltingugurt ko'proq bo'ladi. S. juda cho'ziluvchan; cho'zganda o'z bo'yiga nisbatan 2 marta uzayishi va yo'yib yuborilganda yana holiga qaytishi mumkin.

S. ning teri ustidagi qismi tola va teri ostidagi qismi ildiz deyiladi. S. xaltachasida joylashgan. Xaltacha atrofidagi yog' yaltirning yo'li ochiladi. S. o'rta hisobda 2 - 4 yil turadi. Keyin undan yangi S. chiqa boshlaydi. Ba'zan kishi qattiq qayg' urganda S. cho'ziluvchan to'kilib ketadi. 35 - 40 yoshda S. ning 1-2 tolasi oqaradi, yil o'tgan sari ko'payib, 60 - 65 yoshda deyarli hammasi oqarib bo'ladi.

Ushbu tez-tez yuvish (ayniqsa, qattiq suv va ishqorli suv bilan) S. xaltachasiga zararli ta'sir etadi. S. quruq bo'lsa, sovunlab yuvilganda xaltachasidagi ozgina yog'i ham yo'qolib, ko'rinishi ham o'zgaradi. Yog'li S. dom badam yuvilganda boshterisida ko'plab yog' ishlanib chiqadi. Ushbu butundan S. ni qaynatilgan suv va atir sovun bilan 7-10 kunda bir marta yuvish tavsiya etiladi. Bo'yash, oftobda yo sovuqda uzoq vaqt tashqir yurish ham S. ning o'sishiga zararli ta'sir etadi va to'kilib ketishiga sabab bo'ladi.

S. juda pishiq va gigroskopikdir. Shuning uchun havo namligini o'lchashda qo'llaniladigan asboblarda ishlatiladi. S. ni har xil saqlashning uning cho'ziluvchanlik xususiyatiga asoslangan. S.ning saqlanishi, ya'ni uzoq saqlanadigan jingalak qilish uchun S. ishqorli suv bilan ho'llanadi va isitiladi, bu uning normal o'sishiga zarar etkazadi. S. quruq bo'lganda, to'kilib turganda, ayol yuqumli kasalliklardan tuzalayotganda va homiladorlik oxirida permanent bo'lganda, ayniqsa, zararlidir. Bir qator kasalliklar (masalan, zaxm, atrofiya, mikrospiriya) da to'kilgan S. o'rniga yangisining chiqishi ko'rinadi yoki butunlay to'xtaydi. Natijada S. siyraklashadi, bora-bora to'kilib ketib qoladi» (O'zbek sovet ensiklopediyasi, 14 tomlik, 10-tom, Toshkent, 1978 yil, 269-bet).

Ilmiy asarlarning hamma janrlariga xos bo'lgan «mantiqiy fikrlash, muhokama yuritish, bilim berishni» va ayni paytda, ilmiy maqola janri (ma'naviyat maqola ko'rinishi)ning o'ziga xosligini aniqlash, u haqida fikr va ob'ektiv tushunchani hosil qilish uchun, ataylab, maqolaning muhim to'liq keltirdik.

Undan sochning qanday moddaligi, rangi, tolalari, o'sishi, tarkibi, qanday tuzilishi, to'kilishi, oqarishi; uni yuvish, bo'yash, jingalak qilish; uning pishiqligi, ishlatilishi, o'sishini ta'minlash, turli kasalliklar va uning aloqasi, soch haqidagi bilim va unga tayanishning ahamiyati

ochiq bayon etilgan. Nerv, endokrin, azot, fosfor, oltinugurt, natriy, gidroskopik, permanent, trixofitiya va shu kabi atamalarning keng qo'llanishi soch haqidagi ilmga aniqlik kiritgan va maqola tibbiyot mutaxassislariga, shu sohaga yaqin oliy ma'lumotli kishilarga mo'ljallangan va to'liq tushunarli bo'lishiga asosiy diqqat qaratilgan. Matnda «soch» so'zi o'ttiz martaga yaqin takrorlangan. Birona so'z (hattoki, badiiy o'xshatishda ishlatiladigan – simon qo'shimchasi bilan) yaralgan «ipsimon» so'zi ham) emotsionallik xislatiga ega emas; u soch haqidagi tushunchani aniq, obyektiv, «quruq» qayd qilishga bo'ysindirilgandir.

Undagi barcha so'zlar oddiy axborot beruvchi vositalardir; ular kechinmalarimizga ta'sir etmaydi, hislarimizni qo'zg'atmaydi. Kayfiyatimizni o'zgartira olmaydi. Faqatgina soch haqidagi axborot orqali tushunchalarimizni kengaytiradi, chuqurlashtiradi. Aqlimizga ta'sir ko'rsatib, uni boyitadi.

Endi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning «Yana oldin sozimni»(T.,1991 yil, 509 - bet) to'plamidagi quyidagi she'riga e'tiborni qarataylik:

*Bir tutam sochlaring mening qo'limda  
G'ijimlab o'paymi yo tarab yechay,  
Sir deb saqlaganing mening qo'ynimda,  
Sir deb saqlayinmi yo yelga sochay.*

*Sochilgan sochingday sochilsa siring,  
Anor yuzlaringni kimga tutasan?  
O'zing-ku «ularda vafo yo 'q!» deding,  
Nimaga ularni tag'in kutasan?*

*Ochilgan qo'ynimda to'lg' angan taning  
Ko'ngildan qilcha ham hid yetkazmasa,  
Menga yaqinlashma, ey, tirik bo'sa!  
«Sevdim» deganlaring yolg' ondir sening!..*

Poetik matndagi har bir so'z estetik qimmatga egadir. U oddiy axborot berish vositasidan hissiy munosabatlarni jonlantiruvchi obrazga aylanadi. Jumladan, «Soch» so'zini inson boshidagi soch (inson tanasidagi muayyan a'zoning nomi)ni anglaymiz. Lekin uning biron-bir hissiy ta'siri bo'lmaydi. Ammo ana shu so'zni his-tuyg'ularga burkasak,



bu yor maftunkorligining timsoli tarzida tasavvur etsak (bu tasavvurni uyg'otish uchun «soch» boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishadi. O'z ma'natini kengaytirib yor qalbining ramziga qiyoslanadi), u obrazga qiyoslanadi, ya'ni tiriladi. Soch obrazi tuyg'u va hislarimizni uyg'otib qalbimizga keltiradi, qalbimiz ko'zini ochadi va go'yo yorning bir tutam yor qalbini g'ijimlab o'pganday yoki tarab yozganday bo'lasiz...

Shu erda soch haqida hech qanaqa ilmiy tushuncha berilmagan, lekin u haqidagi umumiy ma'lumot ham, shu ma'lumotning biron aniq, aniq belgisi ham yo'q. Undagi soch shoirga yaxshi ko'rgan munosabatiga munosabatini ta'sirchan, o'ta hissiyotga to'lug' tarzda ifodalashga bahonai-sabab bo'lmoqda. Nozaninning yuzaki sevgisini, uning go'zalligini emas, balki uning qalbida yetilgan sevgisining, haqiqiy «tirik bo'sa»sining – haqiqiy muhabbatning talabgori hissiyotlarini ifodalashga xizmat qilmoqda. Matndagi jonlantirish («Bir kishini sochlaring mening qo'limda, G'ijimlab o'paymi, yo tarab yozganday») metonimiya («tirik bo'sa»), sifatlash («Anor yuz»), alletratsiya (qiyoslangan sochingdek sochilsa siring») kabi vositalar ham, iltifot, takroriya, takrorlar ham lirik qahramon qalbidagi tuyg'u va hislarni yanada to'raligi, aniq nuqtalari bilan ko'rishimizga, jonli his etishimizga xizmat qiladi. Shu hayotiy manzara butun tafsilotlari bilan haqqoniy obrazda qaytadan yaralgani uchun – har birimiz o'zimiznikidek qabul qilamizki, bu uning ommaviyligidan, insonning barchasiga tegishli bo'lgan dalolat beradi.

Demak, ilmiy asarlar qaysi janrlarga bo'linmasin, ularning tashkilida M.Mukarramov yozganidek, «aniqlik, ob'ektivlik, qisqalik, to'liqlik, neytrallik va mantiqiy izchillik» (Hozirgi o'zbek adabiy tilining zamonaviy stili. T., 1984 yil, 23-bet)larda bir xillik saqlanadi. Biroq ilmiy bayon ilmiy asarning maqsad va vazifalari hamda konkret janri talablari asosida turli-tumanlik kasb etadi. Jumladan, ilmiy – ommabop janr (maqola, ommabop maqola, fan arboblari haqidagi ocherklar kabi) da to'liqlik tushunadigan atamalar ko'plab ishlatilsa, muayyan fanning bilim sohasi bo'yicha yangiliklar, yutuqlar, samaralar, fan arboblarning ommaviy hollari omma tushunadigan tarzda bayon etilsa, darslik va qo'llanmalarda didaktika mana-man deb turadi; chizma, rasm, misol, masalalar ko'p o'rin beriladi; nazariya bilan amaliyot bog'lanadi, ilmiy faktlar jami o'rganuvchilarga tushunarli va obrazli til bilan bayon etiladi; oddiylikdan murakkablikka o'tuvchi, yuzaki ko'rinishdan mohiyatni tushunishga imkon beruvchi izchillikka qat'iy rioya qilinadi.

## ILMIY ASAR JANRLARI MAQOLA

(arabcha soʻz boʻlib, fikr bildirmoq, aytilgan soʻz; toʻplam, jurnal, gazeta va sh.k. uchun yozilgan yoki ularda bosilgan hajmi uncha katta boʻlmagan ilmiy yoki publitsistik asar maʼnosini beradi.)

Qomuslarda maqolaning farqlanuvchi quyidagi umumiy belgilar borligi taʼkidlangan: Ahamiyatli hodisa yoki bir guruh hodisalarni tushunish va tahlil etish; tavsiya etilgan gʻoya, nuqtayi nazar (konsepsiya)ni tasdiqlovchi aniq va ishonchli umumlashma va xulosani chiqarish (Jumladan, qarang: Большая советская энциклопедия, Т.24, 1-книга, М., 1976, стр. 462).

Demak, maqola ilmiy asar janri boʻlib, u keng maʼnoda gazeta va jurnallarda, toʻplamlarda u yoki bu soha yuzasidan jamlangan tadqiqotlarda bosilgan asarlarga nisbatan ishlatiladi. Maqola bajarayotgan vazifasiga qarab-publitsistik, problematik (muammoli), nazariy, tanqidiy, ilmiy, uslubiy xarakterda boʻlishi mumkin, bunda tashqari, bosh maqola (ilgʻor tajribalarni yoki xunuk nuqsonlarni umumlashtiruvchi maqola) ham amaliyotda koʻproq uchraydi.

### PUBLISISTIK MAQOLA –

da ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinadi; davlat siyosatini, iqtisodiyot, fan, madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilgʻor ish tajribalari umumlashtiriladi. Uning quyidagi koʻrinishlari uchraydi:

#### A) Problematik maqola –

da dolzarb hodisaning (masalan, bozorli iqtisodning) muammoli masalalari tahlil etiladi. Shu sohadagi yutuq va kamchiliklar bahsli tarzda umumlashtirilib, uning ertangi rivojiga turtki beruvchi haqiqiy yoʻllarini munozaralar shaklida asoslaydi.

#### B) Bosh (redaksion) maqola –

da jurnal yoki gazetaning, toʻplam yoki tadqiqotlar jamining eng muhim va birinchi maqolasi boʻlib, unda muayyan guruh yoinki bir hodisa (masala)ning mohiyati chuqur tahlil qilinadi; ularning dolzarbli yechiladi, shu yechimning yoʻl-yoʻriqlari aniq koʻrsatiladi.

### V) Nazariy maqola -

bugungi bozorli siyosatning asoslari va prinsiplari, fan-texnika, amaliyot va ma'naviyatning asosiy g'oyalari sistemasi, yutuqlari ko'rsatiladi, unda inson tajribasi, amaliyoti, qarashlari tahlil qilinadi, muayyan sohaning yangi tomonlari, aloqalari ochib beriladi, shu sohadagi bilim chuqurlashtiriladi; u o'quvchining g'oyaviy tasavvurini, ilmiy qarashlarini boyitish, kengaytirish bilan ko'proq shug'ullanadi.

### G) Tanqidiy maqola -

ijtimoiy taraqqiyot ziddiyatlari, xatoliklari, kamchiliklari aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llaridagi aniq takliflar ko'rsatiladi, ayni vaqtda, ularning kelib chiqish sababi aniqlanadi, mohiyati ochib beriladi. O'quvchining ijtimoiy burchi-insoniylik vazifasiga ta'sir ko'rsatadi va xato, kamchiliklarni yengishga chorlaydi va sh.k.

### ILMIY MAQOLA -

muammolari bilan shug'ullanadi, unda ob'ektivlik, mantiqiy fikrlilik, aniqlik, isbot yaqqol ko'zga tashlanishi shart.

Ilmiy maqolada imkoni boricha chizmalar, sxemalar (tavsiflovchi diagrammalar) kam bo'lishi va uning hajmi 8-10 betdan oshmasligi talab qilinadi hamda jurnal, to'plam, tadqiqotlar majmuasida bosib chiqarishga imkoniyat beriladi; muayyan soha mutaxassislari bilimini oshirishga imkon beriladi.

Duda bugungacha fanda hal etilmagan masala mohiyatining mohiyatini aniqlash uchun tanlangan bir yoki ikki qirrasini (hamma qirralarini o'rganish zarur bo'lmaydi) tahlil qilish zarur bo'lmaydi. Fikrlar, mulohazalar eng tipik fikrlar, faktik material, formulalar, qonun bilan isbotlanadi. Siquqlik, aniqlik va ayni paytda, asosiy xulosani tushunarli va ishonitirarli qilib, qisqartirilgan tarzda bayon etish olimlik salohiyatining sifat belgisi hisoblanadi.

Misol uchun, N.Shukurovning «So'z sehri, she'r mehri» maqolalar to'plamidagi «Hayotiy asoslar va romantik bo'yoqlar» (9-betlik) maqolasi ham yuqorida aytilgan mulohazalarning isbotini yaqqol ko'rsatadi.

Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning «Charxning men uchun jahru-jafosi qoldimu?», «Qora zulfing firoqida parishon bo'lmagan bor», deya boshlanuvchi ikki g'azal hayotiy asoslarini tahlil qilish va ularning romantik ishqiy g'azallar ekanligini isbot qilish.

etish muammosi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Ana shu muammo ochib berishga xizmat qiluvchi materiallar tanlanadi: Akademiya B.Valixojayevning Bobur haqidagi ilmiy ocherki, yozuvchi P.Qodirovning g'azal etnogenezi haqidagi ma'lumotlari, «Boburnoma» va undagi aks etgan 1501-1504-yillar voqealari, «Muxtasar», ikkala g'azalning matni.

Fikr-mulohazalar ana shu materiallar asosida mantiqiy izchillik bilan (g'azallar «qalbida»gi aniq hayotiy kechinmalar, kuchli ijtimoiy mazmun) baytma-bayt matn tahlili asosida ochiladi. «Ishqiy kechinmalar ifodalovchi an'anaviy baytlar zamiriga bevosita hayotiy sarguzashtlar mislsiz azob-uqubatlar natijasida hosil bo'lgan fikrlar va his-tuyg'ular ham ustalik bilan singdirib yubirilgan»ligi ishonarli isbotlanadi.

Ilmiy isbot, qisqalik va zargarlik asarni to'liq tushunish, Bobur g'azallarining sehrini tuyish imkoniyatini yaratgan. Jumladan, uning keyingi musajja' san'atini o'zida mukammal qamragani (ichki qofiyalarning fikr, tuyg'uni kuchaytirishi, o'ynoqi ohangdorlik ta'minlashi), mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun (harbiy musammani solim) bahrida yozilgani, oshiqlik tuyg'usi jo'shqin natijalar bilan ifodalangani yaqqol namoyon bo'ladi. Muallif yozadi:

«Labing bag'rimni qon qildi, ko'zimdin qon ravon qildi,  
Nega holim yomon qildi, men'ondin bir so'rorim bor».

Baytdagi tanosib san'ati (bag'ir, qon, yosh, lab qizilligi), ichki qofiya va radiflar (qon qildi, ravon qildi) kuchli poetik fikr va o'ynoq ritm hosil qilgan bo'lsa, «so'rorim» so'zining ikki ma'noda ishlatilishi (tajnis san'ati) zavq-shavqni yanada oshiradi. «So'raman» va «so'rayman» ma'nolarida «So'rorim bor» birikmasi lirik qahratam xarakteriga kuchli bir o'ktamlik, umidbaxshlik bag'ishligi (N.Shukurov. So'z sehri, she'r mehri, Samarqand, 1992 yil, 18 - bet).

Shu tarzda Bobur g'azallarining sehrli, maftun etuvchi kuchini bebaho ma'naviy mulk ekanligi kashf etiladi va bundan quyidagilarga asosli xulosa chiqariladi:

«Xullas, bu g'azalda yuzi guldek nafis, sochi sumbuldek qora, lab yoqutdek qizil go'zal yorning ideal obrazi yaratiladi va oshiqning yuzi shu go'zal yorga maftunligi, fidoiyligi romantik bo'yoqdorlik bilan g'oyat go'zal shaklda ifodalanadi. Fozil o'quvchi qalbida ham oshiqlik tuyg'ularini, go'zallikka maftunlik hissini alanga oldiradi, unga zavq-shavq, ma'naviy lazzat bag'ishlaydi».



Ushbu va yuqoridagi «soch» haqidagi maqola misolida ixtisoslik bo'yicha ilmiy tushunchalar, atamalarning ko'p ishlatilishini, ilmiy maqolaning faktlar misolida isbotlanishini, mantiqiy izchillikni, bayonning aniqligi qanday bo'lishi lozimligini angladik. Biroq ikkala maqolaning tafvut qiladigan tomonlari ham bor: «Soch» da hajm juda katta, unda shartli qisqartmalar ko'p ishlatilgan; obrazli fikrlash uchun zarur bo'lmaydi. «Hayotiy asoslar va romantik bo'yoqlar»da esa, hajm-kamalak maqola hajmiga to'g'ri keladi, qisqartmalar ishlatilmagan, obrazli fikrlash uchun zarur bo'lmaydi.

Demak, ikkalasining janriy mazmuni bir, farqi shaklidir. Shuning turli-tumanligi bayon qilish «material»ga, ilmiy maqolaning badiiy mavzularda, turli olimlar tomonidan yozilishiga, konkret asarning mavzu va ehtiyojlariga, uslubiga borib taqaladi. Har bir muallifning badiiy qarashlari, tajribalari, bilimi, saviyasi, fikr yuritishining o'ziga xosligi har qanday asarda o'z muhrini qoldirishi tabiiydir. Shuning uchun badiiyotga, tarixga, tilshunoslikka va sh.k.) fanlarga oid ilmiy maqolalarda isbot va xulosalarning ta'sirchanligini, «yuqumligini» ta'minlashga xizmat qiluvchi obrazlilik foydadan xoli bo'lmaydi. Foydali narsa o'z o'rnida ishlatilganda ilmiy tushuntirishga xizmat qilishi aqlni toblaydi. «Albatta, ilmiy stildagi obrazlilik bilan badiiy adabiyotdagi obrazlilik farqlanadi.

Ilmiy stilda obrazli nomlar faqat nominativ atama funksiyasini, badiiy adabiyotda esa o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatish vazifasini bajaradi. Obrazlilik (Emotsionallik) kategoriyasi agar ilmiy stilda ishlatilsa, «nursiz» holda ko'rinsa, badiiy adabiyotda esa «jonli» tarzda bayon bo'ladi. Masalan, uchar yulduz, somon yo'li astronom uchun «soch» termin vazifasini o'taydi, yozuvchi uchun esa bu so'z birikmalari yaratilishi yoki obrazli ifoda manbai bo'lishi mumkin» (I. R. Mamonov, I. Rasulov va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi, T., 1984 yil, 25-bet).

Ilmiy maqola kompozitsiyasidan ko'rinyaptiki, u yaxlit bir butun bo'lishi shart. Garchi triada – kirish (mavzu tanlash, uning nazariy, metodik ahamiyati, shu sohada izlanishlar obzori), asosiy bayon (tadqiqot metodikasining qisqacha bayoni, tadqiq va tahlilning isboti, xulosalari), xulosa (takliflar, xulosalar) dan iborat bo'lsa-da, ular bir-biri bilan mantiqiy aloqa tirik organizmdan bus-butun mustaqil asarni yaratish shart.

Albatta, dastavval, maqolaning nomi, muallifning ismi-sharifi, maqolaning (ilmiy tashkilot yoki ishlab chiqarish korxonasi) nomlanishi

qayd etiladi. Maqolaning oxirida foydalanilgan (yoki iqtiboslar olingan) adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Har qanday kichik ishda ham inson fikri charxlanadi, o'tkirlashadi. Ayniqsa, o'sha ishning ko'zini bilish, uni tez va oson bajarishga («Ishchiga bir tanga, ishbilarmonga ming tanga» deganlaridek), ko'pga asqatadigan ijodiy xulosalar berishga sabab bo'ladi. Ilmiy asarlar uslubining, ilmiy maqola janrining umumiy va ba'zi qirralarining tahlili ilm bilan shug'ullanishni istagan kishilarga yordam beradi, deb o'ylaymiz, bunga Sizdan faqat muhabbat, o'zligini butunlay baxshida qiluvchi muhabbat bo'lsa bas. O'shanda maqsadingiz ushaladi.

### *Maqola yaratish uchun:*

1. Maqola janrining xususiyatlarini nazariy jihatdan to'liq anglashga va uning to'kis bo'lishiga harakat qiling.
2. Tanlagan mavzuingizga oid mavjud ilmiy asarlarning jamiini o'qib chiqing. Uni konspektlashtiring.
3. Maqolada o'zingiz aytmoqchi bo'lgan yangi fikrni, kashfiyotni «bosh g'oya» qilib oling va o'shaning mazmun-mohiyatini ochib berishga moslab maqola kompozitsiyasini tuzing.
4. Maqolangizda isbotlanmagan yoki dalillanmagan fikr-mulohazalar bo'lmasin. Ortiqcha va mayda-chuyda faktlarni tushirib qoldiring.
5. Maqolaning tili va uslubiga diqqat qiling. Hayajonli, ehtirosli jummalarni chegirib tashlang. Ilmiy muhokama va isbotga mantiq va dalillarga asoslangan gaplarni e'zozlang.
6. Shu maslahatlarga asoslanib, maqola yozing. Aytganingizda chiqmasa, bir necha kundan so'ng, qayta yozing.

### **ANNOTATSIYA**

(lotincha annotatsiya – xabar, ma'lumot)

Kitob, monografiya, qo'lyozma asarlarning qisqacha xarakteristikasini o'z ichiga oladi, ularning mazmuni, ahamiyati juda sinqiq tarzda bayon qilinadi; asarning qaysi kitobxonlar tomonidan mo'ljallanganligi ham qayd etiladi.

Masalan, professor H.Umurovning «Qahramonning ma'naviy olami va epiklik» (Томскент, «Фан», 1995) asarida annotatsiya quyidagicha berilgan:

*«Ushbu risolada Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida qahramonlar ruhiyatini tasvirlashdagi o'ziga xos takrorlanmas mahorati tahlil qilingan.*

*Risola tadqiqotchilar, oliy o'quv yurtlarning o'qituvchi va talabalariga, shuningdek, adabiyot bilan qiziquvchi keng kitobxonlarga mo'ljallangan».*

Yozuvchi Oybekning «Adabiyot to'g'risida» (Тошкент, «Фан», 1985) to'plamiga quyidagicha annotatsiya berilgan:

*«Ushbu kitobchada O'zR Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekiston xalq yozuvchisi M.T.Oybekning adabiyot haqidagi qimmatli fikr va mulohazalari o'rin oldi. Atoqli shoir va adibning adabiy-tanqidiy qarashlari ifodalangan bu fikr-mulohazalar katta estetik qiymatga egadir.*

*Risola keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan».*

Annotatsiya, asosan, muayyan asar titul varag'ining ikkinchi betida chop etiladi. Ba'zi asarlarda muxtasar «Kirish» - so'z boshi yoki debocha bo'lib, unday asarlarda annotatsiya bo'lmashligi ham mumkin.

Annotatsiyaning referativ jurnallar, nashriyot rejalari, kutubxona kataloglariga yoziladigan turlari ham mavjud (M.Mukarramov) bo'lib, bu ma'lumotlar soha mutaxassislariga zarur adabiyotlarni tez tanlashga, uni sotib olish uchun oldindan buyurtma berishga imkoniyat beradi.

Jumladan, «O'zbekiston Fanlar Akademiyasi «Fan» nashriyotining 1992-yilgi nashr rejasi» kitobining 204-raqami mazmunini ko'raylik:

«204. Umurov H.I. Qahramonning ma'naviy olami va epiklik fikri o'zbek romanlarida psixologizm masalasi mas. mux. Karimov Ye.A.;  
► Ma'ruza Davlat pedinstitut. – Toshkent: fan, 1992 (1U kv.) –10 t.

Monografiya o'zbek sovet adabiyotida psixologizmning tarixi, xarakteriyasi va tipologiyasi, uning shakl va prinsiplarini tahlil etishga bag'irlangan Unda psixologizmning shakl va prinsiplarining dalil va asoslari, qiyama, subektivlik va ob'ektivlik, hayot haqiqati va badiiy shartlilik, xarakter va sharoit bilan bog'liqligi jihatlari ham yoritiladi.

Kitob filologlar, oliygohlarning o'qituvchi va talabalariga hamda kitobxonlarga mo'ljallangan.

Buyurtma .....

Nusxa.....

### **Annotatsiya yaratish uchun:**

Annotatsiya qilinayotgan kitob, monografiya, maqola, qo'lyozma yoki boshqa muammasining mazmuni bilan to'liq tanishish, uning maqsad va vazifalarini

aniqlang, bugungi ahamiyatini, amaliy qo'llash darajasini tasavvur qiling.

2. Tadqiq qilish, aniqlash va tasavvur qilish natijasida tug' ilmiy xulosalaringizni lo'nda va siqiq qilib bayon qiling.

3. Yozilgan xulosalaringizni umumlashtiring va eng qisqa shaklda bayon qiling. Bayoningizdagi so'zlar faqat o'sha asarning mazmunini ifodalasin.

4. Annotatsiya qilinayotgan asar kimlarga mo'ljallanayotganini aniqlang.

5. Yuqoridagi ko'rsatmalar asosida yaratilgan annotatsiyani-ilmiy va badiiy asarlarni konspektlashtirish daftaringizga chiroyli qilib ko'chirib oling.

## ILMIY MA'RUZA

(Ilm – arabcha so'z, kishining o'qish, o'rganish va hayotiy tajriba orasida o'rttirgan bilimi, ma'lumot; ma'ruza – arabcha so'z, dokladcha)

Ilmiy ma'ruza maqola janri xususiyatlariga yaqin turadi: unda ba'zi muayyan mavzuning ilmiy va amaliy xarakteristikasi, asosiy ilmiy qarashlarning mohiyati, xulosa va takliflar beriladi. Bu janrda «bota g'oya»–markaziy va asosiy fikr alohida ta'kidlanadi, zarur dalillar asosida isbotlanadi. Ilmiy maqola yozma asar hisoblanadi. Ilmiy ma'ruza matni og'zaki bayon etiladi, tinglovchilar bilan ilmiy ma'ruzachining jonli muloqoti asosiga quriladi.

Ilmiy ma'ruzaga (10-15 minut), ilmiy axborotga (5-7 minut) ajratilgan vaqt chegaralanganligi sababli, uning asosiy mazmuni (qonunlar va qonunlari) juda tig'iz va tinglovchilar tez ilg'aydigan tarzda (tinglovchilar diqqatini mayda-chuyda detallarga bo'lib yubormasdan) bayon qilinadi.

O'quv ieksiyasida–o'quv pedagogik maqsad asosida ilmiy faktlar tinglovchilarning bilimini kengaytirishga qaratilsa, u ekspressiv emotsionallikka ega bo'lsa, ilmiy ma'ruza – ilmiy faktlarning izoh bayoniga, isbotli, mantiqli bo'lishiga, yangi kashflarning ilmiy tahliliga qaratiladi, tinglovchilarni shu sohaning eng yangi ilmiy yangiliklari va muallifning kashfiyoti bilan tanishtiradi.



### *Ilmiy ma`ruza yaratish uchun:*

1. Tanlagan mavzu bo'yicha yaratgan yangiligingiz(kashfingiz)ni dalillar asosida isbotlashdan boshlang.

2. Ilmiy ma`ruza og'zaki bayon etilishini nazarda tutib, uni talabchilarga yetkazish uchun, og'zaki nutqning qonun-qoidalardan foydalanib bo'ling.

3. Bosh g'oya(asosiy fikr)ni ochish yo'lida faqatgina izchillikka, mantiqliqlikqa, faktlarga va isbotga amal qiling.

4. Yozma nutq bilan og'zaki nutqning dialektik aloqasiga e'tiborini birinchi va ikkinchisini ko'z-ko'z qilsin.

### **ILMIY AXBOROT**

(Ilm ... Axborot – arabcha so'z, «xabar, ma'lumot, informatsiya» ma'nolarini ifodalaydi)

Bu janr ko'pincha muayyan fanning ma'lum bir yangi yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish, anjuman, davra suhbat, bahs va munozara sharoitlarini juda siqiq tarzda tahlil qiladi va uning mohiyatini mohirlikka ilmiy xabar tarzida yetkazadi.

Jumladan, Samarqand davlat universitetining sobiq rektori, O'zbekiston Respublikasi FA akademigi J.Sattorovning «Farb o'quv-uchuvchilari uchun ma'ruza yozishning asosiy qoidalari» (Samarqandda Vostoka); 1 may 1996 йил) asarida Amir Temur va uning davri merosini o'rganish va yoyish bo'yicha universitetda 1996 yilda fevral-mart oylarida o'tkazilgan 15 ta ilmiy anjuman haqida xabar beradi. Ana shu anjumanlar jarayonida kashf qilingan yangiliklarning mohiyatini, SamDU olimlarining shu mavzuga qo'shgan hissalarini «Amir Temur tuzuklari» va Istiqlol mafkurasi o'rtasidagi aloqadorlik» (prof. M.Umurov)ni, «Amir Temurning G'arbiy Yevropa qirollari bilan aloqalari» (prof.M.Xolbekov)ni, «Amir Temur davri adabiyoti muvotijining masalalari» (akademik B.Valixo'jayev)ni asosli dalillar asosida qisqacha sharhlaydi. Umumlashtirish asosida SamDUning muvotij yubileyiga tuhfa sifatida ilmiy jamoatchilikka ma'lum qiladi...

Demak, ilmiy axborot-muayyan sohadagi eng yangi yutuq va muvotijlarning ilmiy daragidir. Ilmiy axborotchi esa ilm jarchisidir.

### *Ilmiy axborot yaratish uchun:*

1. Muayyan fanning ma'lum bir yo'nalishi bo'yicha chuqur bilimga, eng so'nggi yangiliklarga ega bo'lishga intiling.

2. Shu soha bo'yicha o'tkazilayotgan (yig'ilish, bahs, davra suhbat, anjuman va sh.k.) tadbirga to'liq qatnashing. Eshitganlaringizni bilimingiz bilan solishtiring, yangiliklar bo'lsa, albatta, yozma daftaringizga qayd qiling.

3. Shu soha bo'yicha yangi yutuq va xulosalarni umumlashtirib, Aniq qilib mualliflarini ko'rsating. Shundan so'ng uni matbuot orqali ommalashtirishga, unga qiziqish uyg'otishga intiling.

## **ILMIY HISOBOT**

(Ilm...Hisobot – arabcha so'z, «O'z ishlari, topshiriqning bajarilishi va sh.k. haqida boshliq, tashkilot yoki jamoatchilikka og'zaki yoki yozma ravishda beriladigan rasmiy axborot»)

Ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtiruvchi axborot–ilmiy hisobotdir va u ilmiy tadqiqotchi yoki olimlar jamoasi tomonidan rasman asosida bajarilgan ilmiy izlanishlarning, ularga sarflangan xarajatlarning natijalarini umumlashtiruvchi o'ziga xos huquqiy hujjat sanaladi. Jumladan, aspirantning ilmiy hisoboti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Rejalashtirilgan vazifa va dasturlarning qisqacha bayoni va ularning bajarilgan qismi haqida aniq dalillar tahlili. Ularning isboti va umumlashmasi.
2. Tadqiqot metodi va xarakteristikasi.
3. Olingan ilmiy xulosalarning mohiyati. Yangi kashflarning tahlili va ularning amaliy ahamiyati.
4. Qilingan ishlarning va navbatga mo'ljallangan tadqiqotning mazmuni, yakunlari.
5. Xulosa va takliflar.

### *Ilmiy hisobot yaratish uchun:*

1. Ilmiy tadqiqot natijalari haqidagi hisobotlar yarim yillik, bir yillik yoki ko'p yillik bo'lishi mumkin. Bu o'sha tadqiqotning mazmuni, hajmi, bajarilish rejasi bilan bog'liqdir.

2. Ilmiy hisobot tasdiqlangan rejaning bajarilishi darajasini yoritadi. Ilmiy izlanishlarning natijalarini tahlil qiladi.

3. Ilmiy hisobot rasmiy va huquqiy hujjat hisoblanadi. Shuning uchun bu hisobotda kelajakda bajarilishi lozim bo'lgan masalalar ham qayd etiladi. Ilmiy tadqiqotning natijalari haqida xulosa va takliflar ham kiritiladi.

4. Ilmiy hisobot janrini egallash uchun o'zingizning bir yillik ilmiy faoliyatingizni tahlil va tadqiq qiling; erishgan natijalaringizning miqdori va sifatini baholang. Bundan o'zingizcha xulosa va saboqlar chiqaring. Ushbu amq faktlar tahlili misolida qisqa, lo'nda bayon qiling.

## TEZIS

(grekcha teso- tasdiqlayman)

Ilmiy ma'ruza, ilmiy axborotning asosiy holatlarini o'zida qamraydi. Unda fikrlar qisqa, lo'nda, tushunarli va eng asosiysi ta'riflovchi xarakterda bo'ladi; ma'ruza yoki axborotdagi yangi kashonchalar, yangi qarashlarning hammasi atroflicha isbot qilinmaydi, balki ularning «qaymog'i» alohida ta'kidlanadi. Tezislar 3-7 punkt qamr bilan iborat bo'lib, ko'pincha arab, rim raqamlari yoki abzas orqali ta'rif qilinadi; ko'pincha 1,5 – 2 betlik (mashinkada yozilgan) matn hajmida, ba'zan undan ham qisqaroq bo'ladi.

Jumladan, «Leksiya va ko'rgazmalilik»<sup>1</sup> mavzusidagi ma'ruzani quyidagicha tezisga aylantirish mumkin:

1. «Yuz marta eshitgandan ko'ra, bir marta ko'rgan afzal» qonunlaridek, ko'rgazmalilik leksiyaning ta'sirchan qiladi, qiziqarli ta'rifini ta'minlaydi, uzoq vaqt esda qolishiga sabab bo'ladi.

2. Ko'rgazmalilik – ikki xil (ichki va tashqi) bo'lib, ularning turli – turli ko'rinishlari (obrazlilik, ifodali o'qish, imo-ishoralar, diafilm, sahna, magnitofon, televizor, kompyuter kabi texnik vositalar; suratlar, kashonchalar, kitoblar, diagramma kabi ko'rgazmali qurollar) mavjud. Ushning hammasi leksiyaning mazmuniga bo'ysinuvchi vosita, mazmunning «libosi»dir.

3. Bugungi talabalarning diqqatini oddiy haqiqatlar, qolip fikrlarni ta'riflash va quruq til orqali bayon qilish bilan jalb qilib bo'lmaydi. Bir vaqtning ichki va tashqi monolog bilan ularning uyqusini qochirish ham qiyin. Shuning uchun o'zni bilan talabalarning his-tuyg'ularini ta'rifladigan, uyqularini qochiradigan obrazlilikning ta'sirchan

<sup>1</sup> И. Муров. Лекция назарияси ва методикаси, Самарканд, 1988 йил, 41-48- бетлар.

ko'rinishidan (O'xshatish, kinoya, mubolag' a, ritorik so'roq, ritorik murojaat, hazil-mutoyiba va shu kabilardan) foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4. O'qituvchi nojo'ya, yasama qiliqlardan, bir xil va tinimsiz harakatlardan, tashqi qiyofani (kiyimlarni, sochni) auditoriyada tartib solishdan, xomuzga tortishdan, burun qoqishdan, yuzni burishtirishdan, po'pisa va qo'pollik qilishdan, qo'lni «bigiz» qilishdan saqlanishi bular madaniyatsizlik belgilari ekanini esdan chiqarmasligi shart.

5. Albatta, imo-ishoralar tili talabalarni yengillikka, odobsizlikka inson qadr-qimmatini yerga urishga o'rgatmasligi zarur. Tili yo'q xalq harakatlarning hamma ko'rinishlari insoniylashgan bo'lishi va har birining asosida samimiylilik, haqiqat, odoblilik yotishi lozim.

6. Leksiya va ko'rgazmalilik shunchalik uyg'unlashsinki, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ijodiy muloqotni sermazmun va samimiy bo'lishini ta'minlasin, ilmni chuqur o'zlashtirishga olib kelsin.

### **Tezisni yaratish uchun:**

1. Yuqorida aytganimizdek, o'qib chiqilgan asarning yadrosini tayyorlanayotgan nutqning asosiy mag'zini qisqacha bayon qilish-to'liqlashtirish ekan, dastavval, asar yoki materialning mazmunini bilish uchun uning mazmuni to'liq o'qish lozim. O'qish jarayonida yangicha tushunchalarga, yangi g'oyalar va qarashlarga diqqat qaratiladi va ular belgilab qo'yiladi.

2. O'rganilayotgan asar mazmuni bir nechta yaxlit ma'noli bo'laklarga ajratiladi va har bir bo'lak (parcha)ning asosiy ifodalangan joyini belgilab, uning tagiga chizib, ta'kidlab qo'yiladi.

3. Ta'kidlangan parchalarning mazmunini o'z so'zlaringiz bilan umumiy xulosalar shakliga keltiring; agarda matn parchasi asarning umumiy g'oyaviy mazmunini Sizdan ko'ra siyiq, tushunarli tarzda ifodalagan bo'lsa, o'zini qoldirishingiz ham mumkin, lekin uni yanada boyitish. Sizning iqtidoringizga bog'liq ekanligini unutmang.

4. Yaxshisi, «oz gapirib, ko'p fikr aytishga» urining. Qolip, takror so'zlar o'rniga dolzarb muammoga tegishli so'zlarni ishlatib. Jumladan «ishchi va dehqonlar sinfi» o'rniga «mulkdorlar sinfi», «bugungi davr» o'rniga «bozorliq iqtisod» kabi.

5. O'rganilayotgan asarda isbotlar, misollar, tushuntirishlar, takrorlar ko'p bo'lishi tabiiy, tezislarda esa muhim fikr, xulosa umumlashma jamlanadi. Shuni doimo esda tutish lozim.



## TAQRIZ

(arabcha soʻz, «bayon qilish, soʻzlash, tasdiqlash»  
maʼnolarini beradi)

Taqriz janrining bosh vazifasi – u yoki bu (ilmiy, badiiy asarlar, spektakl, kinofilm va sh.k.) asarning tahlili orqali uning ilmiy jarayon va ijodiy ijodiyotidagi oʻrnini aniqlash, unga xos boʻlgan yutuq hamda kamchiliklarni isbotlash va baholashdan iborat.

Jumladan, badiiy asarni taqriz qiluvchi yozuvchi ijodiy laboratoriyasiga kirishi, uning ichki yoʻnalishini aniqlashi, sanʼatkorning asarga xos boʻlgan ijodining asosiy, bosh qonunlarini tushunishi, asarga badiiy asar sifatida mehr bilan yondashishi, chuqur ijodiy izlanishi kerak. Bu izlanishlarning natijasini siqiq, original shaklda, oʻsha asar mahiyatining butun sir-u asrorini ochib beradigan usulda bayon qilishi kerak.

Aks holda, maʼlum bir asar haqidagi taqrizda tahlil boʻsh chiqadi-ki, har kil badiiy asarga nisbatan bir-biriga yaqin baholar, kamchilik va nuqsonlar qayd qilinib qoladi va taqrizni qolipga muftalo qiladi. Natijada muv tomchilaridek bir-biriga oʻxshaydigan, yasalgan (ijodiy mahoratning) taqrizlar yuzaga kelaveradi.

Holbuki, taqriz-konkret ilmiy asar ekan, unda qayd qilinadigan har bir fikr, yangilik yoki nuqson taqrizchi tomonidan quruq qayd qilinishi kerak, balki aniq dalillar misolida har tomonlama tashlanishi va bunga yozuvchini ham, kitobxonni ham ishonтира bilishi kerak. Taqrizda konkret asar yozuvchining butun ijodi va harakatdagi ijodiy jarayon bilan bogʻlanishi, solishtirilishi shart: ana shundagina taqrizning ahamiyati, qimmat, yangiligi ochiladi, yozuvchi mahorati muvafqiyat koʻzga tashlanadi.

Uu janr tezkorlik bilan yangi asarga kitobxonlar diqqatini jalb qiladi. Asarni oʻqishga yoki oʻqimaslikka daʼvat ham qiladi. Malakali va mahoratli ijodiy taqriz jamoatchilikning tasavvurini uygʻotadi, fikrining muvafqiyat taʼsir qiladi.

Taqriz – ilmiy uslubda bitilishidan qatʼiy nazar, unda taqrizchining muvafqiyatli taqriqatni izlashdagi hissiyoti koʻrinib turishi lozim. Chunki har bir asar oʻzicha ayrim bir dunyo ekan, unga kirish yoʻllari oʻziga xos boʻladi. Taqriz shaklining umumiy qonuniyatlariga jo boʻlgan ana shu muvafqiyat koʻzga xoslik uning rang-barang boʻlishini, originalligini taʼminlaydi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Bu mavzu kўproq maʼlumot olish uchun qarang: X. Umurow. Taqriz - sanʼat asari, – Qush sanʼat sanʼat. Toshkent: 1982 yil, 43-54 - betlar.

## Taqriz yaratish uchun:

1. Muayyan asarni taqriz qilish uchun ilmning shu sohasida chuqur bilimlar egasi bo'lish talab etiladi. Shu sabab, turli sohalaridagi asarlarni taqriz qilish emas, o'zingiz mutaxassis bo'lgan ixtisoslikka oid asarlarni taqriz qilish kerak.

2. Taqriz qilinayotgan asarning muallifi ijodini batafsil o'rganing. Uning ijodiy psixologiyasini, qiziqishlarini tasavvur qilganingizni, uning so'ng, yaratilgan asarning uning ijodida tutgan o'rmini aniqlash, qanchalik yangiligi, zarurligi, ahamiyatini ko'rsating.

3. Yuqoridagi vazifani hal qilish uchun aniq shu sohada, shu mavzuda yaratilgan ohori ketmagan ilmiy asarlarni o'qing, solishtiring. Shundagina taqriz qilinayotgan asarning zamonaviyligini, zarurligini, yoki ortiqcha matoh ekanligini aniqlay olasiz.

4. Asarning yutuq va kamchiliklarini umuman bayon qilmang, balki har bir fikringizni asosli dalillar bilan isbotlang. Isbotingiz aniq va ravshan, ob'ektiv bo'lsin.

5. O'zingiz yaratgan taqriz mazmun va shakl jihatdan go'zal bo'lsin: yetishmovchilik ham, ortiqchalik ham, quruq, isbotlanmagan gap ham bo'lmasin. Bilimdonligingiz va mas'uliyatingiz ko'rinib tursin.

## REFERAT

(lotincha Refere - ma'ruza qilaman, ma'lum qilaman)

Yosh tadqiqotchilarni ilmiy izlanishlarga o'rgatuvchi boshlang'ich kurs janrlardan biri – referatdir.

Ko'pincha referatlar fanning har bir sohasida, jumladan adabiyotshunoslikda qilingan ilmiy tadqiqotlarning asosiy mazmunini mutaxassislarga yetkazish maqsadida yoziladi va tarqatiladi. Shuningdek, adabiy va ilmiy manbalarni tanqidiy obzor qilishni o'rganish uchun kerak bo'lgan muayyan mazmundagi ma'ruzalar yoki ilmiy tadqiqotlar ham referat deb ataladi. Darvoqe, talaba va doktorant tinglagan yoki tanlagan mavzusini (kursini) chuqur o'rganish, o'zlashtirish uchun shu sohaga oid ilmiy adabiyotlar (monografiya, darslik, qo'llanma, maqolalar, kitoblar)ni mustaqil ravishda tadqiq qiladi, sistemalashtiradi va umumlashtiradi. Shu jarayonda ular haqidagi tanqidiy fikrlarini bildirish uchun ular ta'sirida uyg'ongan ijodiy mulohazalarini bayon qiladi. Demak, ilmiy adabiyotlarni ijodiy tahlil va tadqiq etish – referatning o'zagi sanaladi.

Referatning tematik, metodik, problematik, biografik ko'rishlari bo'ladigan qat'iy nazar, ularning hammasida ham yagona fikr takrorlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qat'iylik bilan ishlov beriladi va izchil, asosli, mantiqli tarzda isbot qilinadi.

Ayniqsa, undagi nazariy qarashlar hayot bilan uzviy bog'lanadi, ularning aniq va ishonarli, munozarali fikrlar o'tkir va jo'shqin, xulosalar aniq bo'ladi. Referatda tanlangan mavzu qayta ishlab chiqiladi: mavzuga oid «so'rovlar», «takrorlar», «keraksiz tafsilotlar», «qayta ko'rilgan mulohazalar» tushirib qoldiriladi va mavzuning mohiyati bayon qilinadi.

Masalan, referat uchun mavzu «Istiqlol mafkurasi – ma'naviyatimiz» bo'lsin, uni yechish uchun, dastavval, Prezidentimizning mafkurasi va mafkuraning mustaqillik tafakkurini yaratishga bag'ishlangan nutq va maqolalarini, to'plam va kitoblarini, so'ngra 1991-2004-yillar davrida «Xalq so'zi», «O'zbekiston ovozi», «O'zbekiston madaniyati va san'ati» kabi ro'znomalar, «Guliston», «Muloqot», «Tafakkur», «Jamiyat va oila» kabi jurnallar) da bosilgan shu mavzuga oid ma'lumotlarni to'playmiz; ularga tanqidiy va ijodiy yondoshib, ularni o'zlashtiramiz; kerakli ko'chirmalarni alohida qog'ozga qayd qilamiz.

Referatni shunday boshlash mumkin: «Agar iqtisodiy o'sish, mustaqillik – jamiyatimizning tanasi bo'lsa, - Prezident I.Karimovning fikriga ko'ra, - ma'naviyat, ma'rifat va siyosiy ong yetukiigi uning ruhi, aqli va jonidir». Demak, jism, aql va ruh hamkorligi ta'minlansa, jamiyatning harakati mustaqillik g'oyasi bilan oziqlantirilsagina-Istiqlol bo'lib bo'lmaydi, jonli odamdek faoliyatga kirishadi. Shuning uchun ham ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch manbasidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi» (I.Karimov, Istiqlol va mafkura, Toshkent, 1994, 9-bet). Buning negizi, mustaqillik insonparvarlikdir. Insonni komil bo'lishi va baxtiyor yashashi uchun go'zal hayot barpo etish zarurdir. Hamma narsani-siyosatni ham, insonni ham, do'st-u birodarlikni ham, mehr-u oqibatni ham Inson uchun, uni e'zozlash va qadrlash uchun, uni ardoqlash va ulug'lash uchun buy sundirishdir. «Agar bozor – yetim-yesirlarning, qariyalar va kambag'al-nochor odamlarning ko'z yoshi evaziga quriladigan bo'lsa, bozorni bozorning uyi kuysin» (14- bet).

Hozircha Istiqlol mafkurasining hamma qonun-qoidalari, talab va talabchilari ishlab chiqilmagan. Uni yaratish, hayotga tatbiq etish ustida ishlaymiz ter to'kmoqda. Lekin uning ustuvor o'qlarini yurtboshimizning mafkurasi va mafkurasi asosida, mafkurasi asosida belgilash mumkin:

1.«Ma`naviyat xalqning tarixini, madaniyatini va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi».

2.«Vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligi – yosh mustaqil O'zbekiston davlati barpo etilayotgan negizdir. Ayni shu narsa jamiyatni qayta o'zgartirish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga, hamjihatlik va hamkorlikka erishishda yordam beradi».

3.«Mustaqillik faqat non bilan choy emasligini, u avvalo, ma`naviy, ya'ni odamni odam qiladigan, millatni millat qiladigan tushunchadir». Shu sabab, «xalqning kelajakka ishonchi eng katta kuch, eng katta boylik, istiqloqlning eng buyuk garovidir. Barcha rejalarni amalga oshiruvchi, taqdirimizni hal qiluvchi mana shu omildir».

4.«Biz istiqloq sharofati bilan ... Parvardigorni qaytadan chinakamiga tanidik. Qur'oni karimda o'zining chuqur ifodasini topgan insonni iymonli, e'tiqodli, vijdonli, pok, mehr-oqibatli qilish bir berayotgan siyosatning asosi bo'lib turadi».

5.«Ma`naviyat, inson qalbida kamol topishi uchun, u qalban va vijdonan aql va qo'l bilan mehnat qilishi kerak. Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik orttirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojealar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi».

Ana shu yo'llar yakdast bo'lib birlashganda Mustaqillikning mazmuni chuqur ochiladi. «Biz uchun Mustaqillik – eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'limizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlar, urf-odatimizni tiklash, hammamiz uchun shu mo'tabar zaminda, har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlash; Avval Vatanimizda adolat, insof, din-u, mehr-u oqibatni qaror toptirish; har bir fuqaromiz uchun erkinlik, tenglik, birodarlik, munosib sharoit yaratib berish»ning (89-90-b) mohiyati anglanadi. O'zbekistonning «har bir qadrdon kishi uchun qayg'uradigan qalbi» (8-b.) tirik ekan, denuk, hamma millatlar – ruslar, armanlar, koreyslar, yahudiylar, tojiklar, lo'lilar ham shu Vatanning ahlidir. Hammamiz va har bir inson «o'zining xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma`naviyat bilan tutashadi».

Demak, mana shu mulohazalar har bir qalbga chuqur joylashganda shu qalb egasi-erkin, ozod, ijodkor shaxsga aylanadi, halol-haromni to'liq anglaydi, poklikka, mehr-u oqibatga, ishonch-u sadoqatga to'lib yashaydi, birodari uchun yordamga tayyor turadi, inson qadr-u qimmatiga, uning eng balandda turuvchi ne'mat ekanligiga tushunadi. Qalbakilikka, soxtalikka,



to'ng'likka, poraxo'rlikka, mansabparastlikka, kibr-u havoga berilmaydi, qat'iyati o'z sha'nini bulg'ashiga imkon bermaydi.

Mustaqillikning bunday ehsoni har qanday muammoni yechishning muvaffaqiyatli usuli aylanadi. Endigi gap uni hayotimizga tatbiq etishda, qat'iyatli hayotimiz og'riqlarini, kamchiliklarini yo'qotish yo'lidagi muvaffaqiyatimizning sifatida, samarasida.

Istiqlol mafkurasi ana shunday tarzda oydinlashgach, tilanchilik va talonchilikni, mansabparastlik va poraxo'rlikni, ishyoqmaslik va talonchilikni, qo'yingki jamiyat va turmushimizdagi hamma og'riqlarni, muvaffaqiyatlarni bartaraf qilish; sa'y-harakatlarga asosli va to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatish mumkin. Bu fikr referatda jonli misollar, zarur dalillar, e'tiborli muvaffaqiyatlardan raqamlar, faktlar, ma'lumotlar keltirish yo'li bilan ko'rsatiladi.

Referat mustaqil va mukammal asar bo'lishi uchun mavzuni bilish va unga oid asarlarning mazmunini shunchaki bayon qilish yetarli bo'lmaydi. Albatta, referat muallifning mavzu muammolariga qarashlari bilan bir qatorda ko'pga tegishli bo'lgan amaliy xulosalar, takliflar, muvaffaqiyatlar, saboqlar berishni shart qilib qo'yadi. Ana shundagina referat ijodiy va ta'sirchan ilmiy asarga aylanadi.

Referat oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Bu ro'yxat o'z navbatida referat ijodkori iqtidorining, madaniyatining, qiziqish va muvaffaqiyatining, mehr-u oqibatining ko'rsatgichi sanaladi.

### Referat yaratish uchun:

1. Referatlar tematikasi odatda o'quv kursining dasturi bilan belgilanadi. Referat yaratuvchi o'zi qiziqqan, g'oyat muhim sanagan dolzarb mavzuni tanlashi maqsadga muvofiqdir.
2. Mavzu bo'yicha bibliografik izlanish o'tkaziladi. Zarur manbalar, mafkuraviy asarlar, ma'lumot beruvchi turli nashrlar (spravochniklar), to'plamlar, monografiyalar, jurnal va gazeta maqolalari, axborotlari—yangi ma'lumotlar aniqlanadi.
3. Manbalar qiziqish va izchillik bilan o'rganila boshlanadi. Eng muvaffaqiyatli fikr-mulohazalardan so'zma-so'z ko'chirma olinadi va keyinchalik isbot yoki rad etish maqsadida iqtibos qilib keltiriladi. Bor manbalar o'zlashtiriladi.
4. Mavzu g'oyasi aniq bo'lgach, uning rejasi tuziladi. Reja bo'limlari (punktlaridagi) muammolaridan kelib chiqib, ko'chirmalar sistemalashtiriladi, fikr-mulohazalar guruhlariga bo'linadi, umumlashtiriladi, konkretlashtiriladi.

5. O'rganish va o'zlashtirish asosida tasavvurimiz, tushunchamiz boyiydi. O'zimizdagi mavjud bilimga yangiliklar qo'shiladi. Yangiliklar, yangi ixtirolar, mulohazalar tug'ilishiga, ko'plab hayotiy misollarni esga tushishiga turtki bo'ladi. Ularni tugatib ilgandanoq qayd etgan va kengaytirgan ma'qul.
6. Reja bitta o'zak g'oya asosida konkretlashgach (jonlangan) uning qirralarini ochib beruvchi bo'limlar (punktlar) aniqlanadi. Mantiqan bir-biriga chambarchas bog'lanadigan ortiqcha materiallar o'z-o'zidan chiqib ketadi. Referat yuzlab (birbutun) mustaqil va «jonli» asarga aylanadi; o'z hayoti boshlaydi.

### BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(Bakalavr – qadimda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida: eng kichik ilmiy daraja; 2. Ba'zi mamlakatlarda: o'rta ma'lumotli kishi; 3. Bizda: oliy ma'lumotning birinchi bosqichini egallagan kishi)

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 31-dekabr 362-sonli buyrug'ida malakaviy ishni bajarishni qo'yiladigan talablar quyidagicha qayd qilingan:

Ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash va o'rganish ko'nikmalarini hosil qilish maqsadida yoziladigan ilmiy ishni Uni bajarish esa oliy o'quv yurti bakalavriyatida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichidir.

Malakaviy ishlar mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqboliy rivojlanishini aks ettirishi kerak.

Malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy o'quv yurti yoki fakultetning ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi ham uch yilda bir martadan ortiq qayta ko'rib chiqilmaydi.

Malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Malakaviy ish mavzusi va rahbari talabaga birlashtirilgan kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug' i bilan rasmiylashtiriladi.

Ish rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan

malakaviy amaliyot o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliy o'quv yurtining o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Malakaviy ish berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Malakaviy ishning har bir bo'limi muvofiq asoslar, qarorlar va topshiriqlar bilan yoritiladi. Malakaviy ishda ilgari bajarilgan mustaqil ishning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalar va topshiriqlari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalari, albatta, natijalari ko'rsatilgan holda) ishlari aniq ko'rsatilgan holatda ulardan foydalanish mumkin.

Tushuntirish qismi (poyasnitelnaya zapiska) malakaviy ishning muhimini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va topshiriqlar, shuningdek, zaruriy qo'shimcha axborot yozilgan disketlar taqdim etilishi mumkin.

Tushuntirish qismi qo'lyozma tarzida rasmiylashtirilgan bo'lishi zarur.

Tushuntirish qismi kamida 10-15 mingta so'z hajmida belgilanadi. Kafedraning tavsiyasiga binoan malakaviy ish chet tillarning birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya taqdim etiladi va himoya vaqtida tarjima ta'minlanadi.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan malakaviy ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish talab tomonidan bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabanning faolligi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan DAK da himoya qilishga tayyorlash haqida qaror qabul qiladi. Agar, kafedra talabanning malakaviy ishni himoyaga kiritish mumkin emas, deb hisoblasa, masala kafedra rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining tavsiyomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi.

Himoyaga kiritilgan malakaviy ish taqrizga yuboriladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarni iste'mol qiluvchi soha mutasixislari safidan tanlanadi. Taqrizchilar sifatida oliy o'quv yurtining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun DAK ga yuboradi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomida belgilangan.

Malakaviy ish himoyadan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha malakaviy holda (tatbiq etish tanlovlari va hokazo), ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).

### ***Malakaviy ishni bajarish uchun:***

1. Bakalavriatning 4 (to'rtinchi) kurs talabasi bo'lish lozim.
2. Zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida mustaqil ishlash tayyorgarlik ko'nikmasini egallash talab etiladi.
3. Talabalarga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi.
4. Malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy o'quv yurtining professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda
- mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularining qaytarilishiga yoki ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt budjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsultantlarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo'limlari bo'yicha konsultantlar etib, oliy o'quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Konsultantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradilar.



Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan ilmiy talablar hajmini belgilagan holda malakaviy ishni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqadi va talabalarni o'qitib borgan holda muayyan talablarni bajarishini ta'minlaydi.

3 Malakaviy ish oliy o'quv yurtining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish bo'limlari, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabaning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri atrofida hisobot beradi, kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorgarlik holatini belgilaydi.

Talaba ish muallifi, tanlangan qaroming to'g'riligiga va uning muvofiqligiga, malakaviy ko'chirmachilik holatining muvofiqligiga javob beradi.

4 Malakaviy ish ijodiy bo'lishi, uning mavzusi mas'uliyat bilan bog'lanishi va to'la nihoyasiga yetkazilishi talab etiladi.

## MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

(Magistr – 1. Magistr. Ilmiy daraja va shu darajaga ega bo'lgan kishi. 2. Boshqa bilim darajalaridan keyingi ilmiy daraja va shu darajaga ega bo'lgan kishi. Oliy ma'lumotning yuqori bosqichini egallagan shaxs)

Magistrlik dissertatsiyasi tanlangan mavzu bo'yicha magistrlik darajasi talab qotiri natijalarini aks ettiruvchi, ichki yaxlitlikka ega bo'lgan ilmiy ishdir.

«Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talablar» O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan quyidagi talablar bilan ishlab chiqilgan:

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy va ilmiy – amaliy darajasi talab qotiri talab dasturiga javob berishi shart. Ushbu ishning bajarilishi uning muallifi mustaqil ravishda ilmiy (amaliy) izlanish olib borishga, kasbiy muammolarni ko'ra olishga o'rganganligini hamda ularni hal qilishning ilmiy usullarini bilishi haqida dalolat berishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasi magistrning ta'limiy-kasbiy darajasini talab qotiri, chunki magistrlik darajasi akademik daraja hisoblanadi.

MD himoyaga taqdim etilganda, avtoreferat tayyorlash, nashr qilish va tarqatish talab qilinmaydi.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun DAK ga yuboradi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomida belgilangan.

Malakaviy ish himoyadan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil sabablar bo'yicha malakaviy holda (tatbiq etish tanlovlari va hokazo), ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).

### ***Malakaviy ishni bajarish uchun:***

1. Bakalavriatning 4 (to'rtinchi) kurs talabasi bo'lish lozim.
2. Zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida mustaqil ishlashga tayyorgarlik ko'nikmasini egallash talab etiladi.
3. Talabalarga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) malakaviy ishlarning mavzularini tanlash huquqi beriladi.
4. Malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy o'quv yurtining professor va dotsentlari yoki ilmiy xodimlari, boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda
- mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi;
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularining qaytarilishiga yo'l ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra malakaviy ishga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt budjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsultantlarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo'limlari bo'yicha konsultantlar etib, oliy o'quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari tayinlanishi mumkin. Konsultantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradilar.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan talabalar hajmini belgilagan holda malakaviy ishni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqadi va talabalarni yordamlaydi.

3 Malakaviy ish oliy o'quv yurtining, odatda, ushbu maqsadda ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish laboratoriyalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabaning hisobot berish va hujjatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri bilan hisobot beradi, kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorgarlik holatini belgilaydi.

Talaba ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning bajarilishiga muvofiqligiga, malakaviy ko'chirmachilik holatining muvofiqligiga javob beradi.

Malakaviy ish ijodiy bo'lishi, uning mavzusi mas'uliyat bilan bog'lanishi va to'la nihoyasiga yetkazilishi talab etiladi.

## MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Magistr – 1. Magistr. Ilmiy daraja va shu darajaga ega bo'lgan kishi. 2. Oliy ma'lumotdan keyingi ilmiy daraja va shu darajaga ega bo'lgan kishi. Oliy ma'lumotning yuqori bosqichini egallagan shaxs)

Magistrlik dissertatsiyasi tanlangan mavzu bo'yicha magistrlik dissertatsiyasining natijalarini aks ettiruvchi, ichki yaxlitlikka ega bo'lgan ilmiy va amaliy mazmunli malakaviy bitiruv ishidir.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash va unga qo'yiladigan talabalar O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan quyidagi talabalar uchun ishlab chiqilgan:

Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy va ilmiy – amaliy darajasi talabalar uchun dasturiga javob berishi shart. Ushbu ishning bajarilishi uning muallifi mustaqil ravishda ilmiy (amaliy) izlanish olib borishga, kasbiy muammolarni ko'ra olishga o'rganganligini hamda ularni hal qilishning usullarini bilishi haqida dalolat berishi lozim.

Magistrlik dissertatsiyasi magistrning ta'limiy-kasbiy darajasini ko'rsatadi, chunki magistrlik darajasi akademik daraja hisoblanadi.

MD himoyaga taqdim etilganda, avtoreferat tayyorlash, nashr qilish va tarqatish talab qilinmaydi.

Magistrlik darajasini oluvchi Davlat attestatsiya komissiyasiga faqatgina o'z dissertatsiyasi (ilmiy rahbarining xulosasi bilan), tashqi taqriz va magistrlik kasbiy dasturi bo'yicha o'z shaxsiy rejasining bajarilishi haqidagi ma'lumotnomani taqdim qilish bilan cheklanadi. MD himoyasida zarur hollardagina rasmiy opponentlardan foydalanish mumkin.

MDlarini tayyorlashning umumiy tamoyillari doktorlik dissertatsiyalarini tayyorlash bilan o'xshashdir.

Shunday qilib, MD ilmiy rahbar boshchiligida bajariladigan mustaqil tahliliy tadqiqot hisoblanadi. Uning tayyorlanishi, yozilishi va ochiq himoyaga qo'yilishi magistrantda mustaqil tadqiqot yurishi ko'nikmalari hosil bo'lganligidan dalolat beradi.

Ilmiy masalani yechishda dissertatsiya ishida magistrant:

- tanlangan ilmiy mavzu dolzarbligini asoslashi;
- ko'rilayotgan masala ahvoli (holati)ning sharhi (obzori) va tahlilini berishi;
- tadqiqot maqsadi va muayyan vazifalarini shakllantirishi (formulirovaniye);
- tadqiqot obekti va predmetini tanlashni asoslashi hamda bu ob'ekt va predmet bayonini berishi;
- tadqiqot metodi (yoki metodikasi)ni tanlashni asoslashi;
- tadqiqot natijalarini yig'ishi, ularga ishlov berish, sistematizatsiyalashi va tahlil qilishi;
- xulosalar chiqarishi, olingan natijalarga baho berishi va iqtisodiyotning mos sohasi uchun aniq konkret tavsiyalar berishi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasi mazmuniga ko'ra quyidagi masalalarni qamrab olishi kerak:

- tanlangan mavzuning nazariy ahamiyati, dolzarbligi va uning korxonaga, muassasa va tashkilotlarda amaliy qo'llash;
- Muammo, uning maxsus adabiyotlarda ishlab chiqilgan darajasi va amaliy hal qilish usullarining berilishi;
- Tadqiqot obyektlaridagi mavjud holatni baholash va muammoni hal qilishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha xulosalar chiqarish;
- qabul qilingan qarorni iqtisodiy asoslash.

Magistrlik dissertatsiyasini shakllantirishga va uning mazmunini bo'lgan talab doktorlik (PhD) dissertatsiyasiga qo'yiladigan talabga yaqinlashishi kerak. Dissertatsiyaning qism va alohida bo'limlarining mazmuni magistrlik tadqiqotining asosiy maqsadga mos kelishi va javob berishi zarur.



Bajarilgan magistrlik dissertatsiyasi yechilgan muammo turiga qarab ilmiy-tadqiqot institutida, korxonalarda yoki o'quv muassasalarida qabul qilinishi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasining umumiy hajmi odatda 50-75 bet, kompyuter matnida 1.5 intervalda bo'ladi, formati (A4, o'lchami 210x297mm) va kerakli diagrammalar, sxemalar va grafiklar keltiriladi. Metodda foydalanilgan adabiyotlar ko'rsatilib, bu adabiyot raqamli qavs (-) ichida yoziladi. Nomi zikr qilingan har bir qiymatning birligi keltiriladi. Matn 12- shriftda, 1,5 interval oraliqda yoziladi. Batlarning tartib raqami varaqning yuqori o'ng tomoniga yoziladi.

Magistrlik dissertatsiyasi talaba o'qigan tilda yozilishi tavsiya qilinadi. Agar magistrlik dissertatsiyasi chet tilida (ingliz, nemis, fransuz va h.k.) yozilgan bo'lsa, ish boshida o'zbek yoki rus tilida ishning mohirini annotatsiyasi keltiriladi. Dissertatsiya chet tilida yozilgan bo'lsa, muallif, albatta, rag' batlantiriladi.

### ***Magistrlik dissertatsiyasini yozish uchun:***

1. Magistrant 1-kursdanoq dissertatsiya mavzusini tanlaydi, uning 2-3 ta mo'ljallangan rejasini ilmiy rahbar hamkorligida ishlab chiqadi va kafedra yig' ilishida tasdiqlatadi.

2. MDning maqsadi mavzu bo'yicha magistrning shaxsiy hisobotlari natijasida to'plangan barcha ilmiy va amaliy daliliy ma'lumotlarni mustahkamlash va tartibga solishdir. Bunda magistr dissertatsiyadagi u yoki bu holatlarning ilmiy yoki amaliy, ahamiyati va qiymatini asoslab beradi. Tadqiqot maqsadiga jamiyat uchun umum ahamiyatli bo'lgan me'yor-mezonlar asosida ilgari surilayotgan g'oyalar, fikrlar va tavsiyalarning haqiqatligiga ongli ravishda ishonirish orqali yechiladi.

3. Magistrlik dissertatsiyasi qaysi yo'nalishda bajarilishidan qat'iy nazar ilmiy ijod metodologiyasi, fanda informatsion texnologiyalar, fan (yoki fan va texnika)da sistemali yondashish, patentshunoslik muammolarining elementlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

4. Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy (yoki ilmiy-texnikaviy, amaliy metodik) darajasi o'qitish dasturiga javob berishi lozim. Ushbu darajaga bajarilishi muallif mustaqil ravishda ilmiy (yoki ilmiy-texnikaviy yoki ilmiy-metodik) tadqiqot olib borishga, qat'iy muammolarni yechishga o'rganganligidan va ularni yechishning umumiy metodlarini ishlab chiqarish dalolat berishi zarur.

### 5. Magistrlik dissertatsiyasi strukturasi:

- sarvaraq;
- mundarija;
- kirish;
- adabiyotlar sharhi va tahlili (masalaning holati);
- asosiy qism;
- xulosa va takliflar;
- foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi.

**Titul varag'i** dissertatsiyaning birinchi beti hisoblanadi va qoidalar asosida to'ldiriladi. Titul varag'idan keyin dissertatsiyaning mundarijasi joylashtiriladi. Mundarijada boblar, paragraflar va magistrlik dissertatsiyasining boshqa barcha qismlari asosiy matndagi sarlavhalar va bet raqamlaridan boshqacha shaklda yoki izchillikda yoxud qisqartirilgan berilishi mumkin emas. Mundarijadagi sarlavhalar asosiy matndagi sarlavhalar bilan bir xilda bo'lishi shart. Demak, boblar va paragraflar nomi, shuningdek, ularning izchilligi dissertatsiya matni bilan to'liq mos kelishi shart.

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligini asoslash, magistrlik dissertatsiyasida ko'rib chiqiladigan muammolar, maqsad va vazifalar aks ettirilishi kerak. Ushbu ma'lumotlar magistrlik dissertatsiyalarining barcha qismlarida bir xildagi izchillikda berilishi shart. Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida quyidagilar beriladi:

- tadqiqot mavzusining dolzarbligi;
- magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari;
- muammoning ishlab chiqilish darajasi;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqot predmeti;
- tadqiqot ob'ekti;
- tadqiqotning amaliy ahamiyati.

**Xulosa** qismi magistrlik dissertatsiyasi umumiy hajmining 10-15%ini tashkil qiladi. Dissertatsiyaning ayrim boblari ham xulosalar va takliflar bilan tugallanishi mumkin, ammo ulardan eng muhimlarini ishning oxirida, ya'ni xulosa bo'limida aks ettirilishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar.** Dissertatsiyada foydalanilmagan harnda asosiy matnda havola qilinmagan manbalar adabiyotlar ro'yxatiga kiritilmaydi. Shuningdek, ensiklopediyalar, ma'lumotnomalar va ilmiy-ommabop nashrlar ham bibliografik ro'yxatga kiritilmaydi. Har bir manba bo'yicha:

- foydalanilgan adabiyotning ro'yxat bo'yicha tartib raqami;
- muallifning familiyasi, ismi va nasabi;

- monografiyaning nomi, me'yoriy ma'lumotnomalar, korxonaga taalluqli adabiyotlar, zavod materiallari va h.k.;
- nashr qilingan joyning nomi;
- nashriyot nomi;
- chop etilgan yili;
- qancha betdan iboratligi ko'rsatilishi shart.

Quyidagi adabiyotlar bibliografik ro'yxati quyidagi tartibda berilishi lozim:

- I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ilmiy ishlari.
- II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari.
- III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.
- IV. Harflar ketma-ketligida joylashgan maxsus adabiyot.
- V. Me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalar.
- VI. Statistik materiallar va statistik to'plamlarning materiallari.

8. Magistrlik dissertatsiya ishiga rahbarlar ushbu oliy o'quv yurtining professor va yetuk dotsentlari yoki yetakchi va katta ilmiy xodimlari yoki ilmiy-tadqiqot institutlari fan doktorlari han tayinlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi rahbari:

- topshiriq beradi;
- dissertatsiya ishining bajarilishi jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyot, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- muntazam ravishda konsultatsiya o'tkazadi;
- ishning bajarilish jarayonini nazorat qiladi;
- dissertatsiya sifati va muallifligiga javob beradi.

9. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan magistrlik dissertatsiyasi talab tomonidan ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Ilmiy rahbar magistrlik dissertatsiyasi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, dissertatsiyani o'z taqrizi (2 nusxada) bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi.

*Ilmiy rahbar taqrizida quyidagilar yoritiladi:*

- dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi;
- dissertatsiya mavzusining kafedra ilmiy yo'nalishiga bog'liqligi;
- dissertatsion tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi;
- tadqiqotchining ilmiy ishga qobiliyati va moyilligi bo'yicha qisqacha tavsif;

- xulosalar sifati;
- dissertatsiyaning magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi.

Kafedra ishni tashqi taqrizchiga yuboradi, tashqi taqrizchi boshqa OO'Yu larining professorlari yoki yetuk dotsentlari, ilmiy tadqiqot institutlarining yetakchi yoki katta ilmiy xodimlari, korxonalarining yetakchi mutaxassislaridan bo'ladi.

*Tashqi taqrizda quyidagilar yoritiladi:*

- dissertatsiya mavzusining dolzarbligi;
- tadqiqot yangiligining asoslanganligi;
- ishning ilmiy va amaliy ahamiyati;
- magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va tugallanganligining tanqidiy bahosi;
- materialni bayon etish tili va uslubi;
- dissertatsiyaning magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablariga muvofiqligi.

8. Kafedra mudiri taqdim etilgan materiallar asosida, magistrlik dissertatsiyasini talaba tomonidan DAK da himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar kafedra mudiri talabaning magistrlik dissertatsiyasini himoyaga kiritish mumkin emas, deb hisoblasa, magistrlik dissertatsiyasini kafedra majlisida, ishning ilmiy rahbari ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tanqidiy uchun rektorga taqdim etiladi.

9. Magistrlik dissertatsiya ishini himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomida belgilangan, talaba magistrlik dissertatsiyasi mavzusini va ilmiy rahbarini o'zgartirish huquqiga ega.

Magistrlik dissertatsiyasini o'z vaqtida himoya qila olmagan talaba 3 yil ichida himoya qilish huquqi bilan o'qishdan chetlashtiriladi.

## A V T O R E F E R A T

(grekcha avtos - o'zim, lot. Refere - ma'lum qilaman)

Doktorlik dissertatsiyalarini bajargan muallif tomonidan uning qisqacha bayonini berish san'atidir.

Avtoreferat tanlangan mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati, tuzilishi va aprotatsiyasi (jamoatchilik e'tiboridan o'tishi)ni juda sinqiq tarzda yoritadi. Bunga nisbatan kengroq va asosliroq tarzda ishning asosiy



muallif («Kirish», boblar, «Xulosa») bayon qilinadi. Tadqiqotda muallif qoʻshgan hissa alohida boʻrtib turishi shart. Dissertatsiyaning muallif naks etgan va nashr etilgan kitoblar, maqolalar roʻyxati beriladi. Avtoreferatning oxirida xalqaro ekspertizadan oʻtkazish va natijalar yutuqlarni targʻib qilish maqsadida rus va ingliz tillarida avtoreferatning rezюме (asosiy xulosa) si (har biri bir betdan) beriladi.

Avtoreferat doktorlik dissertatsiyalari uchun ikki bosma toboq (har birida 48 bet) hajmida, qoʻlyozma huquqi bilan 60-100 nusxada taqdim etiladi.

U asosan Oʻzbekiston Oliy Attestatsiyasi Komissiyasiga, ilmiy institutlarga va dissertatsiya himoyasi bilan shugʻullanuvchi Kengashlariga tarqatiladi. Misol tariqasida Alisher Navoiy nomidagi SamDU taʼlim berayotgan Kengashida yoqlangan Hasanov Shavkatning «Oʻzbek adabiyoti dostoni»(1995), Nurmatov Akbarning «Oʻzbek adabiyotida diniy» (1996 yil), Xolxoʻjayeva Anziratning «Tojik tilining toʻy va marosimlariga etnografik leksikasi» (2019) avtoreferatlarini taʼminlash mumkin.

### ***Avtoreferat yaratish uchun:***

1. Doktorlik dissertatsiyasini yozish lozim.

1. Yakunlangan (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi matnining hajmi muvofiqda yozilgan 250 sahifadan, Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini 120 sahifadan oshmasligi kerak. Gumanitar va ijtimoiy fan sohalaridagi dissertatsiya sahifalari koʻpi bilan 30 foiz koʻp boʻlishi mumkin) dissertatsiyaning «qaymogʻi»-magʻzi OʻzROAK tomonidan belgilangan hajmga (yuqorida aytilgan) sigʻadigan qilib bayon etiladi.

2. Oʻzbekiston Respublikasi OAKning Nizomiga asosan avtoreferat shartlari 3,3 shaklga solinadi.

3. Dissertatsiya avtoreferati bosmaxonada yoki koʻpaytiruvchi apparatida ixtisoslashtirilgan Kengash belgilagan nusxada bosiladi.

## **DOKTORLIK DISSERTATSIYALARI**

(lotincha dissertatsion - muhokoma qilish, tadqiqot)

Ilmiy tadqiqotning maxsus shakli boʻlib, u shaxsan muallif tomonidan yozilgan yuqori malakali ishdir va unda muallif jamoat oldida bilimni namoyish qilishga qoʻygan, mushtarak mazmunli, hamda muallifning fanga

qo'shgan hissasidan guvohlik beruvchi yangi natijalar va ilmiy qoidalarning majmui bo'lishi lozim. U ixtisoslashgan Ilmiy kengash majlisida (fan nomzodi, fan doktori) ilmiy darajasini olish uchun yoqlanadi.

O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2017-yil 31-maydagi (239/4-son) qarori bilan tasdiqlangan «Ilmiy darajalar berish tartibi to'g'risidasi Nizom» da fan doktori va fan nomzodi ilmiy darajalarini berish tartibi ishlab chiqilgan. Unda falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini berish tartibi ko'ra dissertatsiyalarning xususiyatlari quyidagicha belgilangan:

Dissertatsiya- muallif tomonidan shaxsan olib borilgan tadqiqot mohiyati tegishli talablarga javob bergan, tugallangan mazmunan yaxlit ilmiy ish sifatida ilmiy yangiligi va amaliy natijalar tizimli ravishda asoslab berilgan qo'lyozma huquqiga ega bo'lgan ilmiy asardir.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya bilimlarning tegishli sohasida muhim ahamiyatga ega masalalarning yangi yechimidan iborat yoki dolzarb ilmiy masalalarning yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan ilmiy-texnik yoki ijtimoiy iqtisodiy tavsiyalar ishlab chiqilgan tugallangan ilmiy ish bo'lishi lozim.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya tugallangan ilmiy ish bo'lishi va unda muhim ijtimoiy iqtisodiy, ilmiy yoki amaliy muammolar yechimi keltirilgan bo'lishi lozim.

Fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya kirish qismi, kamida to'rtta bob asosiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lgan shaklda rasmiylashtiriladi. Dissertatsiyaning matni yuz varaqdan oshmasligi kerak (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar ko'rsatilgan hajmga kirmaydi).

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya kirish qismi, kamida uchta bob, asosiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lgan shaklda rasmiylashtiriladi. Dissertatsiyaning matni oltmish varaqdan (varaqlar oldi va orqa tomoniga matn tushuriladi) oshmasligi kerak (foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar ko'rsatilgan hajmga kirmaydi).

Ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi dissertatsiya hajmi ko'pi bilan o'ttiz foizga oshirilishi mumkin.

Dissertatsiyalar haqidagi barcha ma'lumotlar bilan mukammal tanishmoqni istasangiz O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi

haridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining ilmiy darajalar berish  
siddi to'g' risidagi nizomga (2017) murojaat qilishingiz mumkin.

## RISOLA YOKI BROSHYURA

(«Hiror kasb va uning tartib qoidalariga oid nizom, ustav, traktat,  
kitobcha» ma'nolarini beradi)

2-5 bosma toboqdan iborat, «yumshoq» yoki yupqa muqovada  
qilingan asar. Ko'pincha ilmiy – ommabop xarakterdagi  
shriyotlarni shu usulda chop etadilar. Sa'diy Sheroziy, «Guliston».  
«Xalq inerosi» nashriyoti, 1993 yil), G'aybulla as-Salomning  
shriydan kelur bir sado» («Fan» nashriyoti, 1992 yil) B.Valixo'jayev,  
Vohidovlarning «Ajoyib kishilar hayoti» seriyasida bosilgan «Ezgulik  
umr mazmuni» («Fan», 1992 yil.) M.Tenglashevning «Fan haqida  
shbatlar» seriyasida bosilgan «Xarakter va sharoit dialektikasi»  
«O'zbekiston», 1989 yil), Hotam Umurovning «Jon-u jahonim» (“Sug'  
zozom”, 1998), “She'riyat malikasi bilan g' oyibona suhbatlar” (SamDU  
shriyoti, 2014), “Talabaning oltin kitobi” (“Navro'z”, 2015) kabi  
shobchalarini risolaning namunalari sifatida ko'rsatish mumkin.  
shundan, «Ezgulik - umr mazmuni»<sup>1</sup> risolasi (5 toboq) O'zbekiston  
shpublikasi Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi, professor Vohid  
shabdullayev tavalludining 80 yilligiga kichik bir to'yona tarzida, «Vohid  
shabdulladan talabalik yillarida saboq tinglagan, hamon uning dono  
shyitlariga tayanib ish ko'rayotgan ikki shogirdning dil daftaridagi ayrim  
shchalardan tarkib topgan «mo'jaz» kitobcha bo'lib dunyoga kelgan».

Unda ustozning bolalik va o'quvchilik, domlalik va ustozlik yillari;  
shadlik, adiblik, jamoatchilik faoliyati, «Alisher Navoiy hayoti va  
shamarqanddagi faoliyati», «Alisher Navoiy va Kohiy Samarqandiy»,  
«XIX asrda Buxoroda Navoiyxonlik va Navoiy izdoshlari», «XVI-XVIII  
shaslarda Xorazmda o'zbek adabiyoti», «O'zbek adabiyoti tarixi», «Jomiy  
va o'zbek adabiyoti» kabi go'zal tadqiqotlari, «Samarqand sayli»,  
shadod qo'shiqlar» kabi she'riy kitoblari qiziqarli tadqiq qilinadi, ibratli,  
sharir saboqlar chiqariladi. «Vohid domlanning qutlug' nomi, ezgulik  
shablari, porloq xotirasi mangulikka dahldor holat-hodisalar singari  
shahayotdir. Vohid domla yashashda davom etmoqda», -deb bor  
shhaqiqat, hayotiy xulosa isbot qilinadi.

<sup>1</sup> P.Ильин, Р.Вохидов, Эзгулик-умр мазмуни, Тошкент: «Фан», 1992 йил.

## MONOGRAFIYA

(grekcha monos - bir va tanho- yozaman)

Bir masala (muammo) yoki mavzuni har tomonlama va to'la-to'liq yorituvchi ilmiy asar. U hajman yirik asar bo'lib, mualliflar bir yoki undan ortiq kishi bo'lishi mumkin.

Monografiyada asosan, fanda hal etilmagan muammolar batafsil o'rganiladi: undagi har bir mulohaza misollar, qonunlar, fakt materiallar, formulalar bilan asosli isbotlanadi.

Bu janrda bayon etilgan fikrlar fanning shu sohasi bo'yicha olingan so'nggi yutug'i bo'lishi; ilmiy va amaliy saviyasi bugungi kunda talablariga javob berishi lozim.

Monografiya muayyan soha mutaxassislariga mo'ljallab yozilgan uchun ilmiy atamalar ko'plab ishlatiladi; badiiy va publitsistik uslubning unsurlari deyarli uchramaydi.

Adabiyotshunos Ummat To'ychiyevning «O'zbek poeziyasida aruz sistemasi»<sup>1</sup> monografiyasi 20 bosma toboq (375 bet hajmda bo'lib), adabiyotshunoslar va filolog talabalar uchun mo'ljallangan.

Unda «O'zbek poeziyasida aruz sistemasi evolyutsiyasi» ikki qismga bo'lib o'rganiladi. Birinchi qismda «Aruz tarixi», o'zbek adabiyot tarixi haqida o'rta asrlar ta'limoti, o'zbek mumtoz adabiyotida aruz sistemasi va uning boshqa she'r sistemalari bilan aloqasi tekshirilgan. Ikkinchi qismda «O'zbek aruzining yangicha talqini» («She'riy shakl va aruz», «She'riy nutq va aruz», «She'r tuzilishi elementlarining yangi tasnifi va bu elementlar ichida aruz o'rni», «O'zbek aruzida musiqiylik kabi boblariga bo'lib), tadqiq qilinadi. Asar oxirida 100 bet hajmli qo'shimcha ilovalar (aruz doiralari – doirai mujtamiya, doirai muttafiqa, doirai muxtalita, doirai mutalifa, doirai mushtabiha, doirai muxtalifa, doirai mujtaliboi muzohafa, doirai mujtalibai muxtaria; qadimgi davrdagi o'zbek poeziyasida aruz metrikasi, qofiya elementlari, o'zbek poeziyasida strofikasi va sh. k.) berilgan...

Ushbu muxtasar bayonning o'ziyiq monografiya janrining yirikligini, murakkabligini va soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan bo'lishini yaqqol ko'rsatadi.

\*\*\*

“Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi” (Toshkent, 2010) asosida “Samarqan davlat universitetida o'quv adabiyotlarini yaratish

<sup>1</sup> У. Туйчиев. Узбек поэзиясида аруз системаси, Тошкент, Фан, 1985 йил.



bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar" (Samarqand, 2019) ishlab chiqildi. Ushbu o'quv adabiyotlarining ikki xil shakli quyidagicha ko'rsatilgan:

1. An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlar—ta'lim oluvchilarning shaxsiy va psixo-fiziologik xususiyatlari, ma'lumotlar hajmi, shrifllari, yozuv sifatini, muqova turi va boshqa ko'rsatgichlarni hisobga olgan holda qog'ozda chop etilgan manba.

2. Elektron o'quv adabiyotlar—zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni muvofiq usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan manba.

O'quv adabiyotlarning turlari sifatida "darslik, o'quv qo'llanma, lug'at, izohli lug'at, ma'lumotlar to'plami, ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, uslubiy ko'rsatma, uslubiy qullanma, ma'lumotlar banki, hisobot, sharh, elektron darslik, elektron nashr (EN), elektron o'quv usuli, elektron lug'at, elektron uslubiy qo'llanma, elektron o'quv qo'llanma, elektron ma'ruza" ko'rsatilgan. Bu turlarning har biriga xos xususiyatlarini mustaqil o'rganishga tavsiya qilgan holda ularning turlaridan janr xususiyatlariga aloqador qismlarini yoritishda foydalanamiz.

### DARSLIK

(harbcha so'z, fanning biror sohasi bo'yicha o'quvchilar uchun mo'ljallangan kitob)

O'zbekiston Respublikasi Qomusida «Darslik-biror fanga doir bilim asoslarini sistemali bayon etadigan, o'quvchi va talabalarni taqdirishga mo'ljallangan kitob», - degan ta'rif berilgan. Darslikning asosiy faktlar, ilmiy tushunchalar, qonunlar, nazariyalar mazmuni (fan sohasi)ni tegishli o'quv yurtining programmasi hajmida (ta'lim muhtasiga hamda o'quvchilarning saviyasiga muvofiq darajada) ochib berishi. Unda, ayniqsa, dunyoni ilmiy jihatdan to'g'ri anglashga yordam beradigan, fanni amalda tatbiq qilish yo'llarini anglashga yordam beradigan va amaliy faoliyat jarayonida olingan bilimdan unumli foydalanishga imkon beradigan faktlar, nazariyalar, qonunlar, tushunchalar o'z ifodasini topishi lozim» (O'zSE, 3-tom, Toshkent, 1972 yil, 367-bet.).

Darslikning kimga mo'ljallanganligi ko'pincha uning sifatini va maqsadini belgilaydi. Jumladan, maktab darsliklari esa hamma uchun umumiy bo'lgan bilimlarni bersa va o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishga qaratilsa, oliy o'quv yurtlari darsliklari kasb mutaxassislari uchun yozilgani sabab, o'sha sohaning bilimlari eng

so'nggi yutuqlari saviyasida chuqur va batafsil yoritiladi. Birinchi boshlang'ich bilimlar berish maqsad bo'lsa, ikkinchisida mukammal berish asosdir.

Demak, darslik ilmiy-nazariy, amaliy, metodik jihatdan saviya yuqori, sifatli va uzoq muddatga foydalanishga yaroqli bo'lishi kerak. Ayni paytda, turmush bilan, ta'lim bilan, tarbiya bilan, mehnat bilan, ijodkorlik bilan chambarchas bog'langan bo'lishi, imkon qadar komilikka yetaklashi shart. O'zbekistondagi «O'qituvchi» yirik o'quv pedagogik nashriyot sanaladi va unda asosan, darslik, o'quv-metodik qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar, yosh avlod tarbiyasiga oid adabiyotlar nashr etiladi.

Jumladan, H. Umurov "Adabiy ijod asoslari" (ijod maktablari uchun o'quvchilari uchun darslik, 2019), A.Zunnunov, N.Hotamovlarning «Adabiyot nazariyasi» («O'rta maktablarning yuqori sinf o'quvchilari uchun darslik», 1982), N.Hotamov, B.Sarimsoqovlarning «Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati» (O'rta maktab o'quvchilari, til va adabiyot o'qituvchilari hamda filolog studentlar uchun, 1979), I.Sultonning «Adabiyot nazariyasi» (Universitetlar va pedagogika institutlarning filologiya fakultatlari talabalari uchun darslik, 2005) asarlarini ko'rsatish mumkin.

Demak, konsepsiyada aytilganidek, "darslik-davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida, milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarimiz singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan holda, fanga tegishli bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o'quv materialini mustaqil izlash va topishga amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatish hamda bu ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak".

Darslikdagi har bir bob yoki mavzuning mazmuni undagi milliy ilmiy g'oyaning mohiyati tushunarli, ravshan, aniq, mantiqiy bayon etilishi zarur. Darslik o'quvchilarni mustaqil ta'lim olishga qiziqituvchi ijodkorlikka yetaklovchi xislati bo'rtib turishi maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda, tinglovchilarni faollikka chorlashi, tanqidiy fikrlashga undash ijodiy o'sishiga asoslar berishi lozim.

## ELEKTRON DARSLIK

Kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy

larni har tomonlama samarali o'zlashtirishga mo'ljallanadi.

(konsepsiyada):

o'quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;

o'quv materiallar verbal (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklda;

multimediya (ko'p axborotli) qo'llanmalar, ya'ni ma'lumot uchun o'lchamli grafik ko'rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn) shaklda;

taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o'quvchini "ekran"da stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi ob'ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ishlatiladi.

Elektron darslik o'quv faoliyatini izlash, yig'ish, saqlash, tahlil, berish kabi ko'rinishlarini avtomatlashtirishni; hisoblashlarni, o'lchash va konstruksiyalashni, tajriba va eksperimentning natijalariga berishni avtomatlashtirishni ko'zda tutishi kerak. Ayni paytda, bilim oluvchilarning obrazli va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishi ham elektron darslikni yaratish va mukammal bo'lishiga erishish uchun zarur sharoit yaratilgan o'n bir bosqichni o'tash lozim.

## ELEKTRON LUG'AT

An'anaviy "qog'ozli" lug'atga mos keluvchi elektron axborot vositasidir. An'anaviy lug'atlardan farqli ravishda elektron lug'at matn va grafikaviy tasvirlar bilan bir qatorda video va animatsion lavhalar, musiqa va boshqalar bilan birga media-ob'ektlarning butun imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

## O'QUV QO'LLANMA

(o'quv ishida dastur bo'ladigan, yo'l-yo'riq ko'rsatadigan yozma hujjat, dastur, asar)

O'quv qo'llanmasi ham darslik kabi muayyan o'quv yurtining talabalariga muvofiq o'sha fanning asoslarini, qonunlarini, xususiyatlarini, xarakteriga xosliklarini ochadi. Ilmni muntazam, mustahkam va ongli o'qitilishiga, unga muhabbat uyg'otishga, Vatanga, Istiqlolga, Mustaqillikka cheksiz muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. O'quv qo'llanmasi va darslikning mazmuni bir, farqi faqat shakldadir. Ushbu Boboyevning «Adabiyotshunoslikka kirish» o'quv qo'llanmasi bilan N.Shukurov, N.Hotamov, Sh.Xolmatov, M.Mahmudovlarning

«Adabiyotshunoslikka kirish» (1984-yil) darsligini solishtirsak, faqat yaqqol ayon bo'ladi.

Ikkalasida ham filolog talabalar uchun adabiyotshunoslik ilmining asoslarini o'rgatish maqsad qilib olingan. Faqat qo'llanmada kursning har bir mavzusi aniq reja asosida muxtasar holda nazariy jihatdan yoritiladi. Va shu jarayonda mustaqil o'rganishga tegishli yo'l-yo'riqlar metodik maslahatlar berib boriladi; mavzuni yakunlash va mustahkamlashga ko'maklashadigan savollar, mustaqil ish uchun topshiriqlar beriladi; mavzuni mustaqil ravishda chuqur o'zlashtirishga yordam beradigan zaruriy adabiyotlar tavsiya etiladi.

Demak, o'quv qo'llanma muayyan fanni mustaqil ravishda chuqur o'zlashtirishga imkoniyat tug'diradi; uni o'zlashtirishning oson ta'sirchan yo'llarini o'rgatadi.

## USLUBIY QO'LLANMA

Professor-o'qituvchilar va talabalarga mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar haqida tavsiyalar bayon qiladigan asardir. Unda, albatta, shu sohaga oid ko'plarning yozgan ilmiy-uslubiy va o'quv asarlarini umumlashtirilgan, tanlangan va ta'sirchan shaklda bayon qilingan bo'lishi lozim.

Hotam Umurov va Azmiddin Nosirovning "Adabiyotshunoslik nazariyasi" (Samarqand, SamDU, 2016) uslubiy qo'llanmasida mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning mazmuni, shakli va hajmi belgilashga urinilgan. Unda mustaqil o'zlashtirish uchun mo'ljallangan ma'ruzalar va referatlar ro'yxati, mustaqil yodlash uchun tavsiya qilingan asarlar, kurs ishi mavzulari va ularni bajarish bo'yicha uslubiy maslahatlar, mustaqil o'rganish uchun siyosiy, ilmiy, badiiy asarlar hamda darslik va qo'llanmalar ro'yxati, ilmiy-tadqiqot yuritishda o'rganishga oid zaruriy maslahatlar, "Shalola" va "Yosh adabiyotshunos" to'garaklariga qatnashishning zarurligi masalalari alohida-alohida qismlarda tekshirilib kerakli ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar berilgan. Bularning barchasi talabalarni adabiyotlar ustida mustaqil mushohada yuritgan holda ishlashga oshkora va oson yo'nalish beradi. Mustaqil va ijodiy izlanishga, topqirlikka, amaliy-ilmiy xulosalar chiqarishga va yaratishga yetaklaydi.



## ELEKTRON USLUBIY QO'LLANMA

Yuqoridagi konsepsiya va ko'rsatmalarga ko'ra, elektron uslubiy qo'llanma—pedagogik tajribani umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim faoliyatining yangi modellarini shakllantirish va tarqatish shakli. Unda pedagogik tajriba mashg' ulotlarining raqamlashtirilgan vedio-lavhalari, elektron yoki unga o'girilgan shaklda yaratilgan o'quvchilar ishlarini bajarishlar bo'yicha rejalashtirilgan shaklida ko'rsatiladi.

### LUG'AT. IZOHLI LUG'AT

Aniq bir tartibda joylashgan so'zlar yoki so'z birikmalari to'plami, ularning mazmuni, kelib chiqishi va ishlatilishi to'g' risida ma'lumot beruvchi, yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi asardir. Uning yaqqol misoli sifatida ikki tomlik "Boshqa-o'zbekcha lug'at"ni ko'rsatish mumkin. Unda so'zlarning grammatik shakli va ma'lumotlari keng ifodalangan.

Izohli lug'atda esa so'zlarning mazmunini izohlaydigan, har bir so'zning grammatik, etimologik va stilistik tavsifi beriladi, ularni yodlashga oid misollar va boshqa ma'lumotlar keltiriladi. Ikki tomli lug'atning ming so'z va so'z birikmasidan iborat "O'zbek tilining izohli lug'ati"da adabiy tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va ishlatish qoidalarini tavsiya etiladi. Har bir so'zning qabul qilingan yozilish shakli, kelib chiqishi, talaffuzi ko'rsatilgan, ma'nolari aniqlangan va izohlangan, misollar, dalillar bilan tasdiqlangan.

Dilnoza Yo'ldoshevaning "O'zbek tilida ornimonlarning izohli lug'ati" (T., "Navro'z" nashriyoti, 2018) o'zbek tilida qush nomlarining ipobi, alifbo ko'rsatgichi, tasnifi, tuzilishi va ornimonlar orasidagi omonimniya hamda omonimlarning alifbo ko'rsatgichi o'rin olgan. Quyida misol:

"MUSICHA. Kaptarsimon oilasi g'urraklar urug'iga mansub, ularning oilasiga yaqin yashaydigan, beozor, yuvosh qush. ... *bug'otlarda chakillab suv tomadi, deraza raxlarida ku-kulab musichalar sayraydi.* (M. Yoyoyev, Yorug' lik. "Uyalish kerak, o'rtoq direktor, menday qanday haddek beozor kishini ranjitgani qanday ko'nglingiz bo'ldi?" "Chadasta" O'TIL-5, 2-tom, 648-bet; BUVPATMA (Jo'sh) zool. Musicha "gorlinka, gorlitsa". O'XSHL -57; KUKIMALLA (Sayram) Musicha "gorlinka"...

SumDU o'quv uslubiy kengashi tomonidan nashr etilgan U. Qobilovning "Nubuvvat va valoyat terminlari qisqacha izohli lug'ati"

(Samarqand, SamDU nashri, 2019.)da Nubuvvat va tasavvuf adabiyotini oid tushuncha, termin va istilohlar izohlanadi. U tasavvuf va mumtoz adabiyotni ramziy-majoziy ifodalar talqinini tushunishga, matnlarning zohiriy-botiniy olamini idrok etishga yordam beradi. Jumladan, “Komil inson” tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

“KOMIL INSON- aql va nafsga ko‘ra kulliy va juz‘iy barcha martabalarni bosib o‘tgan, o‘zida ilohiy ism va sifatlarni jamlagan, bu ism-u sifatlarning tajallisiga mazhar bo‘lgan kishilar. Barcha maqom va darajalarga erishgandan so‘ng, insonlarni tarbiya va irshod qilish uchun mas‘uliyatli bo‘lgan bandadir. Bu daraja “Haqiqat ul-haqiqat, Jam ul jam” deb ataladi. Ya‘ni, barcha haqiqatlarni o‘z vujudida to‘plagan kishidir. Komil inson zohiriy va botiniy ilmlarni egallab, vahdoniyatni ilohiya va boshqa sifatlarning koinotdagi tajallilarini mushohada qilgan, kamolga yetgan va ma‘rifatli zotdir. Shuningdek, u butun insoniylik sifatlarini o‘zida to‘plagan va ulug‘ Allohning rahmat, hayot, qudrat kabi ismlariga hamda birinchi aql, lavhul maxfuz, kitobi mubin, qalb va ruh sirlariga mazhar bo‘lgan kishi hisoblanadi.”

## ILMIY TANLANGAN ASARLAR

Ilm taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan, respublikamiz rivojiga ulkan mehnat bilan xizmat qilgan, fanda o‘z maktabiga, uslubiga ega bo‘lgan olimlarning asarlarini bir joyga yig‘ib, ularning ichidan eng saralarini tanlab, katta shaklda chiqarish–tanlangan asar janrining bosh xususiyatidir.

Tanlangan asarlar (ba‘zida bir nechta jildli bo‘lishi ham mumkin) ko‘pincha, olimning hayoti va ijodi haqidagi tadqiqot bilan boshlanadi. Unda olimning qo‘shgan hissasi, insoniy xislatlari, jamoat arbobi sifatidagi fazilatlarini atroflicha, asosli dalillarga suyangan holda yoritiladi. Tanlangan asarning mohiyati, ahamiyati ochiladi. Ana shundan so‘ng, olimning kashfiyotlarini o‘zida yaqqol jang‘ argan asarlari – maqolasi, taqrizi, risolasi, monografiyasi, qo‘llanmalari muayyan mavzularda jihatidan kitobdan o‘rin oladi.

Masalan, mumtoz adabiyotimizni ilmiy tadqiq etishda F.Karimov, N.Mallayev, H.Sulaymonov, A.Hayitmetov, V.Abdullayevning xizmatlari beqiyosdir. Shu olimlar ichida O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, professor Vohid Abdullayevning uluhiy salmoqli, mahsuldorligi bilan ajralib turadi. Vohid Abdullayev 40 dan ortiq adabiyotshunos olimlar, fan nomzodlari va fan doktorlari

ayyorladi; 70 ga yaqin fan nomzodlari va o'nlab fan doktorlari dissertatsiyalariga ilmiy hakam (opponent)lik qilib, ularning kamolotiga ko'ngil berdi. Shu asosda Samarqandda o'zining adabiyotshunoslik maktabini yaratdi.

Olim «Alisher Navoiy Samarqandda», «O'zbek adabiyoti tarixi», «Samarqand shoirlar va olimlar shahri», «Asrlar nafasi», «Xoksor va Shahotiy», «Yangilik yarashadi» kabi monografiyalari, darsligi, risola va ilmiy ocherklari, 300 dan ortiq maqolalari bilan mumtoz adabiyotimiz tarixini yaratishga, yangi materiallar, faktlar, kashfiyotlar bilan boyitishga katta hissa qo'shdi.

Ustozning bunday hissalarini, zamonaviy adabiyotni tekshirishdagi yutuqlarini, jamoat arbobi, fan darg'asi, tan olingan shoir va muhandisligini aytib, adog' iga yetish qiyin.

Vohid Abdullayevning ilmiy tanlangan asar janrida «Saylanma»si (1982) bosilib chiqdi, u filologiya fanlari doktorlari, professorlar H. Valiko'jayev va S. Mirzayevlarning «Serjoziba alloma» deb nomlanuvchi maqolasi bilan ochiladi va unda olimning hayoti va ijodi muhtasham tadqiq qilinadi. Olimning yuqorida qayd qilingan yuzlab asarlaridan 30 ga yaqini («Navoiy Samarqandda», «Navoiy zamonida Samarqand-u Buxoro she'riyati», «Navoiy va Kohiy», «Navoiy va Huniy», «Alisher Navoiy va Ataullo Atoiy», «Ummon o'mrovli ulug' o'zbek», «Yangilik yarashadi» va sh.k.) tanlab olingan va bir kitobda tanlangan. Bu asarlarning o'ziyoq Vohid Abdullayevning butun shahsiyati va hayot yo'lini yaqqol ko'rsata oladi...

1. Siz ilmiy tadqiqot va olimlikning umumiy xususiyatlari bilan tanib bo'ldingiz. Janrlarning barchasiga xos va har biriga tegishli qoida va sifatlarini ma'lum darajada angladingiz. Har bir janrni yaratish uchun qanday sa'yi harakatlar (garchi o'zgarmas qonun-qoidalar bo'lmas-da) zarurligini ham bildingiz. Ana shu bilimdan endi Siz turtki (start) olib, yanada chuqurroq, kengroq, batafsilroq o'rganishga bel bog'lashingiz, ko'proq tatiydigan kashfiyotga erishguncha bo'lgan ilm yo'lini mustaqil davlatishingiz lozim. Ilmni boyitishingiz, donishmandligingizni namoyish qilish zarur.

2. Istagan janringizda ilm qilishingiz mumkin, faqatgina kichik janr (referat, taqriz, referat, ilmiy ma'ruza kabi)larni egallashdan boshlagan ma'qul. Bu sohada tajriba orttirgandan so'ng, yirik janr (maqola, ilmiy bitiruv ishi, magistrlik dissertatsiyasi, risola, monografiya kabi)larni zabt etish osonroq ko'chadi. O'n yillab qilingan mehnatdan

keyin o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish ustida ijod qilish maqsadga muvofiqdir.

3. Ilm doimo kashf bilan tirik. Shu sabab Sizgacha yaratilgan barcha tadqiqotlarni bilishingiz, ulardan ijodiy foydalanib, o'zingizning kashfingizni yaratishingiz talab etiladi. Boshqalardan ko'chirish, o'zgarish kashfini o'zlashtirish, o'zingizni takrorlash – olimlikni o'ldirish bilimning teng ekanligi doimo qalbingizda yonib tursin.

4. Alloma Kaykovus "Qobusnoma"da deydilar: «Barcha kasbiy orasida ilmga tolib bo'lsang, ehtiyotkor, qanoatli bo'lgil. Ilmni doim bilgil, bekorchi hayotni dushman tutgil. Sabr-matонатli bo'l, jizati bo'lmagil, kech yotgil, erta turgil, kitob va darsga qattiq berilgil, ishlar zerikmagil, yod olgil, takrorlagil, haqshunos bo'lgil, nimani eshitmagil yod qil, taqlidga rozi bo'lma, kitob, ajzo, qalam, qalamtarosh va shunga o'xshash narsalarni hamisha yoningda saqla va bulardan boshqa narsalarni yodingga aslo keltirma. Oz so'zlagil, uzoqni o'ylagil. Agar bir tolibi ilm shu xilda bo'lsa, tez fursatda zamonning yagona kishi bo'lur».

5. Ilmiy tadqiqotchi - olim bo'lishdan maqsad o'zlikni anglama, «e'tiqodni mustahkamlash uchundir, ammo boylik orttirmoq uchun emas» (Alisher Navoiy). Shunday ekan, ilm umringizga kerakli mazmunni ato etadi. Hayotingizni besamar o'tishidan asraydi, Sizni ulug' laydi. Ha, ilmsizlik buyuk illatdir, undan doimo o'zingizni asrang!

### **Bobni mustahkamlovchi savollar:**

1. Talabalarning o'quv tadqiqot va ilmiy tadqiqot ishlarini, ularning farqlarini, xislatlarini bilasizmi?
2. Ilmiy asarning umumiy o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ilmiy asar janrlari (maqola, annotatsiya, taqriz, referat va sh.k.)ning o'ziga xos xususiyat va belgilarini toping.
4. Ilmiy tadqiqodchi-olim bo'lishdan maqsadingizni angladingizmi?

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar:**

1. Talabalarning o'quv tadqiqotlarini o'rganish uchun ma'ruza, amaliy dars, seminar, referat, kurs ishi, o'quv pedagogik amaliyot va shu kabi ushbu kitobda ko'rsatilgan mashg'ulotlarga faol munosabatda bo'ling. Ular orqali tadqiqotchilik iqtidoringizni o'stiring.



1) Hujjat janrlar—maqola, referat, magistrlik dissertatsiyasi va shu kabi janrlarni xislati va fazilatini o‘rganish uchun ularning namunalarini ko‘rib chiqish, taqdimot, tajriba to‘plang.

2) Hujjat tadqiqotning darslikda qayd etilgan janrlariga o‘zingiz namunalari yaratishga kirishing. Eng avvalo annotatsiya va taqdimot yaratishdan boshlang.

3) Tajribangizni oshirganingizdan so‘ng maqola va boshqa janrlarga namunalari yarating. Kursdoshlaringiz bilan fikrlashing, muhokama qiling.

### Zaruriy adabiyotlar:

1. Вайковус. Қобуснома, Т., “Ўқитувчи”, 1968.
2. Абдуллаев. Сайланма, Т., 1982.
3. Шукuroв. Сўз сеҳри, шеър меҳри, Самарқанд, 1992.
4. Раҳимов. Мутахассисликка кириш, Т., 1991.
5. Т. Приходко. Тропой науки, М., 1969.
6. Русча-узбекча луғат, Т., Узбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1983.
7. Узбек тилининг изоҳли луғати, М., “Рус тили” нашриёти, 1981.
8. В. Тўйчиев. Ўзбек поэзиясида аруз системаси, Т., “Фан”, 1985.
9. А. Расулов. Танқид, талқин, баҳолаш, Т., 2016.
10. Назаров ва бошқалар. Узбек адабий танқиди тарихи, Т., “Ўзбекистон қаноти”, 2012.
11. Ш. Аҳмедова. Узбек адабий танқидчилиги жанрлари, Т., “Фан”, 1992.
12. Х. Умуров. Таҳлил санъати, Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт институти нашриёти, 1978.
13. Х. Умуров. Таҳлил чизгилари, Т., “Муҳаррир”, 2013.
14. Х. Умуров. Адабиёт назарияси. Дарслик, Т., “Шарқ”, 2002.

*Agar ilm-u ma'rifatning rasmi bo'lganida  
u quyoshdan, oydan, osmon-u yulduzlardan  
go'zalroq bo'lardi.*

*Hasan al-Basriy (r.a.)*

*- Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki  
aytadi – qo'yadi, yaxshisi esa, uni  
topishga o'rgatadi.*

*V.O. Disterniy*

## **UCHINCHI FASL**

### **ILMIY FILOLOGIK TAHLIL**

## FILOLOGIK TAHLIL

Siz filologiya mutaxassisligi bo'yicha bakalavr darajasiga yetishib, maqsadga erishishga kirishgansiz. Endigi vazifangiz – filologik ilmiy tahlilni egallab, uni chuqur va asosli yoritishdir.

"Filologik tablilda faqat tahlilning teranligi, xulosalarning asosli dalilligi hamda tekshirilayotgan badiiy asarning imkon qadar ko'proq jihatlari qamrab olinishi va unga xos xususiyatlarning iloji boricha batafsil ochilishiga... diqqat qaratiladi" (Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. T.: "Kamalak", 2016, 149-b.) Ayni paytda, tahlil muallifning ilmiy va ehtirosi bilan asosli dalillangan, mantiqli va xolis, ko'pga tushunarli adabiy tilda ochiq va lo'nda bayon qilinishi talab etiladi.

Ilmiy tahlil ustasi bo'lish uchun ilmiy tadqiqot janrlarini va ularning talablarini o'rganish yo'lida ko'p mehnat qilish talab etiladi. Bu vaqtda filologik tahlilni amalga oshirishni o'rganish uchun umumiy amaliy misollar keltirishni lozim topdik. Darvoqe, bu ishlarga kerakli o'rinlarda murojaat qilinsa, ma'ruzalarni muvaffaqiyatli o'tkazishga, ta'sirdorligini oshirishga samaradorligini namoyish qilishga yordam beradi va bu xislatlar birlashib talabani komillik bilan yetaklaydi.

### TAQRIZLAR NAMUNASI

#### Olmos qirralar tahlili

O'z xalqining porloq istiqboli yo'lida tinimsiz va barakali ishlagan, butun borlig'ini elining nurli kelajagiga bag'ishlaganlarning sari mungulikka daxldordir. Mungulikka dahldor zotlarning hayoti va qadri davrlar o'ta borgan sari yanada ulug'vorlik kasb etadi, kishining hayotini oshiradi, ezgulikka chorlaydi.

Ana shunday abadiy barhayot siymolardan biri – adabiyotimizning bayroqchisi, zabardast shoir Hamid Olimjondir. Chunki Hamid Olimjonning o'zi ham, so'zi ham o'zbek adabiyotiga g'oyat maroqli va porloq bir sahifa bo'lib kirgan edi. "Novator shoir, bilimdon adabiyotshunos, romantik haqiqatparvar, jangchi, notiq, qadim davrlarning baxshisi va yangi kuylarning boshchisi, janubiy qit'alarining hassos farzandi va jangovor kuylarning dadil soldati bo'lgan Hamid ulkan san'atkor, ulkan inson va ulkan shaxs edi" (M. Khayxzoda).

Bu ulkan ijodkor haqida uning 70 yillik yubileyiga bag'ishlab, tanqidchi Naim Karimov yaqinda «Ajoyib kishilar hayoti» turkumidan «Hamid Olimjon» nomli kitobini nashr ettirdi.

Kitob uch bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda Hamid Olimjonning bolaligidan boshlab to 30-yillarning o'rtalarigacha bo'lgan, ikkinchi bo'limda 1935-40 yillar va uchunchi bo'limda Ulug' Vatan urushi davri hayoti va ijodining ba'zi qirralari tahlil qilinadi. Uch bo'lim o'z ichiga 14 lavhani birlashtiradi. Munaqqid asosiy diqqatini hali olimjonshunoslik nazari yetarli tushmagan tomonlarga qaratadi. Hamid Olimjon xarakterining shakllanishi, uning ildizlari va takomilini, ichki olamini shoirning mehnat faoliyatini, ilhom va iste'dod ufqini, ayni paytda, san'atkor ijodiga turtki bo'lgan omillar va asarlarning tug'ilish jarayonini qiziqarli faktlar asosida jonlantiradi.

Kitobda shoir biografiyasi va ijodi to'la-to'kis tahlil etilmaydi. Balki, shoir haqidagi esdalik, xotiralardan, arxiv materiallardan va shoirning kundalik daftarlaridan keng foydalanib, shoir qiyofasi va she'riyat olamida yarqirab ko'ringan qirralarini kashf etishga intiladi.

Ayniqsa, Hamid Olimjonning Farg'ona vodiysiga qilgan safari va «Baxtlar vodiysi», «Mahorat» she'rlarining tug'ilishi, shoirning Navoiy ijodiga munosabati, Navoiyning sehri va tolmas tadqiqotchisiga aylanishi, Katta Farg'ona kanali qurilishidagi faoliyati hamda she'riy maktublarning avtor sifatidagi ijodi va izlanishlarining, orzu va e'tiqodining tahliliga bag'ishlangan sahifalari diqqatga molikdir.

Garchi munaqqid Hamid Olimjon haqidagi keng auditoriyaga ma'lum materiallarni ko'pincha qayta hikoya qilsa-da, lekin uning har bir faktga munosabati, nazariy qarashlari, xulosalari yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, u «Ilhom vodiysi» nomli lavhada Hamid Olimjonning mehnatsevarligi va iste'dodi haqida yozadi:

«Tabiat Hamid Olimjondan hech narsani ayamagan edi. U yoqimtoy ovozga ham, shamshirdek qadd-u qomatga ham ega bo'lgan. Biroq u o'ziga shafqatsiz darajada talabchan, harakatchan va mehnatchan bo'lmasa, iste'dodning ohu ko'zlari bir umrga yumuq o'tgan bo'lardi.

Hamid Olimjon har qanday joy va har qanday vaqtda ham ish iqlimida yashardi. U odatda erta tong bilan ijod dasturxonini yozar, ilhom kelib qolsa, xo'rozning uchinchi qichqirig'iga qadar ko'z yummay edi. U kimsasiz bog'-rog'lar va poyezdning gavjum vagonlarida ham, do'stona gurunglar va rasmiy sershovqin yig'ilishlarda ham, hamma narsani unutib, ijodiy muhitni yarata olardi. Hamid Olimjon sahifalari rassomning eskizi singari ba'zan uning qog'ozlari orasida qolib, unutilgan.



«Lekin ko'pincha shoirning zarhal qalamida zarhal jilva olib, yashnab va yonqirab ketardi». Bu usul Hamid Olimjon hayoti va ijodi bilan notanish kitobxonni shoir haqidagi tasavvurini to'liq bo'lishiga imkon bersa, Hamid Olimjonni yaxshi bilgan kishilarga shoir hayoti va ijodiy konsepsiyasini yanada chuqurroq tushunishga, yana bir bor u bilan kuraklab hayot va nafosat haqida «dardlashish»ga imkon beradi.

Kitob shoir hayoti va ijodidan lavhalar deb atalsa-da, unda tanqidchi diqqatini o'zak masalaga – Hamid Olimjon hayotining tabomiliga, ijodning kamolotiga qaratganligi uchun yaxlit asar – bir-biriga uzviy bog'langan lavhalardan iborat monografik asar taassurotini qoldirgan. Lekin ba'zi o'rinlarda (Asrimizning boshidagi Jizzaxning ijtimoiy tarixiy sharoiti; Hamid Olimjon va Nazir Safarov o'rtasidagi munosabatlar yoritilganda) ana shu yaxlitlik buziladi, shoir qiyofasi ikkinchi planga tushib qoladi.

Asarda ulkan san'atkorlarning hayoti va ijodi davr bilan, o'zbekiyotimiz ravnaqi bilan bog'liq holda tekshirilgani uchun Hamid Olimjon bilan muloqotda bo'lgan, birga o'sgan, ijodiy hamkorlik qilgan G'.G'ulom, Oybek, Zulfiya, H.G'ulom, M.Sheverdin, M.Alaviya kabi bo'plab kishilarning qaydlari, xotiralari, esdaliklari qo'l kelgan, kitobga qiziqarlilik va ishonch ruhini baxsh etgan. Biroq tanqidchining juda ko'p o'rinlarda boshqalarning esdalik va qaydlarini o'ziniki qilib berishi tanqid e'tikasiga xilofdir.

Tanqidchi yutuqlaridan biri – shoir hayotining ijodiga, ijodning hayotiga ta'sirini izchil yoritishga erishganida ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham Komila ona, Zulfiya, G'.G'ulom, Oybek, A.Tolstoy, I.Hat, N.Pogodin kabilarning shoir bilan bog'liq qirralari ham, ularning shoir ijodiga ta'siri masalasi ham inkishof etiladi. Biroq kitobda ba'zan tabirorlarga yo'l qo'yiladiki, bu hol o'quvchini ranjitadi.

Yaxshi yozilgan asarda, albatta, munozarali, tortishuvli o'rinlar bo'lishi tabiiy. Shu nuqtai nazardan, N.Karimovning «Zaynab va Omon» asarining tugunini aniqlashiga qo'shilib bo'lmaydi. U yozadi: «Anor Zaynabning «taqdir xati»da yozilgan «nasiba»sini e'lon etish bilan asarning eng dramatik momenti boshlanadi. Bu – asarning tuguni. U ayujetning rivojlanishi bilan tinimsiz kuchayadi» (110 bet).

Holbuki asarning tuguni – Zaynabning Omonni sevib qolishida. Agar bu sevgi bo'lmaganda, Zaynabning Sobirga unashtirilganligi detali asarda katta ahamiyat kasb etmagan bo'lardi.

Yoki tanqidchi Hamid Olimjonning Ulug' Vatan urushi davri ijodining boshlanishini tahlil etar ekan, yozadi:

«Romantik kayfiyatdagi shoir ijodiga yangi, realistik oqim kirib keldi. Uning she'rlarida davrning takrorlanmas nafasi, janggohlar ketayotgan jangchilarning zalvorli odimlari baralla eshitila boshladi» (169-bet).

Shoir hayoti va ijodini chuqur o'rgangan tanqidchining bu hukmi hech qanday asosga ega emas. Chunki muallif chuqur tahlil etgan «Baxtlar vodiysi», «O'rik gullaganda», «Zaynab va Omon» kabi 30 yillarning mahsuli bo'lgan asarlarining o'zaro yuqoridagi fikrlarni rasmiy etadi. Chunki bu asarlar sotsialistik adabiyotning eng noyob namunalari bo'lib, o'zida realizmning hamma fazilatlarini jamlagan edi.

Xullas, ushbu asar manguylikka daxldor shoir siymosini yaxli gavdalantirishga, keng ommalashtirishga xizmat etadi. Shuning uchun ham u olimjonshunoslikka qo'shilgan munosib hissadir.

### Uqish va kashf etish san'ati

«Uqish – talqinchining kechinmadoshlik jarayonidir. Boshqacha aytganda, badiiy asar yaratishda yozuvchi ruhidan o'tgan kechinmalarni qayta jonlantirishdir»<sup>6</sup>. Shu usul vositasida badiiy asarni talqin qilish va g'oyaviy-badiiy qimmatini belgilash (germenevtika va aksiologiyaning uyg'unligi) XXI asr o'zbek adabiy tanqidchiligida ustun yo'nalish kashf etmoqda.

Xuddi shunday yo'nalishdagi tadqiqotlardan biri No'mon Rahimjonovning «Asqad Muxtor poetikasi»<sup>7</sup> asaridir. Unda Asqad Muxtor she'riyati ta'sirida «Tabiat, jamiyat, ma'naviy hayot realliklari uyg'otgan mushohadalar suratini chizish, taxayyullar asosida jonlangan kechinmalar fikrini ko'rsatish bosh muddao» (3-bet) qilib olinadi. Bu falsafiy-badiiy konsepsiyaning tabiatini ochish uchun shoir ijodidagi TUN ramzli obraz tanlanadi. Shoirming «Jimlik suroni», «Tun o'y surara», «Inson ertagi», «Bizning boqqa chiqsang oqshom sayriga», «Olma to'kildi», «Xafa bo'lganimda yolg'iz yuraman», «Jimlik», «Tun», «Yo'l», «Qalb» kabi o'nlab she'rlari tahlilga tortiladi. Va alohida fasllarda «Tun tovushlari», «Tun ranglari», «Tun ramzlari»ni o'rganib, Asqad Muxtorning falsafiy she'riyati go'zalligini ochadi; asosli xulosalarga keladi. Jumladan:

«Tun – shoir talqinida sevgi-muhabbatlar jo'sh urgan, his-tuyg'ular so'zlagan, dillar – sergak, ko'zlar – kipriklar qanotida ko'kka uchgan

<sup>6</sup> Расулов А. Илми ғарибани қумсаб... – Тошкент: “Маънавият”, 1998. 53-бет.

<sup>7</sup> Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2003.

Atloniy Vatan. Tun – ranglar qichqirgan, tovushlar – sharsharadek shug‘illagan, xo‘r-xo‘r choy ichgan, ochiqqanda jamlashib non tishlagan – bir so‘z bilan aytganda, tiriklik yumushlari bilan kuyib-pishib yashayotgan jonsarak xilqat. Shoir tovushlarning ranglarini ilg‘ashiga ko‘ra tun hayoti qay tariqa kechayotganligini payqash mumkin.

Xususan, Tun – shoirning hayot go‘zalligi va ezgulik haqidagi idallanishini inkishof etuvchi yorug‘likning ikkinchi bo‘lagi. Shu boisdan ham shoirning poetik idroki va nigohi zimiston tun qa‘ridan yorug‘, umidbaxsh, xayrli ranglarni topadi, ko‘radi va bizga ularning mazmunini o‘z ichida beradi. Tun – shoir talqinida ezib, bukib, yanchib tashlovchi qanong‘u bir kuch emas. Ruhiyatini sindirib, ma‘naviyatini mayib-sonjruh etuvchi yovuzlik timsoli ham emas. Tun – shoirning ko‘ngliga o‘tirishgan, iqi suygan, qadrdon bir dardkashi... Tun – oqlikning enagasi. Yorug‘ oppoq rang tun og‘ushida yetilib, ko‘z ochib kelayotir. Oppoq ranglar, yorug‘lik esa bokiralik timsoli, go‘zallik va ezgulik ramzi» (19- bet).

Bunday yorqin, ishontiruvchi xulosalarga tayangan holda Asqad Muxtorning «tungi oshnolari», «tungi tanishlari», «tungi qadrdonlari» qalbini ochadi: inson boqiyliqi, tirikligi hikmatga yo‘g‘rilgan falsafiylik bilan omuxtalanishini – Asqad Muxtor kashf etgan badiiy usullardan birini isbot etadi. Shoirning bu asarlari «Sharq falsafiy she‘riyatidagi bakiyatli zarbulmasallarni, ramzli hikoyatlarni, allegorik naqlarni o‘z ichida tutadi», degan xulosaga keladi. Bu xulosa o‘zining to‘liq isbotini topmagani (garchi ularning isbotini tun ramzi obrazi tahlili orqali berish imkoniyati bo‘lsa-da) uchun, «She‘r – fikrning guli» nomli qism kiritiladi.

Bu qism – (alohida yozilgan) maqola janriga xos bo‘lib, unda Asqad Muxtorning she‘riyat haqidagi iqromomalariga va she‘rdagi «fikriy teranlik va hissiy qudratning yaxlitligi» muammosiga tayanib, shoir she‘riyatidagi falsafiylik haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

«O‘ttiz yil davomida she‘r haqida o‘yladim, uning ifoda shakllari, vositalari, prinsiplari, ruhi haqidagi fikrlar juda ko‘p marta o‘zgardi: she‘r turmush o‘chog‘idan olingan laxcha cho‘g‘, hayotiy epizodga aylangan, syujetli bo‘lishi kerak, deb she‘rning bo‘lak turlarini tan olmay ancha yil yurdim; she‘r yalt etgan oniy tuyg‘u, zavq-shavq tug‘yoni, uni faqat muzika janrlari bilan qiyos qilish mumkin, degan ruhda ancha vaqt ishladim; she‘r, hayot falsafasining essentsiyasi, fikr, fikr, fikr. Fikrsiz poeziya yo‘q deb, anchagina bir yoqlama rationalistik she‘rlar yozdim...»

Ko'rinadiki, Asqad Muxtor (ta'kidlangan so'zlarga diqqat qiling) uch xil she'rlar yozgan, lekin har birida ham oniy tuyg'uning falsafasini ochishga bosh diqqatini qaratgan. «Shoimning boshida tug'ilgan fikr aytish mumkinki, uning jismiga turtki berib, hayajonga soladi, qonida o'q yoqib, ko'ksida tipirchilab uyg'onadi» (V.Belinskiy). Uyg'ongan fikr teran bo'lsa, his ham teranlik kasb etadi va ular omuxtalashgan holda yangi bir olamni – fikriy ehtirosga yo'g'rilgan go'zal, dilkash, dilbar she'rni yaratadi, shoimning falsafiy o'ylarini, teran aqlini va ulardan tug'ilgan yaxlit saboqlarni insoniylashtiradi.

No'mon Rahimjonov «Ana shu nurposh fazilatlarini bilan va umuminsoniy mazmun kasb etadi. Lirikamizning buguni va ertasi bilan hamisha hamnafasdir» (55-bet), deb yozadiki, bu xulosaga qo'shilgintingiz, yoqlagingiz keladi.

Risola ham yaxlitlik (bir butunlik)ni yoqtiradigan janrdir. Demakki unga kiritilgan hamma tadqiqotlar ham mazmunan, ham shaklan lirik mehvarga bag'ishlanishini, birlashishini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan risoladagi so'nggi ikki maqola oldingi qism g'oyaniga birlashmaydi, garchi A.Muxtor she'riyatiga oid bo'lsalar-da, alohidalikni saqlab qolganlar. Ayni paytda, risolada (garchi siqiq tarzda bo'lsa ham) «Kirish»ning borligi-yu, «Xulosa»ning yo'qligi ham yaxlitlikka zarar keltirgan.

«She'r – fikrning guli», deydi ustoz Oybek» (38-bet), deb ta'kidlangani holda, u muallif tomonidan o'zlashtirilib, sarlavhaga aynan chiqariladi, bu tadqiqotchi etikasiga darz yetkazadi. Muallif tadqiqotida «iqi», «kulala», «silqish», «bekaron», «shajara», «darj» kabi kam ishlatiladigan so'zlarning go'zalligini voqe qilgani holda «tamoyib», «taxayyul» (tahayyur) so'zlarini behisob takrorlaydi. Hatto «taxayyul» so'zining bir sahifa (3-bet)da uch marta qo'llanishi – so'z ilmiy e'tiborsizlikday tuyuladi.

Kitobcha katta mehnat evaziga kelgan, «zavqu-shavq» bilan yozilgan tadqiqotdir. Muallifning badiiy asarni uqish va poetik qimmatini belgilash san'atini chuqur egallagan tadqiqotchi ekanligini ko'rsatuvchi dalildir. Shuning uchun uning tafakkur tarzi va kashflari adabiyotshunoslarni qiziqtiradi, Asqad Muxtor poetikasini o'rganuvchilarga namuna bo'la oladi.



## MAQOLALAR NAMUNASI

### Vatan betakror, kuychisi betakror

Har bir odamda ko'plab xislatlar va ayni paytda, ularning ham yetakchisi bo'ladi. Bu sifat va xislatlar umr davomida doim o'z egasini ko'rsatadi. Hamma holatlar va jarayonlarga yetakchi xislatning o'ziga joylashgan ne'mat o'z tamg'asini bosadi. Jumladan, agar biron kishining fe'li-xo'yidagi yetakchi xislat – yolg'onchilik bo'lsa, u qay darajada to'g'ri gapirganda ham, baribir, yolg'onni qo'shmasdan iloji bo'lmaydi; yolg'on siz ko'ngli ham, aqli ham to'lmaydi.

Bu haqiqatga tayansak, Hamid Olimjon poeziyasining xislatlari (qalbiy lirizmga boyligi, xalqona soddaligi, realizmning chuqurligi, shodlikning zo'rligi...) ko'p. Lekin ularning yetakchisi – shodlik va baxtga to'lib yashash va bu tuyg'ularni ko'pning qalbiga singdirishdir. Ana shu bosh xislat – uning barcha asarlari qo'liga, tabiatiga singib ketganidir.

*Quvonch shulkim, tole yor bo'lib,  
Baxtni topgan elni ko'roldim,  
Asrlarning qayg'usin qarg'ab,  
Shodlik va baxt kuyini chaldim.*

Yoki:

*Shodlik yo'lga boshladi meni,  
Baxtiyorlik bo'ldi odatim.  
Shoir bo'lib shodlik va baxtni  
Kuylamaklik zo'r saodatim.*

“Shuning uchun ham Hamid Olimjonning nomi barcha kitobxonlar qalbidagi Baxt va Shodlik kuychisi sifatida abadiy yozilib qolganidir. Shuning uchun ham Hamid Olimjon deganda kishi qalbidagi ixtiyorsiz ravishda Baxt-shodlik tuyg'usi jo'sh uradi, Baxt – shodlik to'g'risida ko'z borsa, xayolga, albatta, Hamid Olimjon keladi. Hamid Olimjon ijodi to'g'risida kimki fikr yuritsa, shoirlarning baxt va shodlik kuychisi ekanligini ta'kidlamasdan o'tmaydi. Oybek “Hamid “Baxt” kitobida shodlik kuychisi”, degandi, Uyg'un Hamid Olimjonning “Tanlangan asarlar”iga (1944) yozgan so'zboshisini “Shodlik va baxt kuychisi” deb atalgandi. Shoir tadqiqotchilaridan biri G'ulom Karimov “Hamid Olimjon poeziyasi baxt falsafasining she'riy ifodasidir”, deb yozsa, Hamid Karimov “Hamid Olimjonning poetik mahorati” kitobida shoirning baxt to'g'risidagi she'rlari o'ziga xos lirik turkumni tashkil

etadi”, deb ta’kidlaydi”. (Qarang: S.Mamajonov. Shoir dunyosi, I. G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974, 94-bet). Bu fikrlarni tanqidchi Salohiddin Mamajonov “to’g’ri”, deb topadi va shunday asosni beradi:

“Hamid Olimjon sozidan yangragan baxtiyorlik va shodlik tuyg’ulari, ko’tarinki kayfiyat va ruhiy sog’lomlik, jo’shqinlik sovet xalqi qalbining, ruhining, kayfiyatining aks sadosi edi. Axir u sovet kishisi to’g’risida yozadimi, yoki ona Vatan jamoli, ko’klami yoki birorta daryosi haqida fikr yuritadimi – hammasida bitta kayfiyat va ruhni -- baxtiyorlik va shodlik ruhini ko’radi ... hammasini baxt va shodlik mezoni bilan o’lchaydi” (Shu asar, 102-103-betlar). Hamid Olimjon 30 yoshida yozgan “O’zbekiston” she’ri ham bu fikrni ifodalaydi.

### “O’zbekiston”

Hamid Olimjon she’rlarining ba’zilarida (“O’zbekiston”, “O’rik gullaganda”, “Eng gullagan yoshlik chog’imda” kabi) bitta kompozitsion topildiq uchraydi. Bunda shoir ustalik bilan kitobxon diqqatini o’ziga qaratadi, ya’ni she’rning dastlabki ikki misrasida aytmqochi fikrni kitobxonga havola qiladi, uning qalbiga hamohang tuyg’ularni, ipga terilgan dur donalaridek, yaqqol uiriltiradi. Shundan so’ng, go’yo Siz-u mening qalbimiz bo’lib, shodlik va baxtdan nur emib, quvonchli dilso’zlar ifodasiga o’tadi.

**Bundan 70 yil oldin yozilgan va hanuzgacha uning tarovatini ko’zga ko’rsatgan, go’zalligi, mo’jizakorligini boshqa biron asar takrorlay olmagan “O’zbekiston” (1939) she’ri ham shunday boshlanadi:**

*Vodiylarni yayov kezganda,  
Bir ajib his bor edi manda...*

Xo’sh, bu ajib his nima? Nega yayov kezganda bu his tug’yon uradi? Uni Siz-u men qanday tasavvur qilamiz?... Bu o’ylarning sanog’i adog’i yo’q... O’ylanaverasiz, o’ylanaverasiz... Es-hushingiz lot qotgandan so’ng, qani shoir nima der ekan, qalbidagi ajib hisni qanchalik zavq-shavq bilan xonish qilarkan? Uni qanday chizarkan? Vatanga, insonga esh muhabbatini qanday ifodalaydi ekan? kabi savollarni uyg’otish orqali Sizni o’ziga “bog’lab” olgandan so’ng, qalb zarlarini to’kishga o’tadi:

*Chappar urib gullagan bog’in,  
O’par edim Vatan tuprog’in.*

*Ushumlardan tinglab hikoya,*

*O'sar edi shoirda g'oya.  
Daryolardan kuylab o'tardim,  
Ertaklarga quloq tutardim.  
Hammasini tinglardim, ammo,  
O'xshashini topmasdim, aslo.*

Bu zarblar Sizni o'ziga mahliyo aylasa ham, hali hech bir narsani qabul qilmaydi. Bizning hayronligimizni oshiradi, xolos. Sizda topilgan savollarning yechimini bermaydi, lekin Sizni tinglashga, "bir sevib his"ning o'xshashini topishga yo'naltiradi, uni bilishga judayam qiziqiradi, intizor etadi. Shunday tarzda Sizni pinhona tayyorlagandan muvaffiqgina, qalbidan nur kabi oqib chiquvchi va ayni paytda, qalbida qalib etilgan "O'zbekiston nomli bir jannat"ning timsolini, "Elni qushgan mangu bir bahor"ning anvoyi ranglari iforini his etadigan va kashidan mast bo'ladiganday qilib so'zlaydi; "ajib diyor"ning - Chiroyida zarra dog'i yo'q" o'lkaning mohiyatini kashf etadi:

*O'xshashi yo'q bu go'zal bo'ston,  
Dostonlarda bitgan guliston.  
O'zbekiston deya atalur,  
Uni sevib el tilga olur.  
Chiroylidir go'yo yosh kelin,  
Ikki daryo yuvar kokilin.  
Qorli tog'lar turar boshida,  
Gul vodiylar yashnar qoshida.*

*Chor atrofga yoyganda gilam  
Aslo yo'qdir bundayin ko'klam.  
Tog'lardagi qip-qizil lola  
Bo'lib go'yo yoqut piyola,  
Buloqlardan uzatadi suv,  
El ko'zidan qochadi uyqu.*

"Bundayin ajib diyor" unda mehnat qilayotganlar, "ijod va turmush" mashaqqatlarini yengayotgan odamlarsiz yaxlit bo'lolmaydi. Xuddi shuningdek she'r ham, she'rdagi benihoya aniq, qabariqli, rost, yorqin, go'zal o'lka tabiati ham elsiz yaxlit poetik obrazga aylanmaydi. Chunki shoir aytganidek,

*"Go'zal etmish dunyoni odam,  
Odam bilan go'zaldir ul ham".*

Shu bois, faqat ular birlashganlarida, bir-birlarining qalb va mohiyatlariga mehr va muhabbat ila kirganlarida, bir jon-u tanga aylanganlarida O'zbekistondan diyori – "yangi bir jahon" bo'lib yaxlitlashadi, jonlanadi:

*Dalalarda boshlanadi ish,  
Boshlanadi ijod va turmush.  
Kundan-kunga o'sadi paxta,  
Barg chiqadi har bir daraxtda.  
Olmazorlar gulini to'kadi,  
Meva bog'lab shoxini bukadi.  
Shaharlarda ishga chiqib el,  
Odam bilan to'lar Tekstil.  
Hammasining bir istagi bor,  
Hammasi ham xursand, baxtiyor.  
Bu o'lkada har narsa bordir,  
Ko'rmaganlar doim xumordir.  
Amu bilan Sirdan suv ichgan,  
Zarafshonni loylatib kechgan  
Chavandozlar bordir bu elda.  
Bahor chog'i pishqirgan selda  
Arg'umoqlar qo'shig'i bordir, -  
Bu shundayin ajib diyordir.*

"Bu ajib diyori"ning shunchalik xislatlari ketma-ket, bosqichdan bosqich ochilaveradi. Hayratingizni toshiraveradi. Albatta, bunday holga tushishning, Vatan ulug'ligi va go'zalligini his etishning sabablari bor, bu sabablarning arzu tasvirida katta ishonch va hayotiylik beqiyosdir, illo bu Vatanning:

*Dalasida o'smas tikonlar,  
Cho'llarida chopmas ilonlar.  
Qush uchganda kuymas qanoti,  
Odam o'tsa qurimas zoti.  
Chanqov qolib yo'lovchi o'lmas,  
Har burchakda boshkesar bo'lmas.  
Kulbalarni kelib bosmas qum,  
Go'daklarni yutmas och o'lim.  
Odamga baxt va tole yordir, -  
Bu shundayin ajib diyordir.*



Ushbu parchadagi so'nggi ikki misrani takrorlasangiz, go'yo she'r kagapan, uning asosiy g'oyasi ("Odamga baxt va tole yordir") qochilgandek tuyuladi. Shoir bundan oshirib aytolmasligiga, O'zbekistonning qalbini bundan-da zo'rroq ifoda qilolmasligiga, shoirning bir oniy nafasi nihoyalanganiga ishonch hosil qilasiz. Lekin bu talonchigizni san'aktor dahosi chilparchin qiladi. U nafasni rostlab olish uchun to'xtaganligini his ettiradi, hali uning O'zbekiston qiyofasini balandroq pardada ochishiga, yanada nurlantirishiga, yanada yaxlit uyg'unlikni yaratuvchi xislatlarni ochishiga imkon beruvchi to'ldiradining qudrati beqiyosligini ko'rsatadi.

*Bunda bulbul kitob o'qiydi,  
Bunda qurtlar ipak to'qiydi,  
Bunda ari keltiradi bol,  
Bunda qushlar topadi iqbol,  
Bunda qorning taglarida qish,  
Bahor uchun so'ylaydi olqish.  
Bir o'lkaki husnga boydir,  
Uning eng zo'r ko'zgusi oydir.  
Bir parcha o't bo'lib bunda kun,  
Paxtasiga ishlaydi har kun.  
Botirlari kanal qazadi,  
Shoirlari g'azal yozadi,  
Kuychilari o'qiydi yalla,  
Juvonlari aytadi alla.  
Pazandasi yopadi shirmon,  
Qarilari kutadi mehmon.*

Vatanning, vatandoshlarning bunday safarbarligidan, har birining ijodi va turmushi bilan bandligidan iftixor tuygan shoir, buning talonchilarini voqelikdan axtaradi va voqelikdan topadi: o'sha davrning bosh haqiqatini – Moskva va dohiyni sharaflaydi; ko'ngilning tinchligi va osoyishini, bag'ming butunligini ular bilan bog'laydi (Shoir o'z davrining farzandi ekanligini, ayni paytda, yashagan davrining barhaq qonunini (Moskvadan, Lenin – Stalindan "qon olar qalbiga hayot" degan asosiy tushuncha)ni asoslay va ifodalay olishi bilangina buyuk bo'lishini aytolmasligimiz; bugungi tushuncha va e'tiqodlarimiz asosida uni yomonotliqqa chiqarishimiz noo'rin va noto'g'ri ekanligini anglashimiz shart):

*Bu shundayin ajib diyordir,  
Buning qiziq hikmati bordir:*

*Moskvada suyangan tog'i,  
 Gurjistonda sevgan o'rtog'i –  
 Unga husn va iftixordir.  
 Uzoq Sharqda qo'shini bordir.  
 Shuning uchun tinchdir u ko'ngil,  
 Shuning uchun osoyishdir ul.  
 Shuning uchun somonda yotmas,  
 Shuning uchun sovuqda qotmas.  
 Yovlariga osmon tutundir,  
 Shuning uchun bag'ri butundir.  
 Shuning uchun yopinmagay xas,  
 Shuning uchun kiyinar atlas.*

O'zbekiston timsoli bekam-u ko'st rasolangach, san'atkorlik izhorini yakunlash tomon yo'l olarkan, jonidan ortiq ko'rgan Vatanimiz eliga, do'stlariga, dohiysiga omonlik tilaydi. Ayni paytda, sodda va xalqchil misralar qo'riga yashiringan o'z ruhining O'zbekiston ruhi bilan dohiysi ruhi bilan, butun jahon ruhi bilan birligini ifodalaydi:

*Shunday o'lka doim bor bo'lsin,  
 Shunday o'lka elga yor bo'lsin.  
 Omon bo'lsin og'aynilari,  
 Omon bo'lsin do'stlarning bari.  
 Omon bo'lsin dohiysi omon,  
 Shunday bo'lsin bu butun jahon.*

She'r muqaddimasi Vatan tuprog'ini o'pish ("O'par edim Vatanimiz tuprog'in") bilan boshlangani bois, uning xotimasi ham ana shu usulda tuproqqa baxshida mehrning tasviri orqali yakun topadi, uni tahlilida ko'ra, o'zini qalbga singdirish ko'proq zavqlidir, jonbaxshidir:

*Shaftolizor bog'larni ko'rdim,  
 Gul ko'kargan tog'larni ko'rdim.  
 Mehr qo'yib o'pgan sari oq,  
 Oppoq bo'ldi bu aziz tuproq.*

Vatan va xalqning ruhiyatini birgina she'rga sig'dirish va uni to'lasincha ifodalash imkoni hech bir san'atkorga berilmagan. "Har kuni bir buyuk mazmun"ga ega Vatan va xalqning timsolini hamma ijodkorlar yaratishi, u har bir qalbda o'zgacha kechinmalar uyg'otishi mumkinligini Hamid Olimjon to'liq anglaydi. Va u shu tushunchadan kelib chiqib,

adabiyat va san'atkorlik bilan yaratgan "O'zbekiston"ni yana o'zi  
o'zgarlar ham kuylashiga imkoniyat borligiga shama (ko'p nuqta  
ajib) qilib, tugatadi. Bu bir bora gul iforiday sochilgan "ajib  
larning hali tugamasligiga bashoratdir. Ayni paytda, she'r qanday  
bo'lsa, kompozitsion yaxlitlikni bunyod etish uchun aynan  
shunday misralar bilan yopiladi:

*Vodiylarni yayov kezganda,  
Bir ajib his bor edi manda...*

### Xotima

Oradan ancha vaqt o'tdi. Nihoyat Abdulla Oripovning  
"O'zbekiston" (1964-1970) she'ri dunyoga keldi. U shunday boshlanadi:

*Yurtim, senga she'r bitdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirilar bor, o'z yurtin butun –  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyori,  
Bir o'lka bor dunyoda, biroq  
Bitilmagan dostonidir bori:  
Faqat o'z qalamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.*

Ushbu bandni o'qiganingizdanoq Hamid Olimjonning  
"O'zbekiston"i yodingizga keladi, ana shu she'r Abdulla Oripov  
"O'zbekiston"iga turtki bo'lganini anglaysiz.

Hamid Olimjon va Abdulla Oripovning she'rlarida soddalikni,  
tabiiylikni, teranlikni his qilasiz. Ikkalasining ham go'zal asar ekanligini  
bilasiz. Ayni paytda, ularning farqini – har bir shoirning o'ziga xos  
s'ylari, tuyg'ulari, orzulari, fikrlari dunyosi borligini anglaysiz.

Hamid Olimjon o'lka "tabiatiga taqlid qilmaydi, balki u bilan  
tabiatga kirishadi", tabiatni o'z ko'zi, qalbi, ongi bilan qaytadan  
tasvirlaydi, uni faollashtiradi, baxt va shodlik kuyini chaldiradi,  
buyg'ularni mazmunga ko'madi, hissiyotni toshirtiradi, odamni  
shodlashtiradi, kelinchakka o'xshash O'zbekistonga mahliyo etadi – qo'yadi.  
Abdulla Oripov esa o'lka tabiatiga emas, balki ana shu o'lkaning buyuk  
shoiri – Amir Temur, Ulug'bek, Beruniy, Navoiy, Jaloliddin, Sobir  
Sobirov, Habib Abdulla kabilarning tarixiy xizmatlari sarhisobi orqali  
Vatan timsolini jonlantiradi. Ya'ni, shoir taassurotni fikrdan oladi.  
Shuningcha, "Go'zal va chuqur fikrdan odamning hayratlanishi tabiiy hol...

Bu shu qadar go'zal bir mo'jizadirki, uning oldida har qanday daho shota ham lol qolishi hech gap emas..."

Hamid Olimjon asarida barcha bandlar (10+42+30+6+6 = 94 misra), qismlar, tasviriy vositalar, badiiy unsurlar "O'xshashi yo'q le go'zal bo'stonda odamga baxt va tole yordir" degan bosh maqsadga ochishga yo'nalgan bo'lsa, Abdulla Oripov she'rida (har bandi III misradan 15 band = 150 misra) "Vatanni ulug' qilgan ona xalqdir" degan maqsadga bo'ysinadi va yurt timsolini yaxlitlaydi.

Jumladan, bu Hamid Olimjonda:

*Odamga baxt va tole yordir, -  
Bu shundayin ajib diyordir.*

Abdulla Oripov she'rida esa quyidagicha aksini topgandir:

*Bobolardan so'zladim, ammo  
Bir zot borkim, baridan suyuk:  
Buyuklarga baxsh etgan daho,  
Ona xalqim o'zingsan buyuk  
Sen o'zingsan, eng so'ngi nonin  
O'zi emay o'g'liga tutgan.  
Sen o'zingsan, farzandlar shonin  
Asrlardan opichlab o'tgan.  
Ona xalqim, jon - tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.*

Birinchi she'rda Vatanning betakror mazmuni batafsil yoritilgan, ikkinchisida o'lkaning "kechmishini tomosha" qilish orqali iqbali hurligi, mangu yorug'ligi ochiladi.

Birinchisida ilhom juda yengil, tiniq, baxtiyorlikni mujassam etgan bo'lsa, ikkinchisida hayqiriq, shiddat, falsafiylikni voqe qiladi. Shu bo'laq, birinchisi zavq bilan o'qilsa, ikkinchisi mulohazakorlikni talab qiladi.

Hamid Olimjon she'ri uzoq o'ylangan, miyada uzoq pishitilgan va so'ngra qog'ozga tong payti birdaniga to'kilgan bo'lsa, Abdulla Oripov asarining bitishi, uning iqroriga, boshqacha bo'lgan: "Men bu she'rni juda uzoq vaqt tanaffus bilan, o'qtin-o'qtin yozganman. Katta she'rlarni o'zimning tajribamdan aytaman, bir o'tirishda yozib tugallash qiyin. Bu bir syujet bo'lsa ekan, davom ettirib ketaversangiz. Agar hazilroq qilib aytsam, bunday she'rlar yo'talga o'xshaydi. U tutishi kerak. Tutmasan, qasddan yo'talsangiz, yo'tal chiqmaydi. Yo'tal o'zi ichdan qo'zilib chiqishi kerak. Shuning uchun shu besh-olti yo'tal mobaynida, shu



zo'ri ni yozib tugatganman. Bu she'rning bitishiga 3 yil muddat ketgan" (sharh yulduzi, №1, 2006, 11-bet). "Sevinch-dardim – bari Vatanim" nomli suhbat (A.Oripov. "Adolat ko'zgusi", T., "Adolat", 2005, 137-bet)da "O'zbekiston" she'rimni olaylik. Men uni 1964 yilda boshlaganman. Shu orada uning yarmini yozdim-u qolgan yarmiga yana shu mahalda nafasim etmadi. She'rni to'xtatdim keyin. Orada boshqa bayonotlar bilan bog'liq she'rlarni yozib yuraverdim. Vaqti-soati kelib yana shu she'rga kayfiyatim ro'para keldi. Kutib turgan edim shuni. Boshqalari kelgan joyidan yana qattiq bir mehnat bilan she'rni tugatdim. Ushbu shunga qandaydir bir olti-yetti yil vaqt ketdi", - deydi.

Bunday tarzda taqqoslashni qancha davom ettirmaylik, bu she'rlar haqida shunday xulosa qilish mumkin: Ikkalasining olmosdek muvofiq misralariga jo bo'lgan tuyg'ular tiniqdan-da tiniq; ibtidoiy teran, obrazlari ulug'vor; umid va ishonch yorug', faxr va g'ururning ruhiy qudrati beqiyos, o'ta hayotiy va go'zalligi takror.

Lekin menga (zo'ri ni zo'rga solishtirganda) Hamid Olimjon she'ri beqiyos yuksak ko'rinadi. Unda xalqimning ruhini, o'lkam tuprog'ining kelini sezaman, mazasini totganday bo'laman. Quvonchim toshadi, harogim qinidan chiqaman, deydi. Shunda hayotning baxt va shodlik qo'shig'ini barcha qadrdonlar bilan kuylagim, yonib, yondirib yashagim keladi. Vatanga bo'lgan iftixor va g'ururdan yaralgan mag'rur, qudratli, g'ubiz, jozibali, jo'shqin, jonbaxsh tuyg'ulardan oziqlangan she'rimizning eng jarang sasi, boqiy she'r" (A.Oripov) egasi bugun ham safda ekanligiga imon keltiraman. Ha, buyuk daholar o'limni kutmaydilar. Darvoqe:

*"O, yuragim, sabr etgin bir dam,*

*Sen sari ham kimdir izlar yo'l.*

*"Vodiylarni yayov kezganda,*

*Bir ajib his bor edi manda".*

## ZULFIYA LIRIKASIDA TUYG'ULAR TADRIJI

Zulfiya haqida yozganlarning deyarli barchasi uning hislarni bayonita – "narsa-hodisalar olami" orqali ifodalash xarakteri haqida qayd etiladi. Boshqalardan farqli tarzda, Zulfiya narsalarni ularning boshdan kechirilayotgan lahzalar bilan tushunarsiz bog'liqligida tushunish va bayonlash layoqatiga ega.

Har qanday ruhiy holat, har qaysi kayfiyat Zulfiya she'rlarida tashqi dunyoning unga mos hodisasi bilan belgilanadi. Muallif narsa hodisalar, buyumlar gapirganidan ortiqcha gapirmaydi, hech narsa kitobxonga tiqishtirmaydi, o'z nomidan sharhlamaydi. Uning so'zlar ataylab zohiriy, bosiq va betaraf jaranglaydi. Ammo qalbdagi ulkan to'lg'onish onlari xotirada qoladigan sharoit va vaziyatning mayda shtrixlarigacha esga tushiradi. Narsa-hodisalarning obrazlari semantika qo'shaloqlik kasb etadi: ba'zan ular xuddi hodisalarning o'zi haqida tasavvur uyg'otsa, ba'zida narsa-hodisalar bilan lirik qahramonning to'lg'inlantirayotgan tuyg'ular o'rtasidagi intim-ramziy aloqa gavdalanadi. Lirik kechinma o'ziga yangi ifoda topadi, narsa-buyumlar hodisalar bilan aloqaga kirishib, syujetda zichlashadi. Narsa-hodisalar shoira lirik stixiyasining vakillariga aylanadi.

Qalb harakati unda so'z, ishora, mimika, qiliq-muomala orqali faqat tashqida ifodalanganidek maqom oladi. Tashqi dunyo uning lirik tafakkurida ichki dunyoning o'ziga xos belgisi sifatida keladi, ammo shu bilan birga o'zining mustaqilligini yo'qotmaydi. Narsa-hodisalar va tabiat realiyalari Zulfiya she'rlarida ikki ma'noda o'qilishi mumkin: ular o'z-o'zi haqida ham gapirishlari yoki lirik qahramonning bilvonita tavba-istig'fori uchun vosita bo'lib xizmat qilishlari mumkin. Real dunyo obrazlari sub'ekt kechinmalarini atrof-dunyo va uning idroki o'xshash bo'lgandagina shunday ifodalay oladi. Zulfiya badiiy tizimida reallik va ongning o'zaro munosabat mexanizmi aynan shunday kechadi.

Ob'ekt va uning sub'ektiv idrok qilinishi fenomenologik ta'limotdan cziq oladi. Unga ko'ra, "predmetlar olami ongga nisbatan immanent; u ongga taalluqli ekanligi tufayligina o'zining ob'ektiv mazmunini topadi"<sup>8</sup>.

E.Gusserlga ko'ra, bizning ongimiz o'z-o'zicha mavjud predmetlar bilan emas, balki fenomenlar, ya'ni "buyumlarning ongdagi kechinmalar oqimida o'zini namoyon qilishi va tayin etishi" bilan ish ko'radi<sup>9</sup>. Bu shuni anglatadiki, fenomen sifatida namoyon bo'ladigan predmetlar ongimizda biz ularga qanchalik qadr-qimmat belgilasak, shunchalik ahamiyat kasb etadi. Ayni shu jihat Zulfiya tomonidan, avvalambor, intuitiv ravishda his qilinadi. Shoira lirik ongining mazmunini atrofda reallik obrazlari tashkil etadi, dunyosining mohiyatini esa – narsalarni

<sup>8</sup> Огурцов А. П. Феноменология // Философский энциклопедический словарь. – М.: 1983. – С. 718.

<sup>9</sup> Свасьян К. А. Феноменологическое познание. Пропедевтика и критика. – Ереван: 1987. – С. 37.

shuning idrok qilinish oqimida ilg'ash tashkil qiladi. U o'z diqqatini badiiy refleksiyaga emas, balki o'zini o'rab olgan muhitning ongidan qabul qilinishiga qaratadi. Ammo dunyo Zulfiya she'rlarida bloklovchi ongdan ayro emas. Shuning uchun ham reallik kartinasi hamon ikkiga bo'linadi: o'z-o'zicha muhim tashqi dunyo realiyalari bir vaqtning o'zida lirik qahramonning ruhiy holatidan hikoya qiladi.

Qanday qilib shoira bunday effektga erishadi? Zulfiya tabiat kartinalarini suveren tasvirlash usuliga murojaat qiladi. Narsa-buyumlar shunday ko'rsatiladiki, ularni sensorli qabul qilish (ko'z orqali ko'rish) ko'pincha "kadr ortida" qoladi:

Oqshom edi, oydin ko'prikda  
barno qiz-u yigit turardi,  
Oyni kutgan oqshomgi ko'kda  
Beshik-beshik bulut yurardi.

Bulutlarning yorib quchog'in,  
Oy ko'rsatdi olmos yuzini.  
Mag'rur tashlab yerga nigohin,  
Tinglab qoldi yigit so'zini. (3-b.)

Natijada narsa-hodisalar obrazi ("beshik-beshik bulut", "yerga mag'rur nigoh tashlayotgan olmos oy") she'r fazosida yiriklashadi, shuning planga chiqadi, nafaqat peyzaj elementi, balki o'z-o'zicha muhim ahmiyat kasb etadigan fenomen sifatida gavdalanadi, "oy el sari mayin bo'ladi", "oqshom og'ushiga nur to'lib", "tong kulganday bo'ladi". Bu obrazlarning barchasi she'rda mustaqil yashay boshlaydi.

Bunga erishish uchun shoira tuyg'ularni mayda tafsilotlarigacha ajralab chiqadi, dunyoni tovushlar, hidlar, ranglar, nafis shakllar uyg'unligida tasvirlashning o'ziga xos – "stereoskopik prinsipi"ga amal qiladi. Dunyoni tantanavor-xushhol qabul qilish, uning predmetlik tabiatini tasvirlash, turmush va ob'ektiv borliqni estetik jihatdan tenglashtirish Zulfiya ijodida to'liq ifodasini topadi. Aytish joizki, shoira poetik maktabining deyarli barcha vakillari ijodida she'r yaratishning ayni shu manerasini ko'rishimiz mumkin.

Ayni paytda, qayd etib o'tilganidek, real dunyo obrazlari lirik qahramon qalbining tuzilishidan darak beradi. Shoiraning narsa-hodisalarni badiiy gavdalandirishdagi o'ziga xosligi shunda ko'rinadiki, lirik sub'ektivlik qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, ular shunchalik hayotiyroq, tabiiyroq ko'rinish oladi. O'y-kechinmalar tarangligi Zulfiyada ba'zan shunaqangi otash va yorug'lik bera oladiki, ular

qaynog'idan inson ichki olami tashqi dunyo bilan birikadi va pishib toshqolga aylanadi.

Ayonki, tashqi realiyalarning har qanday lirik tasvirida tagma'ini orqali muallifning emotsional bahosi sezilib turadi. Biroq Zulfiyada borliqning tashqi va ichki ko'rinishlari birikishi natijasida – narsa buyumlarning obrazlari semantik jihatdan ikki planli, ikki yo'nalishli bo'lib gavdalanadi. Bir tomondan, ular ob'ekt, tashqi dunyoni ifodalasa boshqa tomondan – uni qabul qilayotgan lirik ongning xarakterlaydigan Qachonki Zulfiya:

Sevmay qo'ydim tunni,  
Sevmayman tunni.  
Butun vujud bo'lib kunni kutaman.  
Nafis, shaftolining guliday nurli –  
Shaffof nafasiga yuzim tutaman<sup>10</sup>.

desa, kitobxon ko'z o'ngida tabiatning muayyan nafis kartinalari jonlanadi. Bunday effektga obrazning kuchli his-hayajon ifodalaydigan ayrichaligi, uning tarkibiga sub'ektiv modallik unsurlarining (“butun vujud bo'lib”) singdirib yuborilganligi, semantik takrorlar (“shaftolining... shaffof nafasi”) orqali erishiladi. Ammo obrazning xuddi shu emfatik qabariqligi (kuchli his-hayajonni ifodalashi), so'zlari ifodasining ekspressivligi lirik qahramon ichidagi tanglik haqida, uning iskanjaga olgan iztiroblar haqida taassurot uyg'otadi. Uning qalb holati narsa (shaftoli guli) obraziga kavsharlanadi, qalaylanadi. Pirovardida, predmetli ma'noga ega so'z ularning semantik va emotsional maydonlarini kengaytiruvchi qo'shimcha ma'no orttiradi.

Qat'iyani aytganda, ruhiy kechinmalarni gavdalandirishning Zulfiyaga xos yo'sinining mohiyati – har qaysi kechinmaga biror narsadan muvofiqlik izlash emas, balki idrok qilayotgan ongning harakatlarini modellashtirishdir. Uning novatorlik tamoyillari shoiraning shu paytgacha lirik tadqiq ob'ekti bo'lmagan fenomenlarni she'rda aks ettirganligi bilan belgilanadi. U kechinmaning paydo bo'lishi va kechishi mexanizmlariga bog'liq holda bizning ongimizda yuz beradigan jarayonlarga o'z e'tiborini qaratdi. Shu bois Zulfiya uchun ongning alohida o'ziga xos xususiyati – ob'ektga yo'nalganligi badiiy dolzarflik kasb etdi.

Psixologiyada “idrok” tushunchasi reallik obrazlarining ongimizdagi yaxlit (hislardan xoli) aksi sifatida talqin qilinadi. Idrok,

<sup>10</sup> Zulfiya. Asarlar. Uch jildlik. 2-jild. Muhojira. – Toshkent: F. Fulom nomiдаги Adabiyot va san'at nashriyati, 1985. – B. 37.



tasvirlashtirish jarayoni tanlanuvchan va baholanuvchan. Ob'ektiv asallikdagi emotsional ahamiyat kasb etadigan narsalargina ongni o'ziga jalb etadi. Xuddi shu jihat Zulfiya tomonidan birinchi navbatda e'tiborga olinadi. Uning tushunchasiga ko'ra, kechinma obrazini berish uchun tayygarining o'zini tavsiflash shart emas, ruhiy iztiroblar chog'i onгда muhurlanadigan realiyalarni bayon qilish va istak-mayllarimizning tasvirligidagi in'ikosini qayd etishning o'zi yetarli.

Ijodkor dunyosi adabiy jarayon rivoji asnosida turli-tuman badiiy asarlar va yo'sinlar bilan boyib boradigan alohida tizimga aylanib boradi. Shu ma'noda, Zulfiyaxonim shaxsiyatidagi barcha qirralar borlig'icha asarlariga ko'chganligini ta'kidlash o'rinli. Shoira Svetlana Somova: "Zulfiyada o'zbek xalqining butun nazokati, ezgu fe'li jamuljam", deb ta'riflaydi.

Ma'lumki, Sharqda qadimdan ustoz-shogirdlik an'analari saqlanib keladi. Bizda azaldan usta san'atkorlar o'z mahorat sirlarini, san'atga bo'loyilik hislarini o'z shogirdlariga o'rgatib qoldirganlar. Zulfiyaxonim, ham ongli ravishda, ham qalbidagi saxiyligi, samimiyligi, og'ir muqobilalarda yordam qo'lini uzatishga tayyorligi, ayolparvarligi ustun kelgani tufayli H.Xudoyberdieva, Oydin Hojieva, Qutlibeka Mahunboeva, Muhtarama Ulug'ova kabi butun bir iste'dodli o'zbek shoiralari avlodini ulg'aytirdi, hayotida va ijodida yordam ko'rsatdi. Hecch ikkilanmasdan aytish mumkinki, ularning har birida Zulfiya qalbining otashi va ruhiy pokligining bir qismi yashaydi.

"Hozir bu shoiralalar mening o'z jonajon singillarim, qizlarimday bo'lib ketgan. Albatta, ularga talabchanligim zarracha susaygani yo'q. Yutuqlaridan g'ururlanaman, kamchiliklarini ko'rsataman. Mening bu "qizchalarim" faqat yaxshi shoira bo'libgina qolmay, Sharqimizning muqobilgurur, ajoyib, havas qilsa arzigulik qizlari bo'lishini xohlayman.

Men ko'rmaganni ular ko'rishsin. Dunyo va go'zallik haqida men aytib ulgurmagan gaplarni ular aytishsin. Turgan gap, chindan ham ularda qalbimning, quvonchimning, so'zlarimning bir qismi uzoq yashashiga ishongim keladi"<sup>11</sup>.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Zulfiya o'zbek adabiyotida yangi sahifa ochib, ko'plab shoiralarni o'z izidan ergashtirdi. Uning she'riyati hamomila o'ziga xos hodisa bo'lib, unga havas qilgan, ortidan ergashgan shoiralalar ijodi haqida bimalol Zulfiya maktabi davomchilari deya ta'riflash mumkin.

<sup>11</sup> Zulfiya. Asarlar. Kamalak. 3-jild. — Toshkent: Faqur Fulom nomiдаги Adabiyet va san'at nashriyati, 1986. — B. 140.

Atoqli munaqqidlarimiz va yetuk adabiyotshunoslarimiz tomonidan Zulfiyaning butun boshli maktab yo'lboshchisi degan unvonga loyiq ko'rilishi bejiz emas. O'zbek badiiy-estetik tafakkuri shoiri she'riyatining originalligini va betakrorligini his qilgachgina shunday qarorga keldi. Turli bahs-munozaralarga sabab bo'lar ekan, Zulfiya maktabi o'zining mavjudligini tasdiqladi. "Zulfiya maktabi" termini o'tgan asming 70-yillarida bejizga yoki tasodifan paydo bo'lgani yo'q. Zamona ruhini chuqur anglab yetgan shoirlar badiiy ijodda ham tenglar ichra teng faoliyat ko'rsata olishlarini isbotladilar.

Zulfiyaning iste'dodi o'sib, dovrug'i yuksalib bordi. Shunga munosib ravishda uning nomi bilan ataladigan poetik harakat ham yuksalishda davom etdi. "Zulfiya maktabi" degan ibora bir muddat xuddi havoda muallaqday turdi va nihoyat, H.Xudoyberdieva, O.Hojieva, Q.Rahimboeva singari shoirlar o'z talantlarini namoyish etganlaridan so'ng tom ma'noda o'z o'rnida ishlatila boshlandi. Zulfiya ijodiga xos yo'nalish mavjudligini hatto demokratik poeziyaga ko'pincha dushmanlik bilan qarovchi munaqqidlar ham tan olishar, ammo ba'zan Zulfiyaning o'ziga alohida urg'u berganlari holda u yaratgan maktab vakillari ijodini yerga urishga urinishar edi.

Albatta, bu maktab davomchilari she'riyatining o'ziga xosligini xolis va betaraf baholashdan ko'ra, o'ktam shoir bilan kamtar shoirning ijodi o'rtasidagi farqni ko'rish osonroq. Biroq, bir paytlar Saltikov-Shedrin aytganidek, "Fan va adabiyot sohalaridagi ikkinchi darajali arboblarning ahamiyati ham oz emas... Har qaysi maktab o'z ustasiga ham, ustachalari-yu, qora ishchilariga ham ega bo'ladi, ammo tanqid, ayrim so'z ustalarini o'z hukmiga loyiq ko'rib, ularning ortidan borayotganlarni ko'zga ilmasa, albatta, haq qaror topmaydi. Maktab faoliyatining xarakterli jihatlarini tadqiq qilishda adabiy ta'sir va taqlid masalalarini bir chetga surib qo'yish tanqidiy tadqiqotga ziyon keltirishi mumkin"<sup>12</sup>.

Xo'sh, o'zbek adabiyotidagi Zulfiya maktabi qanday maktab o'zi? Hammasidan avval poetik maktab deganda biror bir milliy adabiyotda tarixan shakllangan ma'lum badiiy prinsiplar tizimi tushuniladi. Ammo badiiy taraqqiyot tarzi shundayki, bunday maktabning tarixiy qonuniyatlari alohida bir individual ijodkor ziyosi bilan yorqinroq ko'rinadi. Zulfiya o'zbek she'riyatining yangi bosqichida ayol shoirlar yo'lboshchisi bo'lishdek tarixiy zaruriyatni uddalay oldi va tabiiyki, unga o'z ismini berdi.

<sup>12</sup> Салтыков-Щедрин М. Е. Собр. соч. в 20-ти т., т. 9. – М.: 1970 – С. 343-344.

Muayyan badiiy prinsiplar sistemasi sifatida Zulfiya maktabi butun o'zbek adabiyotiga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazdi. Odatda, maktab esga olinganda Zulfiyani yaqindan bilgan, mehriq qongan, hanni olgan, g'oyaviy-badiiy jihatdan unga yaqin turadigan, yordan to'g'ri ta'sirini o'zida his qilgan shoiralar tushuniladi. Bu aktiv sabablarga ko'ra, ularning aksariyati Zulfiya tashkil qilgan yoki bo'lgan jurnallarda ishlaganliklari ham sir emas, u paytlar davr, shuning o'zi shuni talab qilar edi. Shoiraning yorqin iqtidori, yoniq boshlovchi ijodkorlarda nafaqat taqlid qilish istagini uyg'otishi, balki ijodiy individuallikning ahamiyatini to'g'ri tushunadigan kishini bala murakkab holatga tushirib qo'yishi, ko'ngliga "mening yozganlarim bu cho'ng she'riyat yonida ko'rimsizday tuyulmasmikan" degan ehtibohni chaqirishi mumkin edi. Yosh shoiralar Zulfiya ta'sirini hamma vaqtlar ham uyg'un o'zlashtira olmasdan uning mavzu va obrazlarini takrorlashar, bu bilan davrning umumiy poetik madaniyatiga zarar etkazib qo'yilgan holatlar ham uchrab turardi.

Hundan tashqari, ijodiy maktablarning paydo bo'lishi va gullab-yashnashi uchun zarur bo'lgan qator omillarni ham sanab o'tish kerak. Birinchidan, "maktab" sarhadlarining o'zi – yetarlicha shartli va og'uvchan narsa, chunki "maktab"ning har qanday shoiri boshqa shoirlar, ba'zan ko'plab yo'nalishlar ta'sirida ham shakllanishi mumkin. Shuning uchun Zulfiyaning qachon va qanday ta'sir ko'rsatganligini, bu ta'sir qachon hal qiluvchi va o'ta muhim ahamiyat kasb etganligini o'zining ilg'ash dushvor masala. Ikkinchidan, biror shoirning ko'plab shoirarga ta'siri masalasini o'rganayotib, ushbu ta'simning butkul qamrovlik kasb etganini to'la-to'kis isbotlab berishning imkoni yo'q. Ijodiy maktab doirasida turli jihatlar, misol uchun, bir-biri bilan uyg'un tushmagan "maktab" ichida "maktab"lar bo'lishi mumkin (Bu o'rinda H.Xudoyberdieva bilan O.Hojieva she'riyati bir-biridan tamomila bo'lmasa-da, poetik jaranglashda ayriqha xususiyatlarga egaligini eslash biloya).

Zulfiya lirikasining ahamiyati uning xalqonaligi bilan belgilanadi. Shoir qalq haqida oddiygina yozmas, agar Marina Svetaevaning so'zlari bilan aytish joiz bo'lsa, "xalq bo'lib gapirardi". Zulfiya talant va poetik tajriba bobida o'ziga yaqinlashgan ko'plab shogirdlaridan faqatgina to'g'ri qobiliyati bilan emas, aynan xalq shoirasi, xalqqa yaqin shoir qanligi bilan ajralib turardi. Shoiraning ta'biricha, "shoirning xalqchilligi – bu, balki, avvalo ijod doirasining kengligidir, ulkan qamrov bilangina xalq ongining teranliklarini, san'atini, milliy o'ziga



xosligini ifodalash mumkin". To'g'ri, boshqalar ham xalqning xarakterini oydinlashtirishga, xalqning dilidagini aytishga urinadilar. Ammo Zulfiya bu xislatlarni o'z-o'zicha, yangidan ochar va tahlil asnosida yangicha badiiylik kashf etardi. Aksariyat shoirlar bo'lsa Zulfiya topgan usullar bilan qanoat qilishardi.

Tarixiy-adabiy taraqqiyot mazmuni dunyo, inson va uning zamon makon chegarasidagi turmushi haqidagi yangicha tasavvurlarning estetik o'zlashtirilishi bilan belgilanadi. Olamni ideal dunyo va odamlarni ideal inson darajasiga yetkazishga urinish bu jarayonni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. O'z mohiyatiga ko'ra insonshunoslik sanaladigan so'z san'atining butun rivojini aynan shunday ijodiy ko'rsatma bilan ta'riflash mumkin. Har qanday tarixiy-madaniy davrning adabiy jarayoni markazida hamisha o'sha madaniyatni yaratuvchi asosiy kuch – inson kategoriyasi yotadi. Xuddi shu tushuncha dunyo kartinasi shakllantirishning amaliy ifodasi bo'lib, uning tadrijiy taraqqiyoti tarixiy-madaniy harakatning keyingi rivojini belgilab beradi.

Shaxs qadr-qimmatining asosiy jihatlarini, uning ijtimoiy-madaniy tizimdagi rolini tushunib yetish "madaniyat in'ikosining eng zamon shakllaridan biri hisoblanadigan va o'zida davr madaniy tafakkuriga xos muayyan dunyo kartinasi, aloqalar tizimini mujassamlantiradigan" jami kategoriyasida o'z aksini topadi.

Poetik olam – bu poetik matn bilan bog'lanishda bo'lgan lisoniy borliqdir. U haqda so'z borganda alohida matn, matnlar majmui yoki muayyan shoir barcha asarlarining poetik olami haqida gapirish mumkin. Poetik olam – murakkab tushuncha; unga "olam kartinasi", ya'ni "ob'ektlar, voqealar, vaziyatlar, narsa-buyumlar jamuljami"<sup>13</sup> va dunyoni ko'rish, ya'ni uning tuzilishi haqida shoir ilgari suradigan tasavvurlar – dunyo haqidagi tafakkur ham kiradi<sup>14</sup>. Olam kartinasi ham, dunyoni ko'rish ham shoir ijodining turli bosqichlarida bir-biriga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun ham poetik olam – turg'un emas, dinamik tushuncha: unda o'zgaruvchanlik parametri muhrlangan.

Lirikada jo'shqin o'y-fikrlar, iroda impulsleri, taassurotlar, aqldan tashqari tuyg'u-istaklar kabi inson ongining ayro holatlari<sup>15</sup> bosh planga

<sup>13</sup> Падучева Е.В. Референциальные аспекты семантики предложения. // Известия, 1984. № 4.

<sup>14</sup> Арупонова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. – С. 112.

<sup>15</sup> Немис олимпи Ю. Петерсен лирика табиатини шу термин (Zustand – ҳолат) муружаат қилиб, тушунтириб берган эди; эпос ва драма соҳасини эса, унинг фикрчи ҳаракат (Handlung) ташкил этади. Қаранг: Petersen I. Die Wissenschaft von der Dichtung III I. Weik und Dichter. – Berlin, 1939. – S. 119-126.



ta'riflanadi. "Lirika – degan edi F.Shlegel, - doimo o'z-o'zicha muayyan belatni, masalan, hayratning jo'sh urishini, g'azab, og'riq, quvonchning bahzulik shiddatini – aslida butun bo'lmagan allaqanday butunlikni sevdiraydi. Bunda hislarning birligi zarur bo'ladi"<sup>16</sup>. Lirik poeziyadagi predmetga bunday qarashni zamonaviy fan o'ziga meros qilib olgan<sup>17</sup>.

Zulfiya lirikasida tuyg'ular va iroda impulsari nima bilandir bahartlanganlikda va konkret hodisalarga yo'nalganlikda beriladi. She'rdagi narsa-hodisalarni eslaylik: "Ko'zdan, so'zdan, qo'llardan uzoq / Dikun senga to'lar ellik yosh. / Go'yo maysa ellik yoshlik naq – / Ellik kochday boqadi quyosh. / Qalam, qog'oz yozuv ham go'yo / Ellik yoshli yetuk va yaqin. / Hamma real, xayol va ro'yo, / Hijron, sevgi, yog'in va shoqin". Shoiraning beorom, romantik va shu bilan birga g'am-hasratli his-tuyg'ulari uning atrofdagi narsalardan olgan taassurotlari hamda хотирında qolgan voqealar orqali ochilmoqda. Muallif ongning turmush bilan aloqalarini beradiki, she'r spetsifikasi shuni talab qilar edi. She'rdə hasrat tuyg'usi real voqelik hodisalariga qarshi reaksiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Badiiy so'z muhrlayotgan qalb harakatlari ganchalik noaniq va sezilmas bo'lmasin, kitobxon ularning nimalar orqali chaqirilganini anglaydi yoki hech bo'lmaganda, qaysi taassurotlar bilan aloqadorligini fahmlaydi.

Lirik kechinma so'zlovchiga (nutq sohibiga) tegishlidek tuyuladi. U faqat so'zlar orqali belgilanib qolmasdan (bu xususiy hol), maksimal darajada namoyon ham bo'ladi. Faqat lirikadagina badiiy vositalar tizimi butunicha inson qalb harakatini ochishga bo'ysunadi. Hissiy kechinma ko'pincha muhamlik, noaniqlik, chalkashlik ustun keladigan bevosita hayotiy emotsiyalardan sezilarli farq qiladi. "Lirik tuyg'u – bu inson ruhiy tajribasining kvintessentsiyasi, o'ziga xos quyqasidir. Adabiyotning eng sub'ektiv turi sifatida - deya yozgan edi lirika haqida L. Ginzburg, - u ko'proq musharaklikka, qalb hayotini xuddi barchaga hammar taalluqlidek tasvirlashga intiladi"<sup>18</sup>.

Lirik asar asosida yotadigan kechinma – bu o'ziga xos ruhiy to'larishdir. U inson tomonidan real hayotda sinalgan (yoki sinalishi mumkin bo'lgan) narsani ijodiy uyushtirish va badiiy jihatdan qayta o'zlashtirish natijasi hisoblanadi.

<sup>16</sup>ШлегельФ. Эстетика. Философия. Критика: В 2 т. Т. 2. – С. 62.

<sup>17</sup>Лирикада "кечинма образи" ҳақида қаранг.: Сквозников В.Д. Лирика/Теория литературы. Основные проблемы в историческом освещении. Роды и жанры литературы. – М. 1964. С. 175-179.

<sup>18</sup>Гинзбург Л. Я. О лирике. – С. 7.

Ma'lumki, lirikada ifodalangan kechinma egasini lirik qahramon deb atash qoida tusini olgan. Yu.N. Tinyanov tomonidan muomalaga kiritilgan bu termin adabiyotshunoslikda (unga sinonim bo'lgan "lirik men", "lirik sub'ekt" birikmalari bilan birga) muqim joy olgan. "Yaratilgan men" (M.Prishvin) sifatidagi lirik qahramon haqida nafaqat alohida she'rlarni ko'zda tutib, balki ularning turkumlari hamda bitta shoirning butun bir ijodi haqida ham gapiriladi.

Lirik qahramon nafaqat muallif, uning dunyoga munosabati, ma'naviy-ruhiy tajribasi, qalb irodasi, nutqiy o'zini tutish manerasi bilan oddiygina mustahkam aloqador, balki aslida (aksariyat hollarda) undan ajralmasdir. Lirika asosan uning "bag'ri"dagina avtopsixologik bo'la oladi.

Shunday bo'lishiga qaramay lirik kechinma shoirning biografiya shaxs sifatida boshdan kechirganlari bilan bir narsa emas. Lirika faqatgina muallif his-tuyg'ularini xuddi o'ziday qayta tiklab qolmaydi, balki ularni transformatsiyalaydi, boyitadi, yangidan yaratadi, yuksaklikka ko'taradi va ko'rkamlashtiradi. Bundan tashqari muallif ijod jarayonida tasavvur kuchi bilan shunday ruhiy vaziyatlarni yaratadiki, real hayotda ular umuman uchramasligi ham mumkin. Zulfiyaxonim she'rlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ulardagi barcha mavzu va motivlar ham shoira shaxsiy hayotidagi voqealar bilan mos kelavermasligiga amin bo'lamiz. Bu haqda gap ketganda, rus shoiri A.Blokning o'z she'rlaridan birining qo'lyozmasi ostiga "Bunaqa narsa umuman bo'lmagan" deb yozib qo'yganligini eslash o'rinli. Uning she'rlarida shoira shaxsiy qishloq qizi, goho yorining urushdan qaytishini kutayotgan ayol, gohida bolakay, goho sirli ijod ma'budi obrazlarida namoyon bo'ladi.

Demak, lirik ifodalangan kechinmalar ham muallifning o'ziga, ham boshqa, unga o'xshamagan shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin ekan. A.A. Fetning so'zlariga ko'ra, "Begona lahzalarni o'zinikiday his eta olish" mahorati poetik iste'dodning muhim qirralaridan biri sanaladi. Odatda, muallifdan sezilarli darajada farq qiladigan shaxslarning kechinmalari ifodalangan lirikani ijroviy lirika (D.Qur'onov) deb atashadi. Shunday ekan, Arastuning lirika haqidagi ta'rifiga (shoir "o'z shaxsini o'zgartirmagan holda, o'z-o'zi bo'lib qolaveradi") quyidagicha aniqlik kiritishga to'g'ri keladi: lirik shoir bemalol o'z shaxsini o'zgartirishi va kimgadir tegishli, begona kechinmani qayta tiklashi ham mumkin.

<sup>19</sup> Tinyanov Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. — С. 118. Лирик қаҳрамон ҳақида яна қаранг: Степанов Н.Л. Лирика Пушкина. — М., 1959. — С. 106-110.

Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni aytilish mumkinki, Zulfiya shu holatlarni inson zohiridagi o'zgarishlar, hodisa yuz berayotgan vaqtni, atrofdagi predmetlarni qayd etish orqali bilvosita berishga imkon beriladi. Biroq shoiraning poetik yangiligi faqat tuyg'ularni ifodalashda ifodalardan predmetlarni gavdalanitirish uchun foydalanganida emas, balki inson hayotining ikki – tashqi, ob'ektiv va ichki, sub'ektiv sohalarini birlashtirib tasvirlay olganida, tasvirlaganda ham birinchisini ikkinchisining ifodasiga xizmat qildirganligida ko'rinadi. Bu shoira shu holatdan yangicha tafakkur o'sib kelayotganidan darak berar edi.

## RISOLALAR NAMUNASI

### I l h o m

**Ilhomning vaqti yo'q, seldek keladi,  
Rahm etmay, jallodek dilni tiladi...  
Usmon Nosir**

Ilhomning mohiyatini anglamoq uchun, keling dastavval, fikrlarning fikrlarini tinglaylik:

A. Oripov: "... ilhom hayajondan balandroq turadigan aql va tafakkur tamg'asi bo'lgan holat hisoblanadi. Pushkin ilhomni anglab qolgan kayfiyat, – deydi. Ma'lum tarixiy sharoitda yashab ijod berayotgan kishilarning ilhomi allaqanday muallaq, ta'bir joiz bo'lsa, ilhom bo'la olmaydi. **Ilhom ma'lum muhitda va fikrlar tarayonida sintezlashgan kayfiyatning oliy nuqtasidir**" (A.Oripov. Ta'kidlar bizniki – H.U.).

O'. Hoshimov: "Ilhom, Tolstoy aytganidek, endi jim turolmayman, lekin tuyg'u bilan yozuv stoliga o'tirish. **Bunaqa paytda, odam hamma narsani unutadi, rohat qilib ishlaydi. Oylab, ba'zan yillab hal qilolmagan muammolarni bir haftada bemalol uddalaydi**" (O'. Hoshimov. Ta'kidlar bizniki – H.U.).

E. Vohidov: "Men ilhom deb atalgan holatning tabiati haqida ko'p fikrlaganman. Bu g'ayrioddiy noyob holat. Shoir ilhom daqiqalaridagina baqiyat shoir bo'ladi. Boshqa vaqtda u o'zgalarga o'xshab fikr qiluvchi soddiy odam. Shoir ilhom onlarida bitgan satrlariga keyim o'zi hayron bo'lishi mumkin.

Zo'r karvon yo'lida yetim bo'tadek,  
Intizor ko'zlarda halqa-halqa yosh.  
Eng kichik zarradan Yupitergacha,  
O'zing murabbiysan, xabar ber, Quyosh.

Bu satrlarni bitgan vaqtda G'afur G'ulomning vujudi kaftidagi simobdek qalqib turganini tasavvur qilsa bo'ladi. Bunaqa she'rlarni shunchaki o'tirib, mana endi she'r yozaman, deb yozib bo'lmaydi. Haqancha materialist bo'lsam ham ilhom holatining sehrli ekaniga ishongim keladi. Lekin, bu holat osmonga boqib kutib o'tirish bilan kelmaydi. "Faust"da aytilganidek:

She'riy kayfiyatni tek kutgan shoir  
Umr so'ngigacha kutishi mumkin.

**Ilhom uzluksiz izlanish, o'qish, o'rganish, mehnat qilish natijasidir. Shu ma'noda u ongli jarayon.** Talantning to'qson to'qqiz qismi mehnat, degan so'zni men shunday tushunaman. **Ilhom tuyg'ularning shoir qalbidan toshishi, shoir xayolida tug'ilgan she'riy niyatning yetilishi va vujudni larzaga solishidir.** Fikr va tuyg'ular esa izlanishdan dunyoga keladi.

Ilhomsiz asar yozish mumkinmi? Mumkin. Lekin, bu juda og'ir mehnat – yozish ham, o'qish ham. **Ilhomsiz yozilgan asar sevgiligi olingan bo'saday sovuq bo'ladi** (E.Vohidov. Ta'kidlar bizniki – H.U.).

Ushbu mulohazalardan ayon bo'lyaptiki, ilhom kelganda san'atkorning ma'naviy va jismoniy quvvati bir nuqtaga yig'iladi, u katta qudrat bilan ishga kirishadi: Bu paytda u borliqni tamoman unutadi, go'yo inon-ixtiyoriga bo'ysunmaydigan zavq-u shavqqa to'ladi, qattiq hayajonga tushadi; faqat "g'oyibdan kelgan", to'g'rironi, ichdan to'liq his qilib sezilgan fikr, holat tasvirini yozib ulgurish bilan band bo'ladi.

Ilhom kelganda san'atkor, qadimgi filosoflar aytganidek, ma'naviy "kayf" holatida bo'ladi, ya'ni o'zi qilayotgan ishni to'liq anglamaydi, o'zligini, o'zi yashayotgan dunyoni unutadi; o'zi yaratayotgan yangi olamda va shu olam "kishilari" – qahramonlari bilan birga yashay boshlaydi; ularning faoliyat va nutqlarini juda yengillik bilan qog'ozga tushirib boradi. Obrazli qilib aytganda, "Ilhom – parovozning o'txonasi" (L.Lecnov), shu parovozni harakatga keltiradi. Demak, ilhom yozuvchi qalbiga tushgan ma'naviy olov, u ijodiy jarayonni to'liq yoritadi va harakatini ta'minlaydi.

Xo'sh, bunday holat qachon yuz beradi?



“Ma'lumki, san'at, shu jumladan, so'z san'ati – adabiyot ham kishilarning ongiga his orqali – yurak orqali ta'sir qiladi...

Yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, buni o'qigan yozuvchi ham hech narsani his qilolmaydi. O'quvchining qalbiga ta'sir qilmagan narsaning adabiyotga hech tegishliligi yo'q.

Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart. Busiz bo'lmaydi. His qilinmasdan yozilgan narsa qog'ozdan qilingan gulga o'xshaydi...

**Bas, ma'lum bo'ladiki, ilhom kelgani yozuvchining to'liq his qilgani, ilhom kelmagani yozuvchining hali his qilmagani bo'ladi.**<sup>1</sup>

Ilhom degan sehrning makoni bormi? “To'liq his qilmoq”ni qanday ta'minlash lozim? Ichki his orqali sezmoq uchun nimalar kerak?

Buning uchun iste'doddan tashqari ulkan mehnat – asalari mehnati zarur. “Asalari yuz gramm bol yig'ish uchun millionta gulga qo'nar ekan, – deydi yozuvchi O'tkir Hoshimov. Shunga yarasha sharbat to'plash uchun 46 ming kilometr masofani bosib o'tarkan. Bu yer karnasini ekvator bo'ylab aylanib uchish bilan teng. Bundan tashqari, bolari har bir tomchi gul sharbatini xartumchasidan 200 marta to'kib, payta yutib, ishlov berarkan. Ammo, bu hali asal tayyor bo'ldi, degan gap emas. Shundan keyin bolari asalni maxsus katakchaga joylab, bir soat soat mobaynida qanot qoqib, havo yuborib, tozalarkan. Asal tayyorligi shundan. Haqiqiy asar dunyoga kelguncha, qalamkash ham ta'minlan shuncha aziyat chekadi” (O'.Hoshimov). Lekin, bu aziyat ham ta'minlik qiladi: Hayotni, inson ruhini tahlil va tasvir etuvchi san'atkorda mavjda baland, donishmandlik va payg'ambarlik xislatlarining bo'lishini ham taqozo qiladi.

Ma'lumki, Tangri taolo, barcha buyuk payg'ambarlarning eng oliy sifatlarini Muhammad payg'ambarda bo'lishiga amr etganlar. Shu sabab, Odam Atoning yaxshi xulq-atvori, Sifning ilm-u donishi, Nuhning paxlavati, Ibrohimning shafqati, Ismoilning fasohati, Isohning kamtarligi, Lotning farosati, Yoqubning topqirligi, Yusufning husni-jamoli, Musoning sabr-matonati, Ionaning halimligi, Joshuaning ustuvorligi, Davudning xayrixohligi, Doniyolning mehri va yuragi, Ilyosning oltinobligi, Ionning musaffoligi, Isoning taqvodorligi unga muyassar bo'ladi. Xuddi shunday fazilatlar talantda ham mujassam bo'lishi va u muvaffaqiyatli yaratish ishiga – mo'jizakorlikka sarf bo'lmog'i lozim.

<sup>1</sup> Abdulla Qahhor. Asarlar. 5-jild, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1989, 228-bet.

Ana shundagina haqiqiy san'atkorlik yuzaga keladi – kitob ham zavq-u shavqqa, kuchli ehtirolarga duch etadi. Yozuvchidagi o'quvchiga to'liq "ko'chadi"; yozuvchining ilhomi o'quvchi ilhomini jo'shtiradi.

Bunday mehnat va xislatlarsiz "Ilhomning o'zi hech qachon kelmaydi. Ilhomni yozuvchining o'zi qidirib topishi kerak.

Ilhom deb atalgan parizod, nozanin yorning makoni qaychisi? Ilhomning makoni xalqning dilida – majburiyat emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkati, baxtiyor odamning qahqahasida, jabrdiydaning ko'z yoshida, oshiq va ma'shuqalarining ko'zlari va so'zlarida, odamda mehr va g'azab uyg'otadigan hodisa va voqealarning mag'zida... ilhom qidirgan yozuvchi xalqning qalbiga qo'l solishi kerak" (A.Qahhor).

Demak, ilhom ham hayotni chuqur o'rganishdan – shu yo'l bilan tinimsiz mehnatdan tug'iladi. Hayot bor joyda – ilhom bor. Faqat yozuvchi uni hayotdek ulkan olamdan – o'zini ehtirosga solgan olamni xalqqa aytmoqchi bo'lgan zarur gapni topishi, ajratib olishi lozim. Lekin, yozuvchi tasvirlamoqchi bo'lgan har bir hodisani, qahramonlari taqdirida sodir bo'lgan hamma holatlarni o'z boshidan kechira olmaydi-kul! "Mana shu joyda yozuvchini bir narsa qutqaradi, – deb yozadi Asqad Muxtor, – hayotni yozuvchi ko'zi bilan ko'rib, uni badiiy, falsafiy tahlil qila bilish qobiliyati".<sup>1</sup>

Yozuvchi P.Qodirov "San'atkor yozuvchi shaxsan o'zi ko'rmagan voqealarni boshidan o'tkazmagan kechinma va hissiyotlarni ichdan astoydil his qilguncha o'rganadi"<sup>2</sup>, – deb yozsa, Ilya Erenburg "Uning qo'lida o'zgalarning qalbini ocha oladigan kalit bo'lmog'i kerak" – deb ta'kidlaydi.

Bu fikrlar asosida qanday sirlar yashiringan? "Hayotni yozuvchi ko'zi bilan ko'rish... ichdan astoydil his etish... o'zgalar qalbini ocha oladigan kalit"ni qanday tushunmoq lozim?

L.N. Tolstoy "Tirilish" romanida shunday yozadi: "Dunyoda eng ko'p tarqalgan fikr, har bir kishining o'ziga xos ma'lum bir xususiyati bo'ladi, xushfe'l, aqlli, ahmoq, g'ayratli, yalqov odam bo'ladi va hokazo, degan fikrdir. Lekin, odamlar bunaqa bo'lmaydi. Biz odam haqida u ko'pincha badjahl emas, g'ayratli yoki aksincha bo'ladi deyishimiz mumkin; lekin bir odamni agarda, u xushfe'l yoki aqlli desang-u, boshqa birini jahldor yoki ahmoq desak, noto'g'ri gapirgan bo'lamiz. Biz

<sup>1</sup>U.Normatov. Talant tarbiyasi. "Yosh gvarqiya", Toshkent, 1980, 38-bet.

<sup>2</sup>Pirimqul Qodirov. O'yalar. Toshkent, 1971, 107-bet.

...lekin odamlarni doimo shunday ajratamiz. Bu noto'g'ri. Odamlar  
...lekin gap – hammasining suvi bir xil, hamma joyda o'sha suv, lekin  
...goh keng bo'ladi, goh tor, goh tez oqadi, goh sekin, suvi goh tiniq  
...bo'ladi, goh loyqa, goh iliq bo'ladi. Odamlar ham shunday. Har bir  
...odamda insoniy xususiyatlarning kurtagi bo'ladi. Odam shu  
...xususiyatlarning goh birini, goh boshqasini namoyon qiladi, ba'zan  
...o'sha odamning o'zi butunlay o'zgarib ketadi. Ba'zi odamlarda shu  
...o'zgarishlar juda keskin namoyon bo'ladi..." (Ta'kid bizniki – H.U.).

Demak, har birimizda butun odamzod shu vaqtgacha boshidan  
...boshirgan insoniy xususiyatlarning kurtagi yashirin tarzda mavjud. Ular  
...har bir qalbning chuqurida yota beradi. Lekin, ulardan birortasini  
...yig'otish zarurati tug'ilsa, shunga tashqi talab, ehtiyoj bo'lsa,  
...tasavvurimizda jonlanishi mumkin. Xuddi ana shu sababli yozuvchi  
...xohlagan qiyofaga, yoshga, holatga kira bilishi mumkin. Xohlagan  
...hissiyat, ruhiyatni tasavvur eta olishi mumkin. Shunday ekan,  
...yozuvchi-san'atkor xasislik va jinoyatni ham, qo'rquv va mardlikni ham,  
...ayol va jasoratni ham, ayol va yigitni ham, chol va kampirni ham...  
...muhabbat va oriyatni ham tushunarli va yorqin tasvirlay olish qudratiga  
...egadir.

Lekin, bu qudrat samimiy va ta'sirchan, ishonarli va "yuquvchan"  
...bo'lishi uchun yozuvchi o'z xalqining farzandi, Vatanining jangchisi,  
...qaynoq hayotning faol ishtirokchisi, ilg'or dunyoqarashning egasi  
...shafatida katta shaxsiy va ijodiy tajribaga ega bo'lishi lozim. Chunki  
...yozuvchining shaxsiy tajribasi, biografiyasi "oltin fond" (A.Muxtor)  
...bo'lib, u hayotda, shu jumladan, asarda ro'y berayotgan voqea va  
...hodisalarni tushuntiruvchi kalitdir. Shu bois, G'.G'ulom: "Yozuvchi  
...kishining ichki dunyosini tasvirlar ekan, o'z tajribasiga suyanadi.  
...Uning uchun ham bu tajriba qanchalik keng bo'lsa, qahramonning  
...ichki dunyosi ham shu qadar boy bo'ladi", deb yozgan edi. Darvoqe,  
...shaxsiy tajriba – o'zgal qalbini to'g'ri anglashning yo'lduzidir.

Garchi, insoniyatga tegishli hamma narsa har bir shaxsga ham  
...tegishli bo'lsa-da, har bir inson o'zicha his qilib, o'zicha o'ylaydi,  
...o'zicha yashaydi, o'zicha o'rtanadi, o'zicha mulohaza qiladi, o'zicha  
...gapiradi... Shu sabab "Bir shoirning "sir"i boshqa shoir uchun sira ham  
...toli bermaydi. Uni hamma qulfga tushadigan kalitdek deb o'ylash  
...mumkin emas.

Poetik ijodning "sir"ini faqat shoirning o'zigina topa olishi, shunda  
...ham faqat o'zidan topa olishi mumkin. Har bir yangi shoir bu "sir"ni o'zi

uchun yangidan “ochishi” kerak, deb aytsak to‘g‘riroq bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Poetik “sir”ni bilib olish – bu hammadan oldin ijodda mustaqil bo‘lish demakdir. Boshqacha qilib aytganda, sen bir she‘r yozginki, bu she‘rning yozilishi faqat o‘zingga, boshqa shoirga emas, faqat sening o‘zinggagina xos bo‘lsin, ya‘ni bu she‘rda o‘zingga xos ovozing bo‘lmas, biror mavzuda mustaqil o‘zing nima ayta olsang, faqat shuni, o‘zing fikringni ayt. Chunki turmushdan olgan bir voqeani o‘zing ko‘rgansan o‘ylagansan, uni o‘zing his qilgansan, o‘zing anglagansan va o‘zing undan xulosa chiqargansan. Shuning bilan birga bu voqea, faqat sholi va ma‘lum doiradagi odamlar uchungina ahamiyatli bo‘lmay, balki, eng muhimi, keng o‘quvchilar ommasi uchun ahamiyatli bo‘lishi kerak.”<sup>1</sup>

Shoir M.Isakovskiyning yuqorida keltirgan so‘zlaridan ham ma‘lum bo‘lyaptiki, “kimki yozuvchi bo‘lmoqchi bo‘lsa, albatta, o‘zidan o‘zligini topishi zarur”. Chunki, u tasvirlamoqchi bo‘lgan hayotning maftunkorligi yozuvchi shaxsidan qo‘shiladigan ma‘naviy, poetik “boylik”ning darajasiga bog‘liqdir. U o‘zigagina tegishli ana shu “boylik”ni – insoniy sifatlarni, ruhiy kuchlarni yaratayotgan qahramonlariga “ulashganda”, berganda buning sifati qandayligini – fikriy doirasi, ichki dunyosining teran, boy yoki cheklangan va qashshoqligini kitobxon baholaydi. Ana shu bahosining natijasiga qarab yozuvchiga, uning asariga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Demak, yozuvchining qahramonlar kechin-malarini birga his qilish, ularga singish (“вживание”) iste‘dodi, qahramonlarga subek-tiv munosabati katta rol o‘ynaydi. U o‘zini tasvirlanayotgan shaxs o‘rniga qo‘ya olsagina, o‘sha shaxs qiyofasiga kira bilsagina xarakter jonlanadi.

Buning uchun yozuvchi, dastavval, obrazni ko‘z o‘ngida jonli shaxs qiyofasiga kirguncha o‘rganadi. Yozuvchi o‘z qahramonining tug‘ilishidan tortib umrining oxirigacha bo‘lgan hayotini va u harakat qilishi lozim bo‘lgan voqelikni-sharoitni tasavvur qila bilishi kerak.

Agar Oybek: “Buning uchun, albatta, Navoiyning barcha asarlari, Navoiy yashagan davrning tarixi, u davrning sotsial qiyofasi, u davr faoliyatining xarakteri, urf-odatlar, xulq-atvori bilan tanishishiga to‘g‘ri keldi. Ko‘p tarixiy faktlar, materiallarni yig‘dim, ularni tahlil etib, mag‘zini chaqish uchun chuqur his etishga, o‘ylashga boshladim. Bu ishga shu qadar g‘arq bo‘lgan edimki, romanning ish plani qog‘ozda yo‘q edi, u mening ko‘nglimda, yodimda edi, butun borlig‘imni band

<sup>1</sup> M. Isakovskiy. Poeziyaning “siri” haqida // Badiiy ijod haqida. Toshkent. 1960, 30-bet.



etgan edi. Yursam-tursam hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nodor, aqlli ko'zlari, xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl, pok, ulug' qalbini his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim"<sup>1</sup>, – deb yozsa, M.Ahmad “Ufq” qahramonlari haqida: “Romandagi har bir personaj bilan xayolan gaplashganman, yig'laganman. Ular xuddi qaysar, bebosh bolulardek meni qancha qiynashgan.

Xasis, yaramas Inoyat oqsoqolni qandoq qilib yomon ko'ray. Axir uni yaratguncha qancha azob tortganman. Uning eski bir so'mliklarni samovarning qorniga yopishtirib dazmollashidan tortib militsioner bilan uchrashuvigacha menga qadrlı"<sup>2</sup>, – deb ta'kidlaydi.

Ushbu iqromnomalardan ko'rinayaptiki, Oybek qahramonlarini ko'z o'ngida ko'rganday tasavvur qilsa, Said Ahmad ular bilan xayolan gaplashib, suhbatlashadi. Bu xususiyat, ya'ni yozuvchining asarda tasvirlanayotgan olamda yashashi, shu olam kishilari bilan munosabatga kirishishi, ularning yaxshisini sevishi, yomonini qoralashi – hamma san'atkorlarga xosdir. A.Tolstoy yozganidek, “Tasvirlagan narsalarni ko'tuyg'ular yordamida ko'ra bilib, asar yaratish – yozuvchi uchun qonundir”.<sup>1</sup>

Ilhom bepoyon ijodiy jarayonning bir parchasi, badiiy asar yaratish ijtimodagi san'atkorning muayyan bir holati. Lekin ilhomsiz yaxshi asar yaratish mumkin emasligi ham ayon bo'ldi.

### Ilhomning darajalari

Adabiyotshunoslikda ilhomning ikki darajasi borligi qayd etilgan: **birinchisini** – mo'tadil ilhom (вдохновение – скрытое, “скромное”) va **ikkinchisini** – zavq-u shavqqa to'liq ilhom (вдохновение-аффект) deb atadik. Birinchisiz asar yozish mumkin emas, ikkinchisiz harqalay mumkin. Birinchisi juda oddiy kechadi, ya'ni san'atkor ilhom hayajonini sezsa-da, tashqi ko'rinishidan o'zini juda xotirjam tutadi, hamma holatini ongli idrok etadi. Ma'lumki, ilhom yozuvchi fikr-mushohadasining chuqurliklarida tug'iladi va yetiladi. U'nzan u birdaniga vulqondek otilib chiqadi: san'atkor yaratayotgan olamiga shunchalik ehtiros va hayajon bilan beriladiki, realikni sezmaydi. Uning tomirlarida shiddat bilan qon yugura boshlaydiki, o'sha tasvirlayotgan qahramonining holatiga tushadi.

<sup>1</sup> Qarang: Adabiyotimiz avtobiografiyasi. Toshkent, 1973, 158-159 bet.

<sup>2</sup> Qarang: U.Normatov. Talant tarbiyasi. 101-102-bet.

<sup>3</sup> Qarang: Badiiy ijod haqida. Toshkent, 1960, 100-bet.

Jumladan, kitobxon Surayyo Xo'jaeva yozuvchi A.Muxtordan "Badiiy asarni o'qiyotganda qahramonlar hayotining eng hayajonli daqiqalari tasviri paytidagi yozuvchi holati masalasi meni juda-juda qiziqtiradi. "Men "Tug'ilish" romanini o'qiyotganimda Luqmon-chaning o'limi tasviriga kelganda o'zimni qo'yarga joy topolmay qolgan edim.

Asqad aka, o'sha hayajonli daqiqalar tasviri paytida qanday holatga tushgansiz, eslay olasizmi?" – deb so'raganida A.Muxtor quyida-gicha javob beradi:

"Asarning kitobxon uchun ta'sirli joylari yozuvchining o'zini ham shunchalik ta'sirlantiradimi? Bu haqda har xil afsonalar bor. Mikelanjeloga o'zi yaratgan haykal tirikday ko'rinib, qo'rqib ketganmish; Balzak qahramoni o'lganda infarkt bo'lib qolganmish. "O'tgan kunlar"dagi Kumush o'limi tasviri paytida Abdulla Qodiriyning yig'lagani haqida ham gaplar bor...

Bular – ijod psixologiyasi nuqtayi nazaridan haqiqatdan ham afsona.

Ijodkor bunday ta'sirli tasvirlar paytida zahmat chekadi. To'g'ri, ilhom bilan zahmat chekadi, lekin uni ko'pincha hayajon emas, qanoatsizlik hissi qiynaydi. Chunki, qog'ozga tushgan narsa odatda yozuvchi o'yida tug'ilgan o'ziga xos murakkab munosabatlar olamiga nisbatan juda kichik bo'ladi. Yozuvchi tasavvuridagi ajoyib dunyo qog'ozga hech vaqt to'laligicha tushmaydi. Tasavvur so'zlardan boy. Shuning uchun o'sha Surayyoxon aytgan tasvirlarda ham meni birinchi galda qanoatsizlik hissi qiynagan. Charchaganman, maza qilib uxlaganman. Nazarimda, shu his bo'lmasa; bordi-yu yozuvchi o'zi yozganidan o'zi mamnun bo'lib zavqlansa, asar yaxshi chiqmaydi".<sup>1</sup>

Demak, A.Muxtorning asosli fikriga ko'ra, yozuvchi qahramon hissiyotini, kechinmasi va iztiroblarini tasvirlash paytida uning qiyofasiga kiradi, lekin butunlay, yuz foiz emas, o'zining "men"ni, yaratuvchi shaxs-yozuvchi ekanligini unutmaydi. Darhaqiqat, Mikelanjelo, Balzak, Qodiriylar boshidan kechirgan yuqoridagi "afsona"lar yuz berganda ham, u – san'atkorlar yaratilgan yoki yaratilayotgan obrazlardan ustun turganlar; o'zlarini asar qahramoni emas, balki "uydirmalar ijodkori" (M.Gorkiy) ekanlarini unutmaganlar. Shunday ekan, H.Qodiriyning "Otam haqida" xotirasida quyidagicha yozgani yolg'onmi?

"Bobom vafotidan so'ng edi. Shahar hovlida yashar edik. Bir kuni uyimizda shunday voqea ro'y berdi, oyim, odatimizcha, ertalabki choyni

<sup>1</sup> Qarang: U.Normatov. Talant tarbiyasi. 37-bet.

bibimning uyiga hozirladi-da, erta turib, yozib o'tirgan dadamni choyga chaqirgani kirib ketdi. Biz dasturxon tevaragida uning chiqishini kutamiz... Bir vaqt oyim negadir indamay chiqdi-da, o'tirib bizga choy quyib bera boshladi:

- Abdullani chaqirdingmi, Rahbar, - adam chiqavermagach, uyimdan so'radi bibim.

- Yo'q.

- Nega?

- O'g'lingiz yig'lab o'tiribdilar, - dedi oyim.

Bibim bechora sakrab turib dadamning uyiga yo'l oldi. Kap-katta kishining yig'lashidan hayratga tushib, men ham bibim ortidan erashdim. Kirsak, u yum-yum yig'lar, kursiga tirsaklanib olib to'xtovsiz yozar edi. Bibim dadamning bu holiga biroz qarab turdi-da, bir narsani tushundi, shekilli, indamay, meni boshlab orqasiga qaytdi va o'tirib choyini icha boshladi. Men bibimdan so'radim:

- Ona, dadam nega yig'layaptilar?..

- Dadang jinni bo'lib qolibdi... - javob qildi bibim va boshqa so'z aytmadi.

Keyinchalik anglasam, o'shanda dadam o'z sevikli qahramoni Kumushning o'limi payti tasvirini yozayotgan ekan"<sup>1</sup>.

Bu kabi hodisalar badiiy ijod uchun yot narsa ham, yozuvchi A Muxtor aytganidek, afsona ham emas. San'atkor o'zi yaratgan, o'ylab chiqargan obrazini ob'ektivlashtirar ekan, uni xuddi birga yashayotgan kishisidek, real, hayotiy odam tarzida tasavvur qiladi. Natijada, qahramon qalbida sodir bo'layotgan kechinma, iztirob, og'riqni o'z boshidan kechirayotgan shaxs holiga tushadi. Qahramonning o'zigagina tegishli olamning eng chuqur sirlarini to'liq his qilishga imkon beradi.

Shu sabab S.Ahmad yozadi: "Og'ir yuk ko'targan kishini tasvirlaganimda, o'zim o'sha yukni ko'targandek kuchanib, terlab ketaman. O'lim manzarasini tasvirlaganimda eng yaqin kishimning juandi tepasida turgandek yig'lagim keladi.

Xullas, nimani tasvirlasam, o'zim o'sha voqeaning ishtirokchisiga aylanaman. Shuning uchun ham, har bobni yozganda qattiq charchab, toliqib qolaman".

Agar qahramon kechinmasi bilan birga azoblanish A.Qodiriyning yum-yum yig'latsa, S.Ahmadni charchatsa, toliqitrsa, yozuvchi H.G'ulomni beixtiyor ko'zlaridan yosh chiqib ketishiga olib keladi: "Doshda "Binafsha atri" qahramoni... Nafisaning keyingi taqdirini -

<sup>1</sup> H.Qodiriy. Otam haqida. Toshkent, 1974, 118-119-betlar.

bolasi bilan cho'lg'a chiqib ketib sargardon yurishini tasvirlay turib ko'zlarimdan yosh chiqib ketganini sezmay qolganman".

Badiiy ijod tarixida bundan ham og'ir ma'naviy iztirob chekkan azobli holatlarga tushgan yozuvchilarning iqromomalarini eslash mumkin.

Masalan, Flober Emma Bovarining zaharlanishi lavhasining tasviriga kelganda shunday deydi: Tasavvurimdagi shaxslar men hayajonlantiradilar, kuzatadilar, aniqrog'i, men ularga aylanaman. Men Emma Bovarining zaharlanishini tasvirlay boshlaganimda og'zim-da haqiqatdan ham mishyak (zahar)ning ta'mini totdim. Zaharlanganimni sezdim, ikki marta juda yomon ahvolga tushdimki, hatto qayt qildim".

Bu avtorlarning guvohliklari shunchalik samimiy va ular o'rtasida shunchalik hamfikrlik borki, ularning haqiqat ekaniga ishonmaslikka hech qanday asosimiz yo'q. Unda buni qanday tushunish kerak? Badiiy ijod psixologiyasi qonuniyatiga xilof emasmi?

Ushbu masalaga chuqurroq yondashilsa, A.Muxtor tipidagi yozuvchilarning asosli tushunchasi bilan A.Qodiriy, S.Ahmad, H.G'ulom, Floberga o'xshash san'atkorlarning yuqoridagi holatini o'rtasida katta farq yo'q. Birinchi tipdagi yozuvchilarda qahramon shaxsidan, uning ruhidan ajralish, uzoqlashish jarayoni tez va osonlik bilan yuz beradi. Ikkinchi tipdagi yozuvchilar qahramon qiyofasiga kirib, ular kechinmasini birga tortar ekanlar, birdaniga bu qahramon ruhidan chiqib, uning ta'siridan uzoqlasha olmaydilar. Tasvirlamoqchi bo'lgan qahramon yozuv-chining butun borlig'ini band etadi, uning shaxsiy hayotiga, yurish-turishiga muhrini bosadi. Shuning uchun ham Oybek "Yursam-tursam ham hamisha Navoiyni o'ylar edim. Uning ma'nolari, aqlli ko'zlari, xushfe'l, rahmdil, olijanob qiyofasi, asl pok, ulug' qalbi his etardim, ko'z o'ngimda ko'rardim", – deb haq gapni aytadi. Bunday holat ba'zi yozuvchilarda uzoq davom etishi mumkin. Asar yaratilgan, kitob bitgan, yillar o'tgan bo'lsa-da, baribir o'sha asar ruhidan qahramonlar hayajonidan, ta'siridan qutula olmaydilar. Buni S.Ahmad va uning "Ufq" romani ustidagi kuzatishlari ham isbotlaydi: "... kitob qattiq hayajon, turli ruhiy izlanishlar, quvonchlar bilan yozilganidan, u bitgandan keyin ham, o'quvchilar qo'liga tegib, adabiy tanqid yaxshi yomon aytgandan keyin ham uning ruhidan chiqib ketolmadim. Birinchi hikoya yozsam yo shu romanga kirmay qolgan bobga, yo qahramonga o'xshab qolaveradi".<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Qarang: U.Normatov. Talant tarbiyasi. 82-83-betlar.



Ushbu aytganlardan shu narsa aniqlashadiki, yozuvchi tasavvuridagi qahramonlarning azob va quvonchlari, hayajon va talvish-kechinmalarini birga tortar ekan, yaratayotgan, uydirma asosiga qaratilgan lavhasini ko'z o'ngida ko'rar ekan, u bu holatlar va predmetlarni shunchalik aniq va jonli sezadiki, natijada uni o'z qalbida, ko'z oldida, haqiqiy hayotda yuz berayotgan kechinma va hodisadek qabul qiladi. Shuning natijasi o'laroq ijodiy jarayonning ba'zi "afsona"lari yuzaga chiqadi.

Lekin, yozuvchi tasavvurida uyg'ongan hissiyot, qanchalik kuchli va chuqur, tiniq va ta'sirchan bo'lmasin, san'atkor o'zining "men"ini, individualligini yo'qotmaydi. Qalb ong va irodaga bo'ysunadi. Shu sabab voqea bo'layotgan hamma hodisalarning real, ob'ektiv sababi yo'qligini yozuvchi tushunadi. Yuqoridagi yozuvchilarning "afsona"lari go'yo haqqoniy aktyorlarning yig'isi, uh tortishi, azoblanishi, kulishi – bu o'sha o'ynayotgan obrazlarning yig'isi, uh tortishi, azoblanishi, kulishi ekaniga o'xshaydi. Aktyor tomosha tamom bo'lgach, o'z niqobini yechishni unutmaydi, o'zining ilgari fikrlariga, hayotiga qaytadi. U sahnada o'ynar ekan, o'zligini, butunlay unutilib qo'ymaydi, garchi tomoshabin ko'ziga bu narsa tashlanmasa ham, u "kuylar ekan, eshitadi, harakat qilar ekan, kuzatadi" (F.I.Shalyapin).

"Abror aka – Otello, egnida qizil shohi ko'ylak. Belida qizil shohi belbog', qulog'ida "tilla" sirg'a, qop-qora chehrasida viqor, vazminlik, olijanoblik. Tishlari yarqirab sahnaga kirib keladi. Kirib keldi-yu sahna ham, teatr ham esimdan chiqdi. Chunki ko'z oldimda Abror Hidoyatov emas, o'sha Shekspirni ilk bor o'qiganimda tasavvur etganim – Otello turrdi!

Uning har bir harakati, Dezdemonaga tikilganda ko'zlarida porlagan cheksiz muhabbat, ovozidagi titroq, kiborlar oldida o'zini tutishi, qadrini bilishi, mardligi hamma-hammasi menga tanish, xuddi men tasavvur etgan Otelloning o'zginasi edi.

Mana, Otelloning olijanobligini, bolalarga xos samimiyligini, pokligini ochib beruvchi dastlabki sahnalar o'tib, qalbiga rashk cho'g'i tushdi.

Odatda, tanqidchilar bu sahnalar to'g'risida gapirganda Otelloni o'ziga, yo'lbarsga o'xshatadilar. Lekin, rashk azobida to'lg'angan Abror Hidoyatov sher emas, yo'lbars ham emas, sahnada charx urgan bir cho'g', qizil shohi ko'ylak ichida mavj urgan olov, taftiga hech kim bardosh berolmaydigan bir alanga edi! Bu otash, bu alanga keng sahnada

javlon urar, hammani kuydirar, yondirar, o'zi ham tomoshabin ko'z oldida yonib borar edi...

Uning ovozida ham bahor latofati, ham momoqaldiroq sadolati ham o'zbek yozining harorati mujassam edi. Uning inson yuragidagi eng nozik tuyg'ularni ifodalay oladigan, bir zumda yuz xil ohang kamon etadigan ajoyib ovozi-chi? Uning tahqirlangan qalb faryodlariga to'la mashhur "himm"lari-chi! Uning Dezdemonna ustidan to'kkan ko'z yoshlari-chi! Yo'q, bu tomoshabinni yig'latish uchun mohir aktyor to'kkan ko'z yoshlar emas, ulug' fojiaga uchragan, ulug' insonning Otelloning ko'z yoshlari edi! Zotan, Abror akaning "Otello"ning tomoshabin yig'lamas, chunki kishi ko'z yoshidan ham zo'r bir tuyg'u chulg'ab olar, Abror aka tomoshabinni larzaga solar edi".<sup>1</sup>

Ko'rinayaptiki, tomoshabin nazarida aktyorning (Abror akaning) ijodiy individualligi va o'ynalayotgan personaj (Otello) shaxsi qo'shilib, birikib ketadi, yaxlit vujud yuzaga keladi. Natijada, u Abror aka yoshi aktyor sifatida emas, balki buyuk fojiaga uchragan ulug' Inson – Otello bo'lib gavdalanadi; Abror aka tashqi qiyofasida – sodda va muqaddas, samimiy va qop-qora chehrali Otello, Abror aka ko'ksida – Otello yuragi, Abror aka qalbidagi – Otello ruhi yashaydi. Go'yo Abror aka shahar va aktyor sifatida "o'lgan-u", shu hisobga Otello tirilgandek. Shuning uchun ham **sahnadagi ijod-qayta yaratish; qayta yaratish esa aktyorning "o'limi"dir.**

Yozuvchi O.Yoqubov xotirasini davom ettirib yozadi: "Spektakldan keyin, qariyb chorak soatli qarsaklardan so'ng, Abror aka egnidagi Otelloning zarrin to'ni, Otello grimida sahnaga chiqdi.

Men ham Hamza nomidagi teatr uchun pyesa yozgan yosh dramaturg sifatida, artistlarga qo'shilib sahnaga chiqdim va u kishining qo'lini olgani yoniga bordim. Bordim-u, hayratda lol bo'lib qoldim. Qarshimda boyagi olov, qafasdan chiqqan sher o'rniga yuzini chuqur ajin qoplagan, butun kuchi, yuragidagi bor ehtirosini sevimli Otellosiga berib "tamom bo'lgan"; horg'in va ojiz bir qariya tungi edi..."(O.Yoqubov.)

Aktyor o'zi yaratgan obraz ruhidan qutilib, o'zligiga, aslga qaytgach, "qizil shohi ko'ylak ichida mavj urgan olov, taftiga hech kim bardosh berolmaydigan alanga" o'chadi. Garchi tashqi ko'rinishi (grimada ekan) Otelloga o'xshasa-da, unda o'sha qahramonning qalb olani o'lgan-u, ancha yoshga kirib qolgan qariya-charchab toliqqan Abror akaning o'zi (shaxsi) yaqqol ko'zga tashlanadi.

<sup>1</sup> O.Yoqubov. Izlayman. "Yosh gvardiya", Toshkent, 1972, 241-242 betlar.

“Axir, artistning barcha ishi haqiqiy, real, “rostakam” hayotda emas, balki tasavvur etilgan, mavjud bo‘lmagan, ammo mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan hayotda o‘tadi. Ana shu biz – artistlar uchun chinakam hayot hisoblanadi”,<sup>20</sup> – deb yozadi Stanislavskiy.

Xuddi ana shu asos sababli sahnada go‘yo ikkita Abror Hidoyatov faoliyat ko‘rsatadi. Biri o‘ynaydi (rol hayoti bilan yashaydi), biri nazorat qiladi (xatti-harakatlarining to‘g‘ri, noto‘g‘riligini kuzatib boradi). Agar o‘ynayotganda nazorat qiluvchi “men”i, o‘zligi ozgina susaysa, ya‘ni, aktyor Otello ruhidan ustunligini yo‘qotsa, unda yuqorida ta‘kidlaganimiz “afsona”larga o‘xshash holatlar yuzaga kela beradi. Aytishlaricha, Abror aka Otelloning Dezdemoni (S.Eshonto‘rayeva)ni bo‘g‘ib o‘ldirishi epizodini o‘ynaganda, sahnada o‘ynayotganini – mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan hayotni yaratayotganini unutar va Sora Eshonto‘rayevani haqiqiy Dezdemoni deb tushunar va rostakamiga bo‘g‘ib boshlar ekan. Bu falokatga, Sora Eshonto‘rayeva (Dezdemoni)ni falokatga olib kelishi mumkin deb tushunganlar, go‘yo sahna ortidan “Abror aka siz sahnada o‘ynayapsiz. Bu Dezdemoni emas, Sora opa!..” deb o‘zligini topishga – real hayotni tushunishiga yordamlashgan holatlar.

Bu “mish-mish”ning qiziq va asosli tomoni shundaki, aktyor (Abror aka) o‘z qahramoni (Otellosi) ruhidan birdaniga chiqib keta olmaganida, mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan hayotni real hayotdek mu‘him daqiqaga tushunishidadir. Tasavvuridagi qahramon qalbiga chuqur tashabbus bilan ijodiy kayfiyat (ilhom) paytidagi aktyor hissiyotining mazmunligi o‘rtasidagi aloqadadir.

Lekin, Abror aka (Otello) Sora Eshonto‘rayeva (Dezdemoni)ni rostakamiga bo‘g‘ib o‘ldirmaganligi fakti, garchi qo‘polroq aytayotgan bo‘lsak-da, Abror akaning yuqoridagi “mish-mish”lardan xoli ekanligini, Otello rolida o‘ynar ekan, hech vaqt nazorat qilib turuvchi o‘zligini – “men”ini yo‘qotmagan. Demak, u yaratgan obrazi (Otello)dan doimo uzoq turgan.

Xullas, yuqorida ta‘kidlaganimizdek, yozuvchi, aktyor qanday holatga tushmasin, yozgani, o‘ynagani bilan birikib ketmasin, o‘zligini yo‘qotmaydi. To‘g‘ri va aqlga muvofiq fikr-mulohaza yurgizadi. Uning uchun ham yuqoridagi “afsonaviy” holatlar ham badiiy ijod metodologiyasining umumiy qonuniyatiga bo‘ysunadi.

Demak, haqiqiy she‘r, ruboiy, tuyuq, sonet, novella va shu kabi barcha janrlar zavq-u shavqqa to‘liq ilhomning mevasi bo‘ladi. Lekin, bu

<sup>20</sup> K. Stanislavskiy. Aktyorning o‘z ustida ishlashi. Toshkent, 1965, 216-bet.

xil ilhomning uzluksizligini epik va dramatik asarlarni yaratishda ta'minlash mumkin emasligi ayon; bularni yaratishda mo'tadil ilhom qo'l keladi. Aytmoqchimizki, Ilhom san'atkor tomonidan muhayyo etilarkan, uni boshqarish ham mumkin. Yozuvchi P. Qodirov "O'ylar" kitobida yozganidek, "Ilhom bilan mehnat bir-birligiga bog'lanib ketadi, go'yo bir-biriga zarblanib, ijodiy ishning samarasini oshiradi. Shuning uchun fransuz yozuvchisi Flober yozadi: "Butun ilhom shundan iboratki, bar kuni ma'lum bir soatda o'tirib ishlash kerak". Bodler bu fikrga qo'shilgan holda: "Kundalik ishda ilhom, so'zsiz zarur, deydi. – Tafakkurning faoliyatida qandaydir osmoniy bir mexanika bor, bundan uyalmaslik kerak, balki vrachlar badan mexanikasini qanday egallasalar, yozuvchi ham ilhom mexanikasini shunday egallashi kerak...".

Xullas, ilhom ijodiy mehnatning tabiatidan chiqib keladi, demak real hayotiy asosga ega bo'ladi. Buni A.S.Pushkin "Boris Godunov" tragediyasi haqidagi "iqromoma"sida ham ta'kidlaydi: "Men yozaman va mulohaza yuritaman. Sahna ko'rinishining ko'p qismi faqat fikrlashni talab qiladi; qachonki ilhomni talab qiluvchi sahna ko'rinishiga borsam, men uni kutaman yoki sahnani o'tkazib yuboraman – ishning bu xili men uchun tamoman yangilik. Sezayapmanki, mening ruhiy kuchlarim kamolot cho'qqisida, demak, men yaratishga qodirman".

Demak, doimiy ravishda va izchil olib boriladigan mehnat ijod jarayonidagi boshqa unsur (narsa)larni ham tartibga soladi, hamma ijodiy tashvish ilhom tevaragida aylanadi...

### Abdulla Qahhor talqinida ilhom

Abdulla Qahhorni bugun ham sevimli san'atkor qilgan mehriyolardan biri – uning estetik dunyosining boyligi, beqiyosligi, ta'sirchanligidir. Bu dunyoning adabiyotimiz, yozuvchilarimiz hayotida o'ynagan ahamiyati va ta'sirining davomiyligida, tirikligidadir. Said Ahmad, Pirmiqul Qodirov, Odil Yoqubov, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Asqad Muxtor, Shuhrat, Shukur Xolmirzaev, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Umarali Normatov, Norboy Xudoy-berganov kabi yirik va qudratli shogirdlar pleyadasining mamlakatimizdagi adabiy jarayon sardorlarining yaratuvchanligidadir, **adabiy go'zallik yaratishga baxshida umr maktabining tohota rivojlanayotganidadir.**



Ko'rinadiki, yozuvchi – san'atkor qanchalik yirik bo'lsa, u shunchalik adabiyotning ertangi rivojiga turtki beradi; noyob va asosli nazariy-adabiy qarashlari bilan hamohang o'lmas asarlar yaratadi. A.Qahhor – nazariyotchi sifatida A.Qahhor – san'atkorning yozuvchilik usullarini tahlil va tadqiq etadi, ularni yagona mezon – **badiiylik kriteriysi (to'ldiruvchi)**<sup>21</sup> dan kelib chiqib, aniq va ayovsiz tarzda, halollik, shijoat bilan baholaydi. Shu hamkorlikning natijasi o'laroq, ijodiy jarayonning asosiy jihatlari kashf etadi; hayot va badiiy mahorat, ilhom va shijoat, talant va haqqoniylik, yozuvchi hunari va poklik kabi o'nlab muammolarning mag'zini chaqadi.

Abdulla Qahhor estetikasida «Ilhom» eng ko'p yoritilgan xilqatdir. Uning tushunchasiga ko'ra, «Daraxtni undiradigan, o'stiradigan va mevasini laziz qiladigan quyosh, yer va suv bo'lsa, badiiy mahoratni undiradigan va o'stiradigan, samarasini jozibali qiladigan **xalq hayotidan olingan ilhomdir**» (“Yoshlar bilan suhbat”. T., “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1968, 98-b).

Demak, **Ilhomning birinchi asosi – xalq hayotidir**. Xo'sh, ilhom nima? Uning yaratish (kashf qilish) bilan aloqasi qanday? U qachon keladi? «Ilhom degan parizod, nozanin yorning makoni qayerda?» kabi muammolarni yoritir ekan, A.Qahhor yozadi: «**Ilhomning makoni xalqning dilida – majburiyat emas, zaruriyat, xohishga aylangan mehnatning shavkatida, baxtiyor odamning qahqahasida, jabrdiydaning ko'z yoshida, oshiq va ma'shuqlarning ko'zlari va ko'zlarida, odamda mehr va g'azab uyg'otadigan hodisa va voqealarning mag'zida... Ilhom qidirgan yozuvchi xalqning qalbiga qo'l solishi kerak**» (“Yoshlar bilan suhbat”. T., “Yosh gvardiya” nashriyoti, 1968, 137-b):

Demak, **ilhomning ikkinchi asosi – xalqning qalbidagi eng sara, eng jonbaxsh, eng aziz tuyg'u va dardlarida, tilining uchida turgan ko'zlarida yashiringan – haqiqatdir**, u tinimsiz izlaganga, hayot va insonning mohiyatini topganga, «qanoatidan kelib chiqqan rozilik yoki norozilik» bilan baholash asosida uni zo'r muhabbat yoki nafrat bilan ifodalay bilganga o'zini ko'rsatadi.

Bu mulohazalar, baribir, ilhomning o'zi nima? degan savolga aniq javob bera olmayapti, uni to'liq tasavvur qilish va anglashga imkon bermayapti. Shuning uchun adabiyotning **bo'lishi mumkin bo'lgan hayotning badiiy tasvirini berish qoidasini eslashimiz lozim**.

<sup>21</sup> Maqoladagi barcha ta'kidlar bizniki – H.U.

Badiiylikdan maqsad – «kishilarning ongiga his orqali – yurak orqali ta'sir qilmoq»dir.

«Bundan ma'lum bo'ladiki, yozuvchi biron hodisaga o'quvchida muhabbat yoki nafrat hissi qo'zg'atishi uchun avval o'sha his o'zida bo'lishi kerak.

Kishi hech qachon dushmanning go'ri ustida boshqalarning ko'zidan yosh chiqaradigan ta'sirli nutq so'zlolmaydi...

Talant, bilim, hunar jihatidan bir darajada bo'lgan ikki yozuvchi muhabbat to'g'risida yozsa, shu muhabbat hissini boshidan kechirganday yaxshiroq yozadi.

Yozuvchi o'zi his qilmagan narsa to'g'risida yozsa, buni o'quvchi o'quvchi ham hech narsani his qilolmaydi. Demak, kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart. His qilinmasdan yozilgan narsa qog'ozdan qilingan gulga o'xshaydi.

His, ichki dard kishining qalbini yemirib yuboradi. Bunda vaqtda kishi o'zini qayerga qo'yishini bilmaydi, o'zining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini bo'shatish xohishi kishiga aqal berish darajasiga yetadi. Shu vaqtda qo'l qalamga boradi.

Kishidagi mana shunday holatni, odatda, ilhom deyiladi («Yoshlar bilan suhbat». T., «Yosh gvardiya» nashriyoti, 1968, 50-51 betlar).

Demak, ilhomning uchinchi asosi – inson va voqelikning ichki dardi (ruhi)ni to'liq his etishdir. Uni o'zining dardi (ruhi)ga aylantira bilishdadir. Yozuvchi hayotni chuqur o'rgansa, uning qalbidagi haqiqatni anglab yetsa, yozolmasdan turolmaydigan darajaga kelsa, ya'ni «o'sha hayot odamlarining qalbiga qalbni payvand qilsa» – u ehtirossiz, dardsiz yoza olmaydi.

«Yozuvchining qulog'i hamisha xalqning ko'ksida bo'lishi, uning qalbidagi hayajonini darhol sezishi», ilg'ab olishi, shundan ilhomlanishi, asarini mana shu ilhom, kuchli ehtiros bilan yozishi kerak. O'shanda yozuvchi xalqning tili uchida turgan gapni aytadi, xalq dilining tarjimon bo'ladi. Ehtiros bilan yozilgan haqiqiy asarda loqayd sahifalar emas, hatto satrlar, so'zlarga ham o'rin bo'lmaydi» («Adabiyot atomidan kuchli». T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 3-4 betlar).

Demak, ilhomning to'rtinchi asosi – ehtirosdir. Bu ehtiros – ilhomning olovli qalbidir. «Yozuvchi kitobxonni ilhom o'ti bilan alanga oldirolmasa, kitobxonning qalbiga o't yoqolmaydi. Kitob kitobxonning qalbiga ezgulikka otashin muhabbat, qabohatga omonlik

manfaat uyg'otmasa, yozuvchi maftun qiladigan fazilatdan mahrum bo'ladi» ("Adabiyot atomdan kuchli". T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 51 - bet).

Xuddi shunday haqiqatni saxovatli adib A.Qahhor takror-takror aytadi: «Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'lik bo'ladi. Hundoq asarga hech qanaqa g'oya, muhim mavzu jon kirgizolmaydi» ("Adabiyot atomdan kuchli", T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 51-bet).

Abdulla Qahhor tushunchasida ilhom badiiy asar yaratish jarayonining yetakchi tamoyili, u yozuvchi qalbiga tushgan ma'naviy sloq, u asaming tug'ilishiga asos bo'ladi, uni harakatga keltiradi, jozibaga o'raydi. Shuning uchun ham «**Har qandoq yozuvchi uchun ham mahoratning ibtidosi ilhomdir**» ("Adabiyot atomdan kuchli". T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987, 49-bet).

Bu «yozuvchining... har qanday mayda orzu – havasini, har qanday manfaat – g'arazni quvib chiqaradigan, yirik yuksak g'oya mavj uradigan ilhom» ("Yoshlar bilan suhbat". T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1968, 18-bet) bo'lishi kerak. **Demak, ilhom pok, sof va yaratuvchan bo'lishi shart.**

Abdulla Qahhor «Badiiy mahoratni oshirish uchun so'z san'atining qonun – qoidalarini bilish, go'zal asarlarning go'zallik «sirlari»ni o'rganish, buning uchun hayotga yaqin bo'lish, ko'p o'qish, ko'p mashq qilish kerak»ligini ("Yoshlar bilan suhbat". T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1968, 68-bet) ta'kidlaydi. Uningcha, «**Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi**» (Abdulla Qahhor hikmatlari". T., "O'zbekiston" nashriyoti, 1990, 55-bet). Shu sabab «Ilhom bilan mahorat topishganlaridagina kitob yozuvchining qalbidan qo'shiqday otilib chiqadi, kitob-xonning qalbida aks-sado yangraydi» ("Yoshlar bilan suhbat". T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1968, 18-bet)<sup>1</sup>.

**Demak, ilhom va badiiy mahorat, xuddi kun va tunday, biri-biridan tug'iladi, biri-biridan kuch-quvvat oladi, birlashganlaridagina hayotga to'liq go'zallik, «adabiyotni bezaydigan, umriboqiy va mag'zi to'q go'zallik» yaratiladi.**

---

<sup>1</sup> Aqarda ko'chirmalar ko'p deb ajablanmang? Ularni ilm tiliga aylantirsa bo'ladi, unda Abdulla Qahhorga xos qisqalik, so'zga zargarlik va ko'p ma'noni (mohiyat) siqiq anglatish san'ati ko'p go'zallikka olib borgan bo'lardi, asar semirib ketardi. A.Qahhor uslubiga xos mag'izli va topib aytilgan so'zlar, mushohadalarning teranligini ko'rish va anglashning o'zi zaruriy saboqligini bildirish maqsadi ham borligini unutmassiz, degan umid bilan, ayni shu yo'lni ma'qul ko'rdik.

Xullas, Abdulla Qahhor anglagan ilhom ijodiy mehnatning tabiatidan kelib chiqadi, hayot bag'rida yashirinib yotgan haqiqatni kashf etishdan va uni shijoat, halollik ila yurak qoni (ehtiros) bilan ifodalashdan tug'iladi. Tug'ilgandanoq asarga oid barcha unsurlarni o'z tevaragiga yig'ib, tartibga soladi va ularning o'zaro hamkorligini ta'minlab, yaratishga safarbar qiladi. Ilhom – asardagi barcha qo'shiqlar(g'oya, mavzu, syujet, til...)ning bosh qo'mondonidir, bu qo'mondon shaxsi qanchalik bilimdon, salohiyatli, donishmand bo'lsa, uning g'alabasi (asari) shunchalik aziz, umriboqiy va insoniyat uchun kerakli bo'ladi.

### **Ilhom – yurakning yonishi (Hamid Olimjon ijodida ilhom obrazi)**

Hamon ilhom degan sehrning tabiatini bilishga qiziqaman. Uning shunchalik izhori, tushunchasi, ko'rinishi, asoslari ko'pki, bir joyga to'plansa, "ilhom" degan go'zal – takrori yo'q bir zarur "guldasta" boqiy bo'lardi.

Ba'zilar uni "qanot qoqib uchgan farishta" deb o'ylaydi. Ba'zilar uni ilohiy ne'mat, shoirga "tangrining yaqinlashishi" deydilar. Yana ba'zilar "inson qalbidagi tuyg'ular muvoza-natining buzilishi" (A.Oripov) desalar, ikkinchilari "tuyg'ularning shoir qalbidan toshishi va vujudni larzaga solishidir", (E. Vohidov) – deydilar. Boshqalar san'atkorning ma'naviy "kayf" holatda bo'lishi – ilhomdir, deydi. Shota Rustaveli "Dardni bilgan odamgagina ilhom birdaniga keladi" deydi, K.Paustovskiy "Ilhom – bu odamning qat'iy ishchanlik holatidir", deydi... "Ilhom – turma tug'ruqxonasi" (Anvar Obidjon) deganlar ham bor.

Ba'zilar ilhomni uchqur tulpor ot (Pegas) tarzida ilg'asalar, ikkinchilari farishta (bu farishta o'zining lirasida kuy chalib, kuylay boshlaganidan muallifga ilhom kelarmish) qiyofasida ko'radilar, uchinchilari birinchi muhabbatning iztirob va quvonchlari tarzida anglasalar, to'rtinchilari ilhom parisiga sig'inadilar...

\* \* \*

Xo'sh, ona tabiatdan doimo quvonchga to'lgan shoir Hamid Olimjon-chi? U ilhomni qanday tushunadi? Unda bu holat qay tarzda yuz ko'rsatadi?



Shoir ilhom haqida alohida fikr yuritmasdan, birdaniga uning mukammal poetik obrazini yaratgan, ya'ni ilhom parisiga bag'ishlab, 27 yoshida "Ishim bordir o'sha ohuda" (1936) degan she'rini bunyod etgan.

*Ishim bordir o'sha ohuda,  
U menga ko'rinar har zamon,  
Fikrimni chulg'aydi beomon,  
O'tlarga tashlaydi ko'p yomon, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Birinchi banddanoq ko'rinyaptiki, shoir ilhomni – ohu timsolida ko'radi. Ilhom ijodkorning butun borlig'ini egallashini, o't (olov) yonglig' yondirishini, beomon fikrlarga chulg'ashini jonlantiradi. Bu jonli tasavvurni yana boyitadi, ilhomning tozaligini, osudaligini, ohu kabi qoyalarda bemalol uchishini va uni ko'rgach, barchaga titroq kiritishini, lol qotishini so'zlaydi:

*U ko'rinar soydagi suvda,  
Bir paridir, toza, osuda...  
Qoyalardan uchar bemalol,  
Qushlar ko'rsa titrab qolar lol, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Albatta, ilhom o'zidan o'zi kelmaydi. U tinimsiz mehnat qilganga, uyqu bilmasdan izlanganga, tabiat va xalq hayotidan nur emganga yor bo'ladi:

*Tunda uxlamadim axtarib,  
Kutib turdim buloqqa borib,  
U-chi? Qoqib o'tdi qanotin,  
Oq bulutlar bag'rini yorib, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Yor bo'lganda esa qalbdagi gullar ochiladi, bahori cho'llar baxmalga burkanadi, ko'llar chayqaladi, hayot jonlanadi. Sevinch, go'zallik bo'y ko'rsatadi, hayot mohiyati ochiladi:

*U yurganda ochilar gullar,  
Baxmalga burkanar bahori cho'llar,*

*U bor yerda jonlanar hayot,  
Uni ko'rsa chayqalur ko'llar, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

*O'lkasidan o'tar shabboda,  
Sevinch bilan to'liqdir jomi:  
Go'zallarga u tutar boda,  
Ko'rsa kelar pari ilhomi, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Odamni bunchalik sezgir, mehrli qilib qo'yadigan ilhom yurakni shunchalik yondiradiki, bu yonishdan faqat qo'shiq, qalblarga oshina qo'shiq tug'iladi. Bu "pari ilhomi"ni keltiradigan qo'shiq shunchalik yoqimli, shunchalik to'liq, shunchalik go'zalki, uni hatto tabiatning viqorli tog'i tinglaydi; u shunchalik mukammalki, unda Vatanning betakror qiyofasi Hamidona ko'z o'ngingizga keladi:

*Qo'shig'ini tinglar Qashqa tog',  
Og'ushida mangudir bahor,  
Chiroyida zarra yo'qdir dog',  
Dalasida yozda uxlar qor, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Ilhom ijodiy mehnatning tabiatidan kelib chiqar ekan, u doim shoir salohiyati bilan bog'liq bo'ladi. Ilhomsiz asar yozilishi mumkin emas (ilhomsiz yozilganlari esa yasama, jonsiz gulga o'xshaydi. Shakli bor-u mazmuni – gulning ifori – mazasi, ta'mi, hidi bo'lmaydi). Ilhomning shoirda lazzatlanish, yaratish, ruhiy ko'tarilish, ishidan beadad qoniqish yuz bermaydi. She'r yozish azobini esa xuddi shu holat yengadi, yangi quvvat beradi, ixtiro va kashfiyotga chorlaydi, ijodga maftun etadi. Shu bois, kuchli ehtiros bilan shoir deydi:

*Men halok etarman o'zimni,  
Tinchlanmasman, topmay qo'ymayin,  
Shikoyatim, dardim, arzimni,  
Qulog'iga so'ylarman mayin, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

*Usiz mening tinchim yo'qolur,  
Usiz yurak cholg'usiz qolur,  
Usiz esdan chiqar odatim,  
Unutilar bor saodatim, –  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Darvoqe, ilhom asar yaratishning mehvari ekan, usiz shoir qalbida tinchlik bo'lmaydi, yurak hapriqmaydi, o'zini qo'yarga joy topa olmaydi. Ilhomsiz yashash – shoirning o'limiga teng holatdir, degan xulosa o'z-o'zidan kelib chiqaveradi.

Shu o'rinda Hamid Olimjondagi ikki “odat”ni eslash foydadan xolisiga o'xshaydi. Birinchisi: “Sodiq bo'lmoqni o'ziga saodat” sanagan Zulfiya o'zining “Kamalak” kitobida yozishicha, Hamid Olimjon she'riy bandlarga avval miyasida shunday sayqal berib olardiki, keyin bu bandlar qog'ozga “to'kilgani”da billurday jilolanib turardi. U ona Vatanning bir qarich bo'lib yerdan ko'tarilgan giyohidan serviqor tog'larigacha asl oshiqligini, odatda, saharda turib yozardi. Hamid Olimjon o'zi belgilab qo'ygan ish intizomiga temir qonun kabi amal qilgan. Katta iroda, katta bardosh egasi, she'riyatning fidoyi mehnatkashi, mohir ishchisi, qat'iy intizomli inson sifatida hamma vaqt Zulfiyani hayron qoldirgan.

Saharda havo musaffo, yengil, yoqimli bo'lganidek, ijod ham tong kabi tiniq, yuksak, go'zal bo'ladi. Zaif, takror, chaynashlar qog'ozga to'kilishiga iqtidor yo'i bermaydi. Hayot mag'zini, odamlar qalbini chuqur anglashga, tug'yonlarini tartiblashtirishga, ishonch va e'tiqodni butun qilishga, yaratayotgan (“bo'lishi mumkin bo'lgan”) borliqqa mehrini ulashishga, yetti o'lchab xulosalar chiqarishga va ularning oqibatida ilhom huzurini tuyishga to'liq imkon beradi. Ayni paytda, yana ijod qilishga tashnalikni kuchaytiradi.

Demakki, Hamid Olimjon har kuni ma'lum bir vaqtda ijod qilishga o'tirar ekan, bu shoirning doimo ilhomga jo'rovozligiga isbotdir. Darvoqe, shu sababli ham A.S.Pushkin “Ilhom – o'zni ishchanlik holatiga sola bilish qobiliyatidir”, deb ta'kidlaganida haqdir.

Ikkinchisi: Hamid Olimjonni yaqindan bilganlarning, ulfat va shogirdlarining, olimjonshunos olimlarning ta'kidlashlaricha, u umri bo'yi mayxo'rlikni yomon ko'rgan. Ulfatlarning qistovlari bilan jindak ichganda, shu zahoti quloqlarigacha qizarib ketib, o'zini noqulay sezgan. So'z va qalamni ilohiy ne'matlar sanab, ozgina ichganiga qaramay, ijod stoliga yaqinlashmagan. U sog'lom turmush tarzini yoqlagan va unga

o'zi amal qilgan. Yolg'onni, aldashni or sanagan, shunday xislatli kishilarni yoqtirmagan. Toza, pok, yoniq yuraklarni qo'llagan, samimiyat va jo'shqinlikni, insoniy fidoyilikni qadrlagan. Shu bois ham uning she'rlarida tuyg'ular osmondek tiniq, shishadek shaffof, kelinchakdek jozibali va sevimli yordek maftunkordir. Shu sababdan ham Hamid Olimjon o'z she'rlariga batamom o'xshagan, muallif bilan asar o'rtasidagi uyg'unlikda hatto darz bo'lmagan.

Bu mulohazalarni aytishdan maqsad bitta haqiqatni takrorlashdir. Ilhom kelganda san'atkor, qadimgi donolar aytganlaridek, ma'naviy 'kayf' holatida bo'ladi, ya'ni o'zi qilayotgan ishni to'liq anglamaydi, o'zligini, o'zi yashayotgan dunyoni unutadi; o'zi yaratayotgan yangi olamda va shu olam "kishilari" – qahramonlari bilan birga yashay boshlaydi; ularning kechinmalarini juda yengillik bilan qog'ozga tushirib boradi...

San'atkorlar tabiatidagi bu g'ayri-shuuriy holatni, demakki, taassurot va ilhomni o'tkirlashtirishni ba'zilar spirtli ichimlik va giyohvand moddalardan izlaydilar. Go'yo mast-alastlik tarzidagi kayf (jinnilik, telbanoma holat) ilhomiy "kayf"ni betakror bo'lishiga, demakki, sara asarning yaratilishiga yordamga kelarmish... Bu hech sosga ega bo'lmagan yolg'ondir, u ilhomni kuchaytirish, taassurotni o'tkirlashtirish o'rniga, san'atkorni aroqxo'rga, giyohvandga aylantirish bo'lgan gap. Shu paytgacha badiiy ijod tarixida bironta durdona asar spirtli ichimlik yoki giyohvand moddalarning kuchi bilan yuzaga kelgan emas. Balki, bunday asar tinimsiz izlanish va kashf etishning, hayot va bilimlarning mohiyatini to'liq his qilishning, salohiyat kuchlarini bir maqsadga jam etishning – ulkan mehnatning oqibatida tug'iladi. Muallifning pokligidan poklik, ilm-u donishidan ilm-u donolik, jasoratidan jasorat, mehridan mehr, sabr-u matonatidan sabr-u matonat... tajribasidan tajriba yuzaga keladi. San'atkorning sog'lom hayoti taassurotdan sifatsiz bo'y ko'rsatadi. Bu mulohazalarimizning isboti ham he'riy imkoniyatlari poyonsiz" (N.Karimov) bo'lgan Hamid Olimjon uning betakror asarlaridir.

Xullas, "Ishim bordir o'sha ohuda" she'ri bilan Hamid Olimjon badiiy jarayonning eng nozik, eng hayajonli, eng zarur oni – ilhom ilmini taassurotdan sifatsiz bo'y ko'rsatadi. Bu ilm hayot va odamlarni tinimsiz o'rganish, uning mohiyatini kashf etish lozimligini, eng sara, eng jonbaxsh, eng jozibali, eng dardlarni badiiy ifodalash kerakligini, bu sifatlarni taassurotdan sifatsiz bo'y ko'rsatadi. Bu mulohazalarimizning isboti ham he'riy imkoniyatlari poyonsiz" (N.Karimov) bo'lgan Hamid Olimjon uning betakror asarlaridir.



shakllari va shoh asarlar yaratish mumkinligining isbotini berdi. Ha, ilhom sehrini tuymagan shoir yo'q, lekin faqatgina u ilhomning ommasini she'rga sola bildi.

Xullas, Hamid Olimjon XX asming 30-yillaridayoq, "Ilhomning ko'nikloriga aylandi. U unga amr qilish" (I. Gyote) huquqini qo'lga kiritdi.

\* \* \*

Federiko Garsia Lorkaning aytishicha, "Ilhom obrazni beradi, lekin uni kiyintirmaydi, uni kiyintirish uchun so'zning xarakteri va sadosini mustahkam chidam va xavfsiz ishtiyok bilan kuzatish lozim". Asosli bu fikrning isboti olimjonshunos Naim Karimovning "Sehr"i (N.Karimov, XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. Toshkent, "O'zbekiston", 2008, 360-366 betlar)da berilgan. Olim "Ishim bordir o'sha ohuda" she'rining mazmuni va shaklini, ayniqsa, poetik obrazlarini, qofiya va tovush tovlanishlari(musiqasi)ni tahlil qiladi. Sizning qiziqishingizni oltirish maqsadida bitta ko'chirma keltiramiz: "Ohu" so'zining tovush komponentlari Hamid Olimjon she'rining boshidan oxiriga qadar qizil ip olingari o'tar ekan, bu musiqiy mavzu she'r leytmotivini ochish, undagi g'oyaviy pafosni yanada ta'kidlash uchun xizmat qiladi.

Tovush tovlanishlari she'rning musiqiy mavzusini yaratibgina qolmay, ba'zan har bir band, ba'zan har bir misra doirasida she'rning ichki ohangdorligini ham vujudga keltiradi:

*U yurganda ochilar gullar,  
Baxmalga burkanar bahori cho'llar,  
U bor yerda jonlanar hayot,  
Uni ko'rsa chayqalur ko'llar, -  
Ishim bordir o'sha ohuda.*

Dastlabki misralardagi "gullar - cho'llar" qofiyasi "ochilur" so'zidagi aktiv *ch* tovushi tufayli mukammal va nafis qofiya tusini oladi. Ikkinchi misradagi *b* tovushining izchil takrori esa she'rning umumiy ichki musiqasiga yangi ohang qo'shadi. "Ochilar", "gullar", "cho'llar" so'zlaridagi *-lar* qo'shimchasining jarangi esa keyingi misralardagi "jonlanar", "ko'llar" so'zlarida aks-sado yanglig' takrorlanib, she'rning ichki ohangdorligini yanada ravonlik bag'ishlaydi".

Maqolaning oxirida Hamid Olimjon "oliy insoniy qalbining nozik va nafis tebranishlarini, davrning o'z qalbi osha o'tgan g'oyalarini yuksak she'rriy shaklda aks ettirdi. U she'r ilmini, she'r sehrini butkul

egalladi”, – degan xulosa qilinadi. Bunga bizning mulohazalarimiz ham hamohangdir. Ha, haqiqat bitta, unga yetishning yo‘llari ko‘p ekaniya shukr! Ha, Hamid Olimjon 35 yil umr ko‘rganiga qaramay, “o‘limni qoldirib dog‘da”, she‘riyatda abadiyat shoiri bo‘lib yashayveradi, o‘lim ketmagani “ajib his”lariga insoniyatni oshno qilaveradi.

### **Yakun** **(Ilhom va ma‘naviyat sardori)**

Hayot va inson bor joyda ILHOM ham bor. Unga umrimiz davomida bilib yo bilmay hammamiz duch kelamiz. Bunday onlarda kishi borliqni tamoman unutib shunday zavqqa to‘ladiki, bu zavqdan osonlik bilan yangilik tug‘iladi, kashf etiladi. Bundan esa ilhom egasi shunday huzur, shunday rohat topadiki, u endi shu holatlar va tuyg‘ularning shaydosiga aylanadi. Ilhomni umrning mazmuniga tenglashtiradi, shundagina oromini, tinchini, shodligini va baxtini topadi. Faqat uni anglash, sirlarining barchasini egallash va ilhomni o‘ziga bo‘ysindirish hammaga ham nasib qilavermaydi.

Shu sabab, ilhomdek Alloh ne‘matining qudratini egallaganlar, uning “hukmdori”ga aylanganlar umri – serhosil, barakali, sof, go‘zal, kashfga boy bo‘ladi. Umuminsoniy va umumjahoniy ezgulik rivojiga hissa qo‘shadigan bo‘ladi. Ayni paytda, ilhom charchashga, uzoq muddat orom topishga imkon bermaydi, umrni besamar ishlarga sovrishga yo‘l qo‘ymaydi.

Bu gaplarning isbotini keltirish uchun hammamiz biladigan, barchamiz tan olgan hayotiy bir ibratli misolni keltirmoqchiman:

Xalq bilan muloqot qilib, inson manfaatlarini yoqlashga kirishganimizga yil to‘ldi. Shu bir yilda Istiqlolning nuri tufayli O‘zbekiston va uning xalqi yangi davrga qutlug‘ qadam qo‘ydi. Istiqlolning ertasi – yaxshilik bo‘lishiga barcha ishonadi. “Adli ehson bilan jahon gulshani obod bo‘ladi” (Amir Temur) haqiqatini xalqimiz o‘z anasida sinab ko‘rdi. Bularga minglab dalillar keltirish mumkin... o‘n yilliklar davomida erishmagan yutuqlarga bir yilda erishdik. Bir yilda O‘zbekistonda siyosat o‘zgardi. Ijtimoiy-iqtisodiyot, ma‘naviyat va na‘rifat, davlat hokimiyati vakillik organlarining yangi tizimlari ishga ushdi.

Bularning barchasi Sh.M.Mirziyoyevning mamlakat va xalqni oshqarish san‘atini mukammal egallagani, doimo ILHOM bilan amkorlikda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirayotgani samarasidir.

Prezidentimizning barcha sarhisob qiluvchi nutqlaridan ma'naviyatning yaratuvchi nuri taralib turadi. Quyosh barcha narsaga nurini sochganidek, Istiqlol ma'naviyati ham barcha g'oyaviy, iqtisodiy, ma'rifiy harakatlarimizga ijodiy quvvat beradi, halol va adolatli hayot ko'chirishimizga, komillikka erishishimizga nurli imkoniyatlar yaratadi. Qalbimizni harakatga solib, mehr-muhabbatga boy qiladi, hurmat-uqzadni, halol-u poklikni, ruhan yuksalish va hayotdan qoniqishni barqarorlaydi. Ilhom tevaragida hamma tashvishlar muayyan qonun-lar asosida harakatga kirishib, maqsadning natijasi (oqibati)ni yuzaga chiqaradi. Bu haqiqatlar Prezidentdagi ilhomning mehvaridir.

U – barchaning qalbini istiqlol ma'naviyati nuri bilan olovlantirayotgan va taraqqiyot tomon, insoniylik tomon, ezgulik tomon yo'naltirayotgan rahnamodir. Har qanday muammoni har tomonlama sarhisob qilish ilmini egallagan, uni adolatli hal qilishning ustuvor yo'llarini ko'rsatib beradigan rahbari odildir. Barcha ishlarning chora-tadbirini ko'ngil bilan topib hal qiladigan rahbari donishdir. Ayniqsa, uning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga Murojaatnomasi yilning sarhisobi va yangi yillarning harakat dasturiga aylandi. Jonajon Vitanimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari xalqimiz manfaatiga uyqash qilib belgilandi. Yil davomida tinim bilmasdan, yaratishdan charchamasdan faoliyat ko'rsatayotgan bu inson himmamizni hayratga solmoqda. Uningdek ishlashga ko'pchiligimiz o'zimiz qilmoqdamiz. Chunki, Prezidentimiz ILHOMning asosini xalqimiz hayotidan, ma'naviyatidan topgan. Uning ko'nglidagi zarur, kerakli haqiqatlarni anglab yetgan, O'zbekiston va o'zbekistonliklarning dardini to'liq o'zlashtira va qalban o'zligiga aylantira olgan. Xalq bilan bu masalalarni ilmiy-amaliy ehtiros, el otasiga xos kuyunchaklik, yorug' va yoniq qalb orqali baham ko'radigan SHAXSga aylangan. Bizningcha, bu xislatlarning barchasi – Ilhomning sirlarini egallab, unga "qo'mondonlik" qilayotgani sabablidir. Shuning uchun ham uning barcha chiqishlari, muloqotlari betakrordir, doimo yangi va mukammaldir. Bugungi mazmundor hayotimizga va Harakatlar strategiyasiga munosib go'zallikdir.

Demak, Prezident Sh.M.Mirziyoyevdan ibrat olib, barchamiz o'z sohamizda ILHOMga esh bo'lishimiz, u bilan hamkorlikda umrguzaronlik qilishimiz lozim. Shundagina komil insonlar safi ko'payadi, ko'paygani sari O'zbekiston va xalqimizning hayot quvvati oshib, barkamollikka erishaveradi; jahon mash'aliga aylanadi!

## ZULFIYA POETIK OLAMINING QIRRALARI

### Mavzu va motivlar kashfi

O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya ijodi chin ma'noda xalqimiz hurmatini qozondi, mamlakatimiz va xorijda keng e'tirof etildi. Ananaviy shoiraga bunga osongina erishgani yo'q. She'riyat bobidagi mashhurlik Zulfiya tomonidan tinimsiz intilishlar, qat'iy izlanishlar tufayli qo'lgan kiritildi. U tug'ilib o'sgan yurtini, uning betakror tabiati-yu beg'ubur odamlarini she'rlariga bosh qahramon qilib tayinladi. Shoiraga o'zining hayoti va poetik qismati ona Vatani – O'zbekiston taqdiri bilan bog'langanligidan masrur ekanligini “Xalqimga aytar so'zlarim” she'ri bilan shunday ifodalaydi:

Ko'zim ustidasan bu tug'yonli dam,  
Sen bilan taqdir-dosh kunduzli bo'ldim.  
Seni deb siyladi Umr, aziz Vatan  
E'zozli bo'ldim men, yulduzli bo'ldim<sup>22</sup>.

Zulfiya she'rlarini mutolaa qilar ekanmiz, shoirani hayajonga solgan tug'yonlar, quvonch va tashvishlar bizning quvonch va tashvishlarimizga aylanib borayotganligini his qilamiz. Uning qalamidan to'kilgan misralar qalbimiz qa'ridan quyilib kelayotgandek tuyuladi. To'plamlarining so'nggi sahifalarini yopar ekanmiz, munis ishonuvchan, samimiy yuragini to'kib solayotgan yaqin odamimiz bilan yuzma-yuz suhbat qurgandek bo'lamiz. Uning she'riyatiga oshn bo'lgan har qanday odam borki, qalbiga saxiy, mehribon, pokiza inson bo'lishni tugib qo'yishiga ishonamiz.

Zulfiya – hassos lirik shoiraga. U nima haqda yozmasin, barchani muallifning chuqur shaxsiy munosabatidan yaralgan, samimiyat va sofdillikka o'ralgan bo'ladi. Lekin Zulfiya poetik olami intin kechinmalar sarhadlaridan o'zib ketadi, bu olam – keng va to'laqonli. Shoiraning doimiy yo'ldoshlari – “qo'shiq, orzu va sevgi” – uni bahor dalalarining zumrad kengliklariga boshlab boraveradi. Zulfiya she'rlari orqali kitobxon ko'z o'ngida nafis va yorug' olam namoyon bo'ladi. Shoiraga she'rlarining barchasi kelajakka bo'lgan so'nmas ishonch bilan sug'orilgan. Ana shu ishonch uning asarlarini, so'z san'atining yuksak namunalari bo'lganidek, nekinlik hissi bilan to'yintiradi.

<sup>22</sup> Zulfiya. Тонг билан шом аро. Сайланма – Топкент: “Шарк”, 2006. – Б. 2.



Zulfiya she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi. Zotan, Zulfiya ijodining haroratini ta'minlagan omil ham undagi jo'shqin va faol insonparvarlikdir. U butun borlig'ini insonning baxtiga shodlik qo'shish, dardiga malham bo'lishga bag'ishladi. Shoironing hammani "yuragiga yaqin olishi", barchani "ko'z-u qosh singari do'st", "taqdirdosh, birodar" deb bilishi shundan. U o'z she'riyati orqali o'zbek xalqining insoniyligini, ma'nan go'zalligini, ulug' ishlarga qodir ekanligini jahonga haqqoniy namoyish qildi.

Zulfiya lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoira lirik qahramoni ko'pda yuksak intellekt muhibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan falsafiy, ba'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoira ma'naviy-ruhiy izlanishlarida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik vaziyat va kolliziyalar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qumrovlari keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan esh tasvirlanadi. Shoira ijodida "xotira", "taqdirdosh", "yurakka yaqin kishilar", "tong", "bahor" motivlari takrorlanishining, barqaror tus olishining boisi ham shunda. Poetik tizimida baxtiyorlik va fojiaiylik ohanglarining yonma-yon kelishi uning voqelikni, insonni keng va yaxlit, bor murakkabligi bilan talqin qilish ehtiyoji natijasidir.

Zulfiya poetikasi, o'tmishga nazar tashlaganda, xuddi rivojlanib kelayotgan butunlikdek ko'rinadi, unda 1940-1990-yillar o'zbek she'riyatidagi barcha yetakchi ijodiy tamoyillar o'z aksini topgan.

Chin ma'nodagi ijodkorda iste'dod ayni yetilgan payti ko'rinadigan jihat – bu badiiyatda o'ziga xoslikka intilishdir. Zulfiya she'riyatdagi ilk qudamlaridanoq o'z ovozi, o'z tili bilan adabiyotga kirib kelganligini kitobxonlar ham, munaqqidlar ham darrov payqadilar.

Uning ilk she'riy to'plamlari shundan dalolat beradiki, muallif "men"i Zulfiyada yaqqol ajralib turar va shoira o'z lirik qahramonining ko'ngil hayotiga mos badiiy matn yaratish yo'llarini qidirardi. Shoironing ijodiy yangiligi shunda ediki, his-tuyg'ular she'riy matnda dramatism va rangin ta'sirchanlik keltirib chiqarar, uning lirikasi san'atning boshqa turlarini ham o'ziga jalb etardi. Aytish mumkinki, Zulfiya nazmdagi qochirimli, sha'mali uslubni turli-tuman vositalar bilan shakllantirdi: lirik qahramonning holat va qalb harakatlari uning xatti-harakatlari, atrof borliqni o'ziga xos tasavvur qilishi bilan mutanosiblikda ochila bordi.

Zulfiya badiiy uslubining barqarorligi uning poetik tilga boshqacha munosabatida ko'zga tashlanadi: unda tuyg'ular narsa-hodisalar bilan aloqaga kirishgan holda syujetga birlashib, o'zining yangi ifodasini topdi. U tasviriy vositalarni ham, misra tuzilishini ham, she'r vaznini ham kerakli o'zanda isloh qila oldi. Bularning barchasi so'zlar stixiyasidagi musiqiylikni erkin she'r shaklidagi ishonchli og'zaki suhbat bilan almashtirishga bo'ysundirilgan edi. Hayot falsafasini, tuyg'ular falsafasini u poetik aforizmlar orqali ifodalay boshladi: "Birga qolish uchun sen bilan, Kuyaman-u, bo'lmayman ado"<sup>23</sup>. / Nega tirik ekan tashlab ketmading, Tashlab ketmading-la, boshlab ketmading?!<sup>24</sup>

Shu tarzda Zulfiya ijodida miniatyurizm yuzaga keldi. Uning jumla tuzishdagi mahoratini ko'rib chiqar ekanlar, tahlilchilar shoira she'rlarida undovlar ham, bog'lovchilar ham ma'noviy urg'ular bilan yuklanganligini asosli ta'kidlaydilar.

Qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, shoira deyarli hech qachon tushuntirmaydi, u ko'rsatishga harakat qiladi. Misol uchun, rangni aniqlovchi sifatlashni ba'zan shakl aniqlovchi sifatlash bilan taqqoslaydi: "...Sarg'aygan dashtlarga berding yashil qon, / Tuproq tepalarda shahar ko'tarding"<sup>25</sup>; ba'zida esa she'rning oxirgi ikki misrasida obrazga bo'lgan diqqatni kuchaytiruvchi ma'no takrorini qo'llaydi: "Men seni sevaman, sehrigar yigit, / Butun borlig'im-la men senga maftun"<sup>26</sup>.

Tashkiliy jihatdan Zulfiya o'zini realistlar doirasiga doxil deb biladi, umuman, so'z rassomi o'zining muayyan estetik oqimga mansub ekanligini anglab yetishi zarur, deya hisoblardi. Shoira adabiyot olamiga kirib kelgan paytlari realistlarni zamonaviy she'riyatning poetik arsenalini yangilash zarurligi g'oyasi boshqarardi. Ular simvolistlarda uslub qadrsizlanganligini va usullar shablonlashganligini payqardilar. So'z san'ati yangi tarafdorlarining barcha tirishishlari poetik tilni mistitsizm ruhidagi xayoliylikdan qutqarishga qaratilgan edi.

Lirikani shaklan demokratlashtirish harakatiga qo'shilgan Zulfiya uni mazmunan boyitishga ham katta hissa qo'shdi. Birin-ketin dunyo yuzini ko'rgan to'plamlari uni kitobxonlarga tanitdi: keyinchalik uning kitoblari qayta-qayta nashrdan chiqarildi. San'atga bo'lgan yangicha talablar sharoitida Zulfiya she'riyatni dunyoviy reallikka yaqinlashtirdi,

<sup>23</sup> Зулфия. Тоғ билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: "Шарқ", 2006. – Б. 13.

<sup>24</sup> Уша китоб. – Б. 20.

<sup>25</sup> Уша китоб. – Б. 2.

<sup>26</sup> Уша китоб. – Б. 5.

amino ijodidagi realistik metod alomatlari falsafiy va ruhiy nuqtayi nazaridan nafaqat nasriy uslub, balki simvolizm tarafdorlari yutuqlaridan ammarali foydalanish evaziga ham murakkablashdi.

Mamlakatimiz bo'ylab mustaqillik nasimlari esa boshlagach, Zulfiya ijodida yangi bosqich boshlandi. Uning o'zbek xalqining, ayniqsa o'zbek ayollarining poetik aks sadosiga aylangan ovozi rasmiy davralarning o'nlab yillarga cho'zilgan taqiqlarini yorib o'tib, ittiqlolgacha yetib keldi. Shunday bo'lsa-da, u o'ziga achingani yo'q, boshqalarning dardi bilan kuyib-yondi:

Hurriyat, kelding-ey, al-omon kelding,  
Seni qalbim, ko'zim, so'zlarim quchar.  
Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,  
Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...<sup>27</sup>

Zulfiya tabiatiga ma'naviy-ruhiy jihatdan ona diyor bilan yuktanlikni, o'z intilishlarining xalq dili va orzusi bilan tutashligini anglash, zamona nafasini his qilish, kishi xohishiga bo'ysunmaydigan tarixiylik, kelajakni ko'ra olish qobiliyati kabi xususiyatlar xos. Uning elliginchi-to'qsoninchi yillar she'riyatining uzluksiz rivoji lirizmni saqlagan holda epik mazmuni kengaytirishida namoyon bo'ldi. Ijodkor shaxsida qayta tiklangan tarixiy xotira shoira lirikasining bosh konseptual obraziga aylandi. Shoira ifoda vositalarini yangilash zarurligini his qildi. Zulfiyaning 90-yillar ijodiy tizimi uning ilk lirikasi bilan solishtirganda, estetik dunyoqarashining butunlay boshqa-boshqa hodisasi ekanligi ayonlashadi.

Ijtimoiy mavzu va muammolar Zulfiya she'riyatiga kirib kelar ekan, birinchi navbatda muallif ijodining eng ta'sirchan va harakatchan komponenti – uslub qiyofasini o'zgartirdi. Bir tomondan, shoira uslubi o'ziga og'zaki nutq, jumladan so'zlashuv tilini keng qamragan holda demokratlashishda davom etadi. Folklordan foydalanish: motivlar, obrazlar, vazn imkoniyatlari kengaydi. Ikkinchi tomondan, Zulfiya uslubi kitobiy ruhda arxaiklasha bordi, ohangdorlik jihatdan notiqlikka xos tantanavorlik eshitila boshladi. Uning she'rlarida jahon adabiyotining shoh asarlari bilan, qadimiy kitoblar bilan bog'liq mifologemalarni qo'llash ortdi ("Uni Farhod der edilar..."), epigraflar, ko'chirma keltirishlar ko'paydi: "So'fi Olloyormi, devona Mashrab / Bayozlarin o'pib qo'lga olardik. / Yumushmi, o'yinmi – barini tashlab, /

<sup>27</sup> Zulfiya. Тоғ билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: "Шарк", 2006. – Б. 168.

Sehrli olamga kirib borardik". Adabiylik, kitobiylik uning she'riyatida so'zlashuv uslubini bilan, ko'tarinki maishiylik bilan, hayotda orttirilgan donishmandlik bilan boyib bordi.

Zulfiya she'riyatida janriy shakllarni yaxlitlashga moyillik kuzatildi. Epik mazmundorlikka ega she'rlar turkumlashdi ("Ariq tuyg'ular"); she'riy parchalarda lirik doston janriga xos xususiyatlar ustunlik qila boshladi ("Quyoshli qalam", "Yaratish dardi"); lirik dostonlar she'riy roman darajasiga ko'tarildi ("Qishloq vrachi", "Vodil yulduzlari").

Uning so'nggi yillar she'rlarida yambli turoqlarning uchrashini ijodida fuqarolik his-tuyg'usining orta borishi bilan izohlash mumkin. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, ikki bo'lakli vaznlarni uch bo'laklilarni bilan birlashtirish xususiyati uni tark etmadi. Bu uning she'rlarining intonatsion jihatdan elastikligini ta'minlab keldi. Shoira bir maromdagi sillabo-tonik she'rdan ustun kelgan ritmik urg'uli she'rning o'ziga xos turi, uzun misrali (she'r misralari ichida takrorlanib keluvchi pauzaning alohida turi – senzuraga asoslangan) she'rlar yozishda davom etdi:

Men Sizga, o'quvchim,  
Na aytib,  
Na-da ko'rsatib  
Ulgura olmadim Yurtimni.  
Asrlar gardini qalbim-la sidirib  
Uzrimu,  
O'zligim, ko'rkimni,  
Qadimning chaqnatib o'tini  
Bu kunning nuriga tutmadim<sup>28</sup>.

Hammasidan ham ko'ra Zulfiya o'zining "Xotiram siniqlari" dostoniga eng ko'p kuch sarfladi. Odatda ko'zgu sinig'ida voqelik insurlari aloq-chaloq aks etadi. Doston lirik qahramonining xotira iniqlarida esa, aksincha. Unda o'zbek xalqi o'tgan asrda boshdan echirgan talotumli hayot o'zining poetik talqinini topgan.

Dostonda tasvir turkumlarga ajralgan; asosiy syujet chizig'ining vojini tarixiy jihatdan shaxsiy yondashuv harakatga keltiradi. Liro-epik asitalar orqali shoira mamlakat va lirik qahramon boshdan kechirgan inlarning badiiy solnomasini yaratadi:

---

Ўша китоб. – Б. 160.



“Yangi hayot” debmiz o‘sha kunlarni,  
Betalab, benolish yashabmiz ko‘p yil.  
Bir o‘ylab ko‘rmabmiz bu yurt hokimin  
Labi kulib, nechun rang-ro‘yi zahil?!<sup>29</sup>

Adabiyotshunos Sh.Hasanov doston syujetini tadqiq qilar ekan, shunday to‘xtamga keladi: “Xotiram siniqlari”da muhtasham epik janrov mavjud. Butun bir xalqning bir asr davomidagi orzu a‘molini, psixologiyasini, turmush tarzini, tarixini shoira 193 satrdan iborat kuchangina dostoniga jo etgan. Doston tashqi voqea-hodisalar tasviri bilanmas, ichki poetik faoliyat bilan sug‘orilgan. Shoira taqdiri xalq taqdiri bilan vobasta... Mustabid tuzumning qatli kushlari, qatag‘onlari, surgunlari, yetmish yildan ziyod davom etgan nobop siyosati va buning natijasida tarixi toptalsa-da, udumlari taqiqlarga uchrasa-da, biroq irodasi hukilmagan, o‘zligini anglab borayotgan xalqning g‘amangiz siy mosi shoira o‘ylarida tug‘ilgan og‘riqlarning, xotira siniqlarining kolliziyasini belgilaydi<sup>30</sup>. Darhaqiqat, ushbu dostonda Zulfiya poetikasi yaxlit tugallik kasb etgan.

Poetik ifodaning ravshanligi Zulfiyaning barcha she‘rlariga xos. Ammo “Xotiram siniqlari” ustida ishlar ekan, shoira o‘zbek adabiyotida simvolistlar poetikasi erishgan yutuqlarga ham murojaat qiladi. Asarda ko‘plab o‘rinlar ramziylarcha shifrlangan. Doston kompozitsiyasi asosida narsalarni simfonik joylashtirishning ramziy tamoyili yotadi. Bu tamoyil shunda ko‘rinadiki, takrorlanib keladigan bosh motivlar ajralib turadi va keyinchalik bu motivlar to‘qnashuvlar va chatishib ketishlar orqali yonma-yon jaranglay boshlaydi, vaqti-vaqti bilan she‘riy matn musiqaga yozilgan librettoni eslatib yuboradi:

“Vatanparvar” debmiz o‘z-o‘zimizni,  
Dengizlar quribdi, chiribdi baliq,  
“Insonsan, boshingni ko‘tar”, demabdi,  
Ko‘ngling qolganmidi bizlardan, xoliq?<sup>31</sup>

Muallifning (shu paytgacha o‘ziga begona bo‘lgan) majoziy lashtirish usullari asarga sirli tagma‘noni olib kirgan. Muallif poetik olamida o‘ng va tush, illyuziya va voqelik elementlari bir-biriga

<sup>29</sup> Usha kitob. – B. 167.

<sup>30</sup> Xasachov I. Doston tarqi bi va tabiati. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – B. 146.

<sup>31</sup> Zulfiya. Tong bilan sham aro. Saylanma. – Toshkent: “Sharq”, 2006. – B. 167.

tutashib ketadi. Sirli ko'zgu siniqlarida g'ira-shira ko'ringan xayoliy obrazlar asta-sekin yorqin qiyofa kasb eta boradi. Poetik so'z shu ko'zgu siniqlarida yuvilib borayotgan poetik ma'nodan quvvat oladi. Muallif xronotopi zamon va makonning abadiyligi qa'riga cho'madi. Yoshlik yillarida chetlab o'tilgan simbolizm qarigan chog'i yozilgan ko'lamdor dostonida yangidan bo'y ko'rsatadi. Ayni paytda, bu masala turli-tuman estetik deklaratsiyalarni chetlagan holda, ijodiy yo'l bilan, tabiiy hal qilinadi.

Zulfiya estetikasi bir paytlar o'zbek so'z san'atini boyitgan simbolizm (Oybek lirikasi misolida) tajribalarini o'ziga olgan holda realizmni modernizm bilan mustahkam bog'ladi. Poetik shakllar almashuvchanligi, ularning mohirona birikuvi endilikda hech qanday cheklovlarsiz she'riyat xizmatiga kamarbastalik qiladigan bo'ldi.

So'z san'atkorlaridan birortasining poetik olamini tavsiflar ekanmiz, biz uning barcha matnlari asosida yotgan eng umumiy va teran semantik qiymatlarni (mavzularni) ichki qayta tiklash hamda o'sha mavzular bilan asardagi motivlarning mosligini aniqlash vazifasini ko'zda tutamiz. Variantdosh motiv va mavzularni qidirishning asosiy usuli mazmun, syujet-holat, leksik va boshqa jihatlardan umumiy qirralarni topish maqsadida bitta muallifga tegishli turli matnlarni taqqoslashdir.

Muallif asarlarining barchasini sinchiklab yoki sekin o'qish mobaynida bu o'xshashliklar oddiy kitobxon nigohiga ko'ringanidan ko'ra, ko'p sonli va tarmoqlangan ekanligi ma'lum bo'ladi. Bunday yondashuvning to'g'riligini rus shoirasi A.Axmatovaning quyidagi so'zlari tasdiqlaydi: "Tub mohiyatni anglash uchun shoir she'rlarida doimiy tarzda takrorlanib keladigan obrazlar uyasini o'rganish zarur – aynan ularda muallif shaxsiyati va poeziyasining ruhi yashiringan bo'ladi"<sup>32</sup>.

Bu tavsiyani Zulfiya ijodini o'rganishga tatbiq etish, fikrimizcha, ayni muddaodir. Shoira she'r yozish manerasining boshqa mualliflar bilan o'xshash jihatlari, hatto matnda parallel kelgan o'xshash jihatlar tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan. Ammo Zulfiya ijodida boshqa mualliflardan yashirin parchalar topish uchun topqirlik, qat'iylik va bilimdonlik ko'rsatgan ilmiy tafakkur shoiraning o'zida uchraydigan u yoki bu darajadagi ko'plab yarim oshkor avtotakrorlar va avtovaritsiyalarga bee'tibor qolganligini qanday izohlash mumkin? Axir

<sup>32</sup> Топоров В.Н. Ахматова и Блок (к проблеме построения поэтического диалога: "блоковский" текст Ахматовой). – Berkeley, 1981. – P. 223.

bir ijodkor asarlarida takrorlanib keladigan obrazlar, motivlar, g'oyalar "muallif shaxsi"ning sirini ochish va barcha matnlari orqali uning aynan nimani aytishga intilayotganini aniqlashning ahamiyati ham kam emas. Qolaversa, bu hodisani o'rganish boshqalaridan ko'ra ko'proq natija keltirishi mumkin.

"Urush yillari kamolot davri bo'ldi, - deydi Zulfiyaning o'zi ijoddagi kamolotini eslab, - aqlli gaplarni o'ylab topishga, yasama dard yoki zavq-shavqni kuylashga o'rin qolmadi, turmushning o'zi qat'iyat bilan haqiqiy so'z talab qildi; beixtiyor ravishdami yoki birovning tajribasiga murojaat qilish natijasidami, asl so'zlar o'z-o'zidan quyilib kelaverganidan keyin ularni o'rni-o'rniga joylashtirish, bir-biri bilan bog'lash yo'lini topar ekansan... 1947-yilda chiqqan "Hulkar" kitobim yangi ishning yakuni bo'ldi. She'rларim voqeaband bo'lib qoldi, desammikan. Lekin bayonchilik ma'nosida emas. Men bu she'rlarga o'z ruhiy tariximning bir parchasini joylashtira boshladim, bu parchaning o'z tuguni, kulminatsiyasi va yechimi bor edi. Endi yozmoq uchun, Lev Tolstoy aytgandek, dastlab gapning uchini uchiga ulab olishim kerak edi. She'rmi boshlab qo'yib oxirini topmagunimcha uni davom ettira olmas edim. Endilikda qayoqqa qarab ketayotganligimni bilganimdan yo'lning eng qisqasini izlab topa olardim. Natijada she'rlarim muhtasar va tugal bo'la boshladi"<sup>33</sup>.

Yozilishi kerak bo'lgan she'rning tugal mazmunga ega muhtasar shakl kasb etaroq dunyoga kelayotganligini anglatib turgan bu iqrromuz fikrlar Zulfiya poetik olamining naqadar betakror, o'ziga xos ekanligini ko'rsatadi.

Ma'lum bo'lishicha, o'zlashtirma ibora va tasvirlarning o'zi o'zlashtiruvchi ijodkor falsafiy va badiiy tizimiga, uning "obrazlar doimiy takrorlanib turadigan uyiga" kirar ekan, dam-badam o'zgarishga yuz tutadi. Shunday tuyuladiki, Zulfiya dunyoga nisbatan keskin individual, sub'ektiv va selektiv munosabatda bo'ladigan poetik shaxslar kirasiga kiradi. Aynan shunday shaxslardagina begona motivlarni ham assimilyatsiya qila olish va qayta yaratish xususiyati alohida ajralib turadi.

Zulfiya she'riyatining bosh mavzularini ifodalab keluvchi motivlarni tekshirishga kirishishdan avval motivning o'zi nimaligini aniqlashtirib olish zarur bo'ladi. Musiqashunoslikning tayanch iboralaridan bo'lgan "motiv" so'zi adabiyot haqidagi fanda ham katta

<sup>33</sup> Zulfiya. Asarlar. Uch jildlik. Birinchi jild. - T.: Ga'fur Gulom nomiдаги Adabiyot va san'at nashriyati, 1985. - B. 8.

ahamiyatga ega. Lotincha *moveo* – (jildiraman, qo‘zg‘ataman) fe‘lidan olingan motiv endilikda keng ko‘lamli mazmunga ega.

Motivning dastlabki, yetakchi, bosh ma‘nosini oddiygina ta‘riflash mushkul. Motiv – bu asarning muhim ahamiyatga ega (semantik jihatdan mazmunga boy) komponentidir. U asar mavzusi va konsepsiyasiga (g‘oyasiga) faol aloqador, lekin ular bilan bir narsa emas. B.N.Putilovning fikricha, “barqaror semantik birlik” sifatida motivlar “ko‘p ma‘nolilikning yuqori, aytish mumkinki, favqulodda darajasi bilan xarakterlanadi. Har qaysi motiv ma‘nolarning barqaror to‘plamiga ega”<sup>34</sup>. Motiv, qanday yo‘l bilan bo‘lmasin, badiiy asar doirasida harakatda, shu bilan birga uning tarkibida turli shakllarda mavjud. U takrorlanuvchi va turli variantlarda keluvchi alohida so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida namoyon bo‘lishi ham, turli leksik birliklar vositasida nimadir anglatishi ham, sarlavha yoki epigraf ko‘rinishida kelishi ham, tagma‘noni ifodalash sifatida gavdalanishi ham mumkin. Motivlar sohasini sinchkov kitobxon va mutaxassisgina his qila oladigan asarning ichki, ko‘rinmas chiziqlari bilan belgilangan xalqalari tashkil etadi. Matnda chala, jumboqli tarzda kelish, yarim ifodalanganlik uning eng muhim qirrasini hisoblanadi.

Motivlar yo alohida asarlar xalqalarining qurilishi sifatida, yoki san‘atkor butun ijodi va hatto muayyan janr, yo‘nalish, adabiy davrlar, jahon adabiyotining mulki sifatida savlat to‘kishi mumkin. Aynan mana shu jihat – individuallikning ustuvorligi bilan ular tarixiy poetikaning muhim predmetlaridan birini tashkil etadilar.

XX asrdan boshlab “motiv” termini tarixan eng qadimiy, folklor syujetlarini o‘rganishda keng ishlatila boshlandi. Misol uchun, A.N.Veselovskiy o‘zining tugallanmay qolgan “Syujetlar poetikasi” kitobida motiv haqida hikoya qilishning oddiy, ajralmas birligi, syujetlar asosida yotadigan takrorlanib keluvchi sxematik shakl deya ta‘kidlab o‘tgan edi (afsona va ertaklar syujetida). Bunga olim quyosh yoki sohibjamolning o‘g‘irlanishi, buloq suvining qurib qolishi kabilarni misol keltiradi<sup>35</sup>. Motivlar bu yerda alohida asar bilan o‘zaro bog‘lanishda tekshirilayotgani yo‘q, balki so‘z san‘atining umumiy mulki sifatida ko‘rilmoqda. Veselovskiyning fikricha, motivlar tarixan barqaror va benihoya takrorlanuvchandirlar. Olim bu borada ehtiyotkorlik bilan o‘z taxminini aytadi: “...poetik ijod bir avlod o‘zidan

<sup>34</sup> Путилов Б.Н. Веселовский и проблемы фольклорного мотива//Наследие Александра Веселовского: Исследования и материалы. СПб., 1992. С. 84.

<sup>35</sup> Қаранг.: Веселовский А.Н. Историческая поэтика. С. 301.



avvalgisidan, ular esa uchinchilaridan qabul qilib olgan barchanizga tanish muayyan shakllar, barqaror motivlar bilan chegaralanmaydimi? Har qaysi yangi poetik davr o'ziga yangi kombinatsiyalarni ravo ko'rar hamda ularni hayotni tushunishning yangi ko'rinishlari bilan to'ldirar ekan, eskidan vasiyat qilib qoldirilgan obrazlar bilan ish ko'rmaydimi?"<sup>36</sup>

Keyingi o'n yilliklar mobaynida motivlar alohida ijodkorlar va asarlarning mulki sifatida ko'riladigan, individual ijodiy tajriba bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganiladigan bo'ldi.

She'riyat uchun so'z orqali ifodalangan motivlar xos. A.A.Blok shunday yozadi: "Har qanday she'r – bir nechta so'zlarning o'tkir damiga to'shalgan shohi choyshabdir. Bu so'zlar yulduzlar kabi charog'on. Ular borki, she'r mavjud"<sup>37</sup>. Darhaqiqat, shoirming birgina "Dunyolar uchmoqda" (1912) she'rini olib ko'radigan bo'lsak, bemaqsad va telbanamo parvoz; unga hamrohlik qilayotgan vizillagan ovoq; charchoq holiday qalb; tutib bo'lmas baxt kabilar tayanch so'zlarni tashkil etadi.

Adabiyotshunoslikda "motiv" so'ziga qanday mazmuniy ohanglar berilmasin, uning chinakam dolzarbligi, zaruriyat ekanligi o'z-o'zidan ahamiyatini saqlab qolaveradi.

Zulfiya she'riyatida ko'p kuzatiladigan motivlar, avtotakrorlardan hozircha, misol tariqasida, xronologik jihatdan tarqoqligi va poetik matndan shoira biografiyasi va uning turmushdagi nutqiga borib taqalishi bilan ajralib turadigan bir nechtasini keltiramiz:

**Tong (porlok kelajak) motivi.** "Yelda qo'shiq, ko'prikda shu'la, Baxt-la tepdi ikki yosh yurak... / Oy so'zladi yulduzni to'plab, Sevgi tongi haqida ertak". (1936) – "Tinchgina tong otar. Chiqadi quyosh / Ko'm-ko'k maysalarda yaltirar shabnam..." (1947) – "Kundan-kun saharga ortar sog'inchim, Nahot hayot shomin yaqinligi bu? / Salqin oromida yo'qolar tinchim, Demak, shafaq men-chun yulqinligi bu!" (1968);

**Yaqin kishilar yodi motivi.** "Baxtiyor sevgini kuylardi sozim / O'lim xanjariga tegdi-yu sindi..." (1944) – "Tunlar tushimdasan, kunduz yonimda / Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!" (1945) – "Qancha bo'ldi ko'rmaganimga / Ey qalbinning dilbari shoir!" (1950) – "Olov to'lqin tunning ichida, Qolib ma'yus chayqalar dengiz... / Musibatning zang ilgichida, Gulgun ko'ylak osig'liq hanuz..." (1985);

<sup>36</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. С. 40.

<sup>37</sup> Блок А.А. Записные книжки. 1901–1920. С. 84.

**Bahor – yangilanish motivi.** “Shoir sevgan o‘lka ko‘ksida / Xushbo‘y bahor kezib yuradi...” (1980) – “Bahorda tug‘ildim! Unga o‘tib / Yashashning qonuni qonimda...” (1981) – “Sindi qish to‘qigan o‘lka / hisli qafas / Mana, yana qushlar chug‘urlab qoldi” (1983).

Biz ishni Zulfiya poetik olamining asosida yotgan mavzular majmuasini belgilab olishdan boshlaymiz. Shoira tafakkurining mahallasi bo‘lgan, hayotini bezagan tushuncha va qoidalarni biz allaqanday abstrakt ramzlar yoki shartli ifodalar sifatida emas, balki o‘ziga xos yaxlit butunlikka ega hayot falsafasi sifatida tushunamiz. Shoira mavzular majmuasiga lirik qahramon shaxsining eng barqaror va doimiy qirralari, uning olam va odam haqidagi asosiy tushuncha-tasavvurlari hamda o‘zini tutishining umumiy strategiyasi kiradi.

Bu Zulfiya poetik olami borasida biz tanlagan kartinani tasviriylah poetikasi doirasida bajarilgan ayrim boshqa poetik olamlar “portretlaridan” ajratib turadi. Ularda mavzu bir-ikki murakkab bo‘lmagan ma‘naviy iboralarga borib taqaladi. O‘z navbatida bu iboralardagi muayyan motivlarning xilma-xilligi ko‘p pog‘onali talqinlar orqali isbotlanadi. Bunday yondashuv, xuddi shoira hamisha bir xil va ayni damda oddiy fikrni aytib keladi-yu uni turli rakurslardan turib aytishning nozik yo‘sinlarini bilishini nazarda tutardi. Aksincha, biz shoira tayanch g‘oyalarining o‘ziyoq yetarlicha boy va xilma-xil bo‘lishi mumkin deb bilamiz. Ular yagona birlik hosil qilishlari mumkin, ammo uning tabiati turfa xil bo‘ladi. Bu yadroviiy g‘oyalarni qaysidir dastlabki semantik invariantga olib borib taqashga urinish shart emas; ular nisbatini boshqacharoq, masalan, mulohazalar yakka silsilasining bir bo‘g‘ini yoki shoira sub‘ektiv irodasiga ko‘ra qandaydir uyg‘un birlikka keltirilgan turfa xil fikrlar majmui sifatida tasavvur qilishimiz ham mumkin.

Tematik yadroning ta‘rifi shu tarzda tuzib olingach, uning turli komponent va jihatlarini kengaytiradigan qator doimiy motivlarni belgilab olish kerak bo‘ladi. Biz turli xil va aniqlik darajasidagi birliklarni “motiv” termini bilan belgilab olamiz. Bunday motivlar sirasiga, masalan, voqea-holat elementlari; lirik sujetning aktant strukturasiidagi o‘ziga xosliklar; Zulfiya lirik qahramoniga xos borliqqa munosabat tarzi va lirik holatlar; tipik xarakteristikalar, predmet va vaziyatlarning qirralari kabilari kiradi.

She‘r qurilishida motivlarning o‘rni turlicha bo‘lishi mumkin. Ulardan ba‘zilari tematik yoki kompozitsion o‘zak rovida ishlatiladi.

ayrimlari tashqi aksessuarlar o'rnida kelishi, uchinchilari esa markaziy va yondosh pozitsiyalar uchun bir xil mavqe egallaydi.

Umuman olganda, Zulfiya ijodida doimiy barqarorlik kasb etadigan birliklarning yana bir turini ajratib ko'rsatsa bo'ladi. Bu motivlarni konkretlashtirish uchun qo'llaniladigan obrazli-majoziy vositalar: tipik metaforalar, giperbolalar, epitetlar, ramzlardir. Misol uchun, "dard" ifodasi "qiynoq" yoki "jazo" sifatida, "esdalik" – jismoniy faoliyat yoki harakat (sayohat, zindondan ozod bo'lish va h.k.) sifatida gavdalanishi mumkin. Ayonki, bu kabi ko'chma ma'nodagi iboralar, xuddi motivlar singari tematik yadroga borib taqaladi. Ular mazmuni to'g'ri anglashda muhim ahamiyat kasb etadilar.

Bizning maqsadimiz Zulfiya she'rlarining alohida matnlarini tahlil qilish yoki shoira poetikasining umumiy tamoyillarini tadqiq qilish emas, balki tematik xarakterdagi vazifa – poetik mulohazalarda jamlangan "shaxsiy falsafa"ni qayta tiklashdir. Buning uchun shoiraning "Shalola" (Sh), "Mushoira" (M), "Kamalak" (K) to'plamlari, "Tong bilan shomaro" (TBShA) nomli saylanmasidan o'rin olgan she'rlariga murojaat qilamiz. Fikrimizcha, belgilab olingan motivlar nomlari sanab o'tilgan to'plamlardagi aksariyat she'rlarni yetarlicha talqin qilib berish imkonini beradi.

Zulfiya mavzularining majmuasini biz oldindan ma'lum o'zaro mustaqil hisoblana olmaydigan to'rt bo'g'inga ajratamiz (formula 1). Ko'plab mantiqiy-assotsiativ rishtalar va parallellar bilan bog'langan bu bo'g'inlar bir-birlarini o'zaro boyitadilar, qo'llab-quvvatlaydilar, moslaydilar va to'ldiradilar.

(1) **A. Taqdir.** Odamning peshona yozig'i – baxtsizlik va omadsizlik; loqayd va shafqatsiz dunyo zaiflashgan, individual, ulug'vor qadriyatlarini tekislab, yutib yuboradi; bu qadriyatlar insonning o'zi singari vaqt va boshqa yemiruvchi kuchlar oldida o'tkinchidir.

**B. Qalb.** Lirik qahramon shaxsining asosiy qirralari:

- passivlik, taqdir kuchlari oldida o'z ojizligini anglash, ularga bo'ysunishga tayyorlik;

- taqdirga qarama-qarshi tarzda, hayotga va uning zaif, iliq, beg'ubor predmetlariga bo'lgan instinktiv muhabbat;

- hayotning har qaysi alohida olingan lahzasi, mavjudlikning har qaysi parchasi qadrini his qilish;

- "kreativlik" (yoki Zulfiyaning o'z so'zi bilan aytganda, "zakovat"), ya'ni mislsiz ta'sirchanlik, mavjudlik sarhadlaridan chiqib olish, zamon va makon to'siqlaridan o'ta olish, ruhiy o'lchamlarida o'z

dunyosini qura olish (Kreativlikning namoyon bo'lishiga kuchli xotira va tasavvur, boshqalardan yashirin ma'volar, narsa-hodisalarni ilg'ash, tabiat tilini tushunish, alomatlarga ishonish, karomat qilish qobiliyati kabilarni misol keltirish mumkin).

**V. Burch va baxt.** Zulfiya lirik qahramoni hayotiy strategiyasining asosida, uning baxt va boshqa dunyoviy ne'matlarga bo'lgan munosabatida insonning jamiyatdagi o'rni omonatligi va oxir-oqibat, chorasizligi tushunchasi yotadi. Modomiki, baxt aslida insonga "bog'lab berilmagan" va oddiy tasodif yoki qisqa muddatga hushni o'g'irlaydigan bo'lishi mumkin ekan, lirik qahramon huzur-halovatdan voz kechib, tarkidunyochilikka moyil bo'ladi. Bir tomondan u baxt oldida qo'rquvni his qiladi, uni yo'qotishdan, ko'z tegishidan xavfsiraydi, baxt unga qimmatga tushadi. Boshqa tomondan – yuksak darajadagi or-nomus uni o'z-o'zini cheklashga, vazminlikka, sipolikka undaydi. Bunda o'z manfaati izidan quvish emas, balki izzat-nafsi tahqirlangan kimsalarga yordam, birdamlik, dahshatli ziddiyatlar oldida hayotiy qadriyatlarini birgalikda saqlash va himoya qilishga bo'lgan urinishlar qoida tusiga kiradi.

**G. Taqdir ustidan g'alaba.** Baxtsizlikning tabiiyligi va undan qutulib bo'lmasligini anglar ekan, shoira qahramoni bunga ko'nikishga va qalbi tubida ko'ngilni qoniqtiradigan o'z mitti muhitini yaratishga intiladi. U baxtsizlikni chidam bilan yengadi, omadsizliklar o'rmini to'ldirish manbalarini va umuman o'z holatini ijobiy baholash imkonini topadi. Ammo lirik qahramon kechinmalarining bunday alfozda ekanligi chetdan turib kuzatuvchiga salbiy bo'yoqlarda tasvirlangandek tuyuladi.

Zulfiya she'riyati bosh mavzularining mana shu qisqa bayonidan uning bir tomondan real voqelik ahamiyatiga katta e'tibor beradigan H.Olimjon, G'.G'ulom, Mirtemir kabi shoirlar bilan, boshqa tomondan zamon va makon sarhadlarini yorib o'tish, o'lim va beparvolik ustidan g'alaba qilish g'oyasiga amal qilgan Oybek, U.Nosir, A.Muxtor kabi shoirlar bilan o'zaro yondosh ekanligini ko'rishimiz mumkin. Zamona badiiy-falsafiy tafakkuridagi bir-biridan yetarlicha yiroqlikda turgan bu shoirlar ijodidagi xususiyatlar Zulfiya ijodida tabiiy sintezni hosil qilgan.

Hassos shoira ijodida shu bilan birga yuksak matonat unsurlarini, taqdirning ustun kuchlariga ramziy qarshilikni topamiz. Bularning barchasi shoira ijodining XX asr adabiy tafakkuridagi ekzistensial oqim an'analari bilan uncha uzoq emasligini qayd etib o'tish imkonini beradi. Zulfiya she'riyatidagi mavzularni bir qo'r ko'zdan kechirish mobaynida



uning A.Axmatova, M.Svetayeva kabi zamondosh rus shoiralari ijodi bilan hamohang ekanligi ko'zga tashlanib turadi.

Endi Zulfiyaning nomi yuqorida sanalgan to'plamlaridagi eng xarakterli va tez-tez takrorlanib turadigan motivlar asosiy mohiyatining kengroq tahliliga o'tamiz. Biz ularni, asosiy qirralari avval belgilab olganimiz mavzular majmuasining to'rtta segmentiga mos keladigan to'rt qismga bo'lamiz. Bu tarzda guruhlash ma'lum ma'noda shartli, shunday bo'lsa-da, aytish mumkinki, har qaysi qism motivlarini shakllantirish uchun ko'pincha boshqa mavzular majmualari ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

### A. Taqdir.

*Hamon e'tiqodim – haqiqat, haqdir,  
So'zlayman, yuzimni tutib Ka'baga,  
Yemira olmaydi o'tkinchi taqdir,  
Osuda o'tadi ruhim abadga.*

1995.

“Omadsiz taqdir va adovatli dunyo” mavzusi Zulfiya to'plamlarida turli ko'rinishlarda keladi. Ba'zi o'rinlarda bu shoira qahramoni ko'nglidagi sustlik va zaiflik tufayli bo'lsa, ba'zan umr oxirlayotganligi bilan bog'liq o'ylar shu mavzu atrofida bahs yurtishga sababchi bo'ladi. Azob-uqubat chaqiruvchi turmush vaziyatlari qanchalik turli-tuman bo'lsa, ularni ifodalashda ishlatilgan obrazli-leksik vositalar ham shunchalik rang-barangdir. Azob-uqubat turlari yoki sabablari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

(2) Omadsizlik, bebahralik, umidsizlik va h.k:

Tuyg'umni uchmoqqa qanot deb bildim,  
Poyingga she'rlarim tashladim dildek...  
Hijronning, faryodning dudlarin to'kdim,  
Yuragim so'kildi bo'lak va bo'lak<sup>38</sup>./

Ne-ne nashtarlarga chidam berganman,  
Goho zako tig'i ham larza.  
Bo'ronida xo'b sovrilganman,  
O'zim o'lib, o'zim tutganman aza<sup>39</sup>./

<sup>38</sup> Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: “Шарқ”, 2006. – Б. 128.

O'tdi yoshlik mendan bir shavq ko'rmayin,  
Do'llar urgan binafsha sifat.  
Qizg'ongandan rizqin qistab so'rmayin,  
Atab ketdi meni beshafqat<sup>40</sup>./

(3) Umr o'tkinchiligi, baxtning bebaqoligini anglash.

Bunda ko'pincha hayot va baxt tushunchalarining yilning birorta fasli bilan bog'liqligi motivi qo'llaniladi va buning ortidan intihoning yaqinligi, o'lim muqarrarligi xulosasi kelib chiqadi:

Mudom kayfiyatga tobedir inson,  
Xastasan, ta'bingga kiradi tundlik.  
Go'yo ishonch sinib, zarb yeydi imon,  
Umringning o'zi ham qoldi bir kunlik...

Men haq mehrobining poyiga cho'kib,  
To'kib soldim tavallolarim.  
Bir kun yig'lab qolar hammadan ham ko'p  
Yetimlikka uvol sho'rlik she'rlarim...<sup>41</sup>/

Xayr endi, vidoga chog' yetdi muddat,  
Nazdimda qolmadi oldinda yo'llar.  
Qolgani yashindek shoshqin, tez sur'at,  
Muallaq qotadi uzatiq qo'llar...<sup>42</sup>

(4) Siqilish, betoblik, charchoq, so'lish motivlari:

Bunda shoira qahramoni o'zining zabun holidan shikoyat qiladi. Har qanday odamda ro'y berishi mumkin bo'lgan bunday holatlar lirik qahramon tomonidan qanday kutib olinishiga shoira she'riyatidan ko'plab misollar keltirish mumkin:

Nega meni shuncha zaif  
Yaratdingu ishq berding yana.  
Qalb dardiga topmayin tabib,  
Majruh tan-la yashayman, mana<sup>43</sup>!

<sup>39</sup> Уша китоб. – Б. 133.

<sup>40</sup> Зулфия. Мушоира. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 29.

<sup>41</sup> Зулфия. Тонг билан пом аро. Сайланма. – Тошкент: “Шарқ”, 2006. – Б. 132.

<sup>42</sup> Уша китоб. – Б. 134.

Yoki

Yana yurak,

Horg'in yurak – dard sozlagan tor sovutda

Qisiladi, qiynaladi...

Horg'in ko'ksim,

Tomirlarim!

Nahot endi ishlab bo'ldik,

Yashab bo'ldik?

Shunday bo'lsa

Azob bermay dam ola qol!<sup>44</sup>

(5) Hayotdan dong qotish, poetik ojizlik:

Yurak orom istab qolgan har damni / Ko'mmoq mumkin qaysi  
chohning qa'riga? / Oylab sukut qilgan bu xit qalamni / Yondirayin qaysi  
g'azab qahriga; Nega jimib qolding, xasta mung'ayib, / O'zingni urasan  
yakkash to'shakka<sup>45</sup>.

Zulfiya ijodida turmushning u yoki bu zarbasi (yo'qotishlar, dard,  
betoblik) tufayli tanaffuslar bo'lib turgan. Boshdan kechirilgan ana  
shunday "hosilsiz" damlar shoira qahramonining lirik kechinmalari  
qatiga cho'kadi:

Tundan yulgan tongim:

Goh bir she'r, goh o'qilgan bir kitob bo'lur,

Goh umrning o'tgan behosil

Sahfasiga bo'm-bo'sh bob bo'lur...<sup>46</sup>

Meni dard yengdimi, yo bitdimi kuch,

Vujud so'kilganday chok-chokdan go'yo,

Tinglayman, o'qiyman, lekin dil bo'm-bo'sh,

Kup-kunduz ko'rganim o'ngimmi, ro'yo?<sup>47</sup>

Gohi xit qalamim bo'lmas o'tkirlab,

Stolimda qog'oz yotar za'faron...

<sup>43</sup> Zulfiya. Шалола. Асарлар. Уч жилдлик. I-жилд. – Тошкент: F.Фуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 376.

<sup>44</sup> Zulfiya. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: "Шарк", 2006. – Б. 117.

<sup>45</sup> Уша китоб. – Б. 46.

<sup>46</sup> Уша китоб. – Б. 58.

<sup>47</sup> Уша китоб. – Б. 133.

Shu tuyg'u savalab, ko'ksimni tirmab,  
Gohi shom, goh sahar o'ylarim giryon<sup>48</sup>.

(6) Murakkab va azobli ishqiy kechinmalar, ushalmagan o'z u yolg'izlik motivlari:

Keldim. Uzoq qoldim men sokin, / Sening aziz boshingda yolg'iz  
Qalb bo'lganda yiroqda / Iroda ekan o'jiz. / Do'stlar ham ko'p atrofdan,  
Ammo men yakka-yolg'iz (TBSHA, 14-b); Qancha mahrumliklar,  
tanholik, alam, / Yutgani bir umr, nomi Sadoqat (TBSHA, 131-b);  
Mening sevganimni hali bilmasding, / Tanho o'rtanishdan men oldim  
lazzat (TBSHA, 4-b); Lekin qolganimga qalbm-la tanho, / Tuyg'ular  
zoriga solganda quloq, / O'zni zaif, chanqoq sezganda goho, / Alamdan  
beraman javobsiz so'roq: / Tirik ekan nega tashlab ketmading? (TBSHA,  
19-b)

(7) Xavotir, besaranjomlik va lirik qahramon hayotiga tahdid  
soluvchi irratsional, yashirin kuchlar motivlari: ...Ey gumbazigardun,  
qoldimmi g'ofil, / Ishonch, e'tiqodlar chiqdi puchlarga?! / Suyanib  
najotlar kutgandik, nahot, / Bizga choh qazigan qora kuchlarga?!  
(TBSHA, 167-b);

(8) Yo'qotishlar – lirik qahramonning olamdan o'tgan yaqinlarini  
qumsashi va sevimli narsalarning g'oyib bo'lishi motivlari: Mana bir  
umrni yashadim sensiz, / Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib  
(TBSHA, 19); Yer-u osmon, tuting motam, yana bir mehribon ketdi, /  
Hayotga, oftobga, gulga oshiq, jonajon ketdi (TBSHA, 52-b). Bunga yana  
"Uzugim sirg'ilib tushdi...", "Onam bog'i" she'rlarini misol keltirsa  
bo'ladi va ulardan birini o'qiyimiz:

Yo rabbiy!  
Uzugim sirg'ilib tushdi,  
Ingichka tortdimi, shuncha, barmoqlar?  
Qalbimning tubida nedir uvishdi,  
To'lqinsiz qoldimi tanda irmoqlar?  
Zeb-u ziynatlarga o'ch bo'lmadim hech,  
Ziyinat bildim faqat zamon, sozimni.  
Sozni na kunduz, na tunda qo'ydim tinch,  
Yelkasiga ortib quvonch, rozimni...  
Uzuk qalamimdan edi yaqinroq,  
Dilim va barmoqlar siriga mahram.  
Huzur, iztirobdan tushganda titroq

<sup>48</sup> Уша китоб. – Б. 125. (Бундан кейин мисоллар олинган манбанинг бош ҳарфи ва саҳифаси кавс ичида келтирилади.)



O'sha edi chaq nab, mo'ltiragan ham...  
 Endi barmog'imni etib ketdi tark,  
 Bir chog' tuhfa etgan qo'llar singari.  
 Garchand u emasdir sevgi kirgan ark,  
 Ketishi ham emas to'lqin tingani.  
 O'rta barmog'imga olaman taqib,  
 Tabiatdan ustun menda ixtiyor!  
 Endi bu barmoqlar ne kuchdan qalqib,  
 Noziklashar nedan, bilmog'im darkor... (TBSHA, 109-110 – b.)

Lirik qahramon chekayotgan azob-uqubatlar, iztiroblar bayoni uchun qo'llanilgan leksik va obrazli vositalar sirasiga aksar sustlik hamda burchni ifodalovchi obraz va metaforalardan foydalanilganligini ta'kidlash joiz. Jon azobi va tovon to'lash mazmunidagi metaforalar shular jumlasidandir:

Emish: shuhrat o'rab kemtik qismatim,  
 Ko'zlardan uzoqda sirqirab oqar.  
 Qalbdan qo'rg' oshinday yotib hasratim,  
 Ko'zlarim jahonga baxtiyor boqar. (TBSHA, 45-b.)

## B. Qalb.

*...Qalbni bezab ketgan ishqda zo'r baxt bor.*  
 1965.

Tiriklikning og'ir savdolarini yechishda lirik qahramon qalb drammatizmining ayricha xususiyati – kreativlik hal qiluvchi rol o'ynaydi: yuksak ta'sirchanlik, tuyg'unlik, "barqanotlik", xotira va tasavvurning favqulodda kuchi shoira qahramoniga taqdirning vayronkor va ziddiyatli hodisalariga qarshi matonat bilan kurasha olish imkonini beradi.

(9) Lirik qahramon ba'zan o'zini hayotdan sovugandek tutadi. Natijada iztirob iskanjasida qoladi, o'zini xuddi g'ayrihuuriy tarzda o'ng va tush sarhadlarida kezib yurgandek sezadi: Keksalikka yog'dirib la'nat. / Kundan-kunga bu dard bedavo, / Kundan ortar o'zimga nafrat, / O, o'zimni yomon ko'raman...(TBSHA, 94-b); Emish: shuhrat o'rab kemtik qismatim, / Ko'zlardan uzoqda sirqirab oqar (TBSHA); Bir tinglovchi qolaman izlab / Va orqaga tortar yuragim. / Uyg'otibmi, chorlabmi, bo'zlab, / Topib, fikring kelar so'ragim... (TBSHA); Bo'ron quchog'ida qoldim bir oqshom, / Tabiat va qalbim ichra to'polon. / Naq

k bor may to'la sipqarganday jom, / Bir qanotim orom, Bittasi tug'yom  
(TBSHA, 70-b);

(10) Hayotga, tabiatga, mulki borliqqa bo'lgan cheksiz muhabbat, lirik va yashab qolishga intilayotganlarga, hayotning nozik, nafis, lug'vor, omonat xilqatlariga hamdardlik; o'tmish haqidagi tirik xotirani zida tashiguvchi madaniyatga bo'lgan muhabbat motivlari.

Shoira lirik qahramoni nochorgina suratda tabiat va madaniyat usurlarini birlashtirgan ob'ektlardan hayratga tushadi: Yalang'och axtlar ora majnuntol, / Shoir xayoliday latif, serhasham (TBSHA, 64), ar navda bir gulda, har gulda bir ro'y, / Har daraxt bargi bir dunyo koya (TBSHA, 65); Bahor hali ko'kda, Benish kurtakda, / G'unchuda, nafsha bargida bo'rtar. / Oching derazani, uning ortida, / Ko'pchigan 'krak-la, Nurga qorilib / Lutfan gu-gulaydi bir juft kabutar (TBSHA, -b); Shom kelar uzoqlardan bo'shangan bog' qo'yniga, / Yo'l-yo'lna tib shu'la. / To'kilar osilishib za'far barglar bo'yniga / Yoz to'qigan hula (TBSHA, 121-b).

(11) Borliqni "tantanavor-xushhol" qabul qilish motivi, riklikning abadiy emasligi va alohida olingan damlarning takrorligini his qilish tufayli dunyo bilan yuzlashgan lirik qahramon gohi o'zgacha e'zoz, ayricha titroq va tantanavorlik ranglariga ulg'anadi. Zulfiya tasviridagi tabiat ko'pincha qandaydir g'amgin idagi tantanavorlik bilan sug'orilgandek taassurot qoldiradi. bukuhli", "tantanavor", "serhasham" epitellari ko'plab o'rinlarda ilaniladi: Qullikka sanchilgan g'azabning tig'i, / Goh erk tantanavor gan adolat; Kelin-kuyov qalbin to'ldirgan shodlik / To'lqini tinmasin nay misoli: / Kaftda tutmas to'ydan tantanavorlik, / Hayot bog'i goh ch, gohi bo'ronlik. / Og'irlik yelkada, iqbol o'rtada / Boqiy qolsin juft sevgi visoli; Serhasham xonada ming turli taom...; Yalang'och axtlar ora majnuntol, / Shoir xayoliday latif, serhasham (TBSHA); Bu shlikmi, yashashga o'cblik, / Vaqt tuyg'usi bir onda unut. / Yomg'irli bo'ldi gul islik, / Bulbul bo'lib sayradi sukut... (TBSHA, 94-95.)

Shoiraning "Xushhollik" she'rida ko'tarinkilik avj pardada lanadi:

Ne ajab davrga payvand taqdirim,  
O'zimni sezaman muttasil xushhol.  
Saboh yellariday hamon tik qaddim,  
Oqshomgi onlarday tiniqdir xayol.  
Yoshlik,

Barkamollik – o‘zga faslni  
 Toki umr-mulkim, ola bilmam tan,  
 Bag‘rimga olganman  
 zamon faslini...  
 Tanti, zukko elga suyuqli ekan  
 Aytajak so‘zimning poyoni bo‘lmas!  
 Zero hayot qilar qo‘shiq taqozo,  
 Bugungi insonlar yillarni bilmas,  
 Zero yerga bo‘ldi oshno fazo!  
 Hayot qaynoviday yurak urar jo‘sh,  
 Dilga qalam ishq, men behad xushhol.  
 Shukrkim, o‘ylarda muqimdir junbush,  
 Ko‘zimda kundan kun to‘lishgach iqbol. (TBShA, 114-b)

(12) Harakat, yaqinlashish, bo‘zag‘a, yo‘lak, safar, qayergadir otlanish yoki qaytish – Zulfiya dunyosi qahramonlariga xos bo‘lgan xususiyat. Bu yerda avvalambor she‘rlarida eng ko‘p uchraydigan qo‘nim topmaslik motivi haqida gap bormoqda: Yo‘l uzoq, yo‘l yaqin, boshsiz, so‘ngsiz yo‘l, / Biri tor, biri keng, ravon va so‘qmoq (TBShA, 141-b). Tabiatda bo‘shliq bo‘lmaganiday, / Umrimda bir benef yo‘qdir oro yo‘l, / Quduq hech jahonda to‘lmaganiday, / Aslo tugamasin menga oro yo‘l... (TBShA, 70-b) Bo‘ron quchog‘ida qoldim bir oqshom, / Tabiat va qalbim ichra to‘polon. / Naq ilk bor may to‘la sipqarganday jom, / Bir qanotim orom, bittasi tug‘yon; Yangi yerlar kutar yangi yo‘llarni, / Bahorday ming turfa libos kiygali; Yana bir bekatga umrim karvoni / Kelmoqda yaqin. / Butun borlig‘imga dil hayajoni / Hokimdir tug‘in (TBShA, 86-b); Yo‘l, qishloq, shaharlar, dengizlar orti, / Goh yerda, goh ko‘kda, goh suvda yo‘lim (TBShA, 42-b).

(13) Taraddud holati (arafa, ibtido, “ilk marta”, nimaningdir yaqinlashishi, paydo bo‘lishi, yuz berishi, eshik yoki derazani chertishi va h.k.) – Zulfiya tomonidan hodisalarga qarashning boshqa bir o‘ziga xos rakursi sanaladi: Oy suzadi, yel sari mayin, / Ikki qalbni yoqar bir otash. / Yoniq dilning baxtiyor nayin, / Yutmoq bo‘lur sukut jafokash; Ko‘zlarimda erib ketdi tun, / Yoyilmoqda yorqin juvon kun; Sog‘inganda izlab bir nishon, / Qabring tomon olar edim yo‘l; Sen kuylagan o‘rik shu kecha / Burkandi oq – oppoq chechakka; Ne-ne go‘zal yoshliklar kelar, / Umri boqiy hayot yo‘lida. / O‘shanda ham o‘riklar gullar, / Sen bo‘lasan dillar to‘rida. (TBShA).

(14) Final holati (oxirgi uchrashuv, ketish, xayrlashuv, nimadiki o'zgarishi): Kundan kun saharga ortar sog'inchim, / Nahot hayot shonli yaqinligi bu?; Oftob! Sen borlig'im tirik tutgan jon, / Sen yulga manguga tashlab ketarim...; Bu qadrdon ishxonamda o'char chiroq, / Asta-sekin do'st-u shogird ketar yiroq. / Uydan uyga bo'zlab yurar yetti firoq, / Bir kun kelib uyingizda men bo'lmasam; Go'yo ishonch sarak zarb yeydi imon, / Umrining o'zi ham qoldi bir kunlik...(TBSHA).

Zulfiya she'riyatida vidolashuv, xayrlashuv ruhidagi she'rlar ham uchraydi. Umrining so'nggi oylarida yozilgan "Xayr endi..." she'rida shu motiv yaqqol ifodalangan:

1.

Xayr endi, vidoga chog' yetdi muddat,  
Nazdimda qolmadi oldinda yo'llar.  
Qolgani yashindek shoshqin, tez sur'at,  
Muallaq qotadi uzatiq qo'llar...  
Orzular bo'lmasin oftobday yorqin,  
Gulbargdan chiralgan kabi uzilur.  
Yashash qancha shirin bo'lmasin, lekin  
Yumulish istamay ko'zlar suzilur.  
Na sevgi, na nafrat, na quvonch, azob...  
Ne dod, kekxa ajal abad ogohda.  
Yukli tevasimon tongla chorrohda  
Gangib qolsam, egam,  
sadqa et najot...

2.

Xayr endi, tabiat, to'rt dunyo husn,  
Qulluq, uzoq yillar yashadik inoq.  
Qishingda oq ko'rking sehrlab hissini,  
Saratoning tuyg'um yoqdi qaynoqroq...  
Sening o'zing tanho mumtoz bir kitob,  
Raso va noraso darsing o'qidim.  
Bu tun borlig'im-la quchdimu bob-bob,  
Og'riqdan tavallud she'rlar to'qidim...  
Bandaman, ey tangrim, kashfi tabiat,  
Axir bir kun so'nar ko'zlarimda nur.  
Kalimaga zaif qolganda qudrat,  
Senga so'nggi sajdami - umrim to'kilor...<sup>49</sup>

<sup>49</sup> Zulfiya. Tont bilan shom aro. Сайланма. – Тошкент: "Шарк", 2006. – Б. 134-135.



(15) Voqelikni tasvirlashning Zulfiyaga xos uslubi, birinchidan, oldindan sezish, boshqalardan oldin payqash, retrospektiv kechinmalarda bo'lsa, ikkinchidan, baxtli va baxtsiz hodisalar o'tgan yoki kelasi dunyoda bayon qilinishida ko'rinadi: Biz yig'ladik tepangda shu kun, / Tashingmi, deb ko'tarmading bosh. / Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar, / Ko'tganmiding ko'zimda bir yosh? (TBSHA, 14-b); Ko'krak suti va mahmat bilan / Biz jahonga berganmiz turmush, / Ona qalbi oyoqqa tursa, / O'g'lim, sira bo'lmaydi urush! (TBSHA, 26-b); Men o'tgan umrga mahmat qo'ydim, / Hech kimda ko'rmasin umrimga o'xshash: Suydim, / Kalandim, Ayrildim, Kuydim, / Izzat nima bildim, Shu-da bir yashash! (Sh, 370-b). Shoirira lirik qahramonining nigohi ko'pincha o'tmishga qaratilgan bo'ladi, bo'lib o'tgan voqealar uning qayta esga tushgan og'ir kechinmalarini ifodalab keladi:

Qalbim qolgan edi, bir chog' bu yerda,  
Sizning dilingiz-la jo'nab ketgandim.  
Ajdodim, avlodim qiblasi – elda  
Qalbimni sog'inib she'rlar bitgandim,  
Qani bunda tashlab ketgan u qalbim?<sup>50</sup>

(16) Iztirob, qattiq hayajonlanish holatlariga, ruhan mastlik, bosinqirashga moyillik: Nokerak hayajon solma tanimga / Solsang, bo'ysungimu ichimga yutgum. / Qancha bo'ldi tandan men uzganimga / Hamon yo'ling to'smay, yo'lingni kutgum (Sh, 353-b); Hamma narsa nasib senga beo'lchov, / Faqat, faqat, faqat umrdan o'zga. / Hayot-chi? / Oldda bo'zrayadi "shosh" degan undov, / Ko'klamday kiradi ko'zga... (Sh, 379-b); Tun, Yana uyqu yo'q, G'uvillaydi bosh. / Qanday yorilmasin qon qamchisidan? / Chog'i, tomirlarning arqog'i bardosh! / Nedir charsillaydi ne tomchisidan, / Bilmoqchi bo'laman. / Borlig'im – a'nb, / Borlig'im – sergaklik – solaman quloq: / Yurak bir dam edi tinch o'zli buloq, / Tomchi tomaverdi gardishlar yasab. / Ming zayil zarbidan bo'laman garang (Sh, 381-b); Meni dard yengdimi, yo bitdimi kuch, / Vujud so'kilganday chok-chokdan go'yo, / Tinglayman, o'qiyman, lekin dil bo'm-bo'sh, / Kup-kunduz ko'rganim o'ngimmi, ro'yo? (TBSHA, 133-b); Yelning mayin kuyin qoldimmi ilg'ab. / Toshlarining bag'rida tug'ilar chashma... / ...Qalbimni injitib dard, orzu yig'lab, / Ajib og'riq hislar qildi karashma... (TBSHA, 129-b).

<sup>50</sup> Zulfiya. Шалолла. Асарлар. Уч жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 286.

Shoira qahramoni ruhiy ko'tarinkilik holatlarini boshdan kechirganda bedorlikdan azob chekadi, ammo baribir g'aflatdan nafratlanadi:

Niyatim, aytajak so'z, zorlarimga  
Mushtdakkina yurak lim-lim to'libdi.  
Siyraklashgan kiprik oralariga  
Bedorlik soqchisi uya qo'yibdi.  
Bor bo'l, shunday taqdir!  
Ziyrak bo'l, soqchi,  
Darimasin uyqu egizagi – g'aflat.  
Lekin lanjlik degan makkor qaroqchi.  
Bosh suqsa senga ham o'qiyman la'nat! (TBSHA, 108-b)

(17) Zulfiya she'riyatida qator motivlar lirik qahramon qalbining makon va zamon, jonli va jonsiz mavjudotlar, inson va tabiat o'rtasidagi turfa qirralarni neytral holatga keltira olish layoqatini ifodalab keladi. Shulardan biri xotiradir. Hayotning barcha aziz damlari xotirada un oladi, avaylanadi. Biroq xotira nokerak vasvasalarni va hatto bir paytlar boshdan kechirilgan aziyatlarni esga tushirib yuborishi ham mumkin.

Eslab qolishning muhimligi va shoira qahramonining barchasini xotirda tiklay olish qobiliyati ko'plab she'rlarda qayd etib o'tilgan:

Bu hayotning hamma toza, chiroyli dami,  
Aziz do'stim, mudom seni esga soladi.  
Ko'zlar amri, yurak erki, jo'shqin his bilan  
Kecha-kunduz jang qilmoqdan aqlim toladi.

Faqat dilga oshno bo'lgan ajoyib damlar,  
Tuyg'ularning zid xohishi berganda alam,  
Ko'kraklarni to'ldirganda orom va ozor  
Baxtsizmidik? Nahot unut bo'lar o'sha dam?<sup>51</sup>

Shoiraning abadiy firoq haqidagi she'rlarida fojeiy obrazlar bo'y ko'rsatadi, kutilgan va kutilmagan kontrastlar, murakkab konfliktlar uchraydi. Fikr-u xayolini band etgan shirin damlar xotirasi lirik qahramon vujudini o'rtaydi. Bir paytning o'zida ham oshkor, ham pinhoniy ma'nolar tashiydigan bunday kontrast obrazlarda ob'ektiv va

<sup>51</sup> Зулфия. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: “Шарқ”, 2006. – Б. 17.

ruhiy olam o'zaro birlashadi, bu shoira tuyg'ularining tabiiy va umumiylikidan dalolat berib turadi.

Hayotda oddiy va mo'jizali narsalar, moddiy va ma'naviy ne'matlar yonma-yon yashaydi, biri aniq ko'rinib, jilolanib, biri esa ko'zdan yashirinib zavq-shavq uyg'otadi. Bir vaqtda, ayni bir lirik lavhada zohiriy va botiniy alomatlar, surat bilan siyrat aks etishi murakkab konfliktni tug'diradi. "Izlayman..." she'rining har bir bandi, har bir satri zamirida ana shunday murakkab ruhiy holatlar kurashi, ziddiyatli xayollar bahsi yotadi. Ular hassos shoiragina yaratishi mumkin bo'lgan quyma tragik lavhalarga aylanadi:

Fikrlashdan bosh-u

Dil tolganida,

Ishli onlar o'tib, el olganda dam.

O'zim uchun yulib vaqt olganimda,

Xuddi yuragimday munis bir hamdam

Yonimda yo'q bo'lsa,

Uni izlayman.

Bahorga shoshqinsam jannat qilgan duch,

So'ylashga talpinsam o'rgatgan kuyga.

Jo'shqin davralarga jur'at bergan kuch

Buyuk,

Boqiyiligi g'arq etib o'yga,

Qonimga suq solsa,

Uni izlayman.

Bag'rimdan uzganim – bag'ri-la xursand,

Qonimni berganim – baxti-la gulgun.

Husni mendan ko'hlik,

Parvozi baland,

Mehri bir jonimga solib ming to'lqin –

Sig'mayin jo'sh ursa,

Uni izlayman.

Kunlar qancha shodlik,

Qancha noshodlik,

Qancha ish, xohishga etar ro'baro'.

Jahonga sig'magan sevinchga nordek

Kelib bir bahamni qilganda orzu,  
Taqdir to'siq bo'lsa,  
Uni izlayman.  
Izlayman!

Bilaman, topmayman uni.  
Zotan, o'zim uni qachon yo'qotdim?  
Farzand,  
Nabiralar tug'ilgan kuni,  
Men uni har safar Abadga topdim...<sup>52</sup>

(18) Masofadan turib muloqot – shoira she'riyatida ayriliqlarni, radagi masofa va to'siqlarni yengishning asosiy shakli bo'lib, lirik ahramonning yiroqdagilar bilan xayoliy suhbatini ba'zan noma yetkazish azifasini bajaruvchi shamol, qo'shiq, qushchalar orqali amalga oshiradi, ba'zan bevosita – “ruh bilan suhbat” tarzida yuz beradi. “Sog'inganda” she'ri shunday suhbat asosiga qurilganligi bilan diqqatni tortadi:

Qancha bo'ldi ko'rmaganimga,  
Ey qalbimning dilbari shoir!  
Qancha bo'ldi birga o'ltirib,  
So'zlashmadik dillarga doir.

Dil-chi, dilim unutib bo'lmas  
Ishq qo'shig'i yozilgan kitob.  
Xayol xiyol chertib o'tdimi –  
Topib ber deb qiladi xitob.

Ikkimizga ma'lum bir qudrat  
Yillar o'ta senga tortadi.  
Unutayin deymanu, faqat  
Dilda uning o'ti ortadi.

Ham tabiat, ham do'st, ham raqib,  
Barchasini qoldirib dog'da,  
Ko'rishsak-u, yana tirilsa  
O'sha o'lgan bo'sa dudog'da.  
Yuragimning shohi deb seni,  
Mayli, bu gal o'zim tiz cho'ksam.

Зулфия. Шалоба. Асарлар. Уч жилдик. 1-жилд. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б. 403.



Huzuringda baxtdan tebranib,  
Ishq va sog‘inch yoshini to‘ksam<sup>53</sup>.

## V. Burch va baxt.

*Men ishq edim,  
Ishqdan mastdim bearmon,  
O‘ttizga yetmay bir zarbdan uyg‘ondim.  
Keyin oltingugurt olovisimon,  
Ko‘rinmay hijronning dog‘ida yondim...*

1979.

Burch va baxt mavzularini ifodalovchi she‘rlardagi motivlarni uch guruhga ajratishimiz mumkin. Birinchi guruh “ixtiyoriy ravishda o‘z manfaatidan voz kechish” va aksilgedonizm (gedonizm – huzur-halovatga intilish insonga xos oliy xislat, deb hisoblovchi axloqiy ta’limct) mavzularini ifodalaydi; bu guruh tarkibidagi motivlar ko‘ngildagi zohidlik, tarkidunyochilik kayfiyatlarini gavdalan tirib, yengiltaklik bilan huzur-halovat ortidan quvishning besamarligini qoralaydi.

Ikkinchi guruh motivlar o‘sha “o‘zini o‘zi cheklash” mavzusini “hayot va uning nozik qadriyatlariga muhabbat” mavzusi bilan o‘zaro moslashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Bu yerda gap lirik qahramonning o‘zidan mosuvo ko‘rilgan, ammo shunday bo‘lsa-da, chekiga tushgan baxtning u yoki bu bo‘laklariga nisbatan hissiy munosabati haqida bormoqda.

Uchinchi guruh motivlar poydevorini yuqorida aytib o‘tilgan “o‘zini o‘zi cheklash” mavzusidan tashqari xudbinlikning aksi bo‘lgan “boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish, o‘zaro yordam” mavzusi tashkil etadi. Ularga lirik qahramonning o‘ziga yaqin odamlar va ob‘ektlar bilan o‘zaro munosabatlari mazmuniga tegishli motivlar kiradi.

Zulfiyaning ayniqsa, “Yillar, yillar...” kitobiga kirgan she‘rlari ana shunday tom ma‘nodagi falsafiy o‘ylarga, chuqur muhokama va muhohasalarga bo‘ydir. Masalan, “Bo‘ron quchog‘ida” she‘rida bir uqshom ko‘tarilgan bo‘ron orqali shoira qahramonining asov tuyg‘ulari umumlashtiriladi:

<sup>53</sup> Zulfiya. TONG bilan shom аро. Сайланма. – Тошкент: “Шарк”, 2006. – Б. 17.

Bo'ron quchog'ida qoldim bir oqshom,  
Tabiat va qalbim ichra to'olon.  
Naq ilk bor may to'la sipqorganday jom,  
Bir qanotim orom,  
Bittasi tug'yon.

To'lqinga tashlangan kemaday qalqib,  
Quadratli, mehrlı qirg'oq izlayman.  
Bo'ronni qo'zg'otgan boisni olqib,  
Borlig'im yulqigan qo'lni sizlayman:

Oling, oyoqlarim yerga tegizmay,  
Qayoqqa uchsangiz, shu yoqqa uchay.  
Qalbim, xayolimdan quloqlar yasab,  
Hech kim qucholmagan chaqmoqni quchay.

Qani, avjga ko'tar bor jazavangni,  
Yuz tomondan silta izg'irıq qamching.  
Tanam bo'ylab hayda o't aravangni,  
Do'l bo'lib yog'ılsin hayotbaxsh tomching.

Yulqi va tortqila!  
Bosh boshlarimdan,  
Bilay yana yetar nelarga kuchim.  
Baxt yonlab o'tgan u gul yoshlarimdan  
Qoldimikan hech ne, aziz o'quvchim?

O'ltiribman bo'ron ichra serviqor,  
Men suyangan tokning sirqirar zangi.  
Ikkimizda bir xil po'lat chidam bor:  
Iztirob mevasi,  
Shodlikning rangi!

Bo'ronsiz yurak-la o'lardim karaxt,  
Bo'ronsiz tabiat ko'ki yashinsiz.  
Nasib bo'lmaganda she'riyatday baxt,  
Qashshoq o'tar edim yiroq, yaqinsiz<sup>54</sup>.

<sup>54</sup> Зулфия. Шалолa. Асарлар. Уч жилдлик. 1-жилд. — Тошкент: Ф.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. — Б. 368.

Tashqi jihatdan qaralganda she'rdagi odatdan tashqari bir hol – bo'ron obrazi yaratiladi, lekin mohiyat-e'tibori bilan u shoira qahramoni ko'nglidagi ruhiy drammatizmni ko'rsatuvchi poetik nisbat sifatida keladi. "Bir oqshom" ko'tarilgan bo'ronning butun shiddatini shaxsan kechirish Zulfiya uchun o'z qalbidagi bo'ronni – ruhiy iztiroblar, sog'inchlar tug'yoni ifodalash uchun, "baxt yonalab o'tgan yoshlik"ning alam-atmonlarini, she'riyatga, odamlarga bag'ishlangan umrni – insonning murakkab taqdirida tajassum topgan hayot falsafasini nazm tilida sharhlab berish uchun kerak edi. Shu tariqa, tabiat hodisasi bo'lgan bo'ron shoira uchun necha-necha kitobga sig'dirishi imkonsizday tuyulgan xayollariga kutilmaganda eng monand she'riy parchaga aylanadi.

Shoira o'zining bu haqdagi dil rozlarida shunday deydi: "Men hayotni, undagi hamma yaxshi narsalarni tasdiqlash orqali yomonlik bilan kurashaman. Hamma kitoblarimda bunga misol bor. Hayotda quyg'u ko'p, ammo men uni yengish, shu jumladan, o'z-o'zini yengish jasorati to'g'risida yozaman. Men hayotning noxush tomonlari to'g'risida kinoya bilan, hajv bilan gapirmayman. Og'riq va alam bilan, e'zgu istak bilan gapiraman, ona-yerimizdagi har bir odam baxtli bo'lishini, hayot go'zal, har birimizning ahilligimiz ibratli bo'lishini xohlayman.

Mening hayotimda o'ta baxtiyor kunlar ham, musibatli onlar ham ko'p bo'ldi. Biroq, hatto eng og'ir, mushkul daqiqalarda ham o'zimning dard-u hasratlarimni she'rga tushirarkanman, meni hayotga muhabbatning g'olib qudrati hech qachon tark etmadi. Mening shaxsiy hayotim xalq hayotining bir zarrasidir"<sup>55</sup>.

"Tabiatga isyon" she'rida ham shoira qahramonining kitobxonga tanish bo'lgan og'ir-hazin, mungli kechinmalari pirovardida hasrat motivi bilan birlashib ketadi:

Hayratingdan kuchliroq qudrat  
Meni olib yuribdi kaftda.  
Men shodlikni olmayman pudrat,  
Yo'g'uraman qalb bilan vaqtdan.

Zulfiya qahramoni tabiatning azaliy shafqatsizligidan, o'lim noqahonligidan qanchalik fig'on chekmasin, o'zining hayotiy e'tiqodi, ideallaridan aslo chekinmaydi. Aksincha, hayotdan oladigan nasiba – "shodlik"ka kurashib erishadi, uni "qalb bilan vaqtdan yo'g'uradi".

<sup>55</sup> Умурова Г. Истиқлол ва барҳаётлик. Рисола. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2008. – Б. 30.

Shunday qilib qalb lirik qahramonning yolg'iz quvonchi, umr qadri timsoliga aylanadi, bu Zulfiyaga xos bo'lgan falsafiy mushohada mahsulidir.

Shoira qahramoniga shodlik timsolida go'zallik yaratish shijoatini bergan kuch nimada? U o'zining "qalb dardiga tabib topmagani", bunga tabiatda chora yo'qligi uchun yo'qotganini yana o'zligidan, zamon va zamondoshlaridan axtaradi va ma'lum ma'noda uni topadi ham. Bu Xudo bergan "toqat-u kamol", tabiat "hayratidan kuchliroq qudrat" shoira yaratgan ruhiy-ma'naviy olam, o'lmas she'riyat tuyg'usi, ona xalqiga, Vataniga, insoniyatga, tinchlik, do'stlik ideallariga daxldorlik tuyg'usidir.

(19) Burch va baxt mavzularini ifodalovchi motivlarga yana "biz" motivini kiritamiz. O'zini kamtarona tutish, tavoze, "ego"ni rad etish holatlari ayniqsa, lirik qahramon kamsuqum, bir xilda fikrlovchi odamlardan iborat omma – xalq nomidan gapirgan pallalari bo'y ko'rsatadi:

Bu nazm bog'iga kirolmas xazon, / Bizni mahf etolmas zavol  
lashkari, / Men ketsam mung'aymas umrim hech qachon, / Bu bog'lar  
bir bog'lar bo'ladi hali... (TBSHA, 127-b); Biz ham yo'lda... Quyosh  
tuproq vaslidan / Qiziydi orqada, oldimizda yo'l. / Go'zal bo'lib ketmish  
tuproq aslidan / Urug' sochib o'tgach mehnat nomli qo'l (TBSHA, 141-  
b); Biz qul bo'lmaganmiz, Muhtaram olim! / Tahqirlarga ko'mnang  
tariximizni! / Uzi, bugun dard-la tinglab har so'zingizni / Safroqqa  
aylandi tomirimda qon. / Yillar qat, qa'riga fikringiz qadang, / Topasiz  
o'tlarda yonmagich doston! (TBSHA, 162-b).

(20) Vijdon azobi.

Yoshlikdagi yengillik, yuzakilik lirik qahramondagi pushaymonlikni ba'zan o'z-o'zidan chaqirsa, ba'zan – boshqa bir odamga yetkazilgan ziyon tufayli chaqiradi:

Afsus, so'ngan gulxan qayta olmas cho'g', / Darz ketgan ko'ngillar  
bo'lmaydi butun (TBSHA, 29-b); Kun o'tadi, tunga kirganda / Ruhim,  
qalbim ezadi pushmon. / O'tgan ishga zaif qolganda / Salovat ham  
ko'tarsa fig'on (TBSHA, 93-b); Faqat bitta o'kinch: qalamga / O'tgan  
kunlar o'tkazar hukm (TBSHA, 59-b).

(21) Ko'ngil sust ketadigan narsalarni rad etish.

Shoira lirik qahramoni u yoki bu xildagi yoqimli takliflar, vasvasalarga duch keladi. Ba'zan bu vasvasa xotira ko'rinishida "hamla qilib qoladi". Ammo lirik qahramon evidagi turmush va burchni alzal bilgani uchun o'zini sipo tutadi, bularning barchasini rad etadi:



Men bilgim keladi erkak yuragin / Ayol bir qarashi etarmi chil-  
chil? / Tog'day ko'tararmi sevgi ko'kragin, / Hijron olovidan qancha  
yonar dil? (M, 28-b); Kimdandir bir dasta gul keldi senga. / Uyingda,  
dilingda to'y shavqi bu kun. / O'zni sarosima sezding sen nega? / Ko'p  
edi-ku gullar bundan ham gulgun? (M, 31-b); Hali bor oldimda o'tmagan  
burchim, O'tayman ko'zimda tirik tursa nur (TBShA, 2-b); Va qonda  
yugurar sadoqat hissi, / Ko'ksing issiqligi elitar hushim. / Olovga  
tashlaydi basir bu jismim / Hanuz o'talmagan farzandlik burchim (Sh,  
101-b).

(22) Pand-nasihati ohangi.

"Burch" mavzusi ifoda tarzida to'g'ridan-to'g'ri nasihat, tarbiyaviy  
o'g'it. nasihatimiz ohanglar shaklini talab qiladi. Darhaqiqat, hayot  
amallarini rad etish va burch taqozosi haqidagi she'rlar Zulfiya ijodida  
ko'plab topiladi:

Dili shoir hassos bir elga, / Farzandligim naql etar burchim. / Xalq  
qalbiday bir go'zal she'rga / Yetarmikan hech qachon kuchim... (TBShA,  
12-b); Igna bilan men qazib quduq, / O'sha chashma ko'zin ochaman, /  
Kor qilmasa qalbidagi o't, / Sochim yoqib uchqun sochaman (Sh, 249-  
b); Uzzukun ishlagan dehqondan men burchli, / Tunda ham tinmagan  
shohidan men xijil. / Shu sabab tunlarim kunduzdan ham ishli, / Eng  
yorqin, eng tiniq qo'shiqlar tinglar dil (TBShA, 78-b); Yo'q, buzib  
bo'lmaydi ketar yo'llarni! / Bekat qurib tashla, gar qodir esang. / Kim  
bo'lding? Ne qilding? Tortiq bo'larli / Bormi kelurlarga arzirlik tuhfang?  
(TBShA, 138-b).

## G. Taqdir ustidan g'alaba

*Tabassum o'rnida kuldinm chapaqlab,  
Suyish kepak bo'lsa – telbacha suydim.*  
1973.

Zulfiya she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, salbiy vaziyatlarda lirik  
qahramonning o'zini tutishi o'zgacha tus olishining guvohi bo'lamiz:  
chekiga tushgan baxtsiz taqdirni u o'zgarimas mavjudlik sifatida qabul  
qiladi va shunday sharoitda bo'lsa-da, ko'ngildagidek yashashning  
allaqanday zohiriy ko'rinishiga kiradi. Xususan, lirik qahramon o'z qalb  
kuchi va imkoniyatlariga tayanib baxtsizlikning o'mini to'ldirish  
manbaini topadi. To'g'rirog'i, turmushning qayg'uli shart-sharoitlariga

biy reaksiyalarning butun boshli gammasini qarshi zarbalarini sokim beg'alva qabul qilib, turli xil qoniqish va hatto quvonchlarga nashtirish yo'sinini topadi. Odatiy psixologiya nuqtayi nazaridan bu lit "fojeiy ko'tarinkilik" shoira lirik qahramoni haqiqiy holatining chorligini ko'rsatsa-da, ko'ngil olamining buyukligini, yozug'idagi smat sharobini" mardonavor simirishga tayyorligini bildiradi. Zulfiya k qahramonining "taqdir ustidan g'alaba" uchun qo'llangan asosiy sinlari tahliliga o'tamiz.

(23) Allohga yaqinlik, uning karomatlariga ishonish, ruhan unga yinish — benavolik va bebahralikning, yo'qotishlar va adsizliklarning o'rmini qoplashga, "baxt kashf"iga xizmat qiladigan shoiraning "Aziz tuyg'ular" turkum she'rlarini misol keltirish mkin:

Bahor bo'lmasaydi, odamzod albat / O'zi kashf etardi, kashf anday baxt... (Sh, 355-b); Sadoqat bo'lmasa, odamzod albat, / O'zi hf etardi, kashf etganday baxt (TBSHA, 64-b); Tayanch bo'lmasaydi, amzod albat, / O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt (TBSHA, 65-b).

(24) Lirik qahramon murakkab, azob va qiynoqlarga to'la achchiq hinmalardan o'ziga nash'a topadi; og'riqni tantanali qarshi oladi. nday og'riq tuyinish hollari ko'proq porloq muhabbat xotirasida noyon bo'ladi. Ammo, o'z-o'zidan ayonki, azoblanish inson otidagi yoziq ekanligini tushunish hayotdan lazzatlanib yashashning h manbai hisoblanadi.

Shoira qahramonining vaziyat chorasizligiga qarshi bu taxlit o'zini shi, bir tomondan A.Kamyuning "Sizif haqidagi afsona"sini yodga nirsa, ikkinchi tomondan xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan kronalik, Allohning izmiga bo'ysunish kabi qadriyatlarni eslatadi: lma gulzor, so'lganday umrim, / Yashnagancha, yashnatganча qol. / ki gulga yosh to'kib yum-yum, / O'zni yashnoq sezmoq ham iqbol?! . 34-b); Men shomlardan saharlar yasab, / O'ttiz yoshli bo'lib aman. / Har bahorga chiqqanda qo'msab, / Qaynoq qo'llaringdan man (M, 40-b); Hech bahor, tuproqda uyg'onish / O'tdimi yimning yonidan? / Bahorda tug'ildim! Unga esh / Yashashning uni qonimda (TBSHA, 101-b).

Zulfiya she'rlaridagi achchiq taqdirga qarshi qasdma-qasdigacha hash, ortga chekinmaslik kabi ayrim motivlar H.Olimjon she'rlaridan gadek tuyuladi. Ayniqsa, unga bir paytlar "quchoq-quchoq gullar" ya etgan inson qabri poyiga gul eltayotgan lirik qahramon hinmalari shunday deyishga asos beradi:

Sog'inganda izlab bir nishon, / Qabping tomon olar edim yo'l. /  
Keltirarding menga bir zamon, / Endi har chog' men eltaman gul  
(TBSHA, 14-b).

Shoiraning "Men o'tgan umrga" nomli hayotiy shiorini ifodalovchi she'ri o'zi kabi qiynalgan, ammo qachonlardir tole quyoshining charaqlashiga ishonchi so'nmagan ko'plab insonlar uchun boshni adl tutib yashash manbai bo'ldi:

Hayot kitobimni bexos varaqlab,  
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.  
Tabassum o'rvida kuldim charaqlab,  
Suyish kerak bo'lsa – telbacha suydim.  
Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,  
Yurak boyligidan qilmabman parvo.  
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,  
Yangi qo'shiq talab bunda har saboh.

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,  
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:  
Suydim,  
Erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim,  
Izzat nima bildim,  
Shu-da bir yashash!<sup>56</sup>

Chinakam hayotbaxsh lavhalar va fojeiy obrazlar nimaning evaziga yaratiladi? Zulfiya she'rlarini o'qiganimizda, shoira shaxsan boshdan kechirgandek tuyuladigan kechinmalar aslida bo'lganmi, balki boshqalarning dardi ham she'r mazmuniga qo'shilib ketgandir, degan o'ylarga tolamiz. Aslida chin ma'nodagi fojeiy obrazlar haqiqiy ijodkor boshqalarning quvonch-tashvishlarini ham, baxti va baxtsizligini ham o'ziniki kabi qabul qila olganida, bunga o'zida kuch, mehr, bardosh topa olganida yaratiladi. Boshqalar dardi uning o'z dardi bilan qo'shilib, go'yo selobga aylanadi, mushtarak fojiani yanada chuqurroq, bor ko'lami bilan anglashga xizmat qiladi.

Hamid Olimjondek suyakli yoridan, mehribon ustozidan juda erta ayrilgan Zulfiya shaxsiy alam-iztiroblarini, tuganmas fojiasini mash'um

<sup>56</sup> Зулфия. Тонг билан шом аро. – Тошкент: "Шарк", 2006. – Б. 71.

ish bilan bog'liq davr odamlarining fojiasi bilan qo'shib tasvirlaydi. Tan, shoira o'z boshiga tushgan og'ir musibatni yolg'izlikda kechirgan, ayni paytda, shu baxtsiz, "kemtik qismat"ni yashirib ham bo'lmagan. Shuning uchun ham uning she'rlarida urush yillarida beva qolgan kishilarning qalb tuyg'ulari yanada ulug'vorlik kasb etadi, o'z ziddiyatlarini kuchli bo'lgan alammok, isyonkor misralar, tom ma'noda yotbaxsh fojeiy obrazlar yaratadi:

Birga qolish uchun sen bilan / Kuyaman-u, bo'lmayman ado  
BShA, 13-b); Unutayin deyman-u, faqat / Dilda uning o'ti ortadi  
BShA, 17-b); Mana bir umrni yashadim sensiz, / Qaytnas  
odliklarning qaytishin kutib (Sh, 315-b).

Chinakam fojeiy holatlarda shakllangan bu misralarda hayotning tun achchiq va shirin ma'nolari o'zining umumlashma ifodasini bergan. Zulfiyaning ayriliq, abadiy hijron mavzusidagi she'rlarining mohiyatini, haqqoniyligini shoiraning hayotga chinakam shaydoligi bilan minlagan bo'lsa, ajab emas.

Hayot va o'lim masalasi azaldan insonni og'ir o'yg'a toldirib bergan. Bu yechilmas muammo hayotga hammadan boshqacha ko'z bilan qarovchi shoirlarni yanada larzaga soladi. Shu sababdan bo'lsa ham, ular ijodida bir-biriga zid o'rinlar uchrab turadi. Hayratlanarli bo'lsa ham, shundaki, eng ta'sirchan, eng kuchli asarlar shu mavzuda yaratilgan. Zulfiyaning abadiy firoq, visolsiz muhabbat haqidagi hazin she'rlari, fojeiy obrazlari ham, keng ma'noda olganda, odamlar ming-yillik yillardan beri mohiyatiga yeta olmagan hayot va o'lim muammosidan bahs qiladi. Shuning uchun ham shoiraning tuyg'ulari hammi – ko'p qirrali, chuqur tagma'noga ega, to'laligicha drammatizm bilan yo'g'rilgan she'rlari har gal yangidan-yangi talqinlarga yo'l oltiradi.

Zulfiya nogahoniy o'limga qarshi yoza turib, tabiatning bu beomon muhojiratiga qarshi isyon ko'taradi, bu bilan shaxsiy alamlari doirasidan chiqib, umumbashariy, barcha insonlar uchun mushtarak bo'lgan muammosizda qalam tebratadi. Nafosat qonunlarining talabi ham shu: fojia muammosida yozishdan maqsad – odamlarning sabr-qarori, umidi zamiridagi muammosizni kashf qilish, dardlariga malham bo'lish, shu yo'l bilan ularning muammosiz o'tga, ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, Zulfiyaning eng og'ir, eng hazin misralarida hammi j, yashashga intilish motivlari bo'y ko'rsatadi, xilvatnishinlik muammosizlari sezilmaydi. Hassos shoira har qanday fojining muammosiz zamini muammosiz otda, uning almashinuv qonuniyatida yashiringanini, harakat va



rivojlanish jarayoni uzluksiz ekanligini chuqur idrok qiladi. Shuning uchun ham u fojiani hayotbaxsh tomoni ham borligiga ishonadi, uni shunday talqin qiladi, yuqorida ko'rganimizdek, jonli va ta'sirchan ifodalaydi.

\*\*\*

Yuqoridagi na'munalarda ko'rganingizdek har qanday asar tahlilida matn asosiy rolni o'ynaydi. Unga tayangan holda ijobiy yoki salbiy xulosalar, saboqlar chiqariladi. Muayyan adabiy jarayonning uzvi sifatida tekshiriladi va klassik asar yaratilishi yo'lidagi mashaqqatlarning mohiyatini ochish orqali kitobxonning adabiy-estetik didi tarbiyalanadi. Demakki, o'quvchida komillik sifatleri asosli va sog'lom tarzda o'stiriladi.

### **Bobni mustabkamlovchi savollar:**

1. Filologik tahlilning xususiyatlarini bildingizmi?
2. Taqriz, maqola, risola janrlarining o'ziga xosliklarini tushundingizmi?
3. Ilhomning tabiatini, qudratini angladingizmi?
4. Ilhomni egallash yo'lida izlana boshladingizmi?

### **Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar**

1. Filologik tahlilning ilmiyligini ta'minlovchi vositalarni toping.
2. Taqriz, maqola, risola va shu kabi janrlarni bajarishni mashq qiling.
3. Ilhomni o'rgangach, uning qalbingizda yonishiga erishing va ayni shu payt ijod qiling.

### **Zaruriy adabiyotlar**

1. Н.Раҳимжонов. Асқад Мухтор поэтикаси, Т., Гафур Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 2003.
2. Н.Каримов. Ҳамид Олимжон, Т., "Ёш гвардия", 1979.
3. Ҳ.Каримов. Адабиёт назариясининг илмий асослари, Т., "Yangi nashr", 2010.
4. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадиий таҳлил асослари, Т., "Камалак", 2016.
5. Ҳ.Умунов. Таҳлил чизгилари, Т., "Muharrir", 2013.
6. Ҳ.Умунов. Сандикдаги бойлик, Самарқанд, СамДУ нашриёти, 2017.
7. Ҳ.Умунов. Илҳом, Т., "Наврўз", 2018.

## X U L O S A

*Ilm ko'p-u umr oz,*

*Keragin ol-u toshga yoz.*

*Xalq maqoli*

*Tarbiya – vijdoniy tuyg'ularning barchasini birlashtirsa, ta'lim – bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamg'aradi. Birinchisida ikkinchisini, ikkinchisida birinchisini shunchaki tasavvur qilish mumkin, lekin ularning hayotiyliigi, tirikligi, yaratuvchanligi faqat birlashganlarida, bir butun bo'lganlarida yuz beradi. Haqiqatdan ham bilimdonlar ta'kidlaganlaridek, «Inson tom ma'noda ma'lumotli bo'lmog'i uchun unga uch xislat – chuqur bilim, fikrlash ko'nikmasi va oliyjanob tuyg'ular zarur. Kimdagi bilim sayoz ekan, u nazokatsiz bo'ladi; kimki mulohaza yuritish odatidan mahkum ekan, u dag'al yoki befarosatdir; kimdagi oliyjanoblik tuyg'usi bo'lmasa, u be'mani odamdir».*

*Prezidentimiz aytganlaridek, "Hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzviy hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.*

*Inson bir umr tarbiyasi va ta'limini, malakasi va mahoratini oshirib borishga yaratilgan. Buning boisi shundaki, u betinim harakat qiladi. Doimiy o'sishda, rivojlanishda bo'ladi, beshikdan qabrgacha inchimaydi, orz-u havasdan qolmaydi. Ko'pga foyda keltirishdan harchamaydi. Anglash, his etish, isyon qilish, itoat etishga majburdir. Shunday bo'lgach, insoniylikni mashaqqatli tajribalar orqaligina bosib o'tadi va ana shu tajribalargina pishiq, miqyosli, ta'sirchan bo'lgani abab uning bir umr esida qoladi va bu hayotiy tajribani avlodlarga o'tatadi. O'zgalar (oldingilar)dan olganini o'zligi bilan boyitib, yoshlar keyingilar)ga baxshida qiladi.*

*Endilikda biz kompyutersiz, internetsiz, mustaqil o'qishsiz, tanlagan sohamizning ustasi bo'lmasdan yashay va kurasha olmaymiz. Ularga xos barcha bilimlar xazinasini ochmasdan, o'rganmasdan, egallamasdan go'zal Istiqbolimiz tomon borishimiz ham mumkin emas. Bu XXI asrning dastlabki eng buyuk haqiqatidir. Bu haqiqatdan turtki olib, tezroq kompyuterni, o'qishni, sohamizni egallamasak, orqada qolib ketishimiz turgan gap.*

*Chunki jahoniy bilimga tayanibgina, uni boyitibgina jahon xalqlari bilan tillashish, birodarlashish, ona-zaminni asrash mumkin. Shu sabab bilim Istiqlol g'alabasini barqarorlashtiradigan kuch, uni mustahkamlaydigan qudrat, istiqbolini ta'minlaydigan ne'matdirki, bundan bebahralik o'zlikni yo'qotish bilan tengdir.*

# ILOVALAR

## I

### TALABALARNING O'QUV-TADQIQOT ISHLARI

<b>Nazorat ishi</b>	<b>Referat ishi</b>	<b>Kurs ishi</b>	<b>Bitiruv malakaviy ishi</b>
---------------------	---------------------	------------------	-------------------------------

<b>maliy arslar</b>	<b>Seminarlar</b>	<b>Kollokviumlar (qoldirilgan darslarni o'zlashtirish)</b>
---------------------	-------------------	--

<b>aruriy nazariy va o'quv manbalari stida ishlash konspektlashtirish, mashqlarni ishlash k.)</b>	<b>Ixtisoslik bo'yicha tajribalar (laboratoriya ishlari, turli ekspeditsiyalar, o'quv-pedagogik amaliyotlar...)</b>	<b>Ilmiy va ijodiy to'garaklarga a'zo bo'lish (ilmiy ma'ruzalar, ilmiy hisobotlar bilan chiqish, muhokama va munozaralarga qatnashish)</b>
---	---	--

**Ilmiy rahbar tanlash. Uning rahbarligida ilmiy tadqiqot uritishni o'rganish.**



**II**  
**BAKALAVR VA MAGISTRRLARNING ILMIJY TADQIQOT**  
**ISHLARI**  
**(Birinchi bosqich)**

<b>Ilmiy ma`ruza</b>	<b>Ilmiy axborot</b>	<b>Ilmiy hisobot</b>
----------------------	----------------------	----------------------

<b>Tezis</b>	<b>Taqriz</b>	<b>Maqola</b>
--------------	---------------	---------------

<b>Risola</b>	<b>Magistrlik dissertatsiyasi</b>
---------------	-----------------------------------

<b>Doktorantura va ilmiy tadqiqotchilikka yo`nalish</b>
---

**III**  
**DOKTORANTLARNING ILMIJY TADQIQOT ISHLARI**  
**(Yuqori bosqich)**

<b>Avtoreferat</b>	<b>PhD (falsafa doktori) dissertatsiyasi</b>	<b>DSc (fan doktori) dissertatsiyasi</b>
--------------------	--	--

<b>Monografiya</b>	<b>O`quv qo`llanma</b>	<b>Darslik</b>
--------------------	------------------------	----------------

<b>Ilmiy tanlangan asarlar</b>
--------------------------------

**IV**  
**ILMIY-TADQIQOT ISHLARINI HAYOTGA TADBIQ**  
**ETISH YO'LLARI**

<b>Ilmiy to'garaklar</b>	<b>Ilmiy anjumanlar</b>	<b>Olimpiadalar va turli tanlovlar</b>
--------------------------	-------------------------	--

<b>Ilmiy to'lyozmalar</b>	<b>Ilmiy to'plamlar</b>	<b>Matbuot</b>
---------------------------	-------------------------	----------------

**Alohida nashrlar**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

## **Ilmiy-tadqiqot asoslari**

kursi dasturi

Universitetning filolog magistrari uchun

**Samarqand - 2020**

Samarqand davlat universiteti istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi  
drasi, filologiya fakulteti Ilmiy kengashi, universitet ilmiy bo'limi va Tahrir  
riyot kengashlari tomonidan tasdiqlangan, chop etishga tavsiya etilgan.

**Tuzuvchilar:** filologiya fanlari doktori, professor  
Hotam Umurov va filologiya fanlari doktori  
Go'zal Umurova



**Ma'ruza**

**Kirish**

**Eslatma.** O'quv faniga 36 soat (ma'ruza – 18 soat, amaliy mashg'ulot – 18 soat, mustaqil ta'lim – 29 soat) yuklama ajratilgan. Uni ushbu dastur asosida quyidagicha o'rganish mumkin.

**Ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani – 2 soat**

"Metodologiya nazariy va amaliy faoliyatni tashkil etish hamda qurish tamoyillari, usullari tizimi... to'g'risidagi ta'limot"dir. "Metod ma'lum maqsadga erishish usuli, voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari va amallari majmui" (FES., M., 1983) dir. Metodologiya – bilish yo'llari haqidagi ta'limotdir. Ikkalasi ham amaliyot sohasini qamrab olgandir. Shu bois, ularni o'rganish va amaliyotiga amal qilib, kashfiyotlar yaratish ilmdorlarning vazifasidir.

Bugungi ta'limdagi inqilob va o'qishning zarurligi. Kompyuter va internet axborot tizimi. Distantion ta'lim texnologiyasi. Modul tizimi. O'qish va mustaqil ta'limning kengayishi sabablari. XXI asr ta'limidagi inqilob. Mustaqillik – ilm – inson. Ta'limga yarasha jamiyat, jamiyatga yarasha ta'lim. Oddiy bilim olishdan ko'ra, o'qib, o'rganib, yangi bilimga ega bo'lishning afzalligi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasini o'rganishning ahamiyati. Tilshunoslik, adabiyotshunoslik va metodika fanlarining metodologiyasi. Istiqloq g'oyasi.

**Birinchi bob**

**Ilm va o'zlik - 4 soat**

1. Ta'lim turlari. Ularning bugungi ahvoli. Har bir mutaxassis ilmiy tadqiqotchi - 2 soat.

Ta'lim turlari: 1) Maktabgacha ta'lim; 2) Umumiy o'rta ta'lim; 3) O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; 4) Oliy ta'lim; 5) Oliy o'quv yurtlaridan keyingi ta'lim; 6) Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; 7) Maktabdan tashqari ta'lim. Ularning har birining vazifasi va ayni paytda, ta'lim turlari o'rtasidagi mexanizm. O'zbekiston Milliy ta'lim vazirligining zarurligi. Hududlarning jug'rofiy va demografik xususiyatlari. Uzlaksiz ta'lim turlarining hududlari ahvoli va ularning o'zaro bog'liqligi.

Hududiy milliy universitetlarni tashkil qilishning ahamiyati. Bakalavr ham, magistr ham ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmasiga ega bo'lishi lozimligi va uning ahamiyati. Talabalarni ijodkor tadqiqotchilikka o'rgatish universitetning asosiy ko'rsatkichidir.

2. Kompyuter texnologiyasini egallash hayotiy vazifa. Ta'lim - o'zlikni anglash va anglatishga vetaklovchi nur – 2soat.

Iqtisod va axborotning globallashuvi. Jahoniy bilimni kompyutersiz egallashning mumkin emasligi. «Kim axborotga ega bo'lsa, u hamma narsaga ega».

'lim tizimini kompyuterlashtirish. Uni o'rganish alifboni o'rganishga teng unligi. Ommaviy tarzda oliy ta'lim egasi bo'lish - XXI asr talabidir.

Ta'lim dargohi poklik, ilm va go'zallik oshyonidir. O'zlik el-u yurt zalligi uchun, tirikchilik va tiriklik uchun, Istiqlol uchun mehnat-u mashaqqatda inadi. Umri yonib, nur taratib kechirishning mohiyati ochiladi. Bunga ilm orqali shiladi. Ilmi odamgina o'zligini asosli va yetarli anglaydi, jamiyat farovonligi 'lida faoliyat ko'rsatadi. Ta'lim va tarbiya uyg'unligi va uning yaratuvchan lati. Uning davomiyligi va insoniyligi.

### **Ikkinchi bob**

#### **Ilmiy tadqiqotning bosqichlari va janrlari – 12 soat**

##### **1. Ilmiy tadqiqotning bosqichlari va ilmiy asarning umumiy xususiyatlari - 4 soat.**

Talabalarining o'quv tadqiqot ishlari – TO'TI. Talabalarining ilmiy tadqiqot lari – TITI. Ular o'rtasidagi aloqalar. Ilmiy fikrlash va uning mantiqiyligi, otiyligi, kashfiyotligi, qonuniyligi, mushohadaga boyligi. Badiiy fikrlashdan qli tomonlari: aniqligi, obyektivligi, qisqaligi, to'liqligi, izchilligi. Ilmiy bayon uning xususiyatlari.

##### **2. Ilmiy asarning janrlari – 8 soat.**

Ilmiy asarning janrlari: Annotatsiya, tezis, referat, taqriz, ilmiy ma'ruza, niy axborot, ilmiy hisobot, maqola, dissertatsiya, risola, monografiya, darslik, quv qo'llanma va sh. k. Ularning har biriga xos xususiyatlari, farqli jihatlari. arni yaratish yo'llari va ilmiy tadqiqotchilik ko'nikmalarini hosil qilishga 'nalish.

## **II**

### **Amaliy darslar**

#### **Uchinchi bob**

#### **Ilmiy asar janrlarini egallash – 18 soat**

##### **1. Annotatsiya - 1 soat.**

Annotatsiya (annatatio -xabar, ma'lumot) – Kitob, monografiya, qo'lyozma arlarning qisqacha xarakteristikasini o'z ichiga oladi, ularning mazmuni va amiyatini juda umumiy, siqiq tarzda bayon qiladi; asarning kimga o'ljallanganini ham aniqlaydi.

To'g'ri kelgan mo'jaz kitob tanlanadi va uning mazmuni bilan talabalar nishtiriladi, so'ngra shu kitobchaga annotatsiyani yozish ularga topshiriladi. Ular notatsiyani yaratish uchun berilgan maslahatlarga tayanib, har birlari mustaqil notatsiya yaratadilar. Ularning barchasini yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi va undan so'ng, qayta yozilgan, mukammallashgan annotatsiya mashq daftariga 'chiriladi. Shu tarzda o'nga yaqin (ko'rsatilgan) adabiyotlarga annotatsiya yozish zifa qilib beriladi.

##### **2. Maqola – 4 soat.**

«Maqola» - arabcha so'z. Hajmi uncha katta bo'lmagan ilmiy asar. Eng ko'p 'llaniladigan janr. Ahamiyatli turkum hodisalarni tahlil etadi. Ishonchli numlashma xulosalar chiqaradi.

Ilmiy maqola fan muammolari bilan shug'ullanadi. Obyektivlik, mantiqiy

izchillik, aniqlik, isbot alohida ahamiyat kasb etadi. Unda chizmalar, sxemalar kam bo'ladi. Hamji 8-10 betdan oshmaydi, klassik namunasi 7-9 bet. Muayyan soha mutaxassislariga mo'ljallanadi. Fikrlar, mulohazalar eng tipik misol, faktik material, formula, qonun bilan isbotlanadi.

Albatta, maqolada uning nomi, muallifning ismi-sharifi, o'quv yurti (Ilmiy tashkilot yoki ishlab chiqarish korxonasi) nomlanishi qayd etiladi. Maqolaning oxirida foydalanilgan (yoki iqtiboslar olingan) adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Maqola yozish uchun mavzu (g'oya) tanlanadi. U obdon o'rganiladi, shu mavzu (g'oya)ni yorituvchi barcha adabiyotlar ishlab chiqiladi. Ana shundan so'ng aytmoqchi bo'lgan, pishgan «g'oya»ni - kashfiyotni ochib beruvchi maqola yoziladi. U tushunarli, aniq fakt va isbotlarga asoslangan tilda yaxlit asar bo'lishi shart.

### 3. Ilmiy ma'ruza - 2 soat.

«Ilm»- arabcha so'z. Kishining o'qish, o'rganish va hayotiy tajribasi orqali o'tirilgan bilimi, ma'lumotlari. «Ma'ruza» - arabcha so'z. Biror mavzuda ko'pchilik oldida so'zlangan nutq, doklad. Ilmiy ma'ruzada muayyan mavzuning ilmiy va amaliy xarakteristikasi, asosiy ilmiy qarashlarning mohiyati, xulosa va taklitlar joy oladi. Bosh fikr alohida ta'kidlanadi va zarur dalillar asosida isbotlanadi. U og'zaki bayon etiladi, jonli muloqotga tayanadi. 10-15 minutlik vaqtga mo'ljallanadi. Tinglovchilarni muayyan sohaning eng so'nggi ilmiy yangiliklari-muallif kashfiyoti bilan tanishtiradi.

Ilmiy ma'ruza qilish uchun mavzu bo'yicha muallif yaratgan yangiligini dalillar asosida isbotlaydi: tushunarli bayon, isbotli mushohada, mantiq izchilligi qoidalari amal qiladi.

Mavzu (G'OYA) tanlangach, u har taraflama o'rganiladi, mavjud fikr-mushohadalardan kelib chiqib, o'zining kashfini isbot etadi; uni og'zaki yetkazishga erishadi. Bu holatlar muayyan mavzu yechimiga bog'lab, bir nechta talabalarning ilmiy ma'ruzasini muhokama etish orqali amalga oshiriladi.

### 4. Ilmiy axborot-1 soat.

«Axborot»- arabcha so'z, «xabar, ma'lumot, informatsiya» ma'nolarini tashiydi. Bu janr muayyan fanning ma'lum bir yangi yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish, konferentsiya, davra suhbat, baxs va munozara materiallarini juda sinq tarzda tahlil qiladi va uning mazmunini ko'pchilikka ilmiy xabar tarzida yetkazadi.

Ilmiy axborot - muayyan sohadagi eng yangi yutuq va xulosalarning - ilmiy daragi. Ilmiy axborotchi - ilm jarchisi.

Muayyan soha bo'yicha guruhda bahs tashkil etiladi. Bahs jarayonida aniqlashgan yangiliklar umumlashtiriladi. Shundan so'ng, shu haqda ilmiy axborot tayyorlanib, uni ommalashtirishga kirishiladi. Bu jarayon va uning natijasi talabalar o'rtasida muhokama etiladi.

### 5. Ilmiy hisobot - 1 soat

«Hisobot» arabcha so'z, «O'z ishlari, topshiriqning bajarilishi va sh.k. haqida boshliq, tashkilot yoki jamoatchilikka «og'zaki yoki yozma ravishda berilgan

«axborot» ma'nosini tashiydi.

Ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtiruvchi axborot - ilmiy hisobot. U ilmiy shlarni, ularga sarflangan xarajatlarni tahlil qiladi. Ilmiy tadqiqotlarning ari haqida xulosa va takliflar ham beradi.

Ilmiy hisobot janrini egallash uchun guruhning har bir talabasi o'zining bir faoliyatini tadqiq qiladi; erishgan natijalarining miqdori va sifatini tahlil qiladi. Xulosa va saboqlar chiqiradi. Uni aniq faktlar misolida qisqa, lo'nda, tizim, mantiqli bayon etadi. Muhokamadan ijobiy o'tganlari (kamchilik va ntlarini tuzatgan holda) mashq daftariga ko'chiriladi.

#### 6. Tezis - 1 soat.

Tezisdagi fikrlar qisqa, lo'nda, tushunarli va eng asosiysi tasdiqlovchi terda bo'ladi; ma'ruza yoki maqoladagi yangi qarashlarning barchasi batafsil qilinmaydi, balki ularning «qaymog'i» alohida ta'kidlanadi. U 3-7 punkt )dan iborat bo'ladi, ko'pincha 1, 2 betlik hajmda yaratiladi.

Tezisini yaratish uchun «oz gapirib, ko'p fikr aytish»ga urinish lozim. day qilingki, aytmoqchi bo'lgan eng muhim fikr, xulosa, umumlashma (uning zi) har bir punktda yarq etib tursin. Bunga erishish uchun tinimsiz izlanish, q zarur.

#### 7. Taqriz - 4 soat.

Taqriz janrining bosh vazifasi - u yoki bu (ilmiy, badiiy asarlar, spektakl, film va sh.k.) asarning tahlili orqali uning ilmiy jarayon va muallif yotidagi o'rmini aniqlash, unga xos bo'lgan yutuq ham kamchiliklarni isbotlash aholashdan iborat.

Taqrizda bir xil qolipdan qochish lozim: har bir asarga yozilgan taqriz ham mun, ham shakl jihatidan uziga xos bo'lishi, ayni paytda, yaxlit asar bo'lishiga orli bo'ling.

Taqriz yaratish uchun, o'zingiz egallagan ilmga oid kitoblarga diqqat qiling, sohada chuqur bilimga ega bo'lgach, muallifning ijodini to'liq o'rganing, ana idan so'ng, muayyan asarning yutuq va kamchiliklarini isbotlang, ahamiyatini ng. O'zingiz yaxshi ko'rgan barcha kitoblarga taqriz yozishni odatga ntiring va ularni mashq daftaringizda qayd qiling, ular keyingi nishlaringizda asqotadi.

#### 8. Referat - 2 soat.

Ko'pincha referatlar fanning har bir sohasida, jumladan, adabiyotshunoslikda ngan ilmiy tadqiqotlarning asosiy mazmunini mutaxassislarga yetkazish qadida yoziladi va tarqatiladi. Shuningdek, adabiyot va ilmiy manbalarni qidiy obzor qilishni o'z ichiga oladigan muayyan mazmundagi ma'ruzalar yoki iy tadqiqotlar ham referat deb ataladi. Darvoqe, talaba va doktorant tinglagan i tanlagan mavzusini (kursini) chuqur o'rganish, o'zlashtirish uchun shu sohaga ilmiy adabiyotlar (monografiya, darslik, qo'llanma, maqola kabilar)ni mustaqil ishda tadqiq qiladi, sistemalashtiradi, umumlashtiradi. Shu jarayonda ular qidagi tanqidiy fikrlarini bildiradi; ular ta'sirida uyg'ongan ijodiy mulohazalarini on qiladi. Demak, adabiyotlarni ijodiy tahlil va tadqiq etish - referatning o'ziga



sanaladi.

Referatning tematik, metodik, problematik, biografik ko‘rinishlari bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning hammasida ham yagona fikr hukmronlik qiladi va izchil, asosli, mantiqli tarzda isbot qilinadi.

Referat yaratish uchun talaba o‘zi qiziqqan, muhim sanagan dolzarb mavzuni tanlaydi va shunga oid jami manbalar (to‘plamlar, monografiyalar, jurnal va gazeta maqolalari, axborot va h.) ni o‘rganadi, o‘zlashtiradi. Reja asosida ularni umumlashtiradi, sistemalashtiradi. Reja tanlangach, uning qirralari ham aniqlashadi, bir-biri bilan bog‘lanadi...

## **Mustaqil ta’lim topshiriqlari**

### **To‘rtinchi bob**

Magistrlik, falsafa doktorligi, fan doktorligi, o‘quv qo‘llanma, darslik, tanlangan asarlar, ilmiy-publitsistik ocherk, ijodiy portret, risola, monografiya – 29 soat.

Ilmiy asarning qolgan janrlari magistrlik, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari, o‘quv qo‘llanma, darslik, tanlangan asarlar, ilmiy-publitsistik ocherk, ijodiy portret, risola, monografiya va sh.k.)ni mustaqil o‘rganish tavsiya etiladi.

Ularning xususiyatlarini o‘rganishni fanning ilmiy tadqiqot natijalari (o‘quv qo‘llanma)dan boshlagan ma’qul. Chunki qo‘llanmada siz mustaqil o‘rganayotgan janrlarning dastlabki va eng asosiy xususiyatlari imkon qadar o‘rganilgan.

### **Ilmiy tadqiqot asoslari kursi**

#### **bo‘yicha ilmiy adabiyotlar:**

1. Каримов И. Истиклол ва мафкура, Т., 1994 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Тараққиёт йўлимизнинг муддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга мурожаатномаси”, Халқ сўзи. 2018, 29 декабрь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, Халқ сўзи. 2020, 24-январь.
4. Степин В.С. Методологический анализ науки... Минск, Наука и техника, 1985.
5. Майданов А.С. Искусство открытия: Методология и логика научного творчества, М., 1993.
6. Кравец А.С. Методология науки, Воронеж, 1993.
7. Шермухамедова. Фалсафа ва фан методологияси. Т., 2005.
8. Рузавин Г.И. Методология научного исследования, М., 1999.
9. Абдуллаев В. Сайланма, Т., 1982 й.
10. В начале творческого пути, М. 1986 г.
11. Валихужаев Б., Воҳидов Р. Эзгулик – умр мазмуни, Т., 1992 й.
12. Ваҳоб Раҳмон. Мумтоз сўз сехри, Т., “Ўзбекистон”, 2015.
13. Гершунский Б. С. Философия образования, М.1998 г.
14. Комилов Н. Маънолар оламига сафар, Т, “Тамаддун”, 2012

15. М. Мукаррамов. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили, Т., 1984 й.
16. Приходко П. Т. Тропой науки, М. 1969 г.
17. Ражабов Н. Мутахассисликка кириш, Т., 1991 й.
18. Регирер Е. И. Развитие способностей исследователя, М. 1969 г.
19. Солижонов Ё. Лирика латофати, наср назокати, Т, “Адабиёт учқунлари”, 2018.
20. Туйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси, Т. 1985 й.
21. Умутов Х. Қахрамоннинг маънавий олами ва эпиклик, Т., 1995 й.
22. Умутов Х. Илмий асар ва унинг жанрлари алифбоси, Самарқанд. 1997 й.
23. Умутов Х. Студентларни илмий-тадқиқот ишларига ўргатиш юзасидан методик тавсиялар. Самарқанд, 1980.
24. Умутов Х. Лекция назарияси ва методикаси, С., 1988 й.
25. Ўзбек-совет энциклопедияси, Т., 1978 й.
26. Федерико М. Келажак хотираси, Т., 1966 й.
27. Чўлпон. Яна олдим созимни, Т., 1991 й.
28. Шомақсудов А., И. Расулов ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси, Т., 1983 й.
29. Шукуров Н. Сўз сеҳри, шеър меҳри, Самарқанд, 1992 й.
30. Эркин Аъзам. Эрталабки ҳаёллар, “Ўзбекистон”, 2015.
31. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг, Т., 1990 й.
32. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур, Т. “Академнашр”, 2014.
33. Каримов Б. Рухият алифбоси. Т., Ғ. Ғулом номидаги нашр матбаа ижодий уйи, 2018.
34. Бахтин М. М. К методологии литературоведение. Литературно-теоретические исследование, М., 1975.
35. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати. Т. “Академнашр”, 2010.
36. Йулдошев Қ., Йулдошева М. Бадиий таҳлил асослари. Т. “Камалак”, 2016.
37. Умутова Г. Шоира Зулфиянинг бадиий олами. Т. “Навруз”, 2015.
38. Умутова Г. Зулфия ижодида адабий таъсир ва шоиранинг мактаби. Т. “Навруз”, 2015.

VI  
«ILMIY TADQIQOT ASOSLARI» BO'YICHA  
TEST VARIANTI

1) *Ta'limning nechta turi bor?*

A) *5ta*

V) *6ta*

S) *4ta*

D) *3ta*

Y) *7ta*

2) *Oliy ta'limning vazifasi nima?*

A) *Maktabgacha ta'lim uchun murabbiylar tayyorlash*

V) *Maktabdan tashqari ta'lim uchun tarbiyachilar tayyorlash*

S) *O'rta maktablar uchun o'qituvchi tayyorlash*

D) *Tadqiqotchilar tayyorlash*

Y) *Bakalavr va magistrLAR tayyorlash*

3) *«Ilmiy tadqiqot asoslari» fanining obyektini nimalardan iborat?*

A) *San'at va uning xususiyatlarini o'rganish*

V) *Tarixiy sharoit bilan uzviy birlikda olingan adabiy mahsulotlar*

S) *Ijtimoiy hayot hodisalari*

D) *Hayotiy chigalliklarni tekshirish*

Y) *Ilmiy tadqiqotga asos bo'lgan voqelik, fakt, hodisa, tafsilotni o'rganish*

4) *«Annotatsiya» so'zining ma'nosi nima?*

A) *Qisqacha ta'rif*

V) *Xarakteristika*

S) *Bilim*

D) *Informatsiya*

Y) *Xabar, ma'lumot*

5) *Annotatsiya janrida muayyan asar kimlarga mo'ljallanganligi aniqlanadimi?*

A) *Aniqlanmaydi*

V) *Bu savol ahamiyatli emas*

S) *Muayyan asarning sohasi aniqlanadi*

D) *Faqat muayyan asarga xarakteristika beriladi*

Y) *Albatta, aniqlanadi*

6) *«Ilmiy tadqiqot asoslari» fani bo'yicha qaysi qo'llanmalarni bilasiz?*

A) *Prixodko. Tropoy nauki*

V) *V nachale tvorcheskogo puti*

S) *N.Rajabov. Mutaxassislikka kirish*

D) *M.Mukarramov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili*

Ye) *H.Umurov. Ilmiy tadqiqot asoslari*

7) *«Maqola» so'zining ma'nosi nima?*

A) *Tahlil*

V) *Tadqiq*

S) *Xabar*

D) *Ilm*

Y) *Hajmi uncha katta bo'lmagan ilmiy asar*

8) *Maqola bajarayotgan vazifasiga qarab qanday xarakterlar kasb etadi?*

A) *Ilmiy xarakter kasb etadi*

V) *Publisistik kasb etadi*

S) *Nazariy kasb etadi*

D) *Obzor kasb etadi*

Y) *Publitsistik, problematik, nazariy, tanqidiy, ilmiy, metodik xarakter kasb etadi*



5) Annotatsiya janrida muayyan asar kimlarga mo'ljallanganligi aniqlanadimi?

A) Aniqlanmaydi

V) Bu savol ahamiyatli emas

S) Muayyan asarning sohasi aniqlanadi

D) Faqat muayyan asarga xarakteristika beriladi

Y) Albatta, aniqlanadi

6) «Ilmiy tadqiqot asoslari» fani bo'yicha qaysi qo'llanmalarni bilasiz?

A) Prixodko. Tropoy nauki

V) V nachale tvorcheskogo puti

S) N.Rajabov. Mutaxassislikka kirish

D) M.Mukarramov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili

Ye) H.Umurov. Ilmiy tadqiqot asoslari

7) «Maqola» so'zining ma'nosi nima?

A) Tahlil

V) Tadqiq

S) Xabar

D) Ilm

Y) Hajmi uncha katta bo'lmagan ilmiy asar

8) Maqola bajarayotgan vazifasiga qarab qanday xarakterlar kasb etadi?

A) Ilmiy xarakter kasb etadi

V) Publisistik kasb etadi

S) Nazariy kasb etadi

D) Obzor kasb etadi

Y) Publitsistik, problematik, nazariy, tanqidiy, ilmiy, metodik xarakter kasb etadi

9) *Ilmiy maqola klassik namunasining hajmi necha sahifa bo'ladi?*

A) 3-4 bet

V) 4-5 bet

S) 5-6 bet

D) 6-7 bet

Y) 7-9 bet

10) *Ilmiy maqolada muallifning ismi – sharifi, maqolaning nomi, o'quv yurti (ilmiy tashkilot yoki ishlab chiqarish korxonasi) nomlanishi qayd etiladimi?*

A) Qayd etilmaydi

V) Faqat muallif ismi-sharifi yoziladi

S) Ilmiy tashkilotning nomlanishi qayd qilinadi

D) Maqolaning nomi bo'lsa bas

Y) Savolda qo'yilgan barcha talablar qayd etiladi

11) *«Ilm» so'zi qaysi til atamasi va uning lug'aviy ma'nosi nima?*

A) Forscha so'z, bilim

V) O'zbekcha so'z, tajribalar yig'indisi

S) Turkcha so'z, ma'lumotlar

D) .....

Y) Arabcha so'z, kishining o'qish o'rganish va hayotiy tajribasi orqali orttirilgan bilimi

12) *«Ma'ruza» so'zining ma'nosi nima?*

A) Axborot

V) Hisobot

S) Ilmiy referat

D) Tezisning bir ko'rinishi

Y) Biror mavzuda ko'pchilik oldida so'zlangan nutq, doklad

13) *Ilmiy ma'ruza uchun qancha vaqt ajratiladi?*

A) 4-5 minut

- V) 5-6 minut
- S) 7-8 minut
- D) 9-10 minut
- Y) 10-15 minut

14) Ilmiy axborot nima?

- A) Hisobot
- V) Ma`ruza
- S) Mo`jaz maqola
- D) Ma`lumot
- Y) Muayyan sohadagi eng yangi yutuq va xulosalarning ilmiy daragi

15) Ilmiy axborot uchun qancha vaqt ajratiladi?

- A) 10-15 minut
- V) 10-2 minut
- S) 9-8 minut
- D) 11-12 minut
- Y) 5-7 minut

16) «Tezis» so`zining ma`nosi nima uning (mashinkada yozilgan) matn: hajmi qanchagacha bo`ladi?

- A) arabcha so`z, elga yoyaman, 5 betgacha
- V) forscha so`z, ma`lum qilaman, 4 betgacha
- S) ruscha so`z, axborot, 3 betgacha
- D) farangcha so`z, xabar beraman, 2 betgacha
- Y) grekcha so`z, tasdiqlayman, 1, 2 betgacha

17) «Taqriz» qaysi tilning atamasi va u qanday ma`nolarni beradi?

- A) O`zbekcha so`z, «asarni baholash»;
- V) Tojikcha so`z, «asarning qimmatini belgilash»;
- S) Forscha so`z, «asarni tahlil etish»;
- D) Forscha – tojikcha so`z, «asarning o`rnini aniqlash»;
- Y) Arabcha so`z, «bayon qilish, so`zlash, tasdiqlash» ma`nolarini beradi

18) Referatda yagona fikr hukmronlik qiladimi yoki fikrlar majmui beriladimi?

A) Fikrlar majmui beriladi

V) Kamida 5 ta fikr aytiladi

S) Har bir punktida bir fikr beriladi

D) Faqatgina tanqidiy fikr beriladi

Y) Yagona fikr hukmronlik qiladi va u to'liq isbot etiladi

19) OAK Nizomiga asosan avtoreferat hajmi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uchun qancha sahifa bo'lishi lozim?

A) 15-30 bet

V) 14 -28 bet

S) 13 - 26 bet

D) 24 - 48 bet

Y) Nomzodlik dissertatsiyasi uchun bir bosma toboq (16 sahifa), doktorlik dissertatsiyasi uchun ikki bosma toboq (32 sahifa) bo'lishi belgilangan

20) Malakaviy bitiruv ishida ko'chirmachilikka yo'l qo'yiladimi?

A) Yo'l qo'yiladi

V) Ko'chirmachilik 10 betdan oshmasligi kerak

S) Besh betgacha mumkin

D) Insof bilan ko'chirsa bo'ladi

Y) Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilmaydi

21) Magistrlik dissertatsiyasining umumiy hajmi 1,5 intervalda, 12 - shrifida necha bet bo'ladi?

A) 30 - 40 bet

V) 40 - 45 bet

S) 45 - 49 bet

D) 80 - 100 bet

Y) 50 - 75 bet



22) *Magistrlik dissertatsiyasining ilmiy rahbari taqrizida nimalar yoritiladi?*

**A) Dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi**

*V) Dissertatsiya mavzusining kafedra ilmiy yo'nalishiga bog'liqligi*

*S) Dissertatsion tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi*

*D) Tadqiqotchining ilmiy ishga qobiliyati va moyilligi bo'yicha tavsif va dissertatsiyaning magistrlik dissertatsiyasi talablariga muvofiqligi*

*Y) A, V, S, D javoblarining jami*

23) *Magistrlik dissertatsiyasi strukturasi qanday bo'ladi?*

*A) Sarvaraq ; mundarija ;*

*V) Kirish ; adabiyotlar sharhi va tahlili (masalaning holati);*

*S) Asosiy qism ; xulosalar*

*D) Takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati*

*Ye) A, V, S, D javoblarining izchil birligidan iborat bo'ladi*

24) *Magistrlik dissertatsiyasining kirish qismida nimalar beriladi?*

*A) Tadqiqot mavzusining dolzarbligi*

*V) Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari*

*S) Muammoning ishlab chiqilish darajasi va tadqiqotning ilmiy yangiligi*

*D) Tadqiqot predmeti, ob'ekti, amaliy ahamiyati*

*Ye) A, V, S, D javoblarining jami beriladi*

25) *«Dissertatsiya» so'zining ma'nosini bilasizmi? U qaysi tildan olingan?*

*A) Ilmiy ma'ruza, olmoncha so'z*

*V) Ilmiy hisobot, ruscha so'z*

*S) Ilmiy axborot, farangcha so'z*

*D) Muhokama yuritmoq, inglizcha so'z*

*Y) Muhokama qilish, tadqiqot, lotincha so'z*

27) Dissertant o'zga materialdan uning muallifi va manbaini ko'rsatmasdan foydalangan bo'lsa, dissertatsiya qaysi bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar, uni qayta himoya qilish huquqidan mahrum etilgan holda muhokamadan olib tashlanadimi?

A) Olib tashlanmaydi

V) Dissertatsiya himoya bosqichida bo'lsa, uni tuzatish mumkin

S) Qayta himoya qilishi mumkin

D) Dissertatsiya himoyadan o'tgach, uni OAK ka yuboraverish mumkin

Ye) Qaysi bosqichda bo'lishidan qat'iy nazar, uni qayta himoya qilish huquqidan mahrum etilgan holda muhokamadan olib tashlanadi

28) «Risola» so'zining ma'nosi nima va uning hajmi qancha bo'ladi?

A) Qo'llanma, 1 – 2 bosma toboq

V) Referat, 0,5 – 1 bosma toboq

S) Ilmiy kitob, 6 – 7 bosma toboq

D) Katta tezis, 7 – 8 bosma toboq

Ye) «Biror kasb va uning tartib qoidalariga oid nizom, traktat, kitobcha» ma'nolari bor, 2 – 5 bosma toboq

29) «Monografiya» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?

A) Ruscha, katta kitob

V) Inglizcha, dissertatsiya

S) Olmoncha, traktat

D) Farangcha, kasbga doir nizom

Ye) Grekcha, mono – bir va grafo – yozaman

30) «Darslik – biror fanga doir bilim asoslarini sistemali bayon etadigan, o'quvchi va talabalarga mo'ljallangan kitob» ta'rifini qaysi kitobda o'qigansiz?

A) H.Umurovning «Ilmiy tadqiqot asoslari»da

V) N.Rajabovning «Mutaxassislikka kirish»ida

S) B.Gershunskiyning «Filosofiya obrazovaniya» sida

D) M.Mukarramovning «Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy

stili»da

Ye) «O'zbek sovet ensiklopediyasi» da

31) Darslikdan o'quv qo'llanmaning farqi bormi?

A) Farqi yo'q

V) Ikkalasiniyam mazmuni bir

S) Darslik ko'proq nashr etiladi

D) O'quv qo'llanmaning qimmatini darslikdan past darajada bo'ladi

Y) O'quv qo'llanmada mustaqil o'rganishga tegishli yo'l-yo'riqlar, metodik maslahatlar beriladi; mavzuni yakunlash va mustahkamlashga ko'mak beradigan savollar, testlar, mustaqil ish uchun topshiriqlar, adabiyotlar beriladi

32) Olimlik «e'tiqodni mustahkamlash uchundir, ammo boylik orttirmoq uchun emas» fikri kimga tegishli?

A) A. Jomiyga

V) M. Sa'diyga

S) H. Olimjonga

D) Qori Niyoziyga

Y) A. Navoiyga

33) «Kim axborotga ega bo'lsa, u hamma narsaga ega» degan fikrni kim aytgan?

A) Federiko Mayor

V) Alisher Navoiy

S) Yusuf Xos Hojib

D) Kaykovus

Y) Bill Gejts

34) «Insonlar ikki qismdan iboratdir. Biri – olim, ikkinchisi o'rganuvchidir, bu ikki qismdan tashqarilar hech kimdir. Bundaylarda xayr yo'qdir». Ushbu mulo'hazani qayerda uchratgansiz?

A) «Ilmiy axborotnoma» jurnalida

- V) «Tafakkur» jurnalida
- S) H.Umurovning «Adabiy saboqlar»ida
- D) F.Mayorning «Kelajak xotirasi»da
- Y) Hadislarda

35) Talabalarning o'quv – tadqiqot ishlarini nomlang?

- A) Ilmiy ma`ruza, axborot, hisobot
- V) Tezis, taqriz, maqola
- S) Risola, magistrlik dissertatsiyasi
- D) Annotatsiya, ilmiy maqola, bosh maqola
- Y) Nazorat ishi, referat, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi

36) «Ilm sahroda do'st, hayot chorrahalarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg' uli onlarda madadkor, odamlar orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir». Ushbu fikr kimniki?

- A) Alisher Navoiyniki
- V) Federiko Mayorniki
- S) Yusuf Xos Hojibniki
- D) Ibn Sinoniki
- Y) Muhammad Alayhissalomniki

37) Metodologiya- qanaqa ta`limot?

- A) Ommaviy faoliyatni boshqarish ta`limoti
- V) Amaliy faoliyatning tizimi to`g` risidagi ta`limot
- S) Amaliy faoliyatni tashkil etish ta`limoti
- D) Nazariy faoliyat usullari tizimi ta`limoti
- Y) Nazariy va amaliy faoliyat to`g` risidagi ta`limot

38) "Metod" so`zining lug`aviy ma`nosini toping

- A) Nemischa so`z: usul, iz
- V) Ruscha so`z: tekshirish, izlash
- S) Ilmiy usul ma`nosini beradi



D) *Voqelikni amaliy o'zlashtirish ma'nosini beradi*

Y) *Yunoncha so'z: yo'l, tadqiqot, kuzatish*

39) *"Bolangga baliq yeyishni o'rgatsang, bir kun baliq yeysan, agar bolangga baliq ushlab, umrbod baliq yeysan"* hikmati qaysi xalqniki?

A) *Inglizlarniki*

V) *O'zbeklarniki*

S) *Qoraqalpoqlarniki*

D) *Ruslarniki*

Y) *Yaponlarniki*

40) *Elektron darslikning mo'ljallanishini bilasizmi?*

A) *O'quv materiallari axborotini berishga qaratilgan*

V) *O'quv materiallarini loyihalash, avtomatlashtirishga mo'ljallangan*

S) *Stereo nusxani berishga mo'ljallangan*

D) *O'quv materiallarini animatsiya shaklida berishga mo'ljallangan*

Y) *Kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, ilmiy ma'lumotlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan*

41) *"Ilhom tuyg'ularning shoir qalbidan toshishi, shoir hayolida tug'ilgan she'riy niyatning yetilishi va vujudni larzaga solishidir"*, fikri kimniki?

A) *O'.Hoshimovniki*

B) *A.Oripvovniki*

C) *P.Qodirovovniki*

D) *A.Qahhorovniki*

Y) *E.Vohidovovniki*

42) *Adabiyotshunoslikda ilhomning nechta darajasi borligi qayd etiladi?*

A) *bitta darajasi*

B) *uchta darajasi*

- S) to 'rtta darajasi
- D) beshta darajasi
- Y) ikkita darajasi

43) A. Qahhor talqinida ilhomning nechta asosi ko'rsatilgan?

- A) bitta. Xalq hayoti
- B) ikkita. Xalq hayoti. Xalqning qalbidagi haqiqat.
- S) uchta. Xalq hayoti. Xalqning qalbidagi haqiqat. Inson va voqelikning ruhini to'liq his etish
- D) beshta. Poklik. Soflik. Yaratuvchanlik. Tasirdorlik. Mahorat.
- Y) to 'rtta. Xalq hayoti. Xalqning qalbidagi haqiqat. Inson va voqelikning ruhini to'liq his etish. Ehtiros.

44) "U ko'rinar soydagi suvda,

Bir paridur, toza, osuda...

Qoyalardan uchar bemalol,

Qushlar ko'rsa, titrab qolar lol,-

Ishim bordir o'sha ohuda".

Ushbu band kimniki, uning qaysi nomdagi she'ridan olingan?

- A) E. Vohidovning "Ilhom" she'ridan
- B) A. Oripovning "Shoir" she'ridan
- C) A. Muxtorning "Sehr" she'ridan
- D) U. Azimning "Yurak she'ridan
- Y) H. Olimjonning "Ishim border o'sha ohuda" she'ridan

45. Narsa, hodisa va tabiat realiyalari Zulfiya she'rlarida nechta ma'noda o'qilishi mumkin?

- A) Bir ma'noda: ular o'z-o'zi haqida ham gapirishlari mumkin.
- V) Qo'llanilmaydi.
- S) uch ma'noda: ular o'z-o'zi haqida ham gapirishlari yoki lirik qahramonning kechinmalarini yorituvchi vosita bo'lib xizmat qiladi va ular o'z-o'zi haqida ham gapirishlari mumkin.
- D) uch ma'noda: narsa tavsifi, hodisa tavsifi va tabiat tavsifi

*Y)Ikki ma'noda: ular o'z-o'zi haqida ham gapirishlari yoki lirik qahramonning kechinmalarini yorituvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.*

*46. Ong "buyumlarning ongdagi kechinmalar oqimida o'zini namoyon qilish va tayin etish"dir. Bu kimning fikri?*

*A)E.Bertels*

*V)F.de Sossyur*

*S)Bertold*

*D)Gumbolt*

*Y) E.Gusserlg*

*47. Tashqi realiyalar Zulfiya ijodida nimalarda namoyon bo'ladi?*

*A)ong va tabiat in'ikosi*

*V) makon va zamon tavsifi*

*S)ichki kechinmalarda*

*D)emotsional holatlarda*

*Y) Ob'ekt va uni qabul qilayotgan lirik ong*

*48. Poetik maktab deganda nimani tushunasiz?*

*A)ma'lum ijodkor yaratgan maktab*

*V)mumtoz she'riyatda ustoz shogirdlik an'anasi*

*S)badiiy-ijodiy maktab*

*D)shoirilar davrasi*

*Y)tarixan shakllangan ma'lum badiiy prinsiplar tizimi*

*49.Poetik olam bu –*

*A)mikrotekst*

*V)makrotekst*

*S)kontekst*

*D)she'riyat bilan bog'liqlik*

*Y)poetik matn bilan bog'lanishda bo'lgan lisoniy borliq*

*50) Motiv deganda nimani tushunasiz?*

*A) asar markazi*

*B)asar g'oyasi*

*S)asarning bosh qahramoni*

*D)asardagi kechinmalar tasviri*

*Y)asarning muhim ahamiyatga ega semantik jihatdan mazmunga boy komponentdir*

51) *“She’riyat – eng kam so‘z bilan ifodalash san’atidir” fikri kimga mansub?*

*A)Zulfiya*

*B)S.Yesenin*

*S)A.Oripov*

*D)E.Voxidov*

*Y) M.Tsvetaeva*

52. *San’atning asosi nima?*

*A)Tabiat*

*B)Obrazlilik*

*S)Obraz*

*D)Inson*

*Y) Hayot*

53. *Qaysi paytda badiiy asarda ortiqcha detal, predmet, voqea, personaj bo‘lmaydi?*

*A)Obrazlar yagona sistemaga birlashganda*

*B)Kompozitsion markaz uyushtiruvchi rolini o‘ynaganda*

*S)Asar qismlari asosli joylashtirilganda*

*D) Kompozitsion vositalar keng qo‘llanganda*

*Y)Detal, predmet, voqea, personaj yozuvchining g‘oyaviy-badiiy niyatini yechishga xizmat qilganda*

***Ushbu testlar talabalar tomonidan mustaqil ishlab chiqiladi. Javoblarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini test kalitiga (har bir testning «Y»sida to‘g‘ri javob joylashgan) solishtiradi; bilimini mustahkamlaydi.***



## VII

### UNUT BO'LMAYDIGAN DONO O'GITLAR

- *Alloh sizlardan iymon keltirganlarni, xususan, ilmga berilganlarni darajalariga ko'tarur.*

*(Mujodala surasi, 11-oyat)*

- *Iymonsiz ilm, ilmsiz iymon bo'lmaydi.*

*Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf*

- *Olimlar qalami shahid qonidan muqaddas.*

*Hadis*

- *Haqiqiy olim shunday kishiki, uning so'zi, o'yi, fikri va ishi bir xil bo'ladi.*

*"Otalar so'zi"*

- *Ilm shunday bir narsaki, sen unga butun borlig' ingni fido qilmasang, uning yarmini ham ololmaysan.*

*Hazrati Imom Abu Yusuf r.a.*

- *Bilim, faqat bilimgina insonni ozod va ulug' vor qiladi.*

*D.I. Pisarev*

- *Bilim – barcha kulfatlarga qalqon.*

*A. Rudakiy*

- *Inson bilimga intiladi va qachonki unda bilimga tashnalik so'nlsa, u insoniylikdan mahrum bo'ladi.*

*F. Nansen*

- *Har qanday bilim bizni g'ayratga undagan taqdidragina qimmatlidir.*

*I. Yetves*

- *Eng zarur bilimni qunt bilan o'rgan,  
Zarur bo'lmaganin axtarib yurma.  
Zarurini hosil qilgandan keyin  
Unga amal qilmay umr o'tkazma.*

*A. Jomiy*

- Yigitlikda yig' ilmning maxzani  
Qarilig' chog' i xarj qilg' il ani.

A. Navoiy

- Ma'naviy hayotda ham amaliy hayotdagidek, kimki bilimga tayansagina to'xtovsiz kamol topadi va yutuqlarga erishaveradi.

U. Jeyms

- Ilm o'qib, unga amal qilmagan—yerni haydab, urug' sepmaganga yoki urug' sepib, hosildan bahra olmaganga o'xshaydi.

A. Navoiy

- Fanning vazifasi- odamlarga xizmat.

L. Tolstoy

- Fan xalqqa suv- havodek zarur. Uni taraqqiy ettirmagan mamlakat, shubhasiz, mustamlakaga aylanadi.

F. Jolio-Kyuri

- Fanga muhabbat haqiqatga muhabbat degan gap, shu boisdan ham halollik olim fazilatining asosi sanaladi.

L. Feyerbax

- Fan hamisha kashf etilganlarni bilishdangina iborat emas, kashf etish hamdir.

N. A. Rubakin

- Haqiqiy olim kamtar bo'lmay iloji yo'q, chunki u qanchalar ko'p ish qilgani sayin, hali shuncha ishlar bajarilmay yotganini ham yaqqol ko'ra oladi.

A. Frans

- Haqiqiy olimlar bug' doyzordagi boshloqlarga o'xshaydi. Hali boshloq to'lishmay turib, nash'u namo bilan o'sadi va yuqoriga mag' rur bo'y cho'zadi, ammo u ko'pchib, donga to'lishib, pishib yetilgani sari yuvosh tortib, boshini quyi egadi.

M. Monten

- Bilmaganni so'rab o'rgangan - olim; orlanib so'ramagan - o'ziga zolim. Oz-oz o'rganib—dono bo'lur; qatra-qatra yig'ilib - daryo bo'lur.O'rganishdan qochgan - dangasa; o'rganishdan

*qochish uchun yuziga vaj – bahona eshigini ochgan – ishyoqmas;  
zahmat chekib ilm o'rgangan – donishmand.*

*A . Navoiy*

*- Agar siz bilimdon bo'lsangiz, bering bilimingizni, boshqalar  
ham undan o'z shamchiroqlarini yondirib olishsin.*

*T. Fuller*

*-Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi.*

*I. Gyote*

*- Kimki oz bilsa, ozga o'rgatadi.*

*Ya. Komenskiy*

*- Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan  
adashish bo'ladi.*

*Sh. Mirziyoyev*

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
<b>Birinchi fasl: Ilm va O'zlik</b>	
1. Ta'limdagi inqilob va ilmiy tadqiqotchilikning zarurligi.....	6
Kompyuter texnologiyasini egallash- hayotiy vazifa.....	10
3. Ilm - o'zlikni anglash va anglatishga yetaklovchi nur.....	11
4.1. Ilmga kirish yo'li.....	17
4.2. Mavzu va rahbar tanlash.....	27
<b>Ikkinchi fasl: Ilmiy tadqiqot bosqichlari va janrlari</b>	
Ilmiy tadqiqot bosqichlari .....	38
Ilmiy asarning asosiy xususiyatlari.....	40
1) Ilmiy asar janrlari. Maqola.....	44
2) Annotatsiya.....	48
3) Ilmiy ma'ruza.....	50
4) Ilmiy axborot.....	51
5) Ilmiy hisobot.....	52
6) Tezis.....	53
7) Taqriz.....	55
8) Referat.....	56
9) Bitiruv malakaviy ishi.....	60
10) Magistrlik dissertatsiyasi.....	63
11) Avtoreferat.....	68
12) Doktorlik dissertatsiyalari.....	69
13) Risola yoki broshyura.....	71
14) Monografiya.....	72
15) Darslik.....	73
16) Elektron darslik.....	74
17) O'quv qo'llanma.....	75
18) Uslubiy qo'llanma.....	76
19) Elektron uslubiy qo'llanma.....	77
20) Lug'at. Izohli lug'at.....	77
21) Ilmiy tanlangan asarlar.....	78
<b>Uchinchi fasl: Ilmiy filologik tahlil</b>	
Filologik tahlil.....	83
Taqrizlar namunasi.....	83
Maqolalar namunasi.....	89
Risolalar namunasi.....	107
Xulosa.....	166
<b>Ilovalar:</b>	
1. Talabalarning o'quv-tadqiqot ishlari.....	168
2. Bakalavr va magistrning ilmiy-tadqiqot ishlari.....	169
3. Ilmiy tadqiqot ishlarini hayotga tatbiq etish yo'llari.....	170
4. «Ilmiy tadqiqot asoslari» kursi dasturi.....	171
5. «Ilmiy tadqiqot asoslari» bo'yicha test varianti.....	179
6. Unut bo'lmaydigan dono o'gitlar.....	192



*Hotam Umurov*

**Ilmiy tadqiqot asoslari**

Darslik

Muharrir  
Musahhih  
Texnik muharrir


J. Bozороva  
L. Xoshimov  
N. Isroilov

**ISBN – 978-9943-6300-5-5**

2020 yil 30 yanvarda tahririy-nashriyot bo'limiga qabul qilindi.  
2020 yil 6 fevralda original-maketdan bosishga ruxsat etildi.  
Qog'oz bichimi 60x84<sub>1/16</sub>. "Times new roman" garniturası.  
Offset qog'ozı. Shartlı bosma tabog'i – 12,25.  
Adadı 100 nusxa. Buyurtma № 02/2.

---

SamDU tahririy-nashriyot bo'limida chop etildi.  
140104, Samarqand sh., Universitet



ISBN 978-9943-6300-5-5



9 789943 630055